

Jumayeva Gulrux

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

JUMAYEVA GULRUX JO'RAQULOVNA

**IQTISODIY TAHLIL
VA AUDIT**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida foydalanishga
tavsiya qilingan*

**QARSHI
«INTELLEKT» NASHRIYOTI
2021**

UDK 657(075)

BBK 65.053ya7

J--15

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

Iqtisodiy tahlil va audit. G.X.Jumayeva. O'quv qo'llanma/ Qarshi:
«Intellekt» nashriyoti. – Qarshi: 2021 yil, –337 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma oily o'quv yurtarining 5230100-“Iqtisodiyot (real sektor)”, 5230200-“Menejment (real sektor)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o'quv qo'llanma bugungi zamonaviy iqtisodiyotning talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlangan va oliv ta’lim muassasalarida iqtisodiyot sohasida bilimli, raqobatbardosh, yetuk kadrlarni tayyorlashda xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini chuqur iqtisodiy tahlil qilish va audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga bag‘ishlangan. Mazkur o'quv qo'llanmada xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil va auditning nazariy, uslubiy va me’yoriy-huquqiy asoslari, amaliy jihatlari bugungi kunda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar asosida bayon qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan nafaqat oliv ta’lim muassasalarining “Iqtisodiyot”, “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari, balki, magistrantlar, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari, soha mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

UDK 657(075)

BBK 65.053ya7

Taqrizchilar:

Yakubova Sh.Sh. – i.f.n., dotsent.

Quchqorov G.F. – i.f.n., dotsent.

Ergasheva Z.E. – Auditorlik tashkiloti bosh direktori.

ISBN 978 – 9943 – 7673 – 9 – 3

© G.X.Jumayeva, 2021
© «Intellekt» nashriyoti, 2021

K I R I SH

Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va zamonaviy iqtisodiyot asoslarini yaratishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish salohiyatidan hamda imkoniyatlardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va moliyaviy resurslarning barcha turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni samarali boshqarish alohida ahamiyatga ega. Bunday muhim vazifalarni bajarishda korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur iqtisodiy tahlil qilish va audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy tahlil va audit korxonalarini boshqarish tizimida asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "So'nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat"¹.

Shu sababli ham bugungi kunda makroiqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lган korxona va tashkilotlarni samarali boshqarish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Bu vazifalarning ijrosini ta'minlashda iqtisodiy tahlil va audit jarayonlarini sifatli hamda samarali tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy tahlil iqtisodiy fanlar tizimida korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini baholash, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ta'sirini hisoblash, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni axtarib topish yo'llarini o'rgatsa, audit esa korxona moliya-xo'jalik faoliyatining amaldagi qonunchilikka mos ravishda tashkil etilganligi, hisob-kitob tizimining to'g'riliгини tekshirish, tasdiqlash, turli auditorlik professional xizmatlarining tarkibi ba ulardan foydalanish tartiblarini o'rgatadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda audit xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy axborotlaridan foydalanuvchilari ehtiyojini ta'minlaydigan, uning to'g'riliгини tasdiqlaydigan shaklda mustaqil moliyaviy nazoratning yangi instituti sifatida

¹ <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>.

shakllangan bo'lsada, bugungi kunda mamlakatimizda audit keng qo'llanilmoqda va u tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, milliy iqtisodiyotimizda auditorlik faoliyati xalqaro standartlarni hisobga olingan holda, auditning qonunchilik va boshqa me'yoriy bazasi yaratilmoqda, uni amalga oshirish usullari takomillashtirilib borilmoqda. Aynan, 2021 yil 25 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining maqsadi auditorlik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni unifikatsiyalab va tizimlashtirib yagona normativ-hujjatga jamlashga qaratilgan. Ushbu qonunga ko'ra, auditorlik faoliyati audit, sifat nazorati, tahliliy tekshiruvlar, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari asosida amalga oshiriladi. Shu sababli ham oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot sohasida tahsil olayotgan talabalarga "Iqtisodiy tahlil va audit" fanini sohadagi yangiliklar asosida o'rgatish va ushbu yo'nalishda o'quv adabiyotlarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida oliy ta'lim qamrovi va sifatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil va audit jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

"Iqtisodiy tahlil va audit" fani 5230100-“Iqtisodiyot”, 5230200-“Menejment” (real sektor) ta'lim yo'nalishlarida umumkasbiy fanlar tarkibiga kiradi va mazkur fan yo'nalish fanlarining nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi ixtisoslik fanlari uchun zamin yaratadi.

Mazkur o'quv qo'llanma zamонавији iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil etishning nazariy asoslarini, tahlil jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarini, tahlil ishlarini tashkil etish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartiblarini, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan chuqur tanishtirib, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish, auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lган bilimlar bilan

ta'minlashda o'quv-uslubiy manba hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlil va auditning nazariy, uslubiy va me'yoriy-huquqiy asoslari bugungi kunda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ijrosi va amaliy jihatlari bayon qilingan. Ushbu o'quv qo'llanma modulli o'qitishga mo'ljallangan fan dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni ochib berilgan. Mazkur o'quv qo'llanma to'rtta modul bo'yicha nazariy, uslubiy, me'yoriy-huquqiy asoslar (1-modulda iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari, 2-modulda iqtisodiy tahlilni tashkil qilish, 3-modulda auditning nazariy asoslari, 4-modulda auditorlik tekshiruvini o'tkazish va uni rasmiylashtirish) bo'yicha mavzular bayon qilingan. O'quv qo'llanmada fan dasturida ko'rsatilgan barcha mavzularning asosiy mazmuni yoritilgan bo'lib, har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadi va unga mos ravishda har bir mavzuning bayoni, mavzuni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha nazorat savollari, glossariy, ilovalar keltirilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan nafaqat oliv ta'lim muassasalarining "Iqtisodiyot", "Menejment" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, balki, magistrantlar, kasbhunar kolleji o'quvchilari, soha mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

1-MODUL. IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT FANINING NAZARIY ASOSLARI

1-BOB. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

O'quv maqsadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevninig 2021 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidan o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, iqtisodiy tahlil fanining paydo bo'lish zarurati va uning sabablari, iqtisodiy tahlil fanining mazmuni va boshqaruvning muhim funksiyasi ekanligi, iqtisodiy tahlil fanining predmeti, vazifalari, fanlar tizimida tutgan o'rni, asosiy prinsiplarining nazariy asoslarni o'rghanishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *analiz, sintez, bilish, nazariya, iqtisod, tahlil, tasavvur, tafakkur, amaliyot, ko'rsatkich.*

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevninig 2021 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish jarayonlarida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Iqtisodiyotni globallashuvi, integratsion jarayonlar, innovatsion jadallik va kuchli raqobat muhitidagi talablar hisob-kitoblarga oid fanlar tizimini ham zamonaviy biznes qoidalariga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda. Negaki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo, aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi².

Xususan, iqtisodiy tahlil fani iqtisodiy fanlar tizimida o'zining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Chunki, iqtisodiy tahlil bilish nazariyasining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi va makroiqtisodiyorning asosiy bo'g'ini bo'lган korxona va tashkilotlarda iqtisodiy samaradorlik darajasini


²Raximov M.Yu. Iqtisodiyot sub'yektlari moliyaviy holatining tahlili.-T.: Moliya-iqtisod, 2015.-316 b.

baholash hamda uni oshirish yo'llarini axtarib topishga mo'ljallangan fan hisoblanadi. Tahlillardan ko'rindiki, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlar qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasida ta'kidlanganganidek, "Tarkibiy islohotlarning yana bir yo'naliishi bu – davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir."³

Xorijiy mamlakatlardan Norvegiyaning real iqtisodiy amaliyoti o'rganilganda, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar tahliliga muvofiq quyidagi xulosaga keltingan: davlat firmalariga ko'ra, xususiy firmalar mehnat unumdorligi darajasi, barcha mezonlar bo'yicha samaraliroq ekanligi o'z tasdig'ini topgan.

Davlat korxonalarining samarasizligi muammosi umumiyligi dunyo trendi hisoblanadi. Ko'pgina iqtisodchilar, jumladan, Dj.Stiglits (Nobel mukofoti sovrindori, 2001 yil), A.Shleyfer, R.Vishnilar ham davlat ishtirokidagi korxonalar xususiy kompaniyalarga nisbatan samaradorligi ancha past ekanligini ta'kidlashadi. Shuning uchun davlat kompaniyalari faoliyatini cheklash lozimligi uqtiriladi.



1.1-rasm. Davlat ulushi bor korxonalarining mulkchilik shakllari bo'yicha korxonalar soni (2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra)⁴

³ Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr.kunida Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 30 dekabr.

⁴ Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash. Risola/Mualliflar jamoasi: – Toshkent, 2021 y. 48-b.

Agar 1.1-rasm ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mulkchilik shakllari bo'yicha davlat ulushi bor korxonalar soni 2727 tani, ulardan: davlat korxonalari 1418 tani, aksiyadorlik jamiyatlari soni 1046 tani, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni esa 263 tani tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish mamlakatimizda tarkibiy islohotlarning alohida muhim yo'nalishi sifatida belgilab olingan va bu yo'nalishda bir qator e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2016 yil 17 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ulushi ustuvor bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2635-sonli qarori asosida bu boradagi ishlarning birinchi qadami qo'yilgan edi.

Ushbu qarorga ko'ra, oddiy aksiyalari to'liq holda davlatga tegishli bo'lgan strategik ahamiyatga ega aksiyadorlik jamiyatlari sifatida quyidagilar belgilandi: "O'zbekneftgaz" MXK, "O'zbekenergo" AJ, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "O'zbekiston havo yo'llari" AJ, "O'zbektelekom" AJ, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq kon metallurgiya kombinati" AJ va "Xalq banki" ATB.

Bunda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasi va "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktabrda qabul qilingan "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmoni asosida ishlar boshlab yuborilgan. Murojaatnomada ta'kidlanganidek⁵, davlat aktivlarini ochiq-oshkora va samarali

⁵ Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kunida Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 30 dekabr.

sotish uchun xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilarni jalg etgan holda qator korxonalarini xususiy lashtirishga oid keng qamrovli ishlar istiqbolda xususiy sektor taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu esa xususiy sektorda foydaga intilish va manfaatdorlikning yuqoriligi bois, bandlik va aholi daromadlarining o'sishi demakdir.

Murojaatnomada belgilangan davlat ulushi bo'lgan korxonalar sonining kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartirilishi vazifasining amalga oshirilishi, avvalo, bozor iqtisodiyotining muhim qonuniyati hisoblangan raqobatning rivojlanishiga va monopolianing chegaralanishiga xizmat qiladi. Bu borada raqobat mavjud bo'lgan sohalarda faoliyat yuritayotgan "Farg'onaaazot" va "Dehqonobod kaliy" zavodlari, "Koka-kola ichimligi" korxonasi, "Beldersay" va "Chorvoq" oromgohlari, "Ichan qal'a" va "Hyatt Regency" mehmonxonalarini, "Poytaxt" biznes majmuasi, alkogol, yog'-moy kabi tarmoqlardagi 83 ta yirik korxonadagi davlat ulushi sotuvga qo'yilayotganligi xususiy sektoring keng ko'lamli rivojini ta'minlaydi. Bunday ustuvor vazifalarning ijrosi hamda natijalarini doimiy o'rganib borish hamda baholab borishda iqtisodiy tahlil fanining oldiga ulkan vazifalar qoyilmoqda. Ushbu vazifalarni hal qilishda bo'lg'usi iqtisodchi, menejerlarga iqtisodiy tahlil fanining shakllanish zarurati, fanning maqsad, vazifalari, fanning predmeti va tamoyillari, iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar, iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish, korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari, korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilish kabi mavzularni mukammal o'zlashtirishlari talab qilinadi.

1.2. Iqtisodiy tahlil fanini paydo bo'lish zarurati va uning sabablari

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan davlatning iqtisodiyotdagि ishtirokini optimallashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi xorijiy investorlarning qiziqishi ortishiga olib keldi.

Aynan bunday masalaning qo'yilishi, birinchidan, milliy iqtisodiyotda

zamonaviy ko'inishdagi bozor iqtisodiyotini barpo etish, asta-sekinlik bilan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarining xususiy sherikchilik asosida faoliyatini yo'lga qo'yish va iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan davlat korxonalarini xususiy lashtirish bosqichlarini amalgalashirish va shu orqali mulklarni haqiqiy egalariga topshirish hamda ularning taraqqiyoti uchun munosib shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Shuningdek, jahon amaliyotidan ma'lumki, kichik biznes iqtisodiyotning lokal tarmoqlaridan sanaladi. Aynan mana shu sektorning rivojlanishi ko'plab mamlakatlarning taraqqiyoti uchun xizmat qilishi barobarida, ularning iqtisodiy muammolarini hal qilishga, aholi turmush farovonligining oshishiga olib kelgan. Shu nuqtai-nazardan ham bugungi kunda iqtisodiy tahlil fanining o'rni, ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar iqtisodiyot subeklari faoliyatini uzluksiz ilmiy asosda doimiy tahlil qilib borishni taqazo etmoqda. Chunki, iqtisodiy tahlil iqisodiyot subektlarining barcha sohalarda erishgan natijalarini baholash, unga ta'sir etuvchi omilar ta'sirini o'lhash, foydalanimayotgan ichki imkoniyatlarni axtarib topish va kelgusida amalgalashirishi zarur bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Ma'lumki, iqtisodiy tahlil iqtisodiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, fanning shakllanishi hayotiy zaruriyatga asoslanadi va obektiv jarayonlarga tayanadi.

Iqtisodiy tahlil fani ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan, bu uchun esa ob'yektiv shart-sharoitlar yaratilgan. Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rGANISH, buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga tahliliy izoh berishni talab qilinishi o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun ob'yektiv asos bo'lgan. M.Q.Pardayevning "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" nomli darsligida fanning shakllanish tarixi bat afsil bayon qilingan bo'lib, fanga dastlab Italiya buxgalterlar maktabining buyuk namayondasi Luka Pacholi tomonidan asos solingan. Dastlab iqtisodiy tahlil

buxgalteriya balansini o'qishga bag'ishlangan. Zero, professor M.Q.Pardayevning "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" darsligida ta'kidlanganidek⁶, 1883 yilda A.V.Prokofevning "Ikki yoqlama buxgalteriya kursi" asari chop etilgan. Ammo, bunda maxsus tahlilga bag'ishlangan bo'lim yo'q bo'lsada, biroq balans ko'rsatkichlari faqat nazorat qilish uchun emas, balki tahlil qilish uchun ham kerakligi ta'kidlangan.

Iqtisodiy tahlilning shakllanish tarixini o'rganishda, 1917 yilga qadar nashr qilingan R. Y. Veysmanning "Hisobshunoslik kursi" kitobini kiritish mumkin. Bu kitobda balans talqiniga bag'ishlangan maxsus qism bo'lib, unda ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Bu kitobda muallif balansning aktiv va passiv qismlaridagi moddalariga izoh berib, ularning real va haqiqiy ekanligini isbotlashga erishgan. Aynan ushbu asarda birinchi marta «Balans-netto» tushunchasi qayd etilgan.

I. S. Arinushkinning "Aksioner korxona balansi" kitobi 1912 yilda chop etilgan bo'lib, bu asar faqat balans moddalarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Unda balansning tuzilish tartibi, moddalarni baholash yo'llari, xo'jalik faoliyatini yaxshilash usullari yoritilgan. Shunday qilib XX asr boshlarida xo'jalik faoliyatini, jumladan buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari vujudga keladi, ammo tahlil fani hali mustaqil fan sifatida shakllanmaydi. Shu tufayli tahlil fani eng avvalo buxgalteriya hisobi fanining bir qismi, ya'ni bo'limi sifatida shakllangan.

Ma'lumki, ishlab chiqarish taraqqiyoti nafaqat yuksalish cho'qqilarini, balki inqirozlar va tarmoq ichida hamda tarmoqlararo raqobatlarni ham vujudga keltiradi. Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi "tijorat siri" muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan ham iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish bosqichlarida keyinchalik faqat buxgalteriya balansi ma'lumotlarini emas balki "foyda va zararlar"ga bag'ishlangan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar tahlili ham amalga oshirilgan va iqtisodiy tahlilning ko'lami kengayib "Hisobot tahlili" nomi ostida fan rivojlanib borgan.

⁶ Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik/S.: Zarafshon, 2001. 30 bet.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinadiki, xo’jalik faoliyatini tahlil qilish fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o’ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo’lganki, ularni 1-rasmda ko’rish mumkin.

Iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonlaridagi nomlanishi

| |
|---------------------------------------|
| BALANSSHUNOSLIK |
| BALANS TALQINI |
| BALANSNI TAHLIL OILISH |
| HISOBOT TAHLLILI |
| MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI |
| HISOBOT TAHLILI |
| IOTISODIY TAHLIL |
| IJTIMOIY-IOTISODIY TAHLILI |
| XO’JALIK FAOLIYAI TAHLILI |
| IOTISODIY TAHLIL |
| MOLIYAVIY TAHLIL |

1-rasm. Iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonlarida nomlanishi.

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixi, bu boyicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fani vujudga kelguncha bir qancha evolyutsion yo’lni bosib o’tgan va mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o’ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo’lgan. Bugungi kunda fanning nomi “Moliyaviy tahlil” deb nomlanishi aynan bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelishi bilan bir qatorda, milliy hisobchilik tizimini xalqaro andozalar asosida tashkil etishda o’zining ijebiy ta’sirini ko’rsatmoqadi.

1.3. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni

Iqtisodiy tahlil fanining mazmunini yoritishda, fan sifatida uning oldida qo'yilgan vazifalar hamda tashkil etish tartiblariga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, bugungi kunda iqtisodiy tahlilning mazmuni tubdan takomillashib bormoqda. Xususan, milliy iqtisodiyotimizda iqtisodiy tahlil xalqaro andozalarga hamda bozor talablariga mos holda ikki yo'naliishda, ya'ni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlil yo'naliishlarida tashkil etilmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiy tahlil bilish nazariyasining usuli sifatida o'rganilayotgan ob'yeckning barcha uslubiy asoslangan qatlamlarini o'rganish, ta'riflash, bilishning mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Insoniyat faoliyati ko'p qirrali bo'lib, bu faoliyat iqtisodiyot, fan, san'at va boshqa ko'p sohalarni qamrab oladi. Ammo, iqtisodiyot inson faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Chunki, nafaqat insonga munosib turmush tarzini yaratish masalalari, balki iqtisodiyotning bosh masalasini hal etish, ya'ni cheklangan resurslardan samarali foydalanish yo'llarini axtarib topish orqali, cheksizlikka intiluvchi ehtiyojlarni to'la-to'kis qondirish muammosi ham iqtisodiy tahlilning paydo bo'lishida hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Demak, iqtisodiyotni tahlil qilish bugungi kunda ham juda katta nazariy ma'no va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tahlil–bu bilishning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy voqealarni, xo'jalik muomalalarini bilishda uzviylikdagi quyidagi uch bosqichdan o'tadi, ya'ni o'rganilayotgan ob'yeckni jonli anglash (tasavvur qilish), abstrakt fikrlash (mantiqiy tafakkur qilish) va boyitilgan holda amaliyotga qaytish.

Jonli anglash korxona va tashkilotlarning hozirgi xo'jalik faoliyatiga qiyos qilinganda juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu nafaqat xo'jalik faoliyatini bevosita oddiy ma'noda kuzatish, balki doimiy kengayib boruvchi iqtisodiy axborotlar orqali o'rganib, tushunib borish va baholashdan iborat. Ilmiy asosda ko'rilgan jonli anglash o'rganiladigan voqealarni chuqur o'rganish va miqdoriy o'lchash imkoniyatini yaratadiki, unda iqtisodiy axborotlar tuzilishiga bilishning ikkinchi bosqichiga taalluqli bo'lgan talablar ham joylashtirilgan bo'ladi. Xususan,

axborotlar tizimini dasturlash, ma'lum abstrakt fikrlash xulosalaridan kelib chiqadi. Xuddi shu yerda dialektik birlik namayon bo'ladiki, bunda tahlil jarayonlarining bиринчи va иккинчи bosqichlarini o'zaro dialektik bog'lanishi, ya'ni jonli anglash va abstrakt tafakkurning bog'lanishi bosqichlarning biridan ikkinchisiga o'tishi kuzatiladi.

Abstrakt fikrlash ob'yekiv axborot ma'lumotlariga asoslangan holda o'rganilayotgan voqealarni chuqur ma'nosini ochadi, ularning rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlaydi. Bularning hammasi umumlashgan xulosalarga kelish imkonini yaratadi hamda ular asosida aniq amaliy takliflar tayyorlanadi va ular iqtisodiyotni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai-nazardan ham bilish nazariyasidagi tadqiqotlar jarayoni, ya'ni iqtisodiy voqealarni bilish, tadqiq etish va o'rganish tahlil (analiz) hamda sintez usullaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, tahlil – o'rganilayotgan ob'yektni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib o'rgansa, sintez – esa ana shu o'rganilgan xulosalarni va fikrlarni jamlaydi, umumlashtiradi. Tahlil va sintez birgalikda amalga oshirilgandagina tahlil natijalaridan foydalanuvchini eng kuchli bilish vositasi bilan qurollantirish mumkin bo'ladi.

Zero, iqtisodiy tahlilning fan sifatida taraqqiy etib rivojlanib borishining asosiy sabablaridan biri turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod, bozor mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi iqtisodiyotning asosiy sub'yektlari bo'lgan korxona va tashkilotlar, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar, bu esa albatta sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni, ya'ni iqtisodiy tahlil qilishni taqazo etadi. Shu jihatdan ham korxona (firma) xo'jalik faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

1.4. Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funksiyasi ekanligi

Iqtisodiy tahlilning asosiy funksiyasi korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatini iqtisodiy qonunlardan foydalangan holda o'rganish, natijaviy ko'rsatkichlarining holatiga baho berish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash, foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni axtarib topish, ularni amaliyotga joriy etish boyicha takif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti davrida mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish eng avvalo tuzilmada boshqaruv rolini oshirishdan boshlanadi. Chunki, boshqaruv vositasida korxona o'z oldidagi vazifalarni hal qiladi va qo'yilgan maqsadga erisha boradi. Shu sababli ham iqtisodiy tahlilni fan sifatida rivojlantirib borishning asosiy sabablaridan biri, bu iqtisodiy tahlilni boshqarishning asosiy vazifasidan biri sifatida tan olinganligidir. Chunki, iqtisodiy tahlilda boshqarish uchun tegishli axborotlar tayyorланади va boshqaruv sub'yektlariga yetkazib beriladi. Binobarin, iqtisodiy tahlil jarayonlarida quyidagi asosiy vazifalar bajariladi:

1. O'r ganilayotgan ob'yekt haqida bat afsil axborotlarni to`plash, qayta ish lash va tahlilga tayyorlash.
2. Ob'yektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida takliflar ishlab chiqish.
3. Samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilning o'z vaqtida hamda tezkor tarzda o'tkazilganligiga ko`p jihatdan bog`liq. Bu yerda asosiy vazifa aynan shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda bog`liqlikda olib borish hisoblanadi. Iqtisodiyot sohalarini barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish potentsialidan (salohiyatidan, imkoniyatidan) oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishni bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarining ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini

chuqur tahlil qilish darkor. Iqtisodiy tahlil korxonalarini boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Bu jarayonni ushbu formula orqali ifoda etish mumkin:

I → A → Q → T I₁ → A₁ → Q₁ → T₁ → ...

Bu yerda:

I - informatsiya (axborot) bo`lib, uni buxgalteriya hisobi va hisobot, operativ (tezkor) hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot, biznes-reja hamda hisobdan tashqari ma'lumotlar;

A - tahliliy bosqich;

Q - tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish;

T - qarorlarni ishlab chiqish yo`nalishlarida tadbiq etish;

I₁ - bajarilmagan qarorlar;

A₁ - qayta tahlil qilish;

Q₁ – qayta tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish;

T₁ - qayta qarorlarni ishlab chiqish yo`nalishlarida tadbiq etish.

Bugungi kunda korxonalar oldida juda keng imkoniyatlar ochilmoqda. Nafaqat xo`jalik yurituvchi subyektlar jamoasi, mulk egalari, investorlar, balki butun bir davlatlar va jamoatchilik tizimi ham boshqaruvdagagi o`zgarish va rivojlanishdan manfaatdordirlar. Xususan, ushbu masala zamonaviy boshqaruvga tegishli bo`lib, xorijiy manbalarda ham alohida e`tirof etilgan.

Zamonaviy boshqaruvni:⁷

- yaqin va uzoq davriylikni qamrab olgan – rejalshtirish;
- mulk egalari va maqsadli foydalanuvchilarni moliyaviy va boshqa axborotlar bilan ta'minlovchi – buxgalteriya hisobi;

- axborotlarni chuqur qayta ishlash, faoliyatga ob`yektiv baho berish, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash orqali tezkor, joriy va istiqboldagi boshqaruv strategiyasini belgilab beruvchi – iqtisodiy tahlil;

- faoliyatni yo`lga qo'yish va maqsadli boshqarishning aniq yechimlari va

⁷K. R. Subramanyam Financial statement analysis, Eleventh edition. Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 2-page

natijaviyligini ta'minlovchi, innovatsion va aqlli iqtisodni ta'minlashga imkon beruvchi – ilmiy faoliyat;

- faoliyat samaradorligi va natijaviyligidan kelib chiqqan holda munosabatlarni muvofiqlashtirishning muhim mezoni bo'lgan – mehnatni munosib rag'batlantirish;

-va boshqa (ijtimoiy, ekologik, texnikaviy, tashkiliy) jihatlarni qamrab olgan – murakkab tizim deb qarash lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlari oldida turgan muhim vazifalarni hal etilishiga albatta axborotlar oqimi va ularni tahliliy xulosalariga tayangan zamonaviy boshqaruvni yo'lga qo'yish va takomillashtirish orqaligina erishiladi.

Demak, hisob va iqtisodiy tahlil xo`jalik faoliyatini boshqarishda asosiy vosita bo`lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari kundalik hisob va hisobotda o`z aksini topadi va hisobot ma'lumotlari xo`jalikni boshqarishda muhim vosita bo`lib xizmat qiladi, istiqbol rejalarini tuzish uchun, korxonalarining xo`jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uchun har tomonlama asoslangan, aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo`jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni qo'llashda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg`or tajribalarni ommalshtirishda, ish faoliyatida mavjud bo`lgan kamchiliklarni bartaraf etishda va ichki xo`jalik imkoniyatlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo`llaniladi.

1.5. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti, vazifalari

Fanning predmeti, deganda shu fanda nima o`rgatilishi tushuniladi. Har qanday mustaqil fan o`zining predmetiga ega. Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo`lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan ob'yekt (korxona, birlashma, kompaniya, aktsiyadorlik jamiyati, kontsern, korporatsiya kabilar) xo`jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va h.k.) o`z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o`ziga xos xususiyatga, o`zi o`rganadigan predmetga ega. Bu faqat shu fanga xos bo`lib, imkonи

boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko`rsatishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fanning predmeti tom ma'noda tahlil qilinayotgan ob'yekearning xo`jalik faoliyatidir. Ammo, buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo`jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo`jalik faoliyatida sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o`rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan iqtisodiy tahlil fanining o`ziga xos va mos jihatini, unga tegishli predmetni aniqlab olish lozim. Tahlil fani xo`jalik faoliyatida sodir bo`layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o`z ichiga oladi. Ammo, bu jarayonlarning sodir bo`lish paytini emas, balki uning natijasini o`rganadi. Ob'yeke da sodir bo`ladigan iqtisodny jarayonlar uning biznes rejasida ko`zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo`lishini qonuniy jihatdan xujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug`ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o`z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan xujjatlarga asoslanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanining predmeti, xo`jalik faoliyatida ob'yeaktiv (tashqi) va sub'yeaktiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo`lgan, bo`layotgan va bo`ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbasida ifodalangan ko`rsatkichlar tizimi orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o`rganishdan iboratdir. Iqtisodiy tahlilnnng predmetida ob'yeaktiv (tashqi) va sub'yeaktiv (ichki) omillar alohida o`rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o`z-o`zidan sodir bo`lmaydn. Ular ma'lum ichki va tashqi omillar ta'siri ostida ro`y beradi. Shu omillar ta'sirini boshqa fanlar o`rgatmaydi. Bu faqat tahlil fanida o`rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo`jalik faoliyati natijasiga to`g`ri baho bermasdan, unga ta'sir qilgan ijobjiy va salbiy omillarni o`rganmasdan turib ko`zda tutilgan maqsadga erishib bo`lmaydi. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida ob'yeaktiv va sub'yeaktiv omillarni o`rganish lozimligi qayd qilinishi bejiz emas. Iqtisodiy tahlilning predmetini

o`rganishda faqat sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo yetarli bo`lmas edi. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo`l qo`yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan ob'yeckning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo`lgan va bo`layotgan jarayonlarga to`g`ri baho berib, bo`ladigan jarayon andozasini ham chizib berishni taqozo qiladi. Shu tufayli tahlilning predmeti o`tgan, bo`layotgan va bo`ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o`z ichiga qamrab oladi. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko`rsatkichlarda ifodalanadi. Ko`rsatkichlar esa asosan ma'lumotlar manbasida (rejalarda, me'yorlarda, hisobotlarda va h.k.) o`z aksini topadi. Ob'yeckda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo`lib emas, balki bir-biriga dialektik bog`liq ravishda birdaniga sodir bo`ladi. Uning har bir jihatni alohida ko`rsatkichlarda ifodalanadi. Shu tufayli xo`jalik faoliyatini o`rganishda bitta ko`rsatkich emas, balki ko`rsatkichlar tizimidan foydadaniladi. Bu esa o`z navbatida tahlil predmetini o`rganishda ma'lumotlar manbasida ifodalangan ko`rsatkichlar tizimiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Juda ko`p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida iqtisodiy tahlil fani xo`jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o`zgarishlarga omillar ta'sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo`jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat iqtisodiy tahlilga xos bo`lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to`g`ri baho berish va yaxshilash yo'llarni ishlab chiqish tegishli o`ringa ega. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan bo`lib, o`ziga xos xususiyatlarga, o`zining betakror predmetiga ega. Iqtisodiy tahlilda o`rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o`rganilmaydi va takrorlanmaydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari iqtisodiy tahlil fanining ham o`ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib, yildan-yilga aniqliklar kiritilib takomillashib bormoqda. Har qanday fanning ob'yecki bo`lishi lozim. Ammo, shu fanning nazariyasiga bag`ishlangan eng so`ngi adabiyotlarda ham bu masala yetarlichcha yoritilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan ob'yektini ko`p

hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o`z navbatida nazariy jihatdan asossiz, chalkash xulosalarga olib keladi. Har qanday fanning ob'yekti uning predmeti qayerlarda amalga oshishini ko`rsatadi. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti bozor munosabatlari takomillashib borayotgan hozirgi sharoitda ko`p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarnnng xo`jalik faoliyatida mujassam. iqtisodiy tahlil fanining ob'yektiga davlat, jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar, xoldinglar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo`jalik yurituvchi sub'yecklar kiradi. Ob'yecktning (makonning) va davrning (zamonning) qanday bo'lishidan qat'iy nazar ushbu fan predmetining mohiyati o`zgarmasligi, ob'yekt esa iqtisodiy tahlilning qaysi makonda o`tkazilishiga qarab o`zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti ob'yektidan mazmun va mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti fan oldiga qoyilgan vazifalar orqali o'rganiladi. Iqtisodiy tahlil vazifalarini tasniflash va bilib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo, fanning oldiga qoyilgan vazifalarni bat afsil tushunish uchun tahlil so'zining mazmun-mohiyatini anglab olish zarur. Ma'lumki, tahlil so'zi grekcha "anaytis" so'zini o'zbek tilidagi tarjimasi bo'lib, u "bo'laman" yoki "ajrataman" degan ma'noni bildiradi. Demak, tahlil deganda, tor ma'noda butunni qismlarga ajratish, bo'laklarga bo'lish yo'li bilan uning tarkibiy qismini o'rganish tushiniladi. Ammo, tahlil oldida turgan vazifalarning ijrosini to'liq ta'minlashda tahlilga muqobillikda "sintez" atamasidan ham foydalaniladi. "Sintez" atamasi ham grekcha "syntezis" so'zidan olingan bo'lib, "birlashtiraman", "qo'shaman" degan ma'noni bildiradi. Shunday qilib, tahlil deganda, butunni tarkibiy qismlarga bolib-bo'lib, ajratib o'rganish tushunilsa, sintez deganda, tahliliy o'rganishlarni umumiylash, umumlashtirish orqali boshqaruq qarorlarini ishlab chiqish tushiniladi. Iqtisodiy tahlilning vazifalari qoyilgan maqsadga ko'ra keng qamrovli bo'lib, ulardan eng asosiyalarini sanab o'tish mumkin.

Iqtisodiy tahlilning eng asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xo`jalik yurituvchi sub'ektning yaqin va uzoq davriylikdagi reja, prognoz ko`rsatkichlarining ilmiy asoslanganligini tekshirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning reja va prognoz ko'rsatkichlarining bajarilish holatiga dinamik baho berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektga tegishli bo'lgan iqtisodiy resurslarga, ularning samaradorligiga baho berish;
- xo'jalik yurituvchi sub'yeekt faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlariga, erishilgan natijalariga baho berish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, omillar ta'sirini hisoblash;
- xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning moliyaviy holatini baholash va tashhislash;
- xo'jalik yurituvchi sub'yeektida iqtisodiy samaradorlikni oshirish boyicha foydalanilmayotgan ichki va tashqi imkoniyatlarni axtarib topish, ularni amaliyotga joriy etish boyicha taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib borish.

1.6. Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'rni

Iqtisodiy fanlar tizimida iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida tashkil topgan bo'lsada, bir qator iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib bormoqda. Xususan, iqtisodiy tahlil bilan hisob va audit fanlarining uzviy bog'liqligi korxona va tashkilotlarning moliya xo'jalik faoliyatini tahlil qilib borish hamda hisob va hisobot ko'rsatkichlarini to'g'rilingini muntazam tekshirib borish imkonini beradi.

Iqtisodiy tahlil fani buxgalteriya hisobi, audit, iqtisodiyot nazariyasi, makro va mikro iqtisodiyot, statistika kabi bir qator iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikka va aloqadorlikka ega.

Iqtisodiy tahlil fanining "Buxgalteriya hisobi" fani bilan bog'liqligi. Iqtisodiy tahlil va buxgalteriya hisobi (moliyaviy xisob, boshqaruv hisobi) fanlarining uzviy bog'liqligi va aloqadorligi mavjud. Ma'lumki, jamlangan va umumlashtirilgan hamda hisobotga olingan axborotlar taxlilsiz, analistik qayta ishlovlarsiz boshqaruvda foydalanilmaydi. Uning eng muhim aloqasi taxlilda axborotlar oqimi bosh manbasi ekanligi bilan izohlanadi. Nazariy manbalar tahlilidan ko'rindaniki, iqtisodiy tahlil uchun olinadigan axborotlarning qariyib 70-80 foizi buxgalteriya

hisobidan olinadi. Buxgalteriya hisobining vazifalariga asosan, xodisa va jarayonlar qayd etiladi, xujjatlashtiriladi, analitik va sintetik hisobi yuritiladi, moliyaviy hisobotlar tuziladi. Ularni qayta ishlab, tahlil etish va prognozlash tahlil yordamida amalga oshiriladi. Xo‘jalik faoliyatini samarali tashkil etish, erkin raqobat, investitsion jarayonlar, axborotlarni chuqr tahlil etishni talab etadi. O‘z navbatida analitiklar, taxlilchilar buxgalteriya hisobining asosiy qoidalarini, normalarini bilmasdan turib zamonaviy tahlilni amalga oshira olmaydilar.

Iqtisodiy tahlil fanining “Moliyviy menejment” fani bilan bog‘liqligi. Moliyaviy menejmentda moliyaviy hisobot shakllarida ifodalangan moliyaviy ko‘rsatkichlar iqtisodiy tahlil yordamida o‘rganiladi va moliyaviy boshqaru boyicha qarorlar qabul qilinadi.

Xususan, moliyaviy hisobot shakllarida asoslangan yoki ular bilan bog‘liq bo‘lgan izohlar, mo‘ljallar va tushuntirishlar boyicha axborotlar ifodalangan bo‘lib, moliyaviy hisobot - investitsiya qarorlari, kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish, subyektning bo‘lg‘usi pul oqimiga baho berish, unga ishonib topshirilgan resurslarga, majburiyatlarga baho berish, rahbar xodimlarning ishiga baho berishda muhim manba hisoblanadi. Bu baho berishlarni tahlilsiz amalga oshirib bo’lmaydi.

Iqtisodiy tahlilning “Audit” fani bilan bog‘liqligi. Audit - mustaqil ekspertlar, auditorlar tomonidan korxona moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishni anglatadi. Bunda nafaqat tekshirish, balki korxonaning iqtisodiy, moliyaviy faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha ham tavsiyalar ishlab chiqiladi. Audit - bu korxonaning moliyaviy hisobotlarini ekspertizadan o‘tkazish, buxgalteriya hisobini yuritish tartibini, xo‘jalik va moliyaviy operatsiyalarni qonunchilik normalariga muvofiqligini, hisobotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligini tekshirishga qaratilgan mustaqil faoliyat turidir.

Tahlilda audit va auditorlik faoliyati nafaqat axborotlar ishonchligi, to‘liqligi, haqqoniyligi ta‘minlab beruvchi sifatida, balki korxona boshqaruvi va biznes samaradorligini ta‘minlashda, zaruriy axborotlar ta‘minotchisi sifatida ham


qatnashadi. Shu bilan birga auditorlik faoliyatida eng maqbul yechimga tahliliy amallardan uddaburonlik bilan foydalanish orqligina ega bo‘linadi.

Auditorlik faoliyati va natijalari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan xulosalar tahlilda eng ishonchli manbaa bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fani “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bilan ham o’zaro bog‘liq. “Iqtisodiyot nazariyasi” makro va mikro iqtisodiyotdagи iqtisodiy qonunlar hamda iqtisodiy kategoriyalar, iqtisodiyotning samarali boshqaruv asoslari bilan shug‘ullanadi va ularning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rgatadi. Iqtisodiy tahlil esa, sabab-oqibat, induksiya-deduksiya, analiz va sintez bog‘lanishlaridan, bozor iqtisodiyotining muhim qoununiyatlari hisoblangan talab va taklif, qiymat, monetar qoununiyatlari, turli modellar tizimidan iborat metodologik, ilmiy va amaliy asoslarga tayangan holda rivojlanadi, taraqqiy etadi. Demak, iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tahlil fanining fundamental asosi hisoblanadi va o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi.

Iqtisodiy tahlil fanining Statistika fani bilan bog‘liqligi shundaki, statistikada xodisa va jarayonlarning, samara va natijaviylikning miqdoriy ko‘rsatkichlari baholansa, tahlilda ko‘proq qiymat ifodasidagi ko‘rsatkichlarga, moliyaviy ko‘rsatkichlarga ustunlik beriladi. Jumladan, har ikkita fanda ham bir xil axborotlar va iqtisodiy usullar to‘plamidan foydalaniladi. Shu bilan birga statistikada makro iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarish tendensiyalari o‘rganilsa, iqtisodiy tahlilda esa iqtisodiy ko‘rsatkichlar mikro darajada, ya’ni korxona, uning bo‘limlari va bo‘g‘inlari bo‘yicha baholanadi. Shuningdek, statistikada ko‘proq dinamik o‘zgarishlarni aniqlashga e’tibor qaratilsa, tahlilda sabab-oqibat bog‘lanishlariga, omilli o‘zgarishlarga, ichki imkoniyatlarni aniqlashga va ularni amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini belgilashga ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, statistik hisobotlar ham tahlil uchun zaruriy axborot manbasi hisoblanadi. Ushbu fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning o‘rnini quyidagi 2-rasmda ko‘rish mumkin.

Tahlil fanining iqtisodiy fanlar o'rtaida tutgan o'rni



2-rasm. Iqtisodiy tahlilning fanlar tizimida tutgan o'rni

Respublikamizda iqtisodiy tahlilning nazariy, uslubiy asoslari va amaliy jihatlarini takomillashtirish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lif muassasalarida iqtisodiy tahlil fanini o'qitishning uzviyligi va ketma-ketligi ta'minlangan bo'lib, bunda o'zaro bog'liqlik ta'minlangan.

Xususan, bugungi kunda respublikamizda milliy hisobchilik tizimini xalqaro andozalar asosida tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar, korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni ham xalqaro andozalar asosida tashkil etish zarurligini taqoza qiladi.

1.7. Iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'lib, bunda foydalanilmayotgan imkoniyatylarni aniqlashdan iborat. Imkoniyatlarni aniqlashni osonlashtirish uchun ularni ilmiy asosda turkumlash kerak. Ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga yo'naltirishda korxonalarning ahamiyati katta. Bunda esa asosan uch guruh ishlab chiqarish resurslari, (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog'liq. Ushbu omillardan samarali foydalanish yo'llarini ta'minlashda iqtisodiy tahlilni ilmiy asosda, muayyan tamoyillarga asosan tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Korxonalarining xo`jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun asos qilib olingan quyidagi tamoyillar mavjud:

1. Ob'yeiktning holatini dastlabki iqtisodiy nazariya jihatidan tahlil qilishning zarurligi, o`rganiladigan hodisalarning mohiyati va bir-biriga o`zaro bog`liqligi.

2. Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o`zaro bir-biriga uzviy ravishda bog`liq tahliliy ko`rsatkichlar tizimining qo`llanilishi.

3. Iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash jarayonida o`rganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni miqdor va sifat belgilariga qarab turkumlash.

4. Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo`jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.

5. Tahlil natijalari asosida ilg`or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish.

6. Korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli, ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo`ldi.

Qisqacha xulosalar

Ushbu bobda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan o`rin olgan ustuvor ahamiyatga ega bo`lgan iqtisodiy masalalarda iqtisodiy tahlilining ahamiyati, iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi, iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarish tizimidagi tutgan o`rni, ishlab chiqarish jarayonidagi bosqichlarni tahlil qilish uchun asos qilib olingan tamoyillar hamda iqtisodiy tahlilning ichki xo`jalik imkoniyatlarni axtarib topishdagi ahamiyatining nazariy asoslari bayon qilingan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

- 1.Nima uchun iqtisodiy tahlil fan sifatida shakllandи?
2. Iqtisodiy tahlilning shakllanish elementlari deganda nimani tushunasiz?

3. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni, predmeti, vazifalari deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun iqtisodiy tahlil qilish-dialektikaning muhim xususiyati hisoblanadi?
5. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni va boshqa fanlar bilan bog'liqligini izohlang.
6. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
7. Iqtisodiy tahlilni rivojlanish istiqbollari deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. Iqtisodiy tahlil fanini maqsadi nimadan iborat?

- A). Mahsulot tannarxini hisoblash
- B). Mehnat unumdarligini aniqlash
- S). Xo'jalik ichki imkoniyatlarini topish va ulardan to'la-to'kis foydalanish
- D). Asosiy vositalardan samarali foydalanish

2. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishni tashkil qilishda rahbarlik rolini kim olib boradi?

- A). Korxona rahbari
- B). Bosh buxgalter
- S). Bosh iqtisodchi
- D). Bosh muhandis

3. Iqtisodiy tahlil natijalaridan kimlar xabardor bo'lishi kerak?

- A). Faqat korxona rahbari
- B). Faqat korxona mutaxassislari
- S). Faqat korxona rahbari, korxona mutaxassislari, hisobchi xodimlar
- D). Faqat hisobchi xodimlar

4. Analitik jarayon qanday bosqichlardan iborat?

- A). Sintez-analiz-sintez
- B). Induksiya-deduksiya-umumlashtirish
- S). Ilmiy abstraksiya va amaliyotga qaytish
- D). Jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyot

5. Tahlil qilish uchun korxonaning qaysi bo'lim hujjatlari tahlil etiladi?

- A) Buxgalteriya bo'limi hujjatlari
- B) Iqtisod bo'limi hujjatlari
- S) Ishlab chiqarish bo'limi
- D) To'g'ri javob yuq

6. Iqtisodiy tahlilining obekti nima bo'lib hisoblanadi?

- A) Buxgalteriya bo'limi
- B) O'r ganilayotgan korxona
- S) Ishlab chiqarish jarayoni
- D) Taqsimlash va ayirboshlash jarayoni

7. Iqtisodiy tahlil qilishdan umumiy maqsad nima?

- A) Korxonaning iqtisodiy ahvolini o'r ganish
- B) Ishni tashkil qilinganligini o'r ganish
- S) Boshqaruv tarkibini o'r ganish
- D) Hamma javoblar to'g'ri

8. Xo'jalik jarayonining turlarini belgilang.

- A) Ishlab chiqarish jarayoni, ijtimoiy jarayon
- B) Ishlab chiqarish jarayoni, iqtisodiy jarayon
- S) Ijtimoiy jarayon, iqtisodiy jarayon
- D) To'g'ri javob keltirilmagan

**AMALIY MASHG'ULOT BO'YICHA MUSTAQIL ISHLASH
UCHUN TOPSHIRIQ:**

Mualliflar tomonidan iqtisodiy tahlilning predmeti bo'yicha berilgan ta'riflarni quyidagi jadvalda uzviy ketma-ketlikda yozma ifodalang.

| No | Iqtisodiy tahlilning predmetiga berilgan ta'riflar | Muallifi va ta'rif keltirilgan adabiyot haqida ma'lumot | Fan predmetiga berilgan ta'rifning to'laqonligi va boshqa ta'riflardan farqli jihatlari haqida ma'lumotlar |
|----|--|---|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| | | | |

2-BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY USULLAR

O'quv maqsadi: iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari, ularning tasniflanishi, iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy ususllari va ularning qo'llanilish tartiblari va xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan iqtisodiy tahlil usullarining nazariy asoslarini o'rganish va iqtisodiy tahlil usullarini amaliyotga tadbiq etish boyicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: metod, uslub, dialektika, tizim, umumiy, xususiy, taqqoslash, gorizontal, vertikal, trend, guruhlashtirish, balans, zanjirli bog'lanish, indeks, mutloq, nisbiy.

2.1. Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Har bir fan o'z predmetini o'rganishda ma'lum metodlardan foydalanadi. Chunki, metod so'zi asli grekcha "metod" so'zidan olingan bo'lib, "o'rganish yo'li, usuli" degan ma'noni anglatadi. Metod juda keng ma'no va tushunchaga ega. Fanning metodi obyektni o'rganish usullari, vositalari, yo'llarini xarakterlaydi. Metod deganda, voqelikda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni o'rganishga yondashish usuli tushuniladi. Tahlil va sintez umum dialektik o'rganishning ilmiy usuli sifatida qaraladi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu usul o'zaro bog'liqlik, aloqadorlikda o'rganishni xarakterlaydi. Shu bilan bирgalikda rivojlanish, qarama-qarshilik kurashi sifatida qaraladiki, bu borliqning ob'yektiv qonunlarini namayon qiladi. Har bir fanning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan usullari ana shu umumiy dialektik uslubga tayanadi. Aynan iqtisodiy tahlil ham o'z usullari bilan xo'jalik faoliyatini organadi va bunda quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- 1) ko'rsatkichlar tizimidan foydalilanadi, bu ko'rsatkichlar xo'jalik faoliyatini har tomonlama harakterlab beradi;
- 2) ushbu ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablarini o'rganadi;

3) ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida shu ko'rsatkichlar o'rtaсидаги о'заро bog'liqliкни aniqlaydi va o'lchaydi.

Usulga bunday harakteristika berilishidan ko'rinish turibdiki, u xo'jalik jarayonlarini o'rganishda dialektik yondashishga asoslanadi. Xo'jalik jarayonlari bir butunlikda va rivojlanishda, deb qaraladi. Bu jarayonlarda miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tishi o'ziga xos xususiyatdir. Yangi sifatning paydo bo'lishi, inkorni - inkor qilish, qarama - qarshiliklar kurashi, eskining o'rniga yangining paydo bo'lishidir. Qisqa qilib aytganda, dialektikaning barcha uslub va usullari xo'jalik jarayonlarini va xo'jalik faoliyatining barcha darajalarini tadqiqot qilishda qo'llaniladi va keng miqyosda foydalaniladi.

Tahlil fanining (uning mikro ko'lamdagи barcha turlariga nisbatan) metodini aniqlash ham uning predmetini belgilashdagi kabi juda tortishuvli masalaga aylangan va bu borada hozirgacha yagona fikrga kelingani yo'q. Juda ko'p olimlar N.R.Veysman, M.Rubinov, P.I.Savichev, V.V.Osmolovskiy, V.A.Beloborodov, S.B.Borngols, M.I.Bakanov, A.D.Sheremet, A.V.Vaxobov, A.T.Ibragimov, N.P. Ishonqulov, M.Q.Pardayev, M.Y.Raximovlar tomonidan tahlil fanining metodlariga turlicha ta'riflar berilgan. Lekin ularning barchasi bir-biriga yaqin va qarama-qarshiliklardan holi bo'lган ta'riflardir.

Iqtisodiy tahlil fanining metodi – xo'jalik subyektlarining xo'jalik jarayonlarini o'rganishga dialektik yondashgan holda, turli axborot manbalarida aks ettirilgan ko'rsatkichlar tizimini maxsus usullar yordamida qayta ishlash yo'li bilan ularning o'zgarish tendensiyalarini, sabablarini aniqlash, ular orasidagi o'zaro bog'liqliklarni tizimli, kompleks o'rganish, o'lhash va umumlashtirishdan iborat.

Aynan xo'jalik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillari tahlilida iqtisodiy tahlilning o'ziga xos yondashuvlari qo'llaniladi. Birgina ishchi kuchidan foydalanish bilan bog'liq omillarning o'zi ikki guruhga bo'linadi:

1) Miqdoriy omillar; 2) Sifat omillari.

Miqdoriy omilga ishchilar soni kiritilsa, sifat omiliga esa ularning mehnat unumidorligi tegishli bo'ladi. Xodimning - yillik mehnat unumidorligi: - yil

davomida ishlangan ish kunlari, bir kunda ishlangan ish soatlari, bir soatda ishlangan ish miqdorlariga bog'liqdir. Bu ko'rsatkichlarning har biri o'z navbatida yana bir qancha omillarga bog'liq bo'ishi mumkin. Masalan, xodim bir-yilda ishlangan ish kunlari soni, unga berilgan qo'shimcha ta'til kunlari, kasallik tufayli ishga chiqmagan kunlari soni, mavsumiy ishlarga jalb etilgan kunlari, safardagi kunlari, korxona aybi bilan to'liq kunli bo'sh turishlar, ishga qatnashmagan kunlar va boshqa bir necha omillarga bog'liqdir. Ushbu holatlardan ko'rinaradiki, ko'rsatkichlar zanjirining har bir halqasi yana bir necha o'zga omillarga ega bo'lishi mumkin. Qaysidir omilning iqtisodchi e'tiboridan chetda qolishi, yoki ayrim hollarda tadqiqotning ketma-ketligi buzilsa ham tahlil iqtisodiy jihatdan talabga javob bermaydigan bo'lib qoladi. Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosalash mumkinki, sanoat ishlab chiqarishi hajmiga ta'sir etuvchi omillarni alohida, bir - biridan ajralgan holda o'rganish maqsadga muvofiq emas, chunki, ular bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning ta'siri faqatgina iqtisodiy tahlilning maxsus usullari yordamida o'rganiladi.

2.2. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarni tasniflanishi

Iqtisodiy tahlil jarayonida iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashda turli usullardan, xususan, maxsus usullardan foydalilanadi. Ularda iqtisodiy tahlil usullarining o'ziga xos xususiyatlari keng miqyosda namayon bo'ladi, ya'ni tizimli va majmuali harakteri o'z aksini topadi. Tizimlilik iqtisodiy tahlilda shuning uchun ham zarurki, xo'jalik jarayonlari ko'p qirrali bo'lib, murakkab ichki tuzilmaga egaligi sababli o'rganilayotgan obyekt bir butunlikda, tizimda deb qaraladi va tizim ichidagi bir-biriga bog'liq omillar uzviy ketma-ketlikda o'rganiladi.

Bunda omillar o'rasidagi o'zaro aloqalar va bog'liqliklar qanday holatda va miqdorda ob'yektga ta'sir ko'rsatayotganligi aniqlanadi. Iqtisodiy tahlilning tizimliliği yana shunda namayon bo'ladiki, usullar fanning va boshqa aloqador fanlarning yutuqlari natijasida birlashadi, bir butunga yig'ilib foydalilanadi. Shu sababli iqtisodiy tahlilning maxsus usullarini shartli ravishda ikki guruhgaga ajratish mumkin:

1) Oddiy-an'anaviy usullar; 2) Iqtisodiy-matematik usullar.

Birinchi guruhdagi usullarga iqtisodiy tahlil fani paydo bo'lgan davrdan boshlab qo'llanilib kelinayotgan oddiy-an'anaviy, ya'ni, sodda, qulay, bevosita qo'l kuchida bajarsa bo'ladigan usullar kiradi.

Oddiy-an'anaviy usullar tarkibiga taqqoslash, guruhlashtirish, zanjirli bog'lanish, indeks, balans, o'rtacha miqdorlarni aniqlash, farqlar usuli kabi usullar kiradi.

Ikkinchi guruhdagi iqtisodiy-matematik usullar analitik ishlarda ancha keyin, tezkor elektron hisoblash mashinalari tizimda qo'llanila boshlagandan so'ngra foydalana boshlandi. Chunki, iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullar faoliyatning samaradorligi va natijaviyligini, uzviy aloqadorlik va bog'lanishlardagi omilli tahlilni amalgalash oshirish, analitik ishlar sifatini, tahlilning chuqurligini va tezkorligini ta'minlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiy-matematik usullar masalani yechishning kompyuter algoritmini shakllantirishda ham qo'l keladi. Iqtisodiy-matematik usullar vaqt mezoni bo'yicha, tezlik, aniqlik masalasida, dasturlash va natijalar mayda birliklariga qadar aniqlanishi sababli samaradorligi yuqori turadi. Iqtisodiy-matematik usullar iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini oshirib, yanada ko'proq turdag'i va murakkab tavsifdagi masalalarni qisqa muddatda to'g'ri hal qilish imkonini beradi. Iqtisodiy tahlilda matematik usullarni qo'llash korxona faoliyatida qator o'ziga xos shartlarni e'tiborga olishni talab qiladi. Ularning asosiyлари quyidagilardir: korxona iqtisodiyotini to'laligicha axborot texnologiyalariga asoslangan bo'lishi, iqtisodiy-matematik modellar tuzish, axborot manbalarini takomillashtirish, xodimlar malakasi va shu kabilar.

Iqtisodiy-matematik usullarning integral, logorifim, korrelyatsion, regresion, matematik dasturlash, nazariy o'yin turlarini tarkiblash mumkin. Quyida ularning ba'zilarini tavsifini keltiramiz.

Integral usulning multiplikativ, karrali va karrali-additiv ko'rinishli aralash modellari tarkiblanadi. Integral usul zanjirli usul, mutloq va nisbiy farq usullariga

nisbatan omillar ta'sirini hisoblashda aniqroq natijalar olishga imkon beradi. Turli modellar uchun omillar ta'sirini hisoblash algoritmlari quyidagicha bo'ladi.

1-jadval

Integral usul modellari

| Modellar | Omillar ta'sirini aniqlash |
|-----------------|---|
| $f=xy$ | $\Delta f_x + \Delta f_y = \Delta f$ |
| X omili ta'siri | $\Delta f_x = \Delta x y_0 + 1/2 \Delta x \Delta y$, yoki $\Delta f_x = 1/2 \Delta x (y_0 + y_1)$ |
| Y omili ta'siri | $\Delta f_y = \Delta y x_0 + 1/2 \Delta x \Delta y$, yoki $\Delta f_y = 1/2 \Delta y (x_0 + x_1)$ |
| $f=xyz$. | $\Delta f_x + \Delta f_y + \Delta f_z = \Delta f$ |
| X omili ta'siri | $\Delta f_x = 1/2 \Delta x (y_0 z_1 + y_1 z_0) + 1/3 \Delta x \Delta y \Delta z$; |
| Y omili ta'siri | $\Delta f_y = 1/2 \Delta y (x_0 z_1 + x_1 z_0) + 1/3 \Delta x \Delta y \Delta z$; |
| Z omili ta'siri | $\Delta f_z = 1/2 \Delta z (x_0 y_1 + x_1 y_0) + 1/3 \Delta x \Delta y \Delta z$. |
| $f=xyzq$ | $\Delta f_x + \Delta f_y + \Delta f_z + \Delta f_q = \Delta f$ |
| X omili ta'siri | $\Delta f_x = 1/6 \Delta x [3q_0 * y_0 * z_0 + y_1 * q_0 (z_1 + \Delta z) + q_1 * z_0 (y_1 + \Delta y) + z_1 * y_0 (q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4$; |
| Y omili ta'siri | $1/6 \Delta y [3q_0 * x_0 * z_0 + x_1 * q_0 (z_1 + \Delta z) + q_1 * z_0 (x_1 + \Delta x) + z_1 * x_0 (q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4$; |
| Z omili ta'siri | $\Delta f_z = 1/6 \Delta z [3q_0 * x_0 * y_0 + x_0 * q_1 (y_1 + \Delta y) + y_1 * q_0 (x_1 + \Delta x) + x_1 * y_0 (q_1 + \Delta q)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4$; |
| Q omili ta'siri | $1/6 \Delta q [3z_0 * x_0 * y_0 + x_0 * z_1 (y_1 + \Delta y) + y_1 * z_0 (x_1 + \Delta x) + x_1 * y_0 (z_1 + \Delta z)] + \Delta x * \Delta y * \Delta z * \Delta q / 4$. |

Natijaviy ko'rsatkichga omillar ta'sirini quyidagi misollar asosida ko'rib chiqishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

Mahsulot hajmining o'zgarishiga ishchilar soni va mehant unumdorligining ta'siri tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Haqiqatda | Farqi (+;-) |
|---|------------|-----------|-------------|
| Ishchilar soni, kishi (X) | 144 | 152 | +8 |
| Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm (Y) | 1235 | 1207 | -28 |
| Mahsulot hajmi, ming so'm (F) | 177840 | 183464 | +5624 |

Omillar ta'sirini hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$F = X * Y$$

$$1. F_x = (8 * 1235) + \frac{1}{2} (8 * (-28)) = 9880 + (-112) = +9768.0$$

$$2. F_y = (-28 * 144) + 1/2(-28 * 8) = -4032 + (-112) = -4144.0$$

$$3. \Delta F = \Delta F_x + \Delta F_y = 9768 + (-4144) = 5624.0$$

Amalga oshirilgan hisob-kitoblardan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan korxonada ishchilar sonini 8 kishiga ko'payishi mahsulot hajmini 9768 ming so'mga oshishiga olib kelgan. Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 28 ming so'mga kamayishi esa, mahsulot hajmini 4144 ming so'mga kamayishiga sabab bo'lgan.

Omilli tahlilda logarifmlash usulidan ham foydalanish mumkin. Logarifmlash usuli multiplikativ modellarda omillar ta'sirini hisoblash uchun qo'llaniladi. Integral metoddan farqli ravishda logorifmlashda ko'rsatkichlarning mutlaq o'sishi emas, balki, ularning o'sish (pasayish) indeksi qo'llaniladi.

Shuningdek, omilli tahlilda korrelyatsion (stoxastik) bog'lanish usulidan ham foydalanish mumkin. Korrelyatsion (stoxostik) bog'lanish bu, ko'rsatkichlar orasidagi to'liq bo'limgan, taxminiy bog'lanishdir. Odatda, juft va ko'p miqdorli korrelyatsiyalar farqlanadi. Juft korrelyatsiya-bu bitta omilli, boshqasi natijaviy bo'lgan ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishdir. Ko'p miqdorli korrelyatsiya esa natijaviy ko'rsatkichlar bilan bir nechta omillarning o'zaro ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi.

Korrelyatsion tahlilni qo'llash bir yoki bir nechta omillar ta'siri ostida bo'lган natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishini aniqlash (mutlaq o'lchamda), har bir omildan natijaviy ko'rsatkichning nisbiy bog'lanish darajasini aniqlashda foydalaniladi. Quyidagi 3-jadvalda mehnat unumdorligining ishchilar yoshiga bog'liqligi tahlili keltirilgan.

**3-jadval
Mehnat unumdorligi (y) ning ishchilar yoshi (x) ga bog'liqligi**

| X | Y | x/10 | Xy | x2 | x2y | x3 | x4 | yx |
|------|------|------|-------|--------|-------|--------|------|-------|
| 20 | 4,2 | 2,0 | 8,4 | 4,00 | 16,8 | 8,0 | 16 | 3,93 |
| 25 | 4,8 | 2,5 | 12,0 | 6,25 | 30,0 | 15,62 | 39 | 4,90 |
| 30 | 5,3 | 3,0 | 15,9 | 9,00 | 47,7 | 27,00 | 81 | 5,55 |
| 35 | 6,0 | 3,5 | 21,0 | 12,25 | 73,5 | 42,87 | 150 | 5,95 |
| 40 | 6,2 | 4,0 | 24,8 | 16,00 | 99,2 | 64,00 | 256 | 6,05 |
| 45 | 5,8 | 4,5 | 26,1 | 20,25 | 117,4 | 91,13 | 410 | 5,90 |
| 50 | 5,3 | 5,0 | 26,5 | 25,00 | 132,5 | 125,00 | 625 | 5,43 |
| 55 | 4,4 | 5,5 | 24,2 | 30,25 | 133,1 | 166,40 | 915 | 4,78 |
| 60 | 4,0 | 6,0 | 24,0 | 36,00 | 144,0 | 216,00 | 1296 | 3,70 |
| Jami | 46,0 | 36,0 | 183,0 | 159,00 | 794,0 | 756,00 | 3788 | 46,00 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, ishchilarning mehnat unumdorligi 40 yoshgacha oshib, keyin pasayib boradi. Demak, qaysiki korxonaning 30-40 yoshli ishchilari ko'p bo'lsa, o'sha korxonaning mehnat unumdorligi yuqoriqoq bo'lar ekan. Bu omilni mehnat unumdorligi darajasini rejorashtirishda va uning o'sish zaxiralarini hisoblashda e'tiborga olish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, juft korrelyatsiya usulini qo'llashni faqat bitta misoldagina ko'rib chiqdik. Biroq bu usul har xil iqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi munosabatni ham o'rganish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu esa o'rganilayotgan holatni, uning o'zgarishida har bir omilning o'rni va ahamiyatini baholashda chuqrroq bilimga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy holatlari va jarayonlari ko'p sonli omillarga bog'liq. Bu kabi kompleks omillarning o'zaro bog'lanishlari o'rganilayotgan holatni to'liqroq xarakterlaydi. Korrelyatsion tahlil uchun omillarni saralash – eng muhim hisoblanadi. Chunki, tahlilning yakuniy natijalari omillarning qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Nazariya va tahlilning amaliy tajribasi omillarni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Birinchi navbatda, ko'rsatkichlar orasidagi sababli bog'lanishlarni hisobga olish zarur, negaki, faqat ularning o'rganilayotgan holat mohiyatini ochib beradi. Natijaviy ko'rsatkichli matematik munosabatlarda joylashgan bu kabi omillarning tahlili unchalik ahamiyat kasb etmaydi.
2. Ko'p omilli korrelyatsion model yaratishda amalda qilib bo'lmaydigan barcha shart va majburiyatlarni o'z ichiga olgan, natijaviy ko'rsatkichlarga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadigan eng muhim omillarni tanlab olish zarur.
3. Chiziqli turdag'i korrelyatsion modellarga egri chiziqli xarakterga ega bo'lgan natijaviy ko'rsatkich bilan bog'lanishli omillarni qo'shish tavsiya etilmaydi.
4. Korrelyatsion modelga o'zaro bog'langan omillarni qo'shish mumkin emas. Agar ikkita omil o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,85 dan ko'p bo'lsa,

korrelyatsion tahlil qoidasiga ko'ra bittasini chiqarib tashlash kerak, aks holda, natijaviy ko'rsatkichni aniq bo'lmasligiga olib keladi.

5. Korrelyatsion modelga funksional xarakterdagи natijaviy ko'rsatkich bog'lanishli omillarni korrelyatsion modelga qo'shish tavsiya etilmaydi.

2.3. Oddiy-an'anaviy usullarning amaliyatda qo'llanilish va xorij tajribalari

Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda bugungi kunda eng ko'p qo'llaniladigan usullar oddiy-an'anaviy usullar hisoblanadi. Chunki, oddiy-an'anaviy usullar sodda statistik usullar bo'lib, tahliliy jarayonni tashkil etishda o'zining soddaligi hamda hisoblashning qulayligi bilan ajralib turadi. Oddiy-an'anaviy usullari tarkibiga taqqoslash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, mutloq va nisbiy farqlar kabi usullar kiradi.

Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy usullaridan foydalanish amaliyatini o'rghanishlar ko'rsatadiki, bu usullar tarkibida taqqoslash usuli eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi.

Amalda taqqoslash usulidan foydalanishning muhim shartlariga amal etish talab etiladi. Ular qatoriga o'lchov birligi (hajm, qiymat, miqdor ko'rsatkichlar), davriy oraliqlari, faoliyat shakli, ishlab chiqarish sharoitlari, ishbilarmonlik muhitining bir xilligi, hisob-kitoblarning uslubiy jihatdan yagonaligini kiritish mumkin.

Taqqoslash usulining mazmuni – qiyoslashdan iborat. Taqqoslash asosida o'r ganilayotgan ob'yektdagi o'zgarishlar, ularning rivojlanish darjasи holatlari baholanadi. Chunki, taqqoslash usulida real voqeylikning, haqiqatdagi ko'rsatkichlarning reja, o'tgan yillar, bazis yili, o'rtacha tarmoq, ilg'or, qaloq, xorij ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlariga, ularning dinamikasiga mutlaq va nisbiy ifodalarda baho beriladi. Shunga asosan taqqoslash usulida quyidagilar aniqlanadi:

- haqiqatdagi ko`rsatkichlarni biznes-reja darajasidagi ko`rsatkichlar bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darjasи va sifati aniqlanadi;

- joriy yilda amaldagi ko`rsatkichlarni o`tgan davr hisoboti bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning o`sish sur'ati aniqlanadi;

- ishlab chiqarishda eng mukammal namunaga ega bo`lgan korxonaning iqtisodiy modeli bilan taqqoslash. Bu o`rinda taqqoslash kompleks tarzda olib borilmaydi, balki ushbu korxonaning ayrim ko`rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Masalan, dastgohlardan foydalanish koeffitsiyenti yoki, moddiy resurslardan foydalanish darajasi bo`yicha tahlillar o'tkaziladi. Hozirgi vaqtida sanoat korxonalarida iqtisodiy tahvilning taqqoslash usuli nafaqat korxona ichida, balki korxonalararo qiyosiy solishtirish imkonini ham beradi. Bu usul ilg`or ishlab chiqarish tajribalarini yoyish maqsadida aloqador bo`lgan turli korxonalar ishining texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarini taqqoslab ko`rishga asoslanadi;

- korxona ishining yakuni, ilg`or texnik - iqtisodiy me'yorlar, o`tgan davr hisoboti ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari ushbu korxonaning ilg`or uchastkalaridagi ish natijalari, korxona hamda ushbu tarmoqdagi ilg`or ishchilarining ish natijalari bilan taqqoslash;

- ushbu korxonaning ko`rsatkichlari tarmoq bo`yicha aniqlangan o`rtacha ko`rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bunda korxonaning tarmoq miqyosida tutgan o`rni belgilanadi. Taqqoslash usulining gorizontal, vertikal, trendli ko`rinishlari bir-biridan farqlanadi va tarkiblanadi.

Taqqoslash usulining gorizontal tahlil ko`rinishida asos sifatida tanlangan ko`rsatkich (reja, o`tgan yil, o`rtacha, ilg`or xo`jaliklar ko`rsatkich) dan haqiqiy ko`rsatkichning mutloq va nisbiy o`zgarishlarini aniqlashda, baholashda foydalaniladi.

Taqqoslash usulining vertikal tahlil ko`rinishidan iqtisodiy hodisalar tuzilmasini, ya`ni tarkibini o`rganish maqsadida foydalaniladi va iqtisodiy ko`rsatkichning jamiga nisbatan alohida qismlarining salmog`ini hisoblash yo`li bilan amalga oshiriladi.

Trend taqqoslash usuli ko`rsatkichlarni bir qator yillar mobaynida nisbiy miqdorlarda o`sish va qo`shimcha o`sish sur`atlarini o`rganishda qo'llaniladi.

Quyidagi 4-jadvalda iqtisodiy tahlilning taqqoslash usulini qo'llab korxonada mahsulot sifati bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi tahlili keltirilgan

4-jadval
**Korxonada mahsulot sifati bo'yicha ishlab chiqarish rejasining
bajarilishi tahlili**

| Choraklar | Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushum, mln so'm | | Haqiqatdagi darajaning rejadan farqi (+,-) | Reja bajarilishi, % |
|-----------|---|-----------|--|------------------------|
| | Rejada | Haqiqatda | | |
| 1 | 22 500 | 21 600 | -900 | 96 |
| 2 | 20 200 | 20 800 | +600 | 102.9 |
| 3 | 28 000 | 28 200 | +200 | 107.1 |
| 4 | 27 000 | 26 300 | -700 | 97.4 |
| Jami | 97 700 | 96900 | -800 | 99.18 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, biz tahlil qilayotgan korxonada mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum hisobot yili haqiqatda 96900 mln. so'mni tashkil qilgan va rejaga nisbatan 800 mln so'm (96900000-97700000) ga kam bo'lgan. Demak, korxona mahsulot (ish, xizmat)larni sotish rejasini 99,18 foiz (96900000/97700000*100) ga bajargan va reja ko'rsatkichi 0,82 foiz (99,18-100) ga kam bajarilgan. Ma'lumotlardan ko'rindaniki, korxonada birinchi va to'rtinchi choraklar bo'yicha tushum rejasi bajarilmagan. Ikkinci va uchinchi choraklar bo'yicha reja ko'rsatkichlari bajarilgan bo'lib, ikkinchi chorakda reja ko'rsatkichi haqiqatda 600 mln.so'mga yoki 2,9 foizga, uchunchi chorakda esa 200 mln.so'mga yoki 7,1 foizga ko'p bajarilgan. Korxona rahbariyatiga birinchi va to'rtinchi choraklarda reja ko'rsatkichlarining bajarilmaganlik sabablarini o'rganib chiqishi tavsiya etiladi.

Iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan hodisa va jarayonlar miqdoriy o'lchamga ega bo'lib, ular mutloq va nisbiy miqdorlar bilan ifodalanadi. Mutloq miqdorlar iqtisodiy hodisa va jarayonlarni hajmi, miqdori, o'lchami va darajasini ifodalaydi. Nisbiy miqdorlar bir mutloq miqdorni ikkinchi mutloq miqdorga bo'lish natijasida olingan hosilani ifodalaydi. Nisbiy miqdorlar turli shaklda: koeffitsentlarda (taqqoslash

bazasi 1), foizlarda (taqqoslash bazasi 100), promillarda (taqqoslash bazasi 1000) ifodalanishi mumkin.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorlarning quyidagi turlari keng qo'llanadi: reja vazifalarining nisbiy miqdorlari; rejani bajarishning nisbiy miqdorlari; dinamika nisbiy miqdorlari; tuzilmaviy nisbiy miqdorlar; koordinatsiya nisbiy miqdorlari; intensiv nisbiy miqdorlar; ob'yektlararo va hududiy taqqoslash nisbiy miqdorlari; samaradorlik nisbiy miqdorlari. Quyidagi 5-jadval nisbiy miqdorlarning turlari, ifodasi va uarning tasnifi keltirilgan.

5-jadval

Nisbiy miqdorlarning turlari, ifodasi va uarning tasnifi

| Taqqoslash turlari | Taqqoslash nisbiy ifodasi | Tasnifi |
|-------------------------------------|------------------------------|--|
| Reja vazifalari nisbiy miqdorlari | Krv=Kjr/Ko'y | Joriy yil reja ko'rsatkichini (Kjr) o'tgan yil yoki o'tgan yillarning o'rtacha ko'rsatkichlariga (Ko'y) nisbati. |
| Rejani bajarish nisbiy miqdorlari | Krb=Kh/Kr | Haqiqatda erishgan daraja(Kh) bilan reja ko'rsatkichlari (Kr) nisbati. |
| Dinamika nisbiy miqdorlari | Kdn=Kb /Kbv | Iqtisodiy ko'rsatkichlarni (Kb), (Kbv) vaqt ichida nisbiy o'zgarishini tavsiflaydi. |
| Tuzilmaviy nisbiy miqdorlar | Ktn=Kab/Kuh | O'rganilayotgan to'plamning ayrim birliklarini (Kab) uning umumiy hajmiga(Kuh) nisbati. |
| Koordinatsiya nisbiy miqdorlari | Kkn=Kab/Kbb | To'plam ichidagi ayrim birliklarni (Kab, Kbb) o'zaro nisbatlarini tavsiflaydi. |
| Intensiv nisbiy miqdorlar | Kin=Ksm/Ktm | Turli nomdagi, lekin o'zaro bog'langan ko'rsatkichlarni (Ksm, Ktm) o'zaro nisbati. |
| Ob'yektlararo va hududiy taqqoslash | Koh=Kxk/Kbxk Koh=Xo/Rbo | Nisbiy miqdorlari bir xil nomdagi, lekin turli ob'yekt yoki hududlarga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarni (Kxk, Kbxk), (Xo, Rbo) o'zaro nisbatini tavsiflaydi. |
| Samaradorlik nisbiy miqdorlari | Ksn=Ks/Kr | Samara (Ks) va resurs (Kr) yoki xarajatlar orasidagi nisbatni tavsiflaydi. |

Guruhlashтирish usuli - har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi bo`lib hisobланади. Guruhlashтирish, ayniqsa, amaliy jihatdan ishlаб

chiqarishda keng qo`llaniladi. Masalan, yuqorida ta'kidlanganidek, tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillarni guruhash (mehnat, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari) misol bo`ladi. Guruhashhtirish yana quyidagi ushbu belgilarga ham qarab qo`llaniladi. Masalan, tashqi va ichki omillar, ijtimoiy va xususiy, tahlil qilinayotgan ob'yeqtga bog`liq hamda bog`liq bo`lmagan omillar va hokazo. Guruhashhtirish deganda, o'rganilayotgan to'plamni taalluqli belgilari bo'yicha sifat jihatdan bir xil bo'lgan guruhchalarga ajratish tushiniladi. Agar statistikada guruhlash xodisalarni umumlashtirish va tiplarga ajratish maqsadida foydalanilsa, tahlilda o'rtachalarni mohiyatini tushintirishga, bu o'rtachadagi alohida birliklarni rolini ko'rsatishga, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasida o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga yordam beradi. Hal qilinadigan masalalar (vazifalar) nuqtai-nazardan guruhashlar tipologik, strukturali va analitik turlarga bo'linadi.

Tipologik guruhash - to'plamni sifat jixatdan bir xil bo'lgan guruhlarga ajratishni anglatadi.

Strukturali guruhash esa, ko'rsatkichni ichki tuzilishini, uning alohida qismlarini o'zaro nisbatlarini o'rganish maqsadida guruhlarga ajratishni;

analitik guruhash - ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishlarni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan guruhashlarni anglatadi.

Tuzilishining murakkabligi jixatidan oddiy guruhashlar va kombinatsiyali guruhashlar bir-biridan farqlanadi.

Bitta belgi bo'yicha amalga oshirilgan guruhashlar oddiy guruhash deb aytildi. Agar bitta belgi bo'yicha bitta guruhashni, shu guruhga kiruvchi boshqa bir belgi bo'yicha yana boshqa guruhash amalga oshirilsa, bunday guruhash kombinatsiyali guruhash deb aytildi.

Guruhlarni tuzishda to'plamni guruhlarga bo'lish, guruhlar sonini belgilash va guruh intervalini aniqlash masalasiga jiddiy yondashish zarur.

Guruhashlar algoritmini quyidagi ketma-ketlikda belgilash mumkin:

-tahlilning maqsadini aniqlash;

-axborotlarni yig'ish;

-guruhash uchun asos qilib olingan belgi bo'yicha to'plamni ranjirovka qilish;
 -to'plamni taqsimlash intervali (oralig'i)ni tanlash va uni guruhlarga ajratish;
 -guruhash va omilli belgilar bo'yicha o'rtacha guruh ko'rsatkichlarini aniqlash;

-oligan o'rtacha miqdorlarni tahlil qilish, o'zaro bog'liqliklarni va natijaviy ko'rsatkichga omilli ko'rsatkichlarni ta'sir yo'nalishini aniqlash.

Iqtisodiy tahlilda guruhashdan ko'pincha qiyosiy tahlilda foydalanish mumkin. Quyidagi 6-jadvalda tumanda joylashgan sanoat korxonalarining moliyaviy holat reytingi boyicha guruhlanishi keltirilgan.

6-jadval

Tumanda joylashgan sanoat korxonalarini moliyaviy holati reytingi bo'yicha guruhlash

| Moliyaviy holat reytingi | Guruhdagi korxonalar soni | Guruh moliyaviy holatning o'rtacha reyting bahosi |
|--------------------------|---------------------------|---|
| 1.5- 4.5 | 20 | 2.250 |
| 4.6 - 6.0 | 30 | 3,760 |
| 6.1 dan yuqori | 12 | 6,230 |
| Jami | 62 | 4.560 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, tumanda joylashgan ixtisoslashuvi bir xil bo'lgan sanoat korxonalarining moliyaviy reytingi uch guruhga bo'lingan bo'lib, aynan reyting ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan 12 ta korxonaning o'rtacha reyting bahosi 6,230 ni tashkil qilgan. Agar birinchi va ikkinchi guruhda joylashgan 50 ta korxonalarning ham o'rtacha reyting bahosini o'rtacha 6,230 ga yetkazilganda korxonalarning moliyaviy holati va natjalari ancha yaxshilangan bo'lar edi. Ushbu holatdan ko'rindaniki, guruhlashtirish usulining yana bir xususiyati sohada foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Balansli bog'lanish usuli – o'zaro bog'langan va tenglashtirilgan ikki guruh iqtisodiy ko'rsatkichlar tengliklarini aks ettirish usulidir. Bu metod buxgalteriya hisobi va rejorashtirish amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan oddiy-an'anaviy usul hisoblanadi. Balansli bog'lanish usuli korxonani aktivlar, kapital va majburiyatlar

balansi, debitorlik va kreditorlik majburiyatları balansi, valyuta balansi, byudjet balansi, resurs balansi, tovar balansi tahlilida keng qo'llaniladi.

7-jadval

Balansning muhim turlari va ularning birlik elementlari

| | | |
|-----------------------|---|---|
| Balans turlari | Ifodasi | Belgilar izohi |
| Buxgalteriya balansi | $A = K + M$ | Aktivlar(A) = Kapital(K) + majburiyatlar(M) |
| Tovar balansi | $Tb + Ti/ch + Tb_k = To + Ts + Tb_{ch}$ | Tovarlarmimg davr boshiga qoldig'i (Tb) + Ishlab chiqarilgan tovarlar (Ti.ch) + Tovarlarning boshqa kirimi (Tb_k) = Tovarlarning davr oxiriga qoldig'i (To) + Tovarlar sotilgani (Ts) + tovarlarning boshqa chiqimi (Tb_{ch}) |
| Byudjet balansi | $D = X$ | Daromadlar (D) = Xarajatlar (X) |
| Valyuta balansi | $Vb + Vk = Vo + Vch$ | Valyuta mablag'larining davr boshiga qoldig'I (Vb) + Valyuta kirimi (Vk) = Valyuta mablag'larimimg davr oxiriga qoldig'i (Vo) + Valyuta chiqimi (Vch) |
| Majburiyatlar balansi | $DM + (-) ortiqchalik (yetishmovchilik) = KM + (-) ortiqchalik (yetishmovchilik)$ | Debitorlik majburiyatları (DM) = Kreditorlik majburiyatları (KM), Debitorlik kreditorlik majburiyatlarından farqi (+, -) |

Ushbu usuldan moliyaviy xo'jalik faoliyatining barcha bo'g'inlarida keng foydalilaniladi. Balansli bog'lanish usuli ko'proq omilli modellarni tuzishda ham qo'llanishi mumkin.

Zanjirli bog`lanish usulning mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasi tarkibiga kirgan o`tgan yil doirasidagi ayrim olingan miqdoriy ko`rsatkichlarni aynan shu ko`rsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U yoki bu omilning ta'siri ketma-ket ayirish yo`li bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayrıladı, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob ayrıladı va hokazo. Birinchi hisobda hamma ko`rsatkichlar o`tgan yil doirasida olinadi, so`nggi hisobda esa - haqiqatdagi bajarilish ko`rsatkichlari olinadi.

Zanjirli bog'lanish usulida natijaviy ko`rsatkichning o'zgarishi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli almashtirishlar orqali hisob-qitob qilinadi.

Biroq, tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning ta'sir birliklari funksional bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi. Zanjirli bog'lanish usulida zanjirli tizimdan foydalanilganligi sababli uning nomi zanjirli usul deb nomlangan. Bu tartib natijaviy ko'rsatkichga har bitta omilning ta'sir darajasini hisoblashda ushbu omilning yangilangan ifodasi olinishi bilan farq qiladi. Qolgan barcha ta'sir birliklar o'zgarishsiz qoldiriladi va h.k. Ushbu omillar oxirgi omil ta'sirini aniqlashga qadar davom ettiriladi. Zanjirli usulni turli ifodalarga nisbatan qo'llash mumkin va bu uni qo'llash imkoniyatlarini oshiradi va umumiyligi, ya'ni ommalashishini ta'minlaydi.

8-jadval

Zanjirli bog'lanish usulida ta'sir etuvchi birliklarni hisoblash metodikasi

| Ifoda | | O'zgarishga ta'sir etuvchi birliklar hisob kitoblari | | | |
|----------|------------------------------|--|-----------|-----------|-----------------------|
| | | reja | Shartli 1 | Shartli 2 | Xaqiqat |
| Q=xu | Jami o'zgarish Qx-Qr | Xr*Yr | Xx*Yr | X | Xx*Yx |
| 1 | Birinchi omil (x)ta'siri | X | X | X | Xx*Yr-Xr*Yr |
| 2 | Ikikinchi omil (y)ta'siri | X | X | X | Xx*Yx-Xx*Yr |
| Q=xuz | Jami o'zgarish Qx-Qr | Xr*Yr*Zr | Xx*Yr*Zr | Xx*Yx* Zr | Xx*Yx* Zx |
| 1 | Birinchi omil (x)ta'siri | X | X | X | Xx*Yr*Zr- Xr*Yr*Zr |
| 2 | Ikikinchi omil (y)ta'siri | X | X | X | Xx*Yx* Zr- Xx*Yr*Zr |
| 3 | Uchinchi omil (z)ta'siri | X | X | X | Xx*Yx* Zx-Xx*Yx* Zr |
| Q=x/y | Jami o'zgarish Qx-Qr | Xr/Yr | Xx/Yr | X | Xx/Yx |
| 1 | Birinchi omil (x)ta'siri | X | X | X | Xx/Yr-Xr/Yr |
| 2 | Ikikinchi omil (u)ta'siri | X | X | X | Xx/Yx-Xx/Yr |
| Q= z/x+u | Jami o'zgarish Qx-Qr | Zr /Xr+Yr | Zx/ Xr+Yr | Zx/ Xx+Yr | Zx/ Xx+Yx |
| 1 | Birinchi omil (x)ta'siri | X | X | X | Zx/ Xr+Yr - Zr /Xr+Yr |
| 2 | Ikikinchi omil (y)ta'siri | X | X | X | Zx/ Xx+Yr- Zx/ Xr+Yr |
| 3 | Uchinchi omil (z)ta'siri | X | X | X | Zx/ Xx+Yx- Zx/ Xx+Yr |

Mahsulot sotish rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobida buni ko'rib o'tishimiz mumkin. Mahsulot sotish rentabelligi quyidagi bog'lanishda aniqlanadi:

Rc=Syaf/Sst

Bunda Syaf-sotishdan yalpi foyda

Sst-sotishdan sof tushum

Iqtisodiy tahlilda indeks usulidan ham foydalaniladi. Indeks so'zi lotincha "Index" atamasidan olingan bo'lib, "belgi", "ko'rsatkich" degan ma'noni bildiradi. Har qanday ko'rsatkich ham indeks ma'nosida bir xilda ishlatilmaydi. Tahlilda, statistikada indeks deganda - bevosita qo'shib bo'lmaydigan bo'laklardan tashkil topgan ikki to'plamni taqqoslash tushuniladi.

Tahlilda shunday hodisalar uchraydiki, ularga mumkin bo'limgan sharoitda umumlashtirib baho berish zaruriyati tug'iladi. Bu kabi muammolarni yechish uchun tahlilda mahsulot hajmi indeksi, baho, tannarx, mehnat unumдорлиги va boshqa indekslar hisoblanadi.

Indekslar to'plam birliklarini qamrab olishiga qarab xususiy va umumiylardan indekslarga bo'linadi. Xususiy indekslar to'plamning ayrim elementlarining o'zgarishini ta'riflaydi. Taqqoslanish asosiga qarab indekslar bazisli va zanjirli indekslarga bo'linadi. Asos sifatida qabul qilingan miqdor bilan qolganlari taqqoslansa, bu indekslar bazisli, o'zidan oldingi davr bilan taqqoslansa zanjirli indekslar deyiladi. Quyidagi 9-jadvalda korxonada mahsulot ishlab chiqarishning miqdor ko'rsatkichlarini yillar boyicha o'sib boorish holati tahlili keltirilgan.

9-jadval

Mahsulot ishlab chiqarishning o'sib borishi tahlili

| Yillar | Jami ishlisb chiqarilgan mahsulot, tonna | Bazisli indeks 1-yilga nisbatan | | Zanjirli indeks oldingi -yilga nisbatan | |
|----------------|--|------------------------------------|---------------|---|---------------|
| | | % | miqdor, tonna | % | miqdor, tonna |
| Birinchi yil | 5266,3 | 100 | - | 100 | - |
| Ikkinci yil | 5448,8 | 103,5 | +182,5 | 103,5 | +182,5 |
| Uchinchi yil | 5322,4 | 101,1 | +56,1 | 97,7 | - |
| To'rtinchi yil | 5401,6 | 102,6 | +135,3 | 101,5 | +126,4 |
| Beshinchi yil | 5366,9 | 101,9 | +100,6 | 99,4 | +79,2 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, bazisli indeks yillar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hamji birinchi yilga nisbatan o'sgan.

Xususan, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi miqdor ko'rsatchida birinchi yilga nisbatan ikkinchi yili 3,5 foizga yoki 182,5 tonnaga; uchinchi yilda 1,1 foizga yoki 56,1 tonnaga, to'rtinchi yili 2,6 foizga yoki 135,6 tonnaga va beshinchi yili 1,9 foizga yoki 100,6 tonnaga ko'paygan. Zanjirli indeks boyicha tahlil qilganimizda mahsulot ishlab chiqarish hajmining dinamik o'sishini mutlaqo boshqasha holda ko'ramiz. Jumladan, ikkinchi yili birinchi yilga nisbatan 3,5 foizga yoki 182,5 tonnaga ko'paygan bo'lsa, uchinchi yilda ikkinchi yilga nisbatan mahsulotning hajmi 97,3 foizni tashkil qilgan yoki 2,3 foizga kamaygan. Vaholanki, bazisli indeksda (to'rtinchi yili uchinchi yiliga nisbatan) bu ko'rsatkich 1,1 foizga oshgan edi. Zanjirli indeksda to'rtinchi yili uchinchi yilga nisbatan mahsulot yetishtirish hajmi yana 1,5 foizga ko'paygan. Lekin bu ko'rsatkich bazisili yilga nisbatan 1,1 foizga (2,6-1,5) kam bo'lган. Beshinchi yilga kelib mahsulot ishlab chiqarish miqdori to'rtinchi yilga nisbatan yana 0,6 foizga kamayganini ko'ramiz. Lekin bazisli indeksda mahsulot yetishtirish hajmi 101,9 foizga bajarilgan edi. Demak, korxona faoliyati tahlilida faqat bazisli indekslardan foydalanmasdan balki, zanjirli indekslardan ham keng foydalanish zarur. Bu o'z navbatida korxona faoliyatini va uning tarmoqlarini to'g'ri tahlil qilib, batafsil baholashga yordam beradi.

Shuningdek, indeks usulining agregat shakli boyicha ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan mahsulot hajmiga miqdor va baho omillarini ta'sirinini ham aniqlash mumkin bo'ladi.

Zanjirli almashtirish usuldan foydalanilganda joylanishlarning navbatliligini to'g'ri saqlash katta ahamiyatga ega. Chunki, uning noto'g'ri joylashuvi hisob-kitoblarni noto'g'ri natija berishiga olib keladi. Tahlil amaliyotida dastlab miqdoriy ko'rsatkichlar va so'ngra sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Tahlil qilishga kirishishdan oldin quyidagilarni bajarmoq kerak:

- 1) O'rganiladigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishni aniq bilmoq;

- 2) Miqdor va sifat ko'rsatgichlarini ajratmoq;
- 3) Joylashtirish tartibini to'g'ri belgilamoq.

Balans uslubi - buxgalteriyada, rejalashtirishda va statistikada keng miqyosda qo'llaniladi. Masalan, tovar balansi, buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlar balansi va boshqalar.

Tahlilning an'anaviy usullari tarkibida mutlaq va nisbiy farq usullari ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mutlaq farq usuli natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar soni ikki yoki undan ortiq ta'sir birliklariga ega bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Uning mazmunini natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birlikning farqi qolgan omillarning reja, haqiqatdagi (uzviy ketma-ketlikda) ko'rsatkichlarga ko'payrilgan holda aniqlanadi.

Mutlaq farq usuli an'anaviy usullarning sodda modelli tizimi hisoblanib, ko'pincha samaradorlik va natijaviylik ko'rsatkichlariga nisbatan qo'llaniladi.

Uning muhim xususiyati omilar ta'sirini hisob-kitob qilishda uzviylikning, aniqlikning ketma-ketlikning qat'iy belgilanishi hisoblanadi. Analitik ketma-ketlikda birinchi navbatda sifat ko'rsatkichlari keyingi qatorlar bo'yicha bog'liq miqdor ko'rsatkichlar tartibланади.

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillarni mutlaq farq usulida hisob-kitob qilishimiz mumkin. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga: asosiy vositalrning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi, asosiy vositalardan samarali foydalanish (asosiy vositalarning qaytimining o'zgarishi) ko'rsatkichining ta'siri kabilar kiradi.

Mutlaq farq usulida uch omillik ta'sir birliklari kuyidagi bog'lanishlar orqali hisob-kitob qilinadi:

Omillar ta'sirini uchta omilli birlikka nisbatan qo'llashda quyidagi bog'lanishlar amalga oshiriladi.

10-jadval

Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi birliklar soni uchta bo'lganda mutlaq farq usulining qo'llash metodikasi

| t/r | Ko'rsatkichlar | O'tgan yil | Hisobot yili | Farqi, +,- | O'sishi, % |
|-----|--|------------------------|--------------|--------------|-----------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5(4-3) | 6(4/3*100-100) |
| 1 | Natija ($Q = X * Y * Z$) | Q_0 | Q_1 | ΔQ | $Q_1/Q_0 * 100 - 100$ |
| 2 | Birinchi ta'sir birligi(X) | X_0 | X_1 | ΔX | $X_1/X_0 * 100 - 100$ |
| 3 | Ikkinchchi ta'sir birligi(Y) | Y_0 | Y_1 | ΔY | $Y_1/Y_0 * 100 - 100$ |
| 4 | Uchinchi ta'sir birligi(Zr) | Z_0 | Z_1 | ΔZ | $Z_1/Z_0 * 100 - 100$ |
| 5 | Omillar ta'sirining hisob-kitobi | X | | x | X |
| 5.1 | Natijaviy ko'rsatkichga birinchi omil ta'siri hisob-kitobi | $\Delta X * Y_r * Z_r$ | | ΔQ_x | X |
| 5.2 | Natijaviy ko'rsatkichga ikkinchi omil ta'siri hisob-kitobi | $\Delta Y * X_x * Z_r$ | | ΔQ_y | X |
| 5.3 | Natijaviy ko'rsatkichga uchunchi omil ta'siri hisob-kitobi | $\Delta Z * Y_x * X_x$ | | ΔQ_z | X |

Nisbiy farq usulini tahlilda qo'llash orqali mutloq ko'rsatkichlardan tashqari nisbiy ko'rsatkichlar orqali ham sabab-oqibat bog'lanishlarini, omillarning natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini hisob-kitob qilish imkoniyati vujudga keladi. Ushbu usul ham mutloq ifodalarga tayangan holda omillar ta'sirini foizli birliklarda, natijani o'zgartirishni uzviy ketma-ketlikda hisob-kitob qilishni talab etadi.

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy tahlilning hisobotlarni o'qish, gorizontal, vertikal, trend va moliyaviy koeffitsentlar usullari keng qo'llaniladi. Ushbu usullarning aksariyati milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan oddiy-an'anaviy usullarga o'xshab ketadi. Masalan, taqqoslash usulida gorizontal va vertikal tahlil uyg'unligi kuzatilsa, indekslar usuli aynan trend tahlil usuliga o'xshaydi. Moliyaviy hisobotlarni o'qish hamda moliyaviy koeffitsentlar usullari ham bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda iqtisodiy tahlil jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.

Qisqacha xulosalar

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning metodi, va uning o'ziga xos xususiyatlari, metodlarning tarkibi va tasnifi, iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy va iqtisodiy-

matematik usullari, oddiy-an'anaviy usullarning amalda qo'llanish tartiblari hamda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan tahlil usullari boyicna nazariy, uslubiy asoslar bayon qilingan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Iqtisodiy tahlil fanining metodi deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy tahlil metodining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Iqtisodiy tahlil metodi va usullarining tasnifi deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari qanday tarkiblarga bo'linadi?
5. Oddiy-an'anaviy usullarning mohiyati va tarkibini aytib bering?
6. Iqtisodiy-matematik usullardan foydalanishning qanday shartlari mavjud?
7. Iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullaridan foydalanish tartiblarini aytib bering.
8. Taqqoslash usulidan foydalanish shartlari nimalardan iborat?
9. Guruhlashtirish, balansli, zanjirli va indeks usullarining tavsifi va qo'llanilishini aytib bering.
10. Xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan iqtisodiy tahlil usullari haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. Iqtisodiy tahlil metodining asosi nima?

- A. Xujjatlashtirish.
- B. Balanslashtirish.
- C. Dialektik usul.
- D. Taqqoslash usuli.

2. Iqtisodiy tahlilda qanday usullardan foydalaniladi?

- A. Baholash, kalkulyatsiya qilish, ikki yoqlama yozuv.
- B. Taqqoslash, guruhlash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, analitik jadvallar tuzish.
- C. Inventarizatsiya.
- D. Ma'lumotlarni umumlashtirish.

3. Iqtisodiy tahlilning maxsus usullarini ayting.

A.Taqqoslash usuli, guruhlashtirish, yetakchi bo'g'inni ajratib qo'yish, mutlaq va nisbiy miqdorlar.

B. Dinamika usuli, indekslar, bartaraf etish usuli.

S. Zanjirli almashtirisho' usuli, ko'rsaktichlarning o'sish sur'atidagi farq usuli, balans usuli.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

4. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matemtik usullarini ayting.

A. Taqqoslash usuli, guruhlashtirish usuli, yetakchi bo'g'inni ajratib qo'yish usuli, mutlaq va nisbiy miqdorlar usuli.

B. Integral usuli, korrelyatsiya va regressiya usuli, nazariy o'yin usuli.

S. Zanjirli almashtirish usuli, ko'rsaktichlarning o'sish sur'atidagi farq usuli, balans usuli.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

5. Taqqoslash usuli, bu –

A. Bir necha iqtisodiy ko'rsatgichlar hisobot ma'lumotlariga yoki reja ko'rsatgichlariga solishtirish

B. Iqtisodiy ko'rsatgichlar natijasiga ta'sir etuvchi bir necha omillar ta'sirini aniqlash

S. Ishlab chiqarish darajasining balansini tuzish

D. Moliyaviy koeffisientlarni aniqlash

6. Qaysi javobda iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri kursatib o'tilgan?

A. Integral usuli

B. Zanjirli bog'lanish usuli

S. Nazariy oyin usuli

D. Evrestik tahlil usuli

7. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy tahlil qilishning qanday yo'llari mavjud?

A. Hisobotlarni o'qish, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlil, moliyaviy koefitsentlar tahlili

B. Taqqoslash, guruhlash, zanjirli almashtirish, balans, indeks, moliyaviy koeffitsentlar tahlili

S. Moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyatি

D. To'g'ri javob yuq.

8. Iqtisodiy tahlilda dialektik uslubning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?

A. Oddiydan murakkabga, xususiylikdan umumiylitka qarab o'rganadi

B. Birlikdan ko'plikka, sifatdan miqdorga qarab o'rganadi

C. Murakkablikdan oddiylikka qarab o'rganadi

D. Oddiydan murakkabga, sifatdan miqdorga qarab o'rganadi

9. Iqtisodiy tahlilning zanjirli bog'lanish usuli...

A. Yakuniy ko'rsatkichlar natijasiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini o'rganadi

B. Bir necha moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlilini o'rganadi

C. Moliyaviy tahlilining boshqaruv jarayonini o'rganadi

D. Analitik jadvallar tuzishni o'rganadi

Amaliy mashg'ulot bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Matnda keltirilgan analitik jadvallardan foydalangan holda iqtisodiy tahlil usullariga mos keluvchi analitik jadvallar tuzing, to'ldiring va undagi ko'rsatkichlarning o'zgarishlarini hisoblang, natijalarga tahliliy xulosa yozing.

2. Quyida berilgan jadval ma'lumotlariga⁸ asosan yakuniy ko'rsatkichni aniqlang va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq, zanjirni almashtirish usullari orqali hisoblang va natijalarga tahliliy xulosa yozing.

| Ko'rsatkichlar | Shartli belgi | Reja bo'yicha | Haqiqatda |
|---|---------------|---------------|-----------|
| 1.Sotilmagan mahsulotning yil boshiga qoldig'i (m.so'mda) | T1 | 10000 | 15000 |
| 2.Tovar mahsuloti (m.so'mda) | M | 400000 | 420000 |
| 3.Sotilmagan mahsulotning yil oxiriga qoldig'i (m.so'mda) | T2 | 8000 | 9000 |

⁸ Izoh: ma'lumotlar shartli olingan, nashr materiallari uchun manba bo'la olmaydi.

2-MODUL. IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL QILISH

3-BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROT MANBALARI

VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH

O'quv maqsadi: iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tavsifi, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qoyiladigan talablar, tahlilni manbalar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llariga tegishli nazariy bilimlarni hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *boshqarish, rejalashtirish, nazorat, tahlil, tur, tezkor, joriy, istiqbol, ichki, tashqi, moliyaviy, boshqaruv, statistik, investitsion, shakl, mezon, axborot, manba, hisob, hisobot, talab.*

3.1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to'g'risida tushuncha

Iqtisodiy tahlil oldiga qoyilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, uni bir necha turlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy tahlil boshqarish jarayonining muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy tahlil turlarini o'rganishni boshqarish vazifalarini turkumlash asosida amalga oshirish zarur. Chunki, iqtisodiy tahlil boshqarish vazifalarining har birini bajarishda muhim elementlardan biri hisoblanadi. Boshqarish vazifasi - bu boshqarish faoliyatining alohida turidir. Biz quyida iqtisodiy boshqaruvning asosiy vazifalarini keltiramiz:

- 1) Boshqarishni axborotlar bilan ta'minlash.
- 2) Tahlil qilish.
- 3) Rejalashtirish.
- 4) Boshqarishni tashkil etish.
- 5) Nazoratni amalga oshirish.

Dastlabki ikki vazifa boshqarishning texnologik jarayonidir, qaysiki, ular qaror qabul qilish jarayonini axborotlar va tahlillar bilan ta'minlaydi. Qaror qabul qilishini o'zi esa boshqaruv vazifalari sifatida amalga oshiriladi hamda boshqarishni vaqtinshalik bosqichlarini tashkil etadi, ya'ni rejalashtirish, boshqarishni tashkil etish va nazoratni amalga oshirish. Ushbu bosqichlarning barchasi iqtisodiy tahlilga

asoslanadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil boshqarishni barcha vazifalari uchun ham zaruriy shartdir.

Iqtisodiy tahlil turlari aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda berilgan bo'lib, ularni bir necha turga ajratish mumkin. Umumiy holatda iqtisodiy tahlil turlari tarmoq ichidagi va tarmoqlararo iqtisodiy tahlilga bo'linadi. Shuningdek, hisob va tahlil ishlarini xalqaro standatrlar asosida tashkil etish nuqtai-nazaridan yondashilganda iqtisodiy tahlilni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlilga ajratib o'rganish amaliyoti mavjud.

Iqtisodiy tahlil mazmuni bo'yicha to'liq, ya'ni bat afsil iqtisodiy tahlil va mavzuli iqtisodiy tahlil turlariga bo'linadi.

To'liq, ya'ni bat afsil iqtisodiy tahlil korxona iqtisodiy faoliyatining barcha jihatlarini kompleks o'rganishni harakterlaydi. Mavzuli iqtisodiy tahlil korxona iqtisodiy faoliyatining alohida jihatlarini, ya'ni qisman, tanlangan mavzuga tegishli jihatlarini o'rganishni harakterlaydi. Mavzuli iqtisodiy tahlil predmetiga: aktivlardan samarali foydalanish, aktivlarni moliyalashtirishda alohida manbalardan samarali foydalanish darajasi, to'lov layoqati va moliyaviy barqarorlik holati, samarali investitsion faoliyat, kapitalning moliyaviy tuzilishi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda funksional qiymatli tahlil ham iqtisodiy tahlilning yangi yo'nalishi sifatida ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan⁹. Funksional qiymatli tahlil (FQT) bajarilishi mo'ljallangan funksional vazifa yoki boshlanmagan biznes uchun sarflanishi mumkin bo'lgan xarajatlarning samaradorligini oldindan aniqlash imkonini beradi. Biz keyingi paragrifda iqtisodiy tahlil turlarini ma'lum tasniflash mezonlari boyicha keltirib o'tasmiz.

Iqtisodiy tahlil shakllari asosan ichki va tashqi shakllarga bo'linadi. Ichki iqtisodiy tahlil korxona ichida tashkil etiladi. Ichki iqtisodiy tahlil-korxonaning ichki bo'limlari, hodimlari tomonidan o'tkazilib o'rganiladigan masalalarning ko'lami bilan tashqi iqtisodiy tahlildan farq qiladi. Uning axborotlar bazasiga faqat biznes

⁹ Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. Samarcand, Zarafshon. 207-bet.

reja ma'lumotlari, me'yoriy-huquqiy asoslar, statistik hisobot ma'lumotlari, boshqaruv hisototi ma'lumotlari, chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari, xususan, buxgalteriya hisobi va hisobotining barcha manbalari va hisobdan tashqari manbalarni ham kiritish mumkin. O'rganiladigan masalalar ko'lамини boshqaruvchilar va tahlilchilarning qiziqishlari doirasidan kelib chiqib belgilash mumkin bo'ladi. Ichki iqtisodiy tahlil turining o'ziga hos xususiyatlarini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

- tahlil sub'yeqtlarining tor guruhi;
- tahlil natijalari faqat ichki talablarga, korxona boshqaruvi yuzasidan yo'naltirilganligi;
- teran iqtisodiy tahlilni o'tkazishda axborotlarning keng doirasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi;
- tahlilni o'tkazish bo'yicha me'yoriy maxsus usullar bilan birgalikda aniq reglamentlari (tartiblarning) belgilanmagan usullaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi;
- aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlash yuzasidan chuqur iqtisodiy tahlilni o'tkazishning mavjudligi;
- boshqaruv apparati talablaridan kelib chiqqan holda analitik ishlarni tashkil etilishi.

Tashqi iqtisodiy tahlil cheklangan axborotlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari asosida xo'jalik yurituvchi sub'yeqtlar moliyaviy holatini o'rganishni harakterlaydi va korxona erishgan natijalarining barcha sirlarini ochib berish imkonini bermaydi. Ushbu tahlil ichki axborot bazasidan foydalanish imkoniga ega bo'limgan, korxona faoliyati bilan qiziquvchilar tomonidan, mulk egalari, investorlar yoki davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy tahlilning ahamiyatli jihatlari quyidagilar bilan harakterlanadi:

- tahlil sub'yeqtari va axborot foydalanuvchilarining ko'pligi;
- tahlilchilarning maqsadi va qiziqishlarining turli tumanligi;

-hisobga olish va hisobotlarning me'yoriy qoidalari, tahlil etishning rasmiy jihatlarining belgilanganligi;

-tahlilning faqat chop etiladigan moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar bazasiga tayangan holda o'tkazilishi;

-qo'yiladigan analitik masalalarining cheklanganligi;

-axborotdan foydalanuvchilar uchun korxona faoliyati yuzasidan tahlil natijalaridan foydalanishning yuqori darajada ochiqligi.

Tashqi iqtisodiy tahlilning asosiy jihatlari moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona aktivlari, o'z sarmoyasi va majburiyatlarining o'zgarishiga, to'lov layoqati va likvidlilik darajasiga, moliyaviy holati va barqarorligi, bozor va ish faolligiga, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatiga, iqtisodiy mustahkamligi va nochorligiga, foya va rentabellik darajasiga, pul oqimi va xususiy kapitalning o'zgarishlariga, korxonaning iqtisodiy reytingini aniqlashga qaratiladi.

3.2. Iqtisodiy tahlilni turlar bo'yicha tasniflanishi va uning mezonlari

Iqtisodiy tahlilning boshqarish jarayonining muhim vositasi ekanligini inobatga olgan holda iqtisodiy tahlil turlarini tasniflashda ularni boshqarishdagi xususiyatlariga ko'ra ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, boshqarish jarayoni mazmuni boyicha iqtisodiy tahlil quyidagi uch turga bo'linadi:

- 1) tezkor tahlil;
- 2) joriy tahlil;
- 3) istiqbolli tahlil.

Iqtisodiy tahlilning tezkor, joriy va istiqbol turlari boshqarish jarayonida ishtirok etadi. Tezkor tahlil tezkor qarorlar qabul qilishda (kunlik ishlab chiqarish rejasingin bajarilishi kabi) muhim omil hisoblanadi. Joriy tahlil esa korxona faoliyatini tahlil qilishda keng miqyosda qo'llaniladi va yil yakunlari bo'yicha erishilgan natijalarini baholash, yutuqlarni ommalashtirish hamda yo'l qo'yilgan xato kamchiliklarni aniqlash, foydalanilmagan imkoniyatlarni axtarib topish naqsadida o'tkaziladi. Istiqbol tahlil esa korxonaning yaqin va uzoq muddatlarga mo'ljallangan istiqbolli rejalarini, loyiha va dasturlarining yashovchanligini, amalga oshirishdagi

mavjud imkoniyatlarini aniqlash jarayonida qo'llaniladi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil turlarini boshqarish ob'yektining tavsifiga qarab ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) Iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi boyicha (sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqalar).
- 2) Ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqarish darjasи boyicha (xalq xo'jaligi butunligicha, respublika, viloyat va tuman).
- 3) Kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoni bosqichlari boyicha (ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va iste'mol).
- 4) Ishlab chiqarishni tarkibiy elementlari boyicha (mehnat va moddiy resurslar) hamda ishlab chiqarish munosabatlarining ayrim elementlari boyicha.

Maxsus adabiyotlarda tahlil turlarini faqat yuqoridagi holda turkumlash bilan chegaralanmaydi. Bulardan tashqari, iqtisodiy tahlil yana quyidagicha turkumlanishi mumkin:

- 1) tahlilni amalga oshiruvchilar guruhi boyicha (iqtisodiy, xizmat, jamoat tashkilotlari va boshqa);
- 2) davrlari boyicha (ko'p yillik, bir yillik, choraklik, oylik, o'n yillik, har kunlik, smenalik va muddatsiz);
- 3) mazmuni va masalalarini qamrab olishi boyicha (tuliq, butun, xo'jalik faoliyatini alohida bo'linmalari faoliyatini, mavzular va boshqa);
- 4) Ob'ektni o'rghanish uslubi boyicha (majmuali, tizimli, taqqoslama, bat afsil va tanlama va mavzuli);

Boshqaruvchi organning manfaatiga ko'ra ham iqtisodiy tahlil turlari ma'lum yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

- 1) texnik-iqtisodiy tahlil;;
- 2) ijtimoiy-iqtisodiy tahlil
- 3) iqtisodiy-huquqiy tahlil;
- 4) iqtisodiy-ekologik tahlil.

3.3. Iqtisodiy tahlilning shakllari

Iqtisodiy tahlil shakli deganda uning o'ziga xos bo'lgan tashqi ko'rinishi, sirtqi qiyofasi bilan birga o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan usullari tushuniladi. Iqtisodiy tahlil shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi: kompleks tahlil, omilli tahlil, stoxostik tahlil, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, xo'jalik faoliyatni tahlili, auditorlik tahlili, solishtirish tahlili, marjinal tahlil. Iqtisodiy tahlil shakllari bir-biridan ma'lum darajada o'ziga xos bo'lgan usullari, maqsadi va vazifalari bilan farqlanadi. Endi solishtirish, omilli va stoxostik tahlil shakllarining mazmunini ko'rib chiqamiz.

Solishtirish tahlili – faoliyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni baho va vaqt jixatidan solishtiriladigan holatga keltirib, amalga oshiriladigan tahlildir. Bu korxona, tarmoq va alohida mavzu bo'yicha amalga oshiriladi.

Omilli tahlil - faoliyatda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasiga omillarning ta'sirini hisoblash usullari majmuasini o'zida aks ettiruvchi tahlildir.

Stoxostik tahlil – natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'limgan taqdirda ular o'rtasidagi bog'liqlik darajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

Marjinal tahlil ham, loyiha tahlili ham iqtisodiy tahlilning asosiy shakllaridan hisoblanadi.

Marjinal tahlil deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lib, natija bo'yicha biznes rejada ko'zda tutilgan samaradorlikka, birinchi navbatda foydaga erishish uchun zarur bo'lgan ularning miqdorini aniqlashga qaratilgan tahlil tushuniladi.

Loyiha tahlili deganda bazis davrlarining haqiqiy hisobot ma'lumotlarini o'zaro bog'lagan holda o'rganish asosida hali korxona faoliyatida sodir bo'limgan jarayonlarning keljakdagi hajmini aniqlash maqsadida qo'llaniladigan tahlil tushuniladi. Loyiha tahlili yordamida korxonaning biznes rejasi va investitsion loyihalari asoslanadi, umuman olganda uning keljakdagi istiqboli belgilanadi.

Boshqaruv tahlili – xo’jalik yurituvchi subyektning ta’minot, ishlab chiqarish, tijorat faoliyatlarini korxona egasi va mutaxassislari tomonidan o’rganish va ichki imkoniyatlarini aniqlash asosida samaradorlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tahlildir.

Moliyaviy tahlil deganda, xo’jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati (moliyaviy natijalari va moliyaviy holati)ni o’rganish va moliyaviy barqarorligi, to’lovga qodirligi kabi holatlarini yaxshilash uchun ichki imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tahlil tushuniladi.

Xo’jalik faoliyatining tahlili – xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyatini o’rganishga qaratilgan tahlildir. Ushbu tahlil mikroiqtisodiyot darajasidagi tahlildir. Ushbu tahlil boshqaruv va moliyaviy tahlil shakllarini o’z ichiga qamrab oladi.

3.4. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qo’yiladigan talablar

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborotlar haqida fikr yuritishdan oldin, axbotorning mazmunini yoritib o’tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Axborot bu, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo’lgan, bo’layotgan va bo’ladigan jarayonlar to’g’risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo’lgan ma'lumotlar majmui hisoblanadi. Lekin iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun bizga barcha axborotlar ichidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o’z ichiga olgan iqtisodiy axborotlar zarur. Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo’lgan, bo’layotgan va bo’ladigan jarayonlar to’g’risidagi ma'lum bir huquqiy kuchga ega bo’lgan ma'lumotlar majmuidan iborat.

Axborot tizimlarini xayotda qo’llab ishonchli, sifatli va aniq natijalarni olish mumkin. Buni quyidagilarda tavsiflash mumkin:

- matematik metod va intellektual tizimlarni qo’llab, boshqarishning samarali variantlarini aniqlash;
- tizimni avtomatlashtirish natijasida ishchilarining vazifalarini yengillashtirish;
- eng to’g’ri axborotga ega bo’lish;
- axborotlarni qog’ozda emas, balki magnit yoki optik disklarda saqlash;

- mahsulot ishlab chiqarish sarf harajatlarnini kamaytirish;
- foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish.

Axborot tizimlarida boshqaruv tuzilmasining o'rni beqiyos. Axborot tizimi jamiyat va har bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim:

1. Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo'llanilish maqsadi, jamiyat va korxona oldida turgan vazifa bilan to'g'ri kelishi kerak. Masalan, tijorat firmasida – foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak.
2. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika tamoyillari asosida foya keltirishi kerak.
3. To'g'ri, kafolatli va o'z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga yetkazishi lozim.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlarning jadalligi, zamonaviy buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning ham mazmunini tubdan yangi shakl va mazmunda yuritishni talab etmoqda. Hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilni sifati va samarasi tahlil manbalariga bevosita bog'liq. Aynan tahlilda foydalaniladigan manbalar deganda, tahlil jarayonida foydalaniladigan qonuniy asoslarga ega bo'lgan axborotlar va ma'lumotlar tushuniladi. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan manbalarni shartli ravishda meyoriy-huquqiy, rejaviy hamda hisob va hisobot axborot ma'lumotlariga ajtarish mumkin. Hisob va hisobot manbalatrining o'zi tezkor hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot, buxgalteriya hisobi va hisoboti turlariga bo'linadi. Tahlillardan ko'rindaniki, tahlil manbalarining 70 foizdan ko'prog'i buxgalteriy hisobi va hisoboti ma'lumotlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda milliy hisobchilik tizimi bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga o'tkazilmoqda. Shunga asosan buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqaruv hisobi va hisoboti hamda moliyaviy hisob va hisobotga ajratilgan.

Moliyaviy hisobot - xo'jalik yurituvchi sub'yekt alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektligi yoki xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning jamlangan guruhiga kirishidan qat'iy nazar, shu xo'jalik yurituvchi sub'yektning ma'lum bir davrdagi faoliyatini ko'rsatuvchi moliyaviy axborotni taqdim etish usulidir.

Moliyaviy hisobot - buxgalteriya hisobi sub'yektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotidan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari haqidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

11-jadval

Moliyaviy xisobot shakllari va ularning axborotligi

| Xisobot shakllari | | | |
|--|---|--|--|
| Buxgalteriya balansi | Moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot | Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot | Pul oqimi to'g'risidagi hisobot |
| Iqtisodiy resurslar haqidagi, likvidlik va to'lovga qobililik haqidagi, korxonaning o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini baholash to'g'risidagi axborotlarni olishga imkon beradi. | Resurslar bazasi yuzasidan pul oqimlarining ijobiy saldosini, faoliyat natijasi va uning shakllanishi, hamda rentabellik haqidagi axborotlarni olish imkonini beradi. | Korxonaning o'z mablag'lari manbasi va ularning harakatini, korxonaning pul ishlab topish qobiliyatini, ushbu mablag'larga korxonaning ehtiyojini baholash imkonini beradi | Korxoaning operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyatdan pul tushumlari hamda ularning sarflanishi, pul mablag'larini samarali boshqarish to'g'risidagi axborotlarni olish imkonini beradi |

Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi.

Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

Asosiy xo'jalik jamiyati bo'lган va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga, o'z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi sub'yektlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek, asosiy xo'jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo'yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi.

Moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- davlat soliq xizmati organlariga;
- ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika organlariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa foydalanuvchilarga.

Moliyaviy hisobot elektron hujjat tarzida taqdim etilishi mumkin.

Moliyaviy hisobot davriy va yillik muddatlar boyicha taqdim etiladi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar buxgalteriya balansidan hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan iborat faqat yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdar banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari, sug'urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi sub'yehti boshqa yuqori boshqaruva organining yillik umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e'lon qilishi shart.

3.5. Tahlilni manbalar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llari

Tahlilning maqsadi to'g'ri xulosa chiqarish, odilona boshqaruva qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdan iboratdir. Ammo, to'g'ri xulosa chiqarish uchun axborotlar haqqoniy, aniq va to'g'ri bo'lismi qilinadi. Axborotlarni kim to'playdi, kim uning haqqoniyligiga javob beradi? Albatta mutaxassislar, boshqaruva idorasida o'tirgan xodimlar. Agar ular halol-pok bo'lmasa axborotlar to'g'ri bo'lmasligi aniq. Chunki, har bir axborotning zamirida, yuqorida ta'kidlanganidek, manfaat yotadi. Agar xodim axborotlarni jamlash va shakllantirishda o'z manfaatini ustun qoyib ishlaydigan bo'lsa, u haqqoniy

bo'lmasligi mumkin. Haqiqiy bo'lmanan axborot hamisha chalkash va noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida oqilona boshqarishga salbiy ta'sir qiladi. Biz quyida tahlilda foydalaniladigan ochiq hisobot, moliyaviy hisobtlarni tayyorlashdagi mavjud muammolarni ko'rib chiqamiz.

Moliyaviy hisobotlar va ularning axborotlar bazasini analitik qayta ishslashning kompyuter dasturlarining yetarli darajada yaratilmaganligi ham sohaga oid muammolarni biroz chigallashtirmoqda. Bu boradagi ishlar boshlanganiga qaramasdan haligacha litsenziya olingan dasturiy taminotlar to'liq yaratilmagan.

Moliyaviy hisobtlarni tahlil etishda qo'shimcha manbalarga juda ko'p zaruriyat tug'iladi. Ularni olinishi, olingan axborotlarning ishonchligi, tezkorligi, aniqligi, asosligi kabi qator muommolarga duch kelinmoqda. Bu jarayonlar ko'proq xo'jalik sub'yektlarining fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, bozor va ish aktivligini baholashda ayni qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Moliyaviy hisobtlarni tuzish va taqdim etish bo'yicha eng muhim muammolardan bittasi bu, ular bo'yicha ma'muriy xarajatlarning haddan tashqari ortib ketishi bilan bog'liqdir. Ma'muriy xarajatlarning hisobi va ularni me'yorlash bo'yicha hech qanday tartiblar va qoidalar belgilanmaganligi analitik tahlilchilarning ish unumiga ta'sir qilmoqda.

Moliyaviy hisobtlarni tuzishda xalqaro standartlardagi normalarga amal qilishda yagona yondashuvning yuqligi, ularni har bitta xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'ziga xos tarzda qo'llashidagi turlicha yondashuvlarning mavjudligi ham muammolardan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, jahon bazoriga chiqishda ularning qay darajada ahamiyatli ekanligi, iqtisodiy jixatdan yetarli darajada asoslanmaganligi ham ushbu sohada ishlarning jadal rivojlanishiga ta'sir etmoqda.

Moliyaviy hisobtlarni tuzish va taqdim etish tartiblarida elektron hisobotlarning (moliyaviy (buxgalteriya), soliq, statistika, bojxona, banklar hisobotlarining) yagona portalini shakllantirish va tegishli bo'g'in boyicha mijozlarning umumlashgan axborotlarini olish imkoniyatlari ta'minlanmagan. Bu esa o'z navbatida qiyosiy tahlilni amalga oshirishda qiyinchilik tug'dirmoqda.

Ya'ni, korxonalar o'rtasida qiyosiy tahlilni amalga oshirish, metodologik xilma xillik, turlicha hisob-kitoblarga tayanilishi yagona analitik xulosalar chiqarishga sezilarli ta'sir etmoqda.

Yangi asrni axborotlar, texnologiyalar, innovatsiyalar asri deyish mumkin. Negaki, bu uchta jixatsiz rivojlanishni, taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Iqtisodiy tahlilni zamonaviylashtirish muammosi ham bugun soha olimlari oldidagi eng dolzarb muammolarda biri hisoblanadi. Axborotlarga shunchaki ega bo'lish yoki axborotlarni shunchaki o'qish bilan bugun muhim natijalarga erishib bo'lmaydi. Ularni tahlil etishning shunday bir tizimini shakllantirish lozimki, bu ularni boshqaruvda samarani, faoliyatdagi natijani ta'minlashga xizmat qilsin.

Axborotlarni bugungi shaklini va oqimini oddiy hisob-kitoblar asosida qayta ishslash mumkin emas. Bunga vaqt omili ham, resurs omili ham, sub'yekt omili ham yo'l bermaydi.

Axborot tizimini yaratilishi, axborotlarni kompyuter texnologiyalari va dasturiy taminotlari asosida qayta ishslash, tahlil etish sohaning rivojida yangi bir bosqichni boshlab berdi, deyish mumkin.

Axborot tizimining yaratilishi quyidagi xossalari bilan harakterlanadi:

- har qanday axborot tizimi, tizimni tashkil etishning umumiy tamoyili asosida tahlil qilinadi va boshqariladi;
- axborot tizimi dinamik ko'rinishga ega bo'lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi;
- axborot tizimining mahsuloti ham axborot hisoblanadi;
- axborot tizimini mutaxassis-kompyuter tizimi ko'rinishida tasavvur qilish lozim.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari, ularning tavsifi, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qoyiladigan talablar, tahlilni manbalar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llariga tegishli nazariy asoslar bayon qilingan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to'g'risidagi tushunchalarni izohlang.
2. Iqtisodiy tahlilni turlar boyicha tasniflanishi va uning mezonlarini aytib bering.
3. Iqtisodiy tahlil mazmuniga, davriga, ob'ekti va sub'yektlariga, tarmoq tavsifiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Iqtisodiy tahlilning qanday shakllari bor?
5. Marjinal tahlilning mazmuni nimadan iborat?
6. Boshqaruv tahlilining xo'jalik faoliyati tahlilidan farqi bormi?
7. Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari deganda nimani tushunasiz?
8. Tahlilning iqtisodiy axborot manbalariga qanday talablar quyilgan?
9. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar deganda nimani tushunasiz?
10. Nima uchun iqtisodiy tahlilda kompyuter texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish zarur?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1.Joriy tahlil deganda nimani tushunasiz?

- A). Oy, kavrtal va yil yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- B.). Kunlik, smenalik va o'n kunlik bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- S). Yig'ma hisobotlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- D). Korxonalararo taqqoslama tahlilni.

2.Tezkor tahlil deganda nimani tushunasiz?

- A). Xalq xo'jaligi bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- B). Xalq xo'jaligini tarmoqlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- S). Kunlik, smenalik va o'n kunlik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- D). Yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

3.Istiqbolli tahlil deganda nimani tushunasiz?

- A). Yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- B). 3 yillik, 5 yillik va 10 yillik ish faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- S). Oylik, kvartallik va yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni
- D). Korxonaning istiqbolli rejalari va dasturi boyicha o'tkaziladigan tahlilni

4. Birlashma va vazirliklar xo'jalik faoliyatining tahlili deganda nimani tushunasiz?

- A). Korxonalar bo'yicha yig'ma hisobotlar asosida o'tkaziladigan tahlilni.
- B). Bir korxona bilan ikkinchi korxona ko'rsatkichlarini taqqoslab o'tkaziladigan tahlilni.
- S). Korxonaning yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- D). Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

5. Ichki xo'jalik tahlili deganda nimani tushunasiz?

- A). Korxonaning yillik ish faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- B). Korxonaning ish bo'linmalari ya'ni uchastka, brigada va sexlarning ish faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- S). Yig'ma hisobotlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- D). Tarmoqlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

10. Korxonalararo qiyosiy tahlil deganda nimani tushunasiz?

- A). Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- B). Ixtisoslashuvi bir hilda bo'lgan ikkinchi korxonaning xo'jalik faoliyatini taqqoslab tahlil qilish.
- S). Korxonani yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.
- D). Yig'ma hisobotlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

4-BOB. KORXONALARING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

O'quv maqsadi: korxonalarining mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar, mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullarining nazariy, uslubiy asoslarini va amaliyyiy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *mahsulot, yalpi, tovar, sotilgan, joriy, solishtirma, dastur, reja, assortiment, maromiylik, sifat, unumdonlik, mehnat, vosita, buyum, xarajat, samaradorlik.*

4.1. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish hajmini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari

Ma'lumki, 2020 yilda yuz bergan pandemiya holati butun dunyo xo'jaligining iqtisodiy taraqqiyoti hamda iqtisodiy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Shu sababli barcha mamlakatlar singari O'zbekistonda ham pandemiya oqibatida vujudga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kiqlanganidek, "2021 yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o'sishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta'minlashimiz zarur"¹⁰.

Hozirgi sharoitda jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish asosan sanoat korxonalarining zimmasiga tushadi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni og'ishmay o'sishi milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarni yaratadi va aholi farovonlik darajasini yanada oshiradi. Buning natijasida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish hajmi oshadi. Endigi ustuvor vazifalardan biri mahsulot ishlab chiqarish va uni

¹⁰ <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>.

sotish hajmini baholash hamda uni ko'paytirish yo'llarini axtarib topishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda iqtisodiy tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblasnadi. Bu jarayonda iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish boyicha biznes-rejani asoslanganligiga va bajarilish holatiga baho berish;
- korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish boyicha o'sish sur'ati, mahsulot tarkibi, nomenklaturasi, assortimentiga tahliliy baho berish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sirini hisoblash;
- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish boyicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarni axtarib topish, ularni amaliyatga tadbiq etish boyicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish va sotish dasturlarini bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalaridan foydalaniladi:

- Biznes-reja ma'lumotlari;
- P-sonli "Korxona (birlashma) ning mahsuloti boyicha yillik hisoboti" ko'rsatkichlari;
- 5-S sonli "Korxonalar (tashkilotlar) mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar xarajatlari to'g'risidagi hisobot" ko'rchatkichlari;
- sotish jarayonlari boyicha dastlabki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari;
- mahsulotning sifati va sorti boyicha statistik ma'lumotlar;
- moliyaviy hisobotning 1-shakli "Buxgalteriya balansi" va 2-shakli "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari.

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda iqtisodiy tahlilning taqqoslash, guruglash, zanjirli bog'lanish, farqlarni aniqlash va moliyaviy koeffitsenlar kabi usullaridan foydalanish maqsadga

muvofiq hisoblanadi va quyidagi 12-jadvalda tahlil qilishning uslubiy asoslari keltirilgan.

12-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni tahlil qilishning uslubiy asoslari

| t/r | Ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlar-ning aniqlanishi | Belgilar izohi |
|------------|---|--|--|
| 1 | Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi(Rb) | Rb=Mxx/Mxr | Mxx - haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; Mxr-rejada ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi. |
| 2 | Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti rejasining bajarilishi (Rbn) | Rbn=Mxn/Mxr | Mxn-nomenklatura va assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi; Mxr-rejada ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi. |
| 3 | Mahsulot ishlb chiqarish maromiyligi koeffitsenti (Mrk) | Mrk =Mxm/Mxr | Mxm-maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; Mxr-rejada ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi. |
| 4 | Ayrim tur mahsulotlar-ning jami mahsulotdagi salmog'i (Mxs) | Mxs=Mat/Mx | Mat/ayrim tur mahsulotlar hajmi; Mx-mahsulot hajmi. |
| 5 | Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'siri (MXm) | MXm=Is*Ik*Is* Mus | Is-ishchilarning o'rtacha ro'yxatdag'i soni; Ik-bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunlari; Is-ish kuni davomiyligi; Mus-bir soatlik mehnat unumi. |
| 6 | Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga moddiy resurslar ta'siri(MXmr) | MXmr=MR*MRq | MR-moddiy resurslar qiymati; MRq-moddiy resurslar qaytimi. |
| 7 | Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mehnat vositalari ta'siri(MXa) | MXa=Avq * Avo' | Avq-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati; Avo'-Asosiy vositalarning qaytimi. |
| 8 | Sotish rejasining bajarilishi (Srb) | SRb=SMx/SMr | SMx-Haqiqatda sotilgan mahsulot hajmi; SMr-rejada belgilangan sotish hajmi. |
| 9 | Shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda sotish rejasining bajarilishi (SRsh) | SRsh=SMsh/SMx | SMsh-shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda haqiqatda yetkazib berilgan maxsulot hajmi; SMx-yetkazib berilishi rejalashtirilgan mahsulot hajmini yetkazib berilishi. |
| 10 | O'rtacha sotish bahosi (SBo') | SBo'=MXq/MXm | MXq-Haqiqatda sotilgan mahsulot qiymati; MXm-Haqiqatda sotilgan mahsulot miqdori. |
| 11 | Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar (Smo') | SMo'=TMqb + TMi-TMqo | TMqb-tayyor mahsulot davr boshiga qoldig'i; TMi-Joriy davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi; TMqo-Tayyor mahsulotning davr oxiriga qoldig'i. |

4.2. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar va unga ta'sir etuvch omillar tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmi tahlilida fotdalaniladigan umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

Yalpi mahsulot – bu korxonaning ma'lum bir davrda (kun, oy, chorak, yil) ishlab chiqargan mahsuloti, ko'rsatgan xizmat va bajargan ishlarining amaldagi va solishtirma bahoda o'lchangan hajmi.

Tovar mahsulot –ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridan o'tgan va tayyor holatga kelgan, iste'molchilarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan mahsulotlar.

Sotilgan mahsulot – iste'molchilarga ortib jo'natilgan yoki hisob xujjatlari taqdim etilgan mahsulotlar. Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishda analitik jadval tuziladi va to'dirilib taqqoslash usuli yordamida tahlil qilinadi. Quyidagi 13-jadvalda korxomada mahsulot ishlab shiqarish va sotish hajmining umumlashgan korsatkichlari tahlili keltirilgan.

13-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxona hamma ko'rsatkichlari bo'yicha yalpi, tovar mahsulot hamda mahsulot sotish rejasini 1,1 foizga, 1,6 foizga va 2,1 foizga ortigi bilan bajargan. Korxonaning asosiy ko'rsatkichlariga umumiylaho berilgandan so'ng, mahsulot ishlab chiqarish turlar boyicha tahlil qilinadi. Sanoat korxonalarida mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Agar sanoat korxonasi rejalahtirilgan mahsulotlarni to'liq turlarda ishlab chiqarmasa, u holda aholining ayrim tovarlarga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilmaydi. Chunki, sanoat korxonalari iloji boricha kam xarajat, kam mehnat talab qiladigan va bahosi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishga harakat qiladi, shuning uchun ham tahlil jarayonida mahsulot turlari rejasingin bajarilishiga katta e'tibor berilishi lozim.

13-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Reja | Haqiqatda | O'tgan yilga nisbatan rejaning o'zgarishi | | Hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi | | Rejaga nisbatan farq | |
|---|-------------|-------|-----------|---|-----|---|-----|----------------------|-----|
| | | | | Mutloq summada | % | Mutloq summada | % | Mutloq summada | % |
| <i>Yalpi mahsulot (taqqoslanadigan korxonaning ulgurji bahosida) mln.s.</i> | 20154 | 20760 | 20980 | +606 | 3,0 | +826 | 4,1 | +220 | 1,1 |
| <i>Tovar mahsuloti (amaldagi korxonaning ulgurji bahosi) mln.s.</i> | 20200 | 20790 | 21120 | +590 | 2,9 | +920 | 4,5 | +330 | 1,6 |
| <i>Sotilgan mahsulot hajmi (korxonaning rejalashtirilgan bahosida) mln.s.</i> | 20110 | 20540 | 20960 | +430 | 2,1 | +850 | 4,2 | +420 | 2,1 |

Agar mahsulot ishlab chiqarish turlar boyicha bajarilmasa, u holda zudlik bilan uning sabablari aniqlanishi va bartaraf etilishi zarur.

Shu sababli ham biz quyida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bevosita tas'sir etuvchi omillar sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot assortimenti va mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish, mahsulot sifati hamda raqobatbardoshligi kabi ko'rsatkichlarni mohiyati va ta'siri tahlilini yoritib o'tamiz.

Mahsulotlar nomenkulaturasi – deb, miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxat tushuniladi.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti - deb esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xiliga aytiladi.

Mahsulotlar assortimenti va nomenklaturasi tahlilida belgilangan va ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan mahsulotlarning o'zgarishlariga baho beriladi. Yakuniy ko'rsatkich sifatida alohida mahsulotlar turi boyicha reja bajarilishini xarakterlovchi

ko'rsatkichlar aniqlanadi. Quyidagi 14-jadvalda mahsulot assortimenti rejasining bajarilishi tahlili keltirilgan.

14-jadval
Mahsulot assortimenti rejasining bajarilishi tahlili

| Ko'rsatkichlar | DEWOO | DELL | LG | PANASONIK | Jami |
|--|--------------|-------------|-----------|------------------|-------------|
| Reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (ming sum) | 5000 | 1000 | 3000 | 4000 | 13000 |
| Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (ming sum) | 5200 | 800 | 2800 | 5200 | 14000 |
| Assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi (ming sum) | 5000 | 800 | 2800 | 4000 | 12600 |
| Umumiy reja bajarilishi, % | X | X | X | X | 197,7 |
| Assortiment bo'yicha reja bajarilishi, % | X | X | X | X | 96,9 |

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish rejasi 107,7 foizga bajarilgan. Lekin assortiment bo'yicha reja 96,9 foizga uddalangan. Korxonada mahsulot ishlab chiqarishdagi tarkib o'zgarishlar 3,1 foizga teng bo'lган.

Korxona uchun ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajat talab etadigan tovarlarni ishlab chiqarish manfaatlidir. Shu sababli, tovarlarni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda strukturaviy o'zgarishlarni tahlil etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi har xil darajada bo'lishi tarkib (struktura)ni o'zgarishidan dalolat beradi. Tarkib bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha xillari rejalahtirilgan mahsulot tarkibi va tuzilishiga teng kelishi kerak.

Ishlab chiqarish maromiyligi - bir maromda mahsulot ishlab chiqarishni tasniflaydi. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etilishi resurslardan foydalanish darajasiga, mahsulot sifatini yaxshilanishiga, shartnomaviy majburiyatlarni

bajarilishiga ta'sir etadi. Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, maromiylit koeffitsenti hisoblanadi va uni aniqlash tartibida maromiylit hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini rejada ishlab chiqarilishi belgilangan hajmga bo'linadi. Bir me'yorda ish yuritishning eng optimal ko'rsatkichi birga teng bo'ladi, undan ortiq bo'lishi mumkin emas. Korxonalarda ishlsb chiqarishni maromiyligini ta'minlamaslik, ishlab chiqarishdagi uzilishlar, to'xtab qolishlar mavjudligini, unumsiz sarflarni vujudga kelishini bildiradi. Sanoat korxonalarida bir maromda ishlab chiqarishni tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning o'ziga xos imkoniyati hisoblanadi.

Ammo, u yoki bu muddat mobaynida biznes-rejaning orttirib bajarilishi korxonaning bir me'yorda ishlayotganligini bildirmaydi, balki umumiyl holda tovar mahsuloti ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini ko'rsatadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar reja bo'limidan olinadi, zero ma'lumotlar yillik hisobotda berilmaydi.

Mahsulot sifati ham mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Tahlilda muhim e'tibor ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar sifatiga qaratiladi. Mahsulot sifati deganda - uning tovarlilik darjasasi, xaridorlar didiga mosligi, xalqaro va mamlakat standart me'yorlariga javob berishidagi ijobiy tasnifiy jihatlari nazarda tutiladi. Xalqaro va mamlakat standarti talablariga mosligi yuzasidan mahsulotlarning oliy va birinchi kategoriyalari tarikblanadi.

Tahlilda mahsulot sifati o'rtacha sifatlilik darajasini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mahsulot sifatini tahlil qilishdan maqsad o'rtacha sifatlilik darajasini hamda mahsulot sifati o'zgarishining sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

Sanoat korxonalarida o'rtacha sifatlilik darjasasi uch xil yo'l bilan aniqlanadi:

1. O'rtacha sifatlilik darajasini o'rtacha tortilish usulida aniqlash.
2. O'rtacha sifatlilik darajasini o'rtacha shartli birinchi navga aylantirish yo'li bilan aniqlash.
3. O'rtacha sifatlilik darajasini o'rtacha tortilish bahosida aniqlash.

Sifatlilik darajasini o'rtacha tortilish usulida aniqlash jarayonida, birinchi navda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori birga, ikkinchi navdagi mahsulot miqdori ikkiga va uchinchi navda ishlab mahsulot miqdori uchga ko'paytirilib, jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi. Bu usulda mahsulotning o'rtacha sifatlilik darajasini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

15- jadval

O'rtacha sifatlilik darajasini o'rtacha tortilish usulida aniqlash uchun ma'lumotlar

| Navlar | O'lchov birligi | Mahsulot miqdori | |
|-----------|-----------------|------------------|-----------|
| | | Reja | Haqiqatda |
| I – nav | Dona | 50000 | 60000 |
| II – nav | Dona | 6500 | 4300 |
| III – nav | Dona | 3500 | 2700 |
| Jami | | 60000 | 67000 |

Jadvaldagagi ma'lumotlar hisob-kitobidan ko'rinishicha rejada o'rtacha sifatlilik darajasi = $(50000 \times 1) + (6500 \times 2) + (3500 \times 3)/60000 = 1,22$

Haqiqatda = $(60000 \times 1) + (4300 \times 2) + (2700 \times 3)/67000 = 1,12$

Qilingan hisoblar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati hisobot yilda rejaga nisbatan yaxshilangan, ya'ni o'rtacha sifatlilik darajasi hisobot yilda birinchi navga yaqinroq. Mahsulotning o'rtacha sifatlilik darajasi qanchalik 1 (bir)ga yaqin bo'lsa, shunchalik sifatlilik darajasi yaxshi deb o'qiladi. O'rtacha sifatlilik darajasini shartli birinchi navga aylantirish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Bunda har bir nav boyicha qiymat ko'rsatkichlari aniqlab olinadi, yani har bir nav bo'icha mahsulot birligining bahosi har bir navdagi mahsulor miqdoriga ko'paytiriladi.

O'rtacha sifatlilik darajasini shartli birinchi navga aylantirish yo'li bilan aniqlash uchun yuqorida jadval ma'lumotlaridan foydalanib hisob-kitob qilinganda navlar bo'yicha reja bajarilishi bir xil bo'limgan, birinchi nav boyicha – 120%, ikkinchi nav boyicha – 66,1 % va uchinchi nav boyicha – 77,1%. Natijada hisobot yilda rejaga nisbatan birinchi nav ulushining ko'payishi hisobiga mahsulot sifatining yaxshilanishiga olib kelgan. Shartli 1-navga aylantirish koeffitsentlari quyidagicha berilgan: 1nav=1; 2-nav=0,8; 3-nav=0,5 koeffitsentga teng. Bizning misolimizda o'rtacha navlilik koeffitsenti quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

Reja boyicha = $(1 \times 100500) + (0,8 \times 10660) + (0,5 \times 3920) / 115080 = 0,96$ koeffitsent.
 Haqiqatda = $(1,0 \times 120600) + (0,8 \times 7052) + (0,5 \times 3024) / 130676 = 0,98$ koeffitsent.
 Hisobot yilida mahsulot sifatining yaxshilanishi natijasida sifat koeffitsenti rejaga nisbatan 0,02 koeffitsentga oshgan (0,98-0,96), demak hisobot yilidagi ishlab chiqarilgan mahsulotning o'rtacha sifatlilik darajasi birga (1) yaqin, bu o'z navbatida sotiladigan mahsulotlar bahosining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ma'lumki, mahsulot sifatining o'zgarishi bilan sotiladigan mahsulotning o'rtacha bahosi ham o'zgaradi. Mahsulot sifatining o'zgarishi natijasida o'rtacha baho o'zgarishining sotilgan mahsulot hajmiga ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadval tuziladi.

16-jadval


O'rtacha sifatlilik darajasini o'rtacha tortilish bahosida aniqlash uchun ma'lumotlar

| Navlar | Mahsulotning bahosi | Mahsulot hajmi | | | |
|--------|---------------------|----------------|----------------------------|---------------|----------------------------|
| | | Reja | | Haqiqatda | |
| | | Miqdori | Mahsulot qiymati, ming sum | Miqdori, dona | Mahsulot qiymati, ming sum |
| I | 2010 | 50000 | 100500 | 60000 | 120600 |
| II | 1640 | 6500 | 10660 | 4300 | 7052 |
| III | 1120 | 3500 | 3920 | 2700 | 3024 |
| Jami | | 60000 | 115080 | 67000 | 130676 |

Tahlilning natijasi shuni ko'rsatadiki, reja boyicha o'rtacha sotish bahosi 1918 sumga ($115080 / 60000$), haqiqatda esa 1950 sumga ($130676 / 67000$) teng bo'lган. Demak, o'rtacha baho hisobot yilida rejaga nisbatan 32 sumga ($1950 + 1918$) yuqori bo'lган, bu esa o'z navbatida sotilgan mahsulot hajmining 2144 ming sumga ($+32 \times 67000$) ko'payishiga olib kelgan. Agar bu ko'rsatkichni birinchi navda hisoblangan mahsulot bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, u holda sotilgan mahsulot hajmining o'rtacha bahosi reja boyicha 1849,8 sumni ($110988 / 60000$), haqiqatda esa 1906,7 sumni ($127754 / 67000$) tashkil etadi. Bu yerda o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida rejaga nisbatan 56,9 sumga ($1906,7 - 1849,8$) oshgan. O'rtacha sotish bahosining 56,9 sumga oshishi sotilgan mahsulot hajmining 3812,3 ming sumga ($+56,9 \times 67000$) ko'payganligini bildiradi.

4.3. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi mehnat omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha dasturining bajarilishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Shu sababli tahlilda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim o'rinnegallaydi. Ular orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'stirish imkoniyatlari o'rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni 4 guruhga ajratish mumkin:



4.1-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar

A. Mehnat omillarini mahsulot hajmiga ta'sirini tahlil etishda korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, xodimlar tarkibi, ularning harakati, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumдорligi ko'rsatkichlari o'rganiladi. Hisob-kitob qilinadigan ta'sir omillari sifatida quyidagi omillar mahsulot hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: -ishchilarni o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi; -bir ishchi tomonidan ishlangan o'rtacha yillik ish kunlarining o'zgarishi; -ish kuni davomiyligini o'zgarishi; -o'rtacha bir soatlik mehnat unumining o'zgarishi.

Omillar ta'sirini iqtisodiy tahlilning maxsus usullaru yordamida o'rganish mumkin.

B. Ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritishda korxonani mehnat vositalari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat vositalariga xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan, o'zining qiymatini ishlab chiqarayotgan mahsulotiga bo'lib-bo'lib o'tkazib boruvchi, mehnat qurollari, ijara ob'ekti hisoblangan barcha asosiy vositalar kiritiladi. Tahlil etishda

korxonaning ular bilan ta'minlanish darajasiga, tarkibiga, holati va harakatiga, samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillarga, miqdor omili bo'lgan asosiy vositalarni o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi hamda sifat omili bo'lgan asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi ta'sir etadi.

V. Mehnat predmetlari tarkibiga xom ashyo, yoqilgi, elektr energiyasi va boshqa moddiy resurslar kiradi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat predmetlari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga mehnat predmetlarining o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi va qaytimining o'zgarishini kiritish mumkin.

D. Bugungi erkin zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ta'sirchan omillardan biri bu tadbirkorlik omilidir. Shu sababli mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga tadbirkorlik layoqati omilini ham kiritilishi tartiblangan va bu iqtisodiy jixatdan o'rinnlidir. Uning ta'sir darajasini, hisob-kitob qilinadigan yuqoridagi omillar tarkibida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki, tadbirkorlik layoqatini shunday tushunish mumkinki, bunda ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili birikuvida maqsadli faoliyatga bo'lgan ishtiyoqni, harakatni, ya'ni resurslarni foyda olish maqsadida boshqarishni yo'lga quyishdan iborat.

Korxona faoliyatida mehnat omili muhim axamiyat kasb etadi. Mehnat –bu inson va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan oqil va ongli faoliyatdir.

Mehnat resurslari bu, mehnatga layoqatli aholining 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklardan iborat qatlamidir.

Korxonada mehnat resurslari: xodim, ishchi, xizmatchi kategoriylari bilan tarkiblanadi.

Xodim–korxonada band bo'lgan barcha tarkib; ishchi-mhsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi; xizmatchilar - jismoniy mehnatdan tashqari, xizmat ko'rsatuvchi tarkib hisoblanadi. Mehnat resurslari bilan taminlanganlik va mehnat unumdarligini tahlilida quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

17-jadval

**Mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanishning
ko'rsatkichlar tizimi**

| t/r | Ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlar-ning aniqlanishi | Belgilar izohi |
|------------|---|---------------------------------|--|
| 1 | Mehnat resurslari bilan taminlanganlik koeffitsenti (Mrtk) | Mrtk=Mr / Mrz | Mr-haqiqatda band qilingan mehnat resurslari; Mrz-zaruriy mehnat resurslari soni. |
| 2 | Ishchilarining jami sanoat ishlab chiqarish xodimlarining tarkibidagi salmog'i(Xis) | Xis=Is / X | Is-ishchilarining soni; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 3 | Xizmatchilarining jami xodimlar tarkibidagi salmog'i (Xxs) | Xxs=Xs / X | Xs-xizmatchilarining soni; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 4 | Xodimlarni ishga qabul qilish koeffitsenti (Xiq) | Xiq=Xq / X | Xq-ishga qabul qilingan xodimlarning soni; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 5 | Xodimlarni ishdan bo'shatish koeffitsenti (Xib) | Xib=Xi / X | Xi-ishdan bo'shagan xodimlarning soni; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 6 | Xodimlar qo'nimsizligi (Xq) | Xq=Ix b / X | Ixb-o'z arizasiga muvofiq ishdan bo'shagan soni; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 7 | Mehnat unumdorligining inson va vaqt omili ko'rsatkichlari (MU): | MU | |
| 7.1 | Bir xodimning mehnat unumi (MUX) | MUX=Mx / X | Mx-mahsulot hajmi; X- xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni. |
| 7.2 | Bir ishchining mehnat unumi (MUi) | MUi=Mx / I | Mx-mahsulot hajmi; I-ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi soni. |
| 7.3 | Bir kunlik mehnat unumi (MUK) | MUK= Mx / Ik | Mx-mahsulot hajmi; Ik-jami ishlangan ish kunlari. |
| 7.4 | Bir soatlilik mehnat unumi(MUs) | MUs=Mx / Is | Mx-mahsulot hajmi; Is-jami ishlangan ish soatlari |
| 8 | Ish kuni davomiyligi (Id) | Id=Iis / Iik | Iis-jami ishlangan ish soatlari; Iik-jami ishlangan ish kunlari. |
| 9 | O'rtacha bir yillik ishlangan ish kunlarining haqiqiy ish vaqtidagi salmog'i (Ivs) | Ivs=Iyk / Iykz | Iyk-bir yillik o'rtacha ishlangan ish kunlari; Iykz-me'yor bo'yicha bir yillik ish kunlari. |
| 10 | O'rtacha ishlangan bir kunlik ish vaqtining me'yoriy ish vaqtidagi salmog'i (Iks) | Iks=Ibs / Ism | Ibs-bir kunlik o'rtacha ish vaqt; Ism-bir kunlik meyoriy ish vaqt. |
| 11 | Mehnat unumdorligini omilli ko'rsatkichlari (Mu) | Mu | Mu-mehnat unumdorligi. |

| | | | |
|-------------|--|-----------------|---|
| 11.1 | Bir hodimga to'g'ri keladigan yillik mahsulot hajmi (Mux) | MUX=Is * Mui | Is-sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilarning salmog'i. Mui-bir ishchining o'rtacha yillik mahsulot hajmi. |
| 11.2 | Bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik mahsulot hajmi (Mui) | Mui=Iik*Ikd*Mus | Iik- bir ishchining yil davomida ishlagan o'rtacha kishi kunlari; Ikd-ish kuni davomiyligi; Mus-ishchining bir soatlilik ish unumi. |
| 12 | Mahsulotning mehnat sig'imi (Ms) | Ms=Ms/Mx | Ms-mahsulotga mehnat sarfi; Mx-mahsulot hajmi. |

4.4. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha, uning mohiyati, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi

Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi alohida ahamiyatga ega. Xususan, mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyat moddiy ne'matlarni shunchalik ko'p oladi. Mehnat unumdorligi degahda, ish vaqtি birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorida yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt tushuniladi. Mehnat unumdorligi tahlilining maqsadi, mehnat samaradorligini baholash va oshirish yo'llarini axtarib topishdan iborat. Mehnat unumdorligi qiymat, natural va mehnat ko'rsatkichlarda aniqlanadi. Nazariy manbalar tahlilidan kelib chiqqan holda, mehnat unumdorligini aniqlashning ko'rsatkichlar tizimi yuqoridagi 3.17-jadvalda keltirilgan.

Mehnat unumdorligini alohida olingan korxona ma'lumotlari asosidagi tahlilini quyidagi 18-jadvalda ko'rib chiqish mumkin.

Korxonada xodimlar ish vaqtidan foydalanish tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, hisobot yilida bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan 2535,9 ming sumga, yoki 31,4 foizga oshgan. Shuningdek, bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi ham 2972,3 ming sumga, yoki 30,0 foizga o'sishiga erishilgan. Bir soatlilik mehnat unumi ko'rsatkichi o'tgan yilga nisbatan 1958,8 ming sumga, yoki 38,2 foizga, bir kunlik mehnat unumi ko'rsatkichi esa, 15127,2 ming sumga, yoki 42,2 foizga oshgan. Ushbu holatlarni ijobjiy baholash mumkin.

Korxonada mehnat unumdarligi tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | Farqi +, - | O'zgarish darajasi, % |
|---|--------------------|---------------------|-------------------|------------------------------|
| A | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1.Mahsulot hajmi, korxona ulgurji bahosida, (mln. sum) | 15428 | 18650 | +3222 | 120,9 |
| 2.Sanoat ishlab chiqarish xodimlari, kishi | 1914 | 1760 | -154 | 91,9 |
| 3.Shu jumladan: ishchilar, kishi | 1560 | 1450 | -110 | 92,9 |
| 4.Ishchilarning sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi salmog'i % da (3q/2q) | 81,5 | 82,3 | +0,8 | 101,1 |
| 5. Jami ishlangan ish kunlari, ming kishi-kuni | 430,6 | 366,0 | -64,6 | 85,0 |
| 6. Jami ishlangan ish soatlari, ming kishi-soat | 3014,2 | 2635,2 | -379,0 | 87,4 |
| 7.Ish kunining davomiyligi, soat (6q/5q) | 7,0 | 7,2 | +0,2 | 1,02 |
| 8. Bir ishchi tomonidan ishlangan kishi-kuni, kun (5q/3q) | 276 | 252 | -24 | 91,3 |
| 9. Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, m.sum(1q/2q) | 8060,6 | 10596,5 | +2535,9 | 131,4 |
| 10. Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, m.sum (1q/3q) | 9889,7 | 12862,0 | +2972,3 | 130,0 |
| 11. Bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot, m.sum (1q/6q) | 5118,4 | 7077,2 | +1958,8 | 138,3 |
| 12. Bir kishi-kunida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, m.sum (1q/5q) | 35829,0 | 50956,2 | +15127,2 | 142,2 |

Iqtisodiy rivojlanishning muhim qonuniyatlaridan biri mehnat unumi bilan ish haqining o'sishi o'rtasidagi nisbatning saqlanishidir. Ushbu qonuniyat ish haqi o'sishining mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan o'zaro bog'liqligini harkterlaydi. Mehnat unumi bilan ish haqining o'sishi o'rtasidagi aloqadorlik O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan.

Mahsulot hajmining o'sishini aniqlashda, albatta, hisobot yili ko'rsatkichi o'tgan yilning xuddi shu davri bilan taqqoslanadi va nisbiy farqlari aniqlanadi.

O'sish darajalarini aniqlashda mahsulot hajmining taqqoslama birliklariga amal qilinadi. Ya'ni, taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar bir xil indeksda olinadi. Bu holatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini taqqoslama ko'rsatkichlari har bir tarmoqning o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tahlil etishda mehnat unumi bilan ish haqining o'sishi o'rtasidagi nisbatning korxonada saqlanishiga va uning yillar boyicha o'zgarishiga baho beriladi.

4.5. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samalali foydalanishni ta'minlash dolzARB masala hisoblanadi. Asosiy fondlar tarkibida asosiy vositalarning o'rni va ahamiyati yuqori sanaladi. Chunki, korxonalar faoliyat yuritishlari uchun ma'lum miqdorda asosiy vositalarga ega bo'ladilar. Asosiy vositalar deb, korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar kabilarga aytildi. Ular milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy vositalar foydalanish jarayonida eskiradi va unung qiymati astasekinlarik bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga o'tkaziladi. Shuning uchun ham asosiy vositalar dastlabki (qayta tiklash), eskirish va qoldiq qiymatlarda hisoblanadi.

Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasiga, ularning texnik holati va harakatiga, hamda samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda, korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi tushuniladi. Korxonalarda asosiy vositalarning miqdorining yetarli bo'lishi va holati faoliyat natijalariga juda katta ta'sir qiladi.

Shuningdek, tahlil qilishda asosiy vositalarning tarkibi va turlari bo'yicha o'zgarishlariga ham baho beriladi, ularning holat va harakat ko'rsatkichlariga

muhim e'tibor qaratiladi, ularning korxonaning umumiy mablag'laridagi ulushi aniqlanadi.

Asosiy vositalarlarning samarasini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni omilli tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligi aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning asosiy vositalari umumiy hajmini aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakatini o'zgarishlariga baho berish;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash bo'yicha mavjad imkoniyatlarni aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning tehnik holati, harakat ko'rsatrichlarini o'rganish va baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan samarali foydalanishni tahlil qilish;
- asosiy vositalar samaradorligini oshirish boyicha ichki xo'jalik imkonoyatlarini aniqlash va hokazo.

Korxonaning asosiy vositalarini tahlil qilishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-reja ma'lumotlari;
- moliyaviy hisobotning 1-shakli "Buxgalteriya balansi" va 2-shakli "Moliyaviy natijalar to'grisida hisobot" ma'lumotlari;
- asosiy vositalar harakatini ifodalovchi buxgalteriya hujjatlari va asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashdagi analitik hisob ma'lumotlari.

Asosiy faoliyatda foydalaniladigan asosiy vositalar, odatda aktiv va passiv turlarga tarkiblanadi. Aktiv asosiy vositalar bu ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvchi mehnat qurollaridir.

Passiv asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayoniga muhim sharoit ta'minlab beruvchi mehnat vositalaridir. Asosiy vositalarni tahlil etishda ularning tarkibi, harakati, holati, samaradorligi, rentabelligi va uning dinamik o'zgarishlariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi¹¹:

- a) bir yildan ortiq xizmat muddati;
- b) bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lган buyumlar.

Korxona rahbari shuningdek, hisobot yilida aktivlarni buxgalteriya hisobida asosiy vositalar sifatida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqlidir. Asosiy vositalar tahlilida o'rganiladigan muhim ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartiblari quyidagi 19-jadvalda keltirilgan.

20-jadvalda esa, korxona misolida asosiy vositalardan foydalanish tahlili keltirilgan bo'lib, korxonada asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish holati qoniqarli. Chunki, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, yalpi foyda, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati yillar kesimida dinamik xarakterga ega bo'lib, doimiy o'sib borgan. Asosiy vositalarning qaytimining eng yuqori ko'rsatkichi 2017 yil hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, aynan ushbu yilda asosiy vositalar sig'imi eng quyi natijani ko'rsatgan. Korxonada asosiy vositalarning samaradorligi, ya'ni rentabelligining eng yuqori natijasi 2015 yilda kuzatilgan. Qolgan yillarda rentabellik darajasi 2015 yilga nisbatan biroz pasaygan bo'lsada, asosiy vositlarning samaradorligi bo'yicha o'sish kuzatilgan. Xususan, asosiy vositalar rentabelligi 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 9,76 foizga o'sgan.

¹¹ AV 09.12.2014 y. 1299-1-son bilan ro'yxatga olingan moliya vazirining buyrug'i.

19-jadval

Asosiy vositalar tahlilining ko'rsatkichlar tizimi va tahlil qilishning uslubiy asoslari

| No | Ko'rsatkichlar | Ko'rsatkichlarniani qlanishi | Belgilar izohi |
|----|--|---------------------------------|---|
| 1 | Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsenti (AVtk) | AVtk=Av / Im | Av-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati. |
| 2 | Asosiy vositalar bilan qurollanishi koeffitsenti (AVqk) | AVqk=Av / X | Av-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati; X-xodimlarning o'tacha ro'yxatdagi soni. |
| 3 | Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsenti (AVyk) | AVyk=Avk / Avo | Avk-yangidan kirim qilingan asosiy vositalarning qiymati; Avo-asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich qiymati. |
| 4 | Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsenti (AV chk) | AVchk=Avch / Avb | Avch-chiqib ketgan asoiy vositalar qiymati; Avb-asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich qiymati. |
| 6 | Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (AVek) | AVek=Ave / Avd | Ave-asosiy vosilarning eskirish qiymati; Avd-asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati; |
| 7 | Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsenti(AVyak) | AVyak=Avq / Avd | Avq-Asosiy vositalarning qoldiq qiymati. |
| 8 | Asosiy vositalarning qaytimi (AVq) | AVq=Mx / Avo' | Mx-mahsulot hajmi; Avo'-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati. |
| 9 | Asosiy vositalarning sig'imi ko'rsatkichlari (AVs) | AVs=Avo' / Mx | Avo'-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati; Mx-mahsulot hajmi. |
| 10 | Asosiy vositalarning rentabellik koeffetsenti (AVrk) | AVrk=SF / Avo' | Sf-sof foyda; Avo'-asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati. |

20-jadval

Korxonada asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlili

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | Mutlaq o'zgarishi (+,-) | | |
|--|-------------|-------------|-------------|----------------------------------|----------------------------------|----------------------------------|
| | 2015 yil | 2016 yil | 2017 Yil | 2016y. 2015 yilga nisbatan | 2017y. 2016 yilga nisbatan | 2017y. 2015 yilga nisbatan |
| Mahsulot hajmi, mln.so'm | 241950 | 358353 | 718470 | 116403 | 360117 | 476520 |
| Mahsulot sotishdan so'tushum, mln so'm | | | | | | |
| Yalpi foyda, mln.so'm | 26145 | 21333 | 31632 | -4812 | 10299 | 5487 |
| Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln.so'm | 35529 | 46101 | 56454 | 10572 | 10353 | 20925 |
| Aktiv asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, mln.so'm | 18993 | 28761 | 41109 | 9768 | 12348 | 22116 |
| Jami asosiy vositalarning fond qaytimi, ming so'm | 6,81 | 7,77 | 12,73 | 0,96 | 4,95 | 5,92 |
| Aktiv asosiy vositalarning fond qaytimi, ming so'm | 12,74 | 12,46 | 17,48 | -0,28 | 5,02 | 4,74 |
| Jami asosiy vositalarning fond sig'imi, ming so'm | 0,15 | 0,13 | 0,08 | -0,02 | -0,05 | -0,07 |
| Asosiy vositalar rentabelligi, % | 73,59 | 46,27 | 56,03 | -27,31 | 9,76 | -17,56 |

4.6. Mehnat buyumlari omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

Korxona faoliyatida mehnat buyumlari asosiy omillardan biri hisoblanadi va amaliyotda moddiy resurlar sifatida tavsiflanadi. Moddiy resurslar deb, ishlab chiqarishning muayyan siklida foydalanishda bo'lgan va shu siklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlarga aytildi. Xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, ehtiyyot qismlar korxona aylanma mablag'larini tashkil qiladi. Materiallarning har bir turi boyicha me'yoriy miqdorlar korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz davom etib turishida belgilangan me'yorga rioya qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchi olimlar A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlarning¹² darsligida: “Moddiy resurslar tahlilining asosiy maqsadi – mavjud natijaga odilona baho berish bilan birga yo’l qoyilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali iqtisodiy tahlil qilinayotgan ob’yektning iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan iboratdir” deb aytib o’tilgan. Shuning uchun ham korxonanihg asosiy faoliyatini ifodalovchi ko’rsatkichlar tarkibida moddiy resurslar tahlili alohida ahamiyatga ega.

Moddiy resurslar tahlilining mazmuni uning oldiga qoyilgan vazifalaridan kelib chiqadi. Tahlilda ashyoviy resurslar bilan korxonaning ta’minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini o’stirishda ashyolarni to’g’ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirilishiga muhim ahamiyat qaratiladi.

Shu ma’noda moddiy resurslar tahlili oldiga ham o’ta muhim vazifalar qoyiladi. Jumladan:

- moddiy resurslar ta’minoti rejasining bajarilishga baho berish;
- moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishning darajasiga baho berish;
- moddiy aylanma mablag’lar, ashyoviy resurslar aylanishini o’rganish;
- muhim samaradorlik ko’rsatkichlari va ularning o’zgarishini omilli tahlil qilish;
- mahsulot hajmining o’zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat buyumlari bilan bog’liq bo’lgan omillarni o’rganish;
- ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida mehnat buyumlarining salmoq ko’rsatkichlarini o’rganish va h.k.lar.

Korxonaning moddiy resurslaridan foydalanish tahlilining axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- moddiy-texnika ta’minoti rejasi;
- arizalar va xom ashyo, materiallarni yetkazib berish shartnomalari;

¹² Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruy tahlili»—T.: Sharq. 151 6.

- material resurslarini ishlatilishi va ulardan foydalanish bo'yicha hamda ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha statistik hisobot shakllari;
- moddiy-texnika ta'minoti bo'limining operativ ma'lumotlari;
- analitik buxgalteriya hisobining moddiy resurslarning kirimi, chiqimi va qoldiqlari to'g'risidagi axborotlari.

Hozirgi sharoitda moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurashish, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z navbatida mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar iqtisodiyot sohalarining ayrim tarmoqlarida (yengil va oziq-ovqat sanoati) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog'i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning naqadar iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik rejimini kuchaytirish, hamma turdag'i resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o'tishni amalga oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ularning qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilamchi xom ashyoni to'plashni, shu jumladan aholidan to'plashni tashkil qilish va tayyorlov tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash kerak.

Material sarfini kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Mahsulotlarning konstruksiyasini o'zgartirish va takomillashtirish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish dastgohlarining texnologiyasini takomillashtirish.
3. Eng samarali hajmda xarijatlarni sarflash orqali materiallarga ketadigan xarajat normalarini kamaytirish.
4. Ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yo'lga qoyish.
5. Ishlab chiqarishda brak mahsulotga yo'l qoymaslik va h.k.lar.

Korxonaning moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ikki manba hisobiga, ya'ni, tashqi ta'minot va ichki ta'minot hisobiga qondiriladi.

Tashqi ta'minot deganda, korxonalar, xom ashyo birjalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida moddiy-texnika resurslarini chetdan yetkazib beruvchilardan kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta'minot deganda, ta'minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejasiga rioya qilish kabilar tushuniladi.

Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta'minlanganligi darajasi sotib olingan xom ashylarning haqiqatdagi miqdorini rejadagi talabga taqqoslash orqali aniqlanadi. Shu bilan birga moddiy resurslarni olib kelish shartnomalarini bajarilayotganligini ta'minlash va haqiqatda bajarilayotganligini tekshirish lozim.

21-jadvalda korxonani moddiy resurslar bilan, yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari orqali ta'minlanganligini tahlil qilamiz.

21-jadval

Moddiy resurslarni yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bilan ta'minlanganligi tahlili

| Material turi | Rejadagi ehtiyoj, tonna | Ehtiyojni qoplash manbalari | | Shartnomada belgilangan, tonna | Shartnomaviy ehtiyojlarini ta'minlash, % | Mol yetkazib beruvchilar- dan olingan, tonna | Shartnomalarini bajariliishi, % |
|---------------|-------------------------|-----------------------------|--------|--------------------------------|--|--|---------------------------------|
| | | ichki | tashqi | | | | |
| "A" | 4700 | 50 | 4650 | 4420 | 95 | 4190 | 94,8 |

21-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, "A" materialga bo'lgan talab yetkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bo'yicha to'liq ta'minlanmagan.

Reja boyicha qoplash, ta'minlash koeffisiyenti quyidagiga teng:

$$50+4420 : 4700 = 0,95$$

Haqiqatda esa , "A" materialini yetkazib berish rejasiga 10 % ga bajarilmagan:

$$4190+50 : 4700 = 0,90$$

Demak, “A” materiali boyicha ehtiyoj faqat 90 % ga ta’minlangan (100-90). Bundan tashqari, mol etkazib beruvchilardan olingan materiallarning sifati, ularni standartlarga javob berishi, texnika va shartnomalar shartlari hamda mol yuboruvchilar tomonidan yo’l qoyilgan xatolarga bildirilgan e’tirozlar tekshiriladi. Asosiy e’tibor materiallarni o’z vaqtida yetkazib berish rejasini bajarilishini o’rganishga qaratiladi. Materiallarni o’z vaqtida yetkazib bermaslik natijasida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasi bajarilmay qolishi mumkin.

Moqqiy resurslardan samarali foydalanish holatini baholashda materiallar qaytimi va materiallar sig’mi kabi ko’rsatkichlarni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4.7. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha va uni pasaytirishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati

Hozirgi sharoitda iqtisodiyot oldiga qoyilgan vazifalardan biri – bu uni samaradorligini ko’tarishdan iborat. Ushbu maqsadga ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini kamaytirish asosida erishish mumkin bo’ladi. Mahsulot tannarxi korxonalar xo’jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko’rsatkichi bo’lib, korxona faoliyatining ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi, ularni ish samaradorligini ko’rsatadi. Tahlil orqali har bir xo’jalik sub’yektini ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko’rsatish yuzasidan qilgan xarajatlarini maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va natijaviyligi baholanadi.

Xarajatlar-hisobot davrida aktivlarning kamayishi, yoxud majburiylarning ko’payishidir¹³. Xarajatlar - muayyan davr oralig’ida sarflangan resurslarning pul o’lchovidagi qiymatidir. Shuningdek, xalaqaro amaliyotda ham tariflar berilgan bo’lib, xarajat – hisobot davrida iqtisodiy foydani, aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o’rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiylarning yuzaga kelishidir.

¹³ O’zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” (AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro’yxatga olingan)

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatalgan tabiiy resurslar, hom ashyo materiallar, yoqilg'i va yoqilg'i moylash materiallari, energiya sarfi, asosiy vositalarning eskirishi, mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlarining qiymat ko'rinishining ifodasidir. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish, mahsulot bahosini shakllanishi va korxonaning foyda va rentabelligini aniqlash, korxonaning boshqaruv va investitsiya faoliyatlari bo'yicha qarorlarni qabul qilish, resurslardan foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish tizimini takomillashtirishdan ko'rilgan samaradorlikni ifodalaydi. Moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar tarkibi xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining rentabelligini va bozordagi raqobatbardoshliligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish davomida xo'jalik yurituvchi sub'yektda paydo bo'ladijan barcha xarajatlar to'g'risida to'liq va aniq axborot shakllantirilishi, soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida belgilanadi.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korxona xo`jalik faoliyati davomida yuzaga keladigan xarajatlar tarkibini aniqlash.
- Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarning reja va o'tgan yilgi xarajatlarga nisbatan bo'lgan iqtisod yoki o'rtacha xarajatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.
- Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material va mehnat resurslaridan to`g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borish.
- Bir so`mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlarning o`zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.
- Mahsulot tannarxining iqtisodiy elementi va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tarkibini tahlil qilish.
- Tannarxini arzonlashtirish bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash va amaliyotga tadbiq etish boyicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqish.

“Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to'g'risidagi Nizomga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- a) bevosa va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosa va bilvosita mehnat haqi xarajatlari;

v) boshqa bevosa va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar;

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

- a) sotish xarajatlari;
- b) boshqarish xarajatlari;
- v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

5. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Xalqaro amaliyotda ishlab chiqarish xarajatlari ikkita toifaga bo'linadi. Ya'ni o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar. O'zgaruvchan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda o'zgarib boradi. O'zgarmas xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmanan holda barqaror qoladi. Ushbu tarkiblash, xarajatlarni boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'zgaruvchan xarajatlarni hisoblash metodologiyasini bilish biznesning daromadli bo'lishiga erishish maqsadida ishlab chiqarish birligiga sarflangan xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. O'zgaruvchan xarajatlarni

tarkiblash va ularni hisobga olish birinchi bor AQShda ishlatilgan bo'lib, uning nomi "direkt-kost", Yevropada esa "marjinal-kost" deb nomlangan. Farqli jihat to'g'ri va o'zgaruvchan xarajatlar kalkulyatsiyasi sifatida nomlanishidadir. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'zgaruvchan xarajatlarning to'g'ri va egri turlari tarkiblanadi.

Korxonalarning mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda asosiy axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik sub'yektlarining biznes reja ma'lumotlari;
- 5-S "Korxona sarf-xarajatlari to'g'risida"gi statistik hisobot ma'lumotlari;
- 1-T shaklidagi "Mehnat hisoboti" statistik hisobot ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schyotlari ma'lumotlari va boshlang'ich buxgalteriya hujjatlari.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish, jami tovar mahsulotining tannarxi rejasining bajarilishiga umumiy baho berish bilan boshlanadi.

Tovar mahsuloti 2 turkumga bo'linadi: taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan mahsulot. Taqqoslanadigan mahsulot deganda, shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari tushuniladi. Taqqoslanmaydigan mahsulot esa, joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.

Tahlil qilish jarayonida taqqoslanadigan mahsulot jumlasiga kiradigan mahsulotning haqiqiy tannarxi, reja tannarxi va uning o'tgan yilgi darajasi bilan, taqqoslanmaydigan mahsulotning haqiqiy tannarxi esa faqat rejada ko'rsatilgan tannarxi bilan solishtiriladi.

22-jadvaldan ko'rindaniki, korxonada jami tovar mahsulotining haqiqatdagi tannarxi rejaga nisbatan 53 ming so'mga arzonlashgan. Jumladan, taqqoslanadigan tovar mahsulotining haqiqatdagi tannarxi reja tannarxiga nisbatan 68 ming so'mga arzonlashgan bo'lsa, taqqoslanmaydigan tovar mahsuloti tannarxi esa 15 ming so'mga qimmatlashgan.

22-jadval

Tovar mahsuloti tannarxini tahlili

(ming so'mda)

| Ko'rsatkichlar | Tovar mahsuloti tannarxi | | | Farqi (+,-) | |
|-----------------------------------|--------------------------|---------------|-----------------------------------|-----------------------|-----------------|
| | O'tgan yilgi tannarxi | Reja tannarxi | Hisobot yilining haqiqiy tannarxi | O'tgan yilga nisbatan | Rejaga Nisbatan |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| Jami Tovar mahsuloti Shu jumladan | X | 6071 | 6018 | - | -53 |
| Taqqoslanadigan | 4095 | 3924 | 3856 | -239 | -68 |
| Taqqoslanmaydigan | X | 2147 | 2162 | X | +15 |

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jarayonida bir so`mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat ko`ratkichini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. U ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, tovar mahsulotining qiymati 100 mln. so`mni tashkil etsa, mahsulotni ishlab chiqarish tannraxi 80 mln. so`m bo`lsa, u holda tovar mahsulotining bir so`miga qilingan xarajat 80 tiyin (80:100) ga, yalpi foyda esa 20 tiyinga teng bo`ladi. Demak, bu ko`rsatkichda foyda bilan ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi bog`liqlikni yaqqol ko`rshimiz mumkin. Bu ko`rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin. Tahlil etishda bir so`mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi, biznes rejaga nisbatan o'zgarishi aniqlanadi (23-jadval).

23- jadval

Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | | Farqi (+,-) | |
|--|-------------|---------------|------------|-----------------------|------------------------|
| | | biznes rejada | Haqiqat da | o'tgan yilga nisbatan | biznes rejaga nisbatan |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi, m.so'm | 115900 | 118356 | 117187 | +1287 | -1169 |
| 2. Tovar mahsulotini solishtirma ulgurji bahosi, m.so'm | 134100 | 140400 | 142600 | +8500 | +2200 |
| 3. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida | 86 | 84 | 82 | -4 | -2 |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, biz tahlill qilayotgan korxonada ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining har bir so'mi uchun qilingan xarajat hisobot davrida 82 tiyinni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4 tiyinga yoki 95 foizga, biznes rejaga nisbatan esa 2 tiyinga yoki 97 foizga kamaygan. Xarajatlarning bunday tartibda kamayishi korxonaning rentabelligini oshiradi. O'rganilayotgan davrda har bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat biznes rejaga nisbatan 2 tiyinga kamayishi hiisobiga, korxona bo'yicha 2852 ming so'mlik ($2 \times 142600 / 100$) kam xarajat qiliningan. Demak, korxona o'rganilayotgan davrda har bir so'mlik mahsulot uchun 2 tiyin kam xarajat qilishi evaziga uning daromadi 2852 ming so'mga oshgan. Tahlil jarayonida 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni rejaga va o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari va unga omillarning ta'sirini aniqlash lozim. Sanoat korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy o'rganib borish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisobotida uning yo'naliishlari bo'yicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Xarajatlarning iqtisodiy elementari bo'yicha.
2. Xarajatlarning kalkulyatsion moddalari bo'yicha.

Xarajatlarning elementi bo'yicha guruhlarga ajratishdan maqsad ularning tarkibi va dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Xarajatlarning elementlari bo'yicha tahlil natijalariga muvofiq material sig'imi, mehnat sig'imi va fond sig'imi darajalari bo'yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Tahlil etishda jami xarajatdagi har bir elementning tutgan salmog'i aniqlanib, o'tgan yildagisi hamda rejadagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi, ularning o'zgarish sabablari aniqlanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo'yicha o'rganish quyidagicha farqlanadi, ya'ni, bo'limlar va korxona bo'yicha jami xarajatlar faqat iqdisodiy elementlari bo'yicha o'rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyasiya moddalari asosida ko'rib chiqiladi. Tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarining jami tarkibi bo'yicha o'zgarishlarni mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi. Nisbiy jihatdan o'rganishda har

bir turkum xarajat moddasi yoki elementining jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog'iga baho beriladi.

24-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulatsion moddalari boyicha turkumlanishi

| Iqtisodiy elementlari bo'yicha | Kalkulatsion moddalari bo'yicha |
|---|--|
| 1 | 2 |
| Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar | Xom ashyo |
| | Yoqilg'i |
| | Elektr quvvati |
| | Ehtiyyot qismlar |
| | Idishlar va xokazo |
| Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlar | Asosiy ish haqi |
| | Qo'shimcha ish haqi |
| | Ish haqiga ustamalar |
| Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar | Ijtimoiy ta'minot bo'limiga |
| | Mehnat birjasiga |
| | Kasaba uyushmasiga |
| Asosiy vositalar eskirishi va nomoddiy aktivlar amortizasiyasi xarajatlar | Asosiy vositalarning eskirishi |
| | Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi |
| | Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarnnng ijara haqlari |
| Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar | Turli ishlar va xizmatlar |
| | Soliqlar, yig'imlar va xokozo. |

Tahlil uchun quyidagi 25-jadvalni keltiramiz. 25-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, jami xarajatda moddiy va mehnat haqi xarajatlarining tutgan ulushi yuqori. Ularning ulushi bazis davridagi 62,8 va 25,4 foizdan, hisobot davriga kelib mos ravishda 63,6 foizga, 25,6 foizgacha oshgan. Shu davrda amortizatsiya ajratmalar ulushi esa 6,9 foizdan hisobot davriga kelib 5,9 foizga kamaygan. Jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida ijtimoiy sug'urta ajratmalar bilan boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining ulushida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan o'zgarish bo'lmasligini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lган elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va mahsulotlar tannarxini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lган elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish.

Alovida mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lган elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish.

olinishi va nazorat qilinishi korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim hisoblanadi.

25-jadval

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari bo'yicha tahlili

| Xarajat elementlari | O'tgan yili | | Hisobot yili | | Farqi (+, -) | |
|--|--------------------|--------------------------|-------------------|--------------------------|-------------------|--------------------------|
| | Summa, (ming so'm) | Salmog'i (foiz hisobida) | Summa (ming so'm) | Salmog'i (foiz hisobida) | Summa (ming so'm) | Salmog'i (foiz hisobida) |
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1.Moddiy xarajatlar | 72355 | 62,8 | 74317 | 63,6 | +1963 | +0,8 |
| 2.Mehnat haqi xarajatlari | 29265 | 25,4 | 29914 | 25,6 | +649 | +0,2 |
| 3.Ijtimoiy sug'urta ajratmalari | 1728 | 1,5 | 1753 | 1,5 | +25 | - |
| 4.Amortizatsiya ajratmalari | 7950 | 6,9 | 6894 | 5,9 | -1053 | -1 |
| 5. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari | 3917 | 3,4 | 3972 | 3,4 | +55 | - |
| Jami ishlab chiqarish xarajatlari | 115215 | 100 | 116850 | 100 | +1635 | - |

Aloxida olingan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini aniqlashga hisob-kitoblarining muhim ob'yekti sifatida qaraladi. Bunda mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishiga ahamiyat beriladi.

Mahsulotlar tannarxini aniqlash va hisobga olish, moliyaviy natijaviylikni tarkibini o'rganish bilan birga, foydaning shakllanish qatorlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Bir xildagi mahsulot turlarini ishlab chiqaradigan korxonalarda mahsulot tannarxining qiyosiy tahlili va uning natijalari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Alovida olingan mahsulotlar tannarxining tahlili xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha emas, balki, xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni, ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho berishni hamda o'zgarish sabablarini o'rganishni tavsiflaydi. Mahsulot ishlab chiqarishning kalkulyatsiya

moddalari ishlab chiqarish va texnologiya jarayonlari xususiyatiga bog'liq. Sanoat korxonalaridagi kalkulyatsiya moddalari tarkibini bir xil ko'rinishga ega bo'lishi tannarxni umumiy holda va moddalari bo'yicha tahlil etish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Bunday tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot birligiga belgilanadigan narxni aniqlashda, foyda va rentabellikni oshirishda muhim o'rinni tutadi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni xarajat moddalarining har bir turi bo'yicha alohida tarkiblash mumkin. Masalan, material xarajatlari yoki xomashyo xarajatlari qatori bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga moddiy sarflar me'yorining o'zgarishi, ularni sotib olish baholarining o'zgarishi ta'sir qilsa, mehnat haqi xarajatlarining o'zgarishiga ishchilar soni va bir xodimga to'g'ri keladigan ish haqlarining o'zgarishi ta'sir qiladi.

Omillar ta'sirini aniqlashda har bir ta'sir birligi alohida va boshqa omillar ta'sirsiz o'rGANILADI.

26—jadval
Mahsulot birligining ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

| Xarajat moddalari | Korxona 1 | | Korxona 2 | |
|--|---|----------------------------------|---|----------------------------------|
| | Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, so'mda | Jamiga nisbatan salmog'i, foizda | Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, so'mda | Jamiga nisbatan salmog'i, foizda |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 3 |
| 1. Xom ashyo aa materiallar xarajati | 304 | 27,6 | 231,7 | 22,5 |
| 2. Yarim fabrikat xarajatlari | 100 | 9,0 | 154,5 | 15,0 |
| 3. Yoqilg'i va energiya xarajatlari | 62 | 5,6 | 63,9 | 6,2 |
| 4. Ish haqi xarajatlari | 273 | 24,8 | 219,4 | 21,3 |
| 5. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari | 55 | 5,0 | 55,6 | 5,4 |
| 6. Brakdan ko'rilgan zarar | 25 | 2,3 | 30,9 | 3,0 |
| 7. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari | 281 | 25,7 | 274 | 26,6 |
| Jami ishlab chiqarish xarajatlari | 1100 | 100,0 | 1030 | 100,0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, mahsulotini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ikkinchi korxonada birinchi korxonaga qaraganda 70 so'm iqtisod qilingan. Har bir xarajat moddasini bir-biri bilan taqqoslash, ularning tarkibini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin: 2-korxonada chetdan keltirilgan yarim fabrikat, tayyor detal va mahsulotning boshqa qismlari 1-korxonaga nisbatan ko'proq keltirilishi mahsulot tannarxidagi mehnat haqi xarajatlarining ulushini 1-korxonadagi 24,8 foizdan 2-korxonada 21,3 foizga kamaytirishga erishilgan. Shu sababli 2-korxonada tarkibiy o'zgarishlar sababli tannarx 70 so'mga pasaygan. Korxonaning asosiy faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalarini aniqlashda davr xarajati o'rganiladi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda korxonalarning mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish hajmi, unga ta'sir qiluvchi mehnat omillari, mehnat vositalari va mehnat buyumlari omillarining ta'sirini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari, hamda mahsulot tannarxini tahlil qilish usullarining nazariy, uslubiy asoslari va amaliy jihatlari bayon qilingan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va uni sotishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar tarkibi va ularning tavsifini tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifati, raqobatbardoshligi, assortimenti (xilma-xilligi) va mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining mohiyati nimalardan iborat?
4. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Mehnat unumdorligi tahlilida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi?
6. Mahsulot tannarxini pasaytirishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati nimalardan iborat?

Mustaqil ishlab chiqarish test savollari:

1. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga baho berish uchun qanday ko'rsatkichdan foydalaniladi?

- A) Yalpi mahsulot.
- B) Tovar mahsulot.
- S) Sotilgan mahsulot.
- D) Barchasi to'g'ri.

2. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlariga nimalar kiradi?

- A) Korxona sanoat–ishlab chiqarish faoliyati jarayonida foydalaniladigan mehnat vositalari. B) Ishchilar soni.
- S) Korxonada yo'zaga keladigan mehnat jarayoni.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

3. Asosiy vositalar necha xil eskiradi?

- A) Ma'naviy va jismoniy eskirish.
- B) Jismoniy eskirish.
- S) Ma'naviy eskirish.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda nima uchun moddiy resurslar tahlili amalga oshiriladi?

- A) Chunki, moddiy resurslar ishlab chiqarish jarayonining o'zluksizligi va davomiyligini ta'minlovchi asosiy omildir.
- B) Chunki, moddiy resurslar qaytimiga erishish lozim.
- S) Chunki, moddiy resurslar ta'minot rejasini tuzish ob'yektiv zaruratdir.
- D) Chunki, moddiy resurslar uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kirmaydi.

5. O'zgaruvchan xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytildi?

- A) Mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq tarzda o'zgaruvchi harajatlarga aytildi.
- B) Mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'limgan o'zgarmas xarajatlarga aytildi.
- S) Umumiylar xarajatlar. D) O'zgaruvchan xarajatlar.

6. Doimiy harajatlar deb qanday xarajatlarga aytildi?

- A) Mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'lmasagan xarajatlarga aytildi.
- B) Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmasagan davriy xarajatlarga aytildi.
- C) Ma'muriy va boshqaruv xarajatlariga aytildi.
- D) Barcha turdag'i ish haqi xarajatlariga aytildi.

7. Mehnat unumdorligi deb -

- A) Ish vaqtida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflangan vaqtga aytildi.
- B) Korxonada faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun to'lanadigan ish haqiga aytildi.
- C) Jismonan va aqlan yetuk kishilarning mehnatga qobillik darajasiga aytildi.
- D) Jamiatda ishlatilayotgan resurslar miqdorining pulda ifodalanganligiga aytildi.

8. Mahsulot tannarxining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

- A) Materiallar bahosi, tarkibi, tuzilmasining o'zgarishi.
- B) Ish haqining o'zgarishi, mahsulotlar miqdorining o'zgarishi.
- C) Material xarajatlar bahosining, tarkibining o'zgarishi, me'yor o'zgarishi.
- D) Davr xarajatlari summasining o'zgarishi.

Amaliy mashg'ulot bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriq:

1. Quyida berilgan ma'lumotlarga asosan korxonada asbob-uskunalardan foydalanish darajasini baholash uchun taqqoslash usulining qaysi turi qo'llanilishini aniqlang: ushbu korxonada asbob-uskunalarning smenali ishslash koeffitsiyenti - 1,7; o'rtacha tarmoq bo'yicha - 1,6; tarmoqning eng ilg'or korxonasida - 1,8; boshqa tarmoqlarning eng ilg'or korxonalarida -2,5.

Taqqoslash usulining shartlarini hisobga olgan holda tahlil qilinayotgan korxonada asbob-uskunalarning smenali ishslash koeffitsiyentini oshirish imkoniyatini aniqlang.

2. Mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar –mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari tizimi bo'yicha tahliliy analitik jadvallar tuzing, to'ldiring va ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarishlarni hisoblang, natijalarga tahliliy xulosa yozing

5-BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI TAHLIL QILISH

O'quv maqsadi: moliyaviy natijalarni tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari, ularning shakllanishi va turlari, ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili va rentabelik ko'rsatkichlari tizimi, ularga ta'sir etuvchi omillar tahlilining nazariy, uslubiy asoslarini o'rgatish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch iboralar: *itqisod, barqarorlik, subyekt, baho, natija, foyda, zarar, daromad, xarajat, faoliyat, moliya, investitsiya, soliq, rentabellik, hisobot*

5.1. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Hozirgi davrda oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va ilg'or texnologiyalar bilan qayta quollantirishning bosh sharti bo'lган makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko'lamda foydalaniladi. Bularga foyda, baho, rentabellik ko'rsatkichlari, soliq, kredit, dividendlar kabi dastaklar kiradi. Ushbu iqtisodiy dastaklar ichida foyda iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi eng muhim mezondir. Foyda korxonaning kelgusi ravnaqi, xodimlarni ijtimoiy himoyalashni ta'minlovchi asosiy manbadir. Bozor iqtisodiyoti lug'atida foyda – bu buxgalteriya tushunchasida daromadning ko'payganligini anglatadi, deb ta'riflangan.

Bundan tashqari, foydaga (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti sifatida ham qaraladi. Jahon amaliyotida foyda deyilganda, ko'pincha biznes

samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Iqtisodchi olimlar A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlar foyda ko'rsatkichiga quyidagicha ta'rif beradilar:¹⁴ “Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular o'rtasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi”.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlarni va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va o'lchash - korxona o'z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiysi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi. Foyda yoki zarar – bu boshqa umumlashgan daromadning tarkibiy qismlaridan tashqari jami daromaddan xarajatlar chegirilganidan keyingi qolgan natijasidir¹⁵.

Jami daromad – bu davr mobaynidagi operatsiyalar va boshqa hodisalar natijasida kapitalda yuzaga keladigan o'zgarishlardir. Jami umumlashgan daromad “foyda yoki zarar”ning hamda “boshqa umumlashgan daromad”ning barcha qismlarini qamrab oladi¹⁶.

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitalidagi omonatlardan farq etuvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishdir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklini kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Shuningdek, foyda xo'jalik sub'yektlarining mahsulot sotishdan, asosiy va umumxo'jalik faoliyatlarini natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan so'ng barcha xarajatlarini qoplab, qo'shimcha qolgan daromadlar yig'indisidan iboratdir, deb tushunish ham mumkin. Demak, olingan foydani tahlil qilishda, daromadning

¹⁴ Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 240 6.

¹⁵ BHXS 1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.

¹⁶ BHXS 1. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.

ko'paygan yoki kamayganligi, buning o'zgarish sabablari hamda unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilishi lozim.

Moliyaviy natijalar tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni foyda va rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlanishidagi holatga ham baho beriladi. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda foyda va zararning shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Iqtisodiy tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trend tahlil va ko'rsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiylarining qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlariga umumiylariga izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natjalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarda o'zaro farqlanishlariga va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natjalarning bo'yamasiga tarkiblanishi, dinamikasi va ularning o'zgarishlari o'rganiladi.

Asosli yoki trend tahlilda moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natjalarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

- korxonaning yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilish;
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan kelgan foydani o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

- umumxo’jalik faoliyatidan kelgan foydani o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;
- soliq to’langunga qadar bo’lgan foyda va uni o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;
- sof foyda hajmining o’zgarishiga ta’sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni tahlil qilish hamda foyda miqdorini oshirish boyicha ichki xo’jalik imkoniyatlarini aniqlash;
- korxonaning rentabellik ko’rsatkichlarini o’rganish va ularga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda asosiy axborot manbasi sifatida moliyaviy hisobotning 2-shakli “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” dan foydalaniladi. “Moliyaviy natijalar to’g’risida hisobot” (moliyaviy hisobotning 2-shakli) mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish jarayonining yakuniy mahsuli bo’lib, u ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbasi hisoblanadi. Shu bilan birga tahlil jarayonida korxonaning “Buxgalteriya balansi”, “Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot”, “Xususiy kapital to’g’risidagi hisobot” kabi hisobotlari ma’lumotlari va hisob-kitoblaridan foydalaniladi.


5.2. Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotning asosiy ko’rsatkichlari, ular bilan shug’ullanuvchilarining iqtisodiy manfaatlari

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirish sharoitida har bir xo’jalik yurituvchi sub’yektlar o’z tasarrufidagi barcha resurslar moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishini to’g’ri yo’lga qoyishi zarur bo’ladi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri - tahlil qilinayotgan ob’yekt yoki birorta iqtisodiy sohani xolisona baholash uchun uni ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy va metodologik jihatdan har tomonlama asoslashdan iborat.

Xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy natijalari bu keng qamrovli tushunchadir. Ularning shakllanishi va taqsimlanishi bo’yicha to’liq va har tomonlama asoslangan xulosa chiqarish uchun ko’rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim.

Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar g'oyat ko'p belgilar bilan tasniflanadi. Chunonchi, iqtisodiy ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni, foydalanish darjasи, ifodalaniш shakli, umumlashtirish darjasи, xo'jalik faoliyatining bo'g'lnlari va shakllanish holati kabi belgilar bo'yicha tasniflash qabul qilingan. Bu o'rinda biz moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifini havola qilish bilan cheklanamiz, zero ko'rsatkichlarni ushbu belgi bo'yicha tasniflash tegishli xulosa chiqarish uchun yetarli bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi quyidagi 5.2-rasmda ko'rsatilgan.




5.2-rasm. Moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifi.

Yuqoridagi rasmdan ko'rindaniki, moliyaviy natjalarning shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar anchagina. Binobarin, ularning har biri ma'lum miqdorga

ega bo'lishi va tahlil qilinayotgan sohaning u yoki bu jihatini ifodalashi kerak. Bu holat aniq axborotlardan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan I.T. Abdurakov, E.A. Akramov, M.I. Bakanov, M.Q. Pardayev, A.D. Sheremet va boshqalar moliyaviy natijalarni ifodalovchi har bir ko'rsatkichni aniqlashning nazariy jihatdan asoslangan uslublarini ko'rsatib berganlar.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni sof foya va rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'r ganiladi. Ammo ushbu ko'rsatkichlar bir qancha omillar ta'sirida, ko'pgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shu tufayli, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ko'lami ancha kengaygan. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi (5.3-rasm).



5.3-rasm. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bir-biriga bog'liqligi.

“Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan korxonaning daromadi quyidagilardan iborat:

- Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum;
- Korxonaning asosiy faoliyatidan kelgan boshqa daromadlar;
- Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromad;
- Tasodifiy daromadlar.

Bu tarzda daromadlarni bo'linishi korxonaning xo'jalik faoliyatini xolis baholash uchun imkoniyat beradi. Moliyaviy natijalar tahlili ichki va tashqi

sub'yektlar tomonidan olib boriladi. Ichki sub'yektlar (mulkdor, menejer, mutaxassislar, bosh hisobchi, korxona xodimlari va boshqalar) tomonidan olib boriladigan tahlil ichki iqtisodoy tahlil qatoriga kiritilib, faqat shu korxonaning xodimlari tomonidan olib boriladi. Tashqi sub'yektlar, bu ta'sischilar, hamkorlar, investorlar, nazorat organlari sub'yektlari va auditorlar tomonidan olib boriladigan tahlilda korxona moliyaviy natijasini yaxshlash masalalari o'rganiladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari tahlilidan ko'rindaniki, moliyaviy natijaning shakllanishi 5 turga bo'linadi. Biz quyidagi paragrafda moliyaviy natjalarning shakllanishi va uning turlarini bayon qilamiz.

5.3. Moliyaviy natjalarning shakllanishi va ularning turlari

Moliyaviy hisobotning 2-shakli "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobotni tuzish va taqdim etish tartiblari Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan yo'riqnomaga asoslanadi va choraklik hisobot hisoblanadi. Moliyaviy natjalarning shakllanishi hisobot qatorlarida batafsil ifodalab boriladi. Biz quyida moliyaviy natjalarni shakllanishi tartiblari bo'yicha asosiy besh turini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

A). Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

Yaf=SST-SMT

Bu yerda:

Yaf — yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

SMT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

B). Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovutga asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlarni qo'shish orqali aniqlanadi:

AFF = Yaf-DX+BD,

Bu yerda:

AFF — asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX — davr xarajatlari;

BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

S). Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlarni qo'shish va moliyaviy faoliyat xarajatlarini chegirish orqali aniqlanadi:

UXFF=AFF+MD-MX,

Bu yerda:

UF — umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

D) Soliq to'loviga qadar bo'lган moliyaviy natija, bunda umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasiga favqulodda ko'rilgan foydani qo'shish va favqulodda ko'rilgan zararni chegirish orqali aniqlanadi:

STQBF=UXFF+FF-FZ

Bu yerda:

STQBF-soliq to'loviga qadar bo'lган foyda (daromad);

FF- favqulodda foyda;

FZ-favqulodda zarar.

E) Yilning sof foydasi yoki qoplanmagan zarari, bu, soliq to'loviga qadar bo'lган foyda(daromad)dan foyda (daromad) solig'i va boshqa soliqlarni chegirish orqali aniqlanadi:

SF(QZ)=STQBF-FS-BS

Bu yerda:

SF(QZ)-yilning sof foydasi yoki qoplanmagan zarari;

FS-foyda solig'i;

BS-boshqa soliqlar.

Ushbu hisoblardan ko'rindanidiki, umumiyl moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va elementlar bir-biri bilan bog'liqlikda shakllanib boradi.

Moliyaviy natijaga daxldor bo'lgan elementlarning bog'liqligi yuzasidan analitik tahlilchilar quyidagi qoidaning saqlanishiga muhim ahamiyat qaratishi lozim.

28-jadval

Moliyaviy natijaga daxldor birliklar va ularning uzbekligi

| F1/F0 | | ST1/ST0 | | XK1/XK0 | | A1/A0 | | 1 |
|--|---|------------------------------|---|-----------------------------|---|----------------------|---|-----|
| Sof foydaning o'sishi | > | Sotishdan tushumming o'sishi | > | Xususiy kapitalning o'sishi | > | Aktivlarning o'sishi | > | 100 |
| 1.Aktivlar o'sishining sharti | | | | | | | | |
| 2.Moliyaviy salohiyatning o'sishi sharti | | | | | | | | |
| 3.Iqtisodiy salohiyatning o'sish sharti | | | | | | | | |
| 4.Faoliyatning rivoji va taraqqiyotning sharti | | | | | | | | |

Analitik tahlilchilar yuqoridaq bog'lanishlarda albatta "oltin qoida"ning saqlanishiga e'tibor qaratishlari lozim. Negaki, ushbu qoidaga amal etmasdan biznesning xayotiyligini, faoliyatning davomiyligini, iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlab bo'lmaydi.

5.4. Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natjalarning asosiy qismi mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejasiga va o'tgan yillardagi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishiga va unga ta'sir etuvchi omillar ta'siriga e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqarishning cheklangan resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ichki imkoniyatlarini izlab topishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, omilli tahlil usullaridan keng miqyosda foydalanishni talab qilada. Shu sababdan, mahsulot sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat beriladi. Mahsulotlar sotishdan olingan foyda (zarar) hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish uchun quyidagi 29-jadvalni keltiramiz.

29-jadval

Korxonada mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

(ming so'm)

| Tartib raqami | Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | O'zgarishi (+,-) | O'sish sur'ati, % |
|------------------|---|----------------|--------------|---------------------|-------------------------|
| 1. | Mahsulot sotishdan olingan sof tushum | 726803 | 1224630 | +497827 | 168 |
| 2. | Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi | 528282 | 905261 | +376979 | 171 |
| 4. | Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda (1q – 2q) | 198521 | 319369 | +120848 | 161 |

29-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishdik, yalpi foyda hajmi hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 61foizga oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

1. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmini 497827 ming so'mga oshishi natijasida yalpi foyda miqdori 250 foizga ($497827 \times 100 : 198521$) oshgan.

2. Sotilgan mahsulot tannarxni 376979 ming so'mga ortishi evaziga yalpi foyda miqdori 189 foizga ($376979 \times 100 : 198521$) kamaygan.

Shunday qilib yuqorida hisoblangan 2 ta omilning ta'siri $(+250) + (-189) = +61$ foiz. Bu foiz esa yalpi foyda hajmida bo'lgan umumiylar farqga teng (+61%) teng.

Endi, mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (30-jadval).

30-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishdiki, korxonada mahsulotlarni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmi hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 120848 ming so'mga oshgan. Sof tushum hajmini 497827 ming so'mga ko'payishi yalpi foydani shu summaga oshirgan. Yalpi foyda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini oshishi hisobiga 376979 ming so'mga kamaygan. Hisoblangan 2 ta omilning ta'siri:

$$(+497827) + (-376979) = +120848 \text{ ming so'm}.$$

30-jadval

Mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi

| Hisobning tartib soni | Almashtirishning tartib soni | Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omiillar | | Natijaviy ko'rsatkich – yalpi foyda (1u-2u) | Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-) | O'zgarish sabablari |
|--------------------------|------------------------------|---|---|---|--------------------------------------|---------------------|
| | | Mahsulot sotishdan olingan sof tushum | Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi | | | |
| A | B | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | - | 726803 | 528282 | 198521 | - | |
| 2 | 1 | 1224630 | 528282 | 696348 | +497827 | Sof tushum oshgan |
| 3 | 2 | 1224630 | 905261 | 319369 | -376979 | Tannarx oshgan |
| Omillar balansi: +120848 | | | | | | |

5.5. Davr xarajatlarning tahlili

Davr xarajatlari deyilganda- bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. Ularni yuzaga chiqish shakli va o'rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operasion xarajatlar.

Sotish xarajatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo'natish va sotish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Sotish xarajatlarini ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizasiysi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo'yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin.

Ma'muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmog'i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmati xarajatlaridir.

Boshqa operatsion xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar, ya’ni ishlab chiqarishni takomillashtirish, o’zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlar kiritiladi.

5.6. Rentabellikning ko’rsatkichlar tizimi va rentabellikka ta’sir etuvchi omillar tahlili

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida foydaning mutlaq miqdori korxonalarning xo’jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu sababdan nisbiy ko’rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Bu ko’rsatkich – rentabellik ko’rsatkichlaridir. Aynan, xalqaro amaliyotda rentabellik ko’rsatkichi “moliyaviy sog’lomlik” indikatori hisoblanadi.

Rentabellik xo’jalik sub’yektlari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko’rsatkich bo’lib, xo’jalik faoliyati natijalarini to’liq va har tomonlama tavsiflab beradi. Rentabelli korxonalar hamma xarajatlarini o’z daromadlari bilan qoplaydilar va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo’shimcha foyda yaratiladi.

Rentabellik ko’rsatkichlarini iqtisodiy tahlil qilishdan ko’zlangan asosiy maqsadlardan biri tahlil qilinayotgan iqtisodiy ko’rsatkichlarni xolisona va to’g’ri baholash uchun ularni ifodalovchi ko’rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda ularni nazariy va uslubiy jihatdan asoslashdan iborat.

Rentabellik ko’rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy vazifasi – bu, rentabellik ko’rsatkichlarining yangi tizimini yaratish, ularni aniqlash va tahlil qilish yo’llarini ko’rsatish hamda ularga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo’llarini o’rgatishdan iborat.

Rentabellikni ifodalovchi ko’rsatkichlarni tahlil qilish uchun axborot manbalari sifatida moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalilanadi.

Amaldagi Nizomga asosan quyidagi rentabellik ko’rsatkichlari tavsiya etilgan: jami aktivlarning rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi, xususiy kapitalning rentabelligi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.D.Sheremet, YE.V.Negashev¹⁷ tomonidan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan "Moliyaviy tahlil usuli" o'quv qo'llanmasida rentabellik ko'rsatkichlarini uchta guruhga umumlashtirish tavsiya etilgan:

1.Kapital (aktivlar) rentabelligi; 2.Mahsulot rentabelligi; 3.Pul mablag'lari oqimi asosida hisoblangan rentabellik ko'rsatkichlari.

O'zbekistonda ham iqtisodiy tahlil va uning ayrim sohalariga bag'ishlangan adabiyotlar, o'quv va amaliy qo'llanmalar, risolalar, ilmiy maqolalar chop etilgan. Bevosita korxonalarning moliyaviy holatiga bag'ishlangan adabiyotlarda rentabellik ko'rsatkichlarining tahliliga ko'p e'tibor berilgan nufuzli ishlardan biri sifatida E.A.Akramov¹⁸ tomonidan chop etilgan "Korxonalarning moliyaviy holati tahlili" o'quv qo'llanmasini e'tirof etish zarur. Ushbu ishda muallif rentabellik ko'rsatkichlarini ikki tizimli ko'rsatkichlarda umumlashtirishni tavsiya etgan:

I. Umumiyl rentabellik ko'rsatkichlari:

- 1) jami aktivlarning rentabelligi;
- 2) ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi;
- 3) korxonaning joriy xarajatlari rentabelligi;
- 4) sotilgan mahsulot rentabelligi.

II. Qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari:


- 1) xususiy kapitalning rentabelligi;
- 2) qarzga olingan kapitalning rentabelligi;
- 3) asosiy kapitalning rentabelligi;
- 4) aylanma kapitalning rentabelligi;
- 5) investisiya kapitalining rentabelligi.

Ushbu masalada iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlarning tavsiyalari ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, ularning tavsiyalariga ko'ra rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmuni boyicha to'rt guruhga

¹⁷ Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа. -М.: Инфра-М.2003.

¹⁸ Akramov E.A. «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili». - Т.: Moliya. 2003.

bo'linadi: ishchanlik bilan bog'liq umumiyl rentabellik ko'rsatkichlari, iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari, moliyaviy salohiyat bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari va moliyaviy bozordagi faollik bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari (5.4-rasm).



5.4-rasm. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Rentabellikning bir nechta guruhi - aktivlar, ishlab chiqarish, mahsulot sotish va kapital rentabelligi guruhi tarkiblanadi. Har bitta guruhgaga bir necha ko'rsatkichlar tizimi kiritiladi. Rentabellikni baholashda, omilli tahlildan foydalanish tavsiya etiladi.

Biz quyida rentabellikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash tartiblarini keltiramiz:

Aktivlar rentabelligi (ROA Return On Assets) = sof foyda / aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;

Mahsulot sotish rentabelligi = mahsulot (ish va xizmatlar) sotishning yalpi foydasi / sotishdan sof tushum;

Asosiy faoliyat rentabelligi (ROS Return On Sales) = asosiy faoliyat foydasi / sotishdan sof tushum;

Xususiy kapital rentabelligi (ROE Return On Equity) = sof foyda / xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati;

Rentabellikni aniqlashning qo'shimcha ko'rsatkichlari:

Asosiy vositalar rentabelligi = sof foyda/asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati;

Jalb qilingan kapital rentabelligi=sof foyda/o'z mablag'lar manbasi + uzqoq muddatli qarz mablag'lari (ROCE);

Jami aktivlar rentabelligi (ROTA) = soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda / jami aktivlar;

Biznes aktivlari rentabelligi (ROBA) =sof foyda/biznes aktivlari;

Sof aktivlar rentabelligi (RONA) =soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda / sof aktivlar;

Ishlab chiqarish rentabelligi = sof foyda / asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati + aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymati;

Marja rentabelligi (Profitability of the margin) = sotilgan mahsulot bahosi-sotilgan mahsulot tannarxi/ sotilgan mahsulot tannarxi; va boshqa ko'rsatkichlar.

Rentabellik ko'rsatkichlarining nazariy jihatni masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni uning amaliy jihatni hisoblanadi.

Jami aktivlarning rentabelligi darajasi korxonalarning asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan foydalanish (samaradorlik) darajasini ko'rsatadi. Jami aktivlarning rentabelligi darajasi — korxonaning bir so'mlik mulkidan necha so'm foyda olganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich korxonalar o'rtasidagi raqobat kurashida indikatorlik vazifasini o'taydi.

Raqobatbardoshlik darajasi tahlil qilinayotgan korxonaning jami aktivlarning rentabelligi darajasini o'rtacha tarmoqdagi koeffitsiyenti bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Jami aktivlarning rentabelligi darajasini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar moliyaviy hisobotning 1-shakli (Buxgalteriya balansi), 2-shakl (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot) dan olinadi.

32-jadval

Korxona jami aktivlarining rentabellik darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili (ming so'm hisobida)

| No | Ko'rsatkichlar | O'tgan yili | Hisobot yili | O'zgarishi (+,-) |
|----|---|-------------------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|
| 1. | Sof foyda | 455000 | 1083100 | +628100 |
| 2. | Jami aktivlar summasi A) yil boshiga B) yil oxiriga V) o'rtacha yillik miqdori | 113093700 135987100 124540400 | 135987100 207969700 171978400 | +22893400 +71982600 +47438000 |
| 3. | Jami aktivlarni rentabellik darajasi ($1q \times 100:2v$) | 0,36 | 0,62 | +0,26 |

32-jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, hisobot yilida jami aktivlarni rentabellik darajasi o'tgan yilga nisbatan 0.26 foizga ko'paygan.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatgan :

1. Sof foyda hajmining o'zgarishi.
2. Jami aktivlarning o'rtacha yillik miqdorining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini iqtusodiy tahlilning zanjirli almashtirish usuli yordamida aniqlash mumkin.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi va asosiy vazifalari, tahlil qilish uchun qo'llanadigan axborot manbalari, moliyaviy natjalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da ifodalanishi, har bir alohida olingan ko'rsatkichlarni aniqlanish yo'llari, ularni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash hamda sof foyda hajmini oshirish bo'yicha foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni aniqlash

usullari, rentabellik ko'rsatkichlarining yangi tizimi, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llari yoritilgan.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Asosiy qiymat ko'rsatkichlari tizimida foydani tutgan o'rnnini izohlang.
3. Moliyaviy natijalarni o'rganishda qanday ma'lumotlardan foydalaniadi?
4. Korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlar qanday tahlil qilinadi?
5. Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda qanday aniqlanadi?
6. Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foydaning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
7. Asosiy faoliyat foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil qilinadi?
8. Davr xarajatlari deganda qanday xarajatlarni tushunasiz?
9. Moliyaviy faoliyatdan ko'rildi daromad va yo'qotishlar qanday o'rganiladi?
10. Sof foya va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil qilinadi?
11. Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari nimalardan iborat?
12. Jami aktivlar rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. Moliyaviy natija bu...

- A) Mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi
- B.) Bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati

S.) Korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakundir

D.) Asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so`miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir

2. Yalpi foyda bu-...

A.) mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

B.) yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadalr qo`shilishi natijasida hosil bo`lgan foyda.

S.) korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir.

D.) operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo`shilishi va moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo`lgan foyda.

3. Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda, bu-...

A.) mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o`rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

B.) yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo`shilishi natijasida hosil bo`lgan foyda.

S.) korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakundir.

D.) operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo`shilishi va moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo`lgan foyda.

4. Foyda bu-...

A.) Daromad va xarajatlar o`rtasidagi ijobiy farq

B.) Daromad va xarajatlar o`rtasidagi salbiy farq

S.) Aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yoxud majburiyatlarning ortishidir

D.) Aktivlarning chiqib ketishi yoki ko`payishi yoxud majburiyatlarning ko`payishidir.

5. Xarajat bu-...

- A.) Daromad va xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq
- B.) Daromad va xarajatlar o'rtasidagi salbiy farq
- C.) Aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yoxud majburiyatlarning ortishidir
- D.) Aktivlarning chiqib ketishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir

6. Korxona erkin tasarrufida qoluvchi sof foydaning yillar bo'yicha jamlangan qismi balansning qaysi qatorida aks etadi?

- A.) Taqsimlanmagan foyda
- B.) Rezerv kapitali
- C.) Ustav kapitali
- D.) Kapital qoyilmalar

7. Rentabellik bu-...

- A.) jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkich
- B.) korxonaning asosiy va aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko`rsatadi, u sof foydani jami aktivlarni o`rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi
- C.) balansdagi likvid bo`lgan mablag`larning majburiyatlarni qoplash darjasini tushuniladi
- D.) balans likvidligini aksi bo`lib, vaqt bo'yicha aktivlarni pul mablag`lariga aylanishi tushuniladi

8. Yakuniy moliyaviy natija nima deb ataladi?

- A.) Yilning sof foydasi
- B.) Sotishdan ko'rilgan yalpi foyda
- C.) Yilning sof foydasi yoki qoplanmagan zarari
- D.) Asosiy faoliyatning yalpi foydasi

3-MODUL. AUDITNING NAZARIY ASOSLARI

6-BOB. AUDITNING MOHIYATI, ZARURLIGI VA AHAMIYATI

O'quv maqsadi: iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirish sharoitida audit va auditorlik faoliyatining mohiyati, moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni, audit maqsadi va vazifalari, auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari, audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *audit, eshitish, shaxs, moliya, nazorat, auditorlik, auditor, konsalting, shartnoma, buxgalteriya hisobi, taftish.*

6.1. Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati

Audit - bunga vakolati bo'lgan shaxslar - auditor (auditorlik tashkilot)lar tomonidan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy hisobotining ishonchiligi hamda moliya-xo'jalik operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ekanligini aniqlash maqsadida mustaqil ekspertiza va tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va boshqa moliyaviy hisobotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini, ularning to'liqligi va aniqligini tekshirish demakdir. Shuningdek, audit tarkibiga konsalting, ya'ni mijozlarga shartnomaga asosan xizmatlar ko'rsatish ham kiradi.

Har qanday tushuncha, ayniqsa ilmiy atama o'zining mohiyatini ifodalovchi ta'rifga ega bo'lishi kerak.

Auditorlik faoliyatining ta'rifi o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida turli manbalarda turlicha bayon qilingan. Masalan, professor M.M.Tulaxodjayevaning ta'rifiga ko'ra, "audit-bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir"¹⁹.

¹⁹ M.M.Tulaxodjayeva. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O'quv qo'llanma. -T.: 1996, 19 b.

Professor H.N. Musayevning yozishicha, “Iqtisodiy adabiyotlarda “audit” so’zining mazmuni turlicha talqin qilingan. Ayrimlar “audit” so’zining mazmuni lotin tilidan olingan bo’lib, “u eshitadi” ma’nosini bildiradi desalar, boshqalar esa ushbu so’z ingliz tilidan olingan bo’lib, “u yordam beradi” degan ma’noga ega deb ta’kidlaydilar. Audit – bu “tekshirish”, “tergov qilish” degan fikrlar ham bor. AQShning nufuzli iqtisodiy universitetlarida o’qitiladigan “Audit” (auditing) – daxlsiz hodim tomonidan axborotlarning belgilangan mezonlarga mosligini aniqlash va xolisona xulosa berish maqsadida xo’jalik tizimi to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash va baholash jarayonidir. Bizning fikrimizcha, audit – bu muayyan vakolatlar berilgan shaxslar, ya’ni auditorlar tomonidan xo’jalik yuritayotgan sub’yektlar faoliyatlarining respublikada qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiqligini tekshirish yo’li bilan baholash va xolisona xulosalar berishdir”²⁰.

Auditorlik faoliyati va auditorlik kasbining ta’rifi, O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunining yangi tahririda quyidagicha ifodalangan, “auditorlik faoliyati - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tadbirkorlik faoliyati” bo’lib, “...auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish va turdosh xizmatlar ko’rsatish bo’yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti” deb ta’riflangan²¹. Aynan, ushbu Qonunning 4-bobining 27-moddasida auditorlik tashkiloti tavsiflangan bo’lib, unga ko’ra auditorlik tashkiloti o’zi haqidagi ma’lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sanadan e’tiboran auditorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. Auditorlik tashkiloti o’z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir. Auditorlik tashkiloti vazirliklar, davlat qo’mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishi

²⁰ H.N.Musayev. Audit. Darslik. -T.: 2003, 17-18 b.

²¹ O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyat to’g’risida”gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O’RQ-677-son, *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.

taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotining muassisleri bo'lishi mumkin emas.

“Auditor” - auditoring malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs (3-modda).

Agar, auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lsa, yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomaga tuzgan bo'lsa, u auditorlik tekshiruvi o'tkazishga jalb etilishi mumkin.

Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa hatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar yetkazganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo'ladi. “Auditorlar va auditorlik tashkiloti xodimlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni o'ziga auditorlik xizmatlari ko'rsatilgan shaxslarning yozma roziligidan oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas” (8-modda).²² Shuningdek, qonunning 3-bob, 17-moddasida “Auditoring malaka sertifikatiga ega bo'limgan, auditorlik tashkilotida ishlovchi hamda auditoring topshirig'iga ko'ra auditorlik xulosasiga va auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq boshqa hujjatga imzo qo'yish huquqisiz auditorlik tekshiruvida ishtirok etadigan jismoniy shaxs auditoring yordamchisidir.

Auditoring yordamchisiga nisbatan uning auditorlik tekshiruvida ishtirok etishi chog'ida o'zi olgan ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati tatbiq etiladi”.

O'zbekistonda auditorlik faoliyati mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunning 5-moddasiga muvofiq, “Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalgaga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

²² O'zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyat to'g'risida”gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.

Auditorlik tashkilotlari aksiyadorlik jamiyatni ko'rinishidan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi va o'z faoliyatini quyidagi majburiy shartlarga rioya etgan holda amalga oshirishi mumkin:

auditorlarga (auditorga) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) tegishli ulush kamida ellik bir foiz bo'lishini ta'minlashi (bundan auditorlik tashkilotini — chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki sho'ba xo'jalik jamiyatini tashkil etish hollari mustasno);

shtatida asosiy ish joyi auditorlik tashkiloti bo'lган kamida to'rt nafar auditor mavjud bo'lishini ta'minlashi;

auditorlarning yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlashi;

auditorlik faoliyatini faqat auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisi mavjud bo'lган taqdirda amalga oshirishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida mustaqillikni ta'minlashi;

auditorlik xizmatlari buyurtmachisining talabiga ko'ra auditor (auditorlar) sertifikatini, auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisini ko'rsatishi;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir auditning xalqaro standartlari talablari to'g'risidagi, auditoring e'tirozlariga asos bo'lган qonunchilik hujjatlari normalari haqidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning so'roviga binoan taqdim etishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini ta'minlashi;

auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi va auditorlik xulosalarining nussxalarini auditorlik tashkilotida kamida besh yil saqlashi;

o'tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari to'g'risidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning identifikasiya ma'lumotlarini va auditorlik xulosasini ko'rsatgan holda o'z rasmiy veb-saytlariga yoki auditorlar respublika jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirishi;

auditorlik tashkilotlari renkingini o'tkazish uchun axborot taqdim etishi;

buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlari to'g'risida yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniq tasdiqlovchi faktlar haqida xo'jalik yurituvchi sub'yecktning rahbariyatini va korporativ boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni, audit qo'mitasini yozma shaklda xabardor qilishi; auditorlar ishi sifatining ichki nazorat tizimini o'rnatishi va unga riosa etishi; auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazishga monelik qilmasligi;

o'z pochta manzili va elektron manzili o'zgarganligi to'g'risida, auditorlik tashkilotining rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o'zgarganligi haqida vakolatli davlat organini besh kunlik muddatda yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi;

har yili 20 yanvarga qadar auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga yozma yoki elektron shaklda taqdim etishi shart.

Auditorlik tashkilotining zimmasida qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

6.2. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni

Moliyaviy nazorat moliyani nazorat funksiyasini amalga oshirish uchun asosiy usuli bo'lib, uni vazifalarini va maqsadini belgilab beradi. Shuning bilan bir qatorda nazoratning mazmuni, uning yo'naliishini o'zgarishi, ishlab-chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasiga va jamiyatni ishlab-chiqarish munosabatlariga bog'liq.

Moliyaviy nazoratni ob'yekti bo'lib, moliyaviy resurslarni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lган pul shaklidagi va iqtisodiyot sohalarining hamma darajasida va bo'g'inlarida pul mablag'lari fondlari shaklidagi taqsimlanish jarayonidir. Tekshirishning bevosita predmeti bo'lib, uning tarkibiga moliyaviy qiymatga ega bo'lgan daromad, foyda, soliqlar, rentabellik, tannarx, aylanma xarajatlar, turli maqsadlarga va fondlarga olingan mablag'lar kabi ko'rsatkichlar kiradi, Bu ko'rsatkichlar murakkab harakterga ega va shuning uchun ularni

bajarilishi, dinamikasi va moyilligini (tendensiyasini) nazorati, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ishlab-chiqarish, xo'jalik va tijorat faoliyatini hamma tomonini, hamda moliya-kreditni o'zaro bog'liqligi mexanizmini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazorat – bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog'liq bo'lган masalalar xarakatini va muomalasini majmui bo'lib, xo'jalik sub'yektlari faoliyatini va boshqarishni o'ziga xos usullar va shakllar yordamida tashkil etishdan iborat.

Moliya nazorati vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan moliyaviy intizom mustahkamlanadi. Moliyaviy intizom deganda, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar pul jamg'armalarini yaratish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioxha etilishi tushuniladi. Moliyaviy intizom talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi.

Moliyaviy nazorat amal qilish sohasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- 1) Davlat moliyaviy nazorati.
- 2) Nodavlat moliyaviy nazorat.

Davlat moliyaviy nazorati davlat boshqaruvi va ijroya organlari tomonidan qonuniy asosda tegishli vakolatlar doirasida amalga oshiriladigan nazorat turidir.

Xo'jalik aloqalarining kengayishi xususiyatlarining davlat tasarrufidan chiqarilishi jarayonlarini jadallashuvi natijasida turli mulk shakllariga asoslangan korxona-tashkilotlarning paydo bo'lishi, xo'jalik faoliyatlarining erkinlashuvi nodavlat moliyaviy nazoratning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Nodavlat moliyaviy nazoratning asosini audit, ya'ni auditorlik tekshiruvi tashkil qiladi.

Jahon amaliyotida audit yangilik bo'lmay, faoliyatning barcha sohalarida qo'llaniladi. O'zbekistonda esa, audit iqtisodiyot sub'yektlarining moliyaviy axborot foydalanuvchilari ehtiyojini ta'minlaydigan, uning to'g'rilingini tasdiqlaydigan shaklda mustaqil moliyaviy nazoratning yuzaga kelishi bo'lib, nisbatan yangi institut hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda mamlakatimizda audit

anchagina keng qo'llanilmoqda. Hozir to'liq aytish mumkinki, O'zbekistonda audit qaror topdi va u tobora ko'proq rivojlanib bormoqda. Xalqaro standartlar hisobga olingan holda, auditning qonunchilik va boshqa me'yoriy bazasi yaratilmoqda va uni amalga oshirish usullari takomillashtirilib borilmoqda.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonda bevosita auditga yo'ldosh bo'lgan xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat (moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etish, buxgalteriya hisobining yo'lga qo'yilishi, investitsion loyihalarni baholash, axborot xizmatini ko'rsatish va h.k) shakllantirilgan. Tadbirkor sifatida mustaqil ishlovchi auditorlik tashkilotlari va auditorlar moliyaviy hisobot va moliya xo'jalik faoliyati to'g'rilingini tasdiqlash nodavlat sektorida moliyaviy nazoratni chuqurlashtiradi va kengaytiradi. Masalan, mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobot foydalanuvchilar (investorlar, kreditorlar va h.k.) tomonidan turli operatsiyalar, xususan, kreditlar berish, investitsiyalar qo'yish, fond bozorlarida qimmatli qog'ozlar listingi kabi yo'nalishlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun axborot manbasi hisoblanadi.

6.3. Audit maqsadi va vazifalari

Auditning maqsadi - amaldagi qonunchilik, auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga soluvchi tizim, auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro shartnoma majburiyatları bilan belgilanadigan aniq masalani yechishdan iboratdir. Auditorlik faoliyatining maqsadi - xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotini ishonchlilagini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarning me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Auditning asosiy vazifasi - quyidagi maqsadlarga erishish uchun moliyaviy hisobotlarni tekshirishdir:

hisobotlarning ishonchlilagini va ishonchsizlilagini tasdiqlash;

tekshirilayotgan davrda korxona faoliyati natijasida hisob va hisobotda xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijalar to'liq, ishonchli va aniq aks etilganligini tekshirish;

hisobni yuritish va hisobotni tuzish, aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni baholash uslubiga oid qoidalarini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikka va me’yoriy hujjatlarga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

xususiy va aylanma mablag’lar, moliyaviy zahiralar va manbalardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

Auditning maqsad va vazifalarini yoritishda uning rivojlanish bosqichlariga ham ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq. Chunki, auditning har bir rivojlanish bosqichlarida uning oldiga qoyilgan maqsad hamda vazifalari aks etadi.

Nazariy manbalar tahlilidan ko’rinadiki, so’ngi 25 yillikda auditorlik faoliyati 3 xil rivojlanish bosqichidan o’tgan:

1. Tasdiqlovchi audit – bunda asosan hisob registrlari va hujjatlar tekshirilgan.
2. Maqsadli tizimli audit – bu bosqichda muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratilgan.
3. Tavakkalchilikka asoslangan audit - tizimni nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho berila boshlandi.

Audit jaratonida buxgalterlik hisobining qay darajada tashkil etilganligi va yuritilayotganligi, buxgalterlarning malakasi va intizomi, dastlabki hujjatlarga ishlov berilish sifati va korxona moliya-xo’jalik faoliyati hamda uning natijalarini aks ettiruvchi buxgalterlik yozuvlarining to’g’riligi aniqlanadi.

Auditorlik tekshiruvlari ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etish, korxonadagi tartib, mehnat va texnologik intizomni, tovar-moddiy zahiralarning omborlar va boshqa saqlash joylaridagi hisobi, mulklarning saqlanishi, hisob-kitoblar holati va korxona moliya-xo’jalik faoliyati hamda uning natijalariga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan boshqa ko’plab holatlarni qamrab oladi. Shuning uchun auditorlik hisobotida korxona moliya-xo’jalik faoliyati va uning natijalariga bevosita ta’sir ko’rsatadigan, hamda hisob ma’lumotlari va hisobot ko’rsatkichlari ishonchhlilagini pasaytirishiga olib keladigan, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi katta kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar berilishi lozim.

Shuningdek, O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri – xorijlik hamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasi berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalarini tashkil etish hisoblanadi.

Umuman turli mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham audit amaliyoti va tashkil qilinishi o'z xususiyatlariga ega. Quyidagi 33-jadvalda turli mamlakatlarda auditning tashkiliy tavsiflari keltirilgan.

33-jadval

*Turli mamlakatlarda auditning tashkiliy tavsiflari**

| Mamlakatlardar | Ko'rsatkichlar | | |
|----------------|---|--|---|
| | Auditning asosiy maqsadi | Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi organlar | Auditor kadrlar tayyorlash tizimi |
| Angliya | Buxgalteriya hisobining haqqoniyligini nazorat qilish, hisobot tizimi va korxona moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirish | Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi | Diplomlangan buxgalter va auditorlar qo'mitasi |
| Fransiya | Iqtisodning nodavlat sektorida moliyaviy hisobotlar haqqoniyligining tashqi moliyaviy nazorati | 1.Buxgalter – ekspeditor organi 2.Taftishchilar milliy palasati | 1.Buxgalter- ekspeditor organi 2.Taftishchilar milliy palasati |
| AQSH | Xolis auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotni tekshirish va ekspert – konsultativ faoliyat | 1.Auditorlar uyushmasi federatsiyasi 2.Ichki taftishchilar instituti 3.Buxgalterlar instituti | 1.Diplomlangan auditorlar instituti 2.Ichki auditorlar instituti |
| Shvetsiya | Kompaniyalar, korxonalar, banklar, tashkilotlar moliyaviy hisobotini va xo'jalik muomalalarini buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishini tekshirish | 1.Auditorlik faoliyati komissiyasi 2.Auditorlarning Shvetsiya jamiyati (SRS) | 1.Auditorlik faoliyati bo'yicha komissiya 2.Auditorlar malakasini oshirish instituti (UPEB) 3. Auditorlarning Shved jamoasi |
| Rossiya | Buxgalteriya hisobotlarini RF qonunchiligiga mosligini mustaqil buxgalteriya ekspertizasi orqali aniqlash | RF prezidenti qoshidagi auditorlik faoliyati bo'yicha kommissiya (SALAK) va RF MB, Rossiya auditorlar palasati | SALAK MF va RF MB o'quv – metodik markazi |

| | | | |
|-------------|---|---|---|
| O'zbekiston | Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riliqi hamda qonun hujjalariiga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning moliyaviy hisobotini va u bilan bog'liq moliyaviy axborotni tekshirish | 1.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 2. Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsatsiyasi 3.O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi | 1.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2.Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsatsiyasi 3.O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi |
|-------------|---|---|---|

* Manba: B.Q. Hamdamov. Audit iqtisodi. Monografiya. T.: 2005y., 14 b.

Auditorlik faoliyatini tashkil qilish har bir mamlakatning xususiyati, davlat tuzilishi, iqtisodiy darajasi va boshqa omillarga bog'liq holda amalga oshadi.

6.4. Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari

Audit shu kunga qadar uzoq tarixga ega bo'lган yo'lни bosib o'tgan. Birinchi mustaqil auditorlar Yevropaning aksiyadorlik kompaniyalarida XIX-asrlardayoq paydo bo'lган. Auditning paydo bo'lishi korxonani bevosita boshqarish bilan shug'ullanayotganlar (rahbarlar, menejerlar) va uning faoliyatiga pul qo'yayotganlar (mulkdorlar, aksiyadorlar, investorlar) manfaatlarini ajralishi natijasi bilan bog'likdir.

Moliyaviy ma'lumotni to'g'ri ekanligini tekshirish va moliyaviy hisobotni tasdiqlash uchun, aksiyadorlarni fikri bo'yicha ishonish mumkin bo'lган shaxslar taklif etilgan va auditorga nisbatan qo'yiladigan asosiy talablardan biri, uning so'zsiz halolliligi va mustaqilligi hisoblangan. Buxgalteriya hisobining murakkablashganligi auditorning jiddiy malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etgan. O'rta asrlardan boshlab Yevropada hokimiyat shartnomalarini turli javobgarlar tomonidan tasdiqlab, qayd etish odat tusiga kirgan va shu yo'sinda asta – sekin buxgalteriya hisobi va nazorat shakllana boshlagan, xususan, XIV asrda ikki yoqlama yozish usuli paydo bo'ladi va mulk yo'nalishi ustidan nazorat kuchayadi.

1862 yili Angliyada, 1867 yili Fransiyada, 1937 yili esa AQSH da majburiy audit to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'zining tashkiliy huquqiy infratuzilmalariga ega bo'lган audit institutlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishiga 1929–1933 yillarda jahon sanoati iqtisodiy tanazzuli katta turtki bo’lgan. Bu davrda aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa korxonalarining ko’pchiligi inqirozga yuz tutganlar. Natijada hisobotlarni, xususan, balans, foyda va zararlar to’g’risidagi hisobot ma’lumotlarini tasdiqlash tartibini qat’iy belgilash, ularning to’g’riliği va haqqoniyligini mustaqil auditorlar tomonidan tekshirish ehtiyoji yuzaga kelgan.

Dastlab auditorlik vazifalari aniq belgilanmagan bo’lib, barcha investorlar, aksiyadorlar, kreditorlar auditorlarni o’zlarining himoyachisi sifatida qabul qilganlar.

1940 yillarning oxirigacha audit asosan amalga oshirilgan pul operatsiyalarini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishdan va moliyaviy hisobotlarda ushbu operatsiyalar to’g’ri guruhlanganligini tekshirishdan iborat bo’lgan. Bu davrda aynan tasdiqlovchi audit to’liq o’zini namayon qilgan.

1949 yildan so’ng mustaqil auditorlar, samarali ichki nazorat tizimida xato qilish ehtimoli uncha ko’p bo’lmaydi va moliyaviy ma’lumotlar yetarli darajada to’liq va aniq bo’ladi deb hisoblab, kompaniyalardagi ichki nazorat masalalariga e’tiborni ko’proq qarata boshlaganlar. Bu davrda maqsadli, sistemali audit bosqichi rivojlangan.

Audit rivojlanishining uchinchi bosqichi - bu tekshiruv o’tkazishda yoki maslahat berishda vujudga kelishi mumkin bo’lgan tavakkalchilikka yo’naltirish, tavakkalchilikni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan, ya’ni, mijozning biznes shartlaridan kelib chiqqan holda, asosan xatoliklarga yo’l qo’yilishi mumkin bo’lgan yoki tovlamachilik tavakkalchiligi eng yuqori bo’lgan joylarni tanlab tekshiruvchi audit shakillandi. Aynan bugungi kunda audit o’zining rivojlanish tendensiyalarini yanada takomillashtirib bormoqda. Bu takomillashuv auditorlik faoliyatini bir xil standarlarga yani xalqaro standartlarga o’tishi va raqamlashtirilishi bilan ajralib turadi. Ushbu holatlar auditorlik faoliyatini tashkil qilish va tartibga solishning huquqiy asoslari, hamda uning usul va uslublarini takomillashtirishni taqazo etadi.

6.5. Audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari

Audit - bu iqtisodiy jarayon bo'lib, unda yetarli bilimga ega bo'lган va maxsus malaka sertifikatiga ega bo'lган jismoniy shaxs xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axboroti to'g'riliqi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlab, o'z fikrini bildirishidir.

Agar G'arb mamlakatlarida audit 150 yildan buyon ma'lum bo'lsa, O'zbekistonda esa, mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan shakllana boshladi. Shuning uchun auditorlik faoliyati rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish zarurdir. Ta'kidlash joizki, oldin ham mamlakatimizdagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xo'jalik faoliyatini nazorat va taftish qilish amalga oshirilgan. Ammo, nazorat va taftish bilan audit tushunchalari bir – birlariga yaqin bo'lsa ham, ularni bitta narsa deb tushunish to'g'ri emas.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mulk shaklining o'zgarishi taftish o'tkazish borasida juda katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan iqtisodiy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishni taftish qilishda ma'lum izohlar berilgan holda auditorlik faoliyati standartlari va normalari qo'llanilishi mumkin. Audit va taftishning bunday o'xshash jihatlari ko'p, ammo prinsipial farqlari ham mavjud. Shuning uchun ham iqtisodiy nazorat shakllari va usullarining rivojlanishi istiqbollarni tadqiq qilishda audit va taftish o'rtasidagi farqlarni ochib berish muhim ahamiyatga ega. Bunday farqlarni quyidagi belgilari bo'yicha turkumlash mumkin (34-jadval).

34-jadval

Audit va taftish o’rtasidagi farqlar

| № | Farq qiladigan belgilar | Audit | Taftish |
|----|-----------------------------------|--|---|
| 1 | Maqsadlari | moliyaviy hisobot ishonchliligi yuzasidan fikr bildirish, xizmatlar ko’rsatish, mijozga yordam berish va hamkorlik qilish | bartaraf etish maqsadida kamchiliklarni aniqlash va aybdor shaxslarni jazolash. |
| 2. | Tavsifi | ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyati | ijroya faoliyat, farmoyishlarni bajarish |
| 3. | O’zaro huquqiy munosabat asoslari | Fuqarolik huquqi, xo’jalik shartnomalariga asosan amalga oshirish | Ma’muriy huquq, majburiylik, yuqori tashkilot yoki davlat idoralari farmoyishlariga muvofiq amalga oshirish |
| 4. | Boshqaruv aloqalari | gorizontal (-) aloqalar, mijoz bilan munosabatlarda teng huquqlilik, uning oldida hisobot berish | vertikal () aloqalar, yuqori bo’g’in tomonidan tayinlanish, ijrosi to’g’risida unga hisobot berish |
| 5. | Xizmatlarga to’lov tamoyillari | to’lovni mijoz-korxona yoki auditorlik tekshiruvini buyurtmachisi shartnoma asosida amalga oshiradi | to’lovni yuqori bo’g’in yoki davlat idorasasi amalga oshiradi |
| 6. | Amaliy masalalar | mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, passiv (investor, kreditor)lar jalb qilish, mijozga maslahatlar bilan yordam berish | aktivlarni saqlash, suiste’molchiliklarni bartaraf etish va oldini olish |
| 7. | Natijalar | auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish bilan yakunlanadi. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlovchi auditorlik xulosasining yakuniy qismi chop etilishi mumkin | dalolatnama-bu barcha aniqlangan, hatto ahamiyatsiz bo’lgan kamchiliklar qayd etilgan ichki hujjat. Dalolatnama yuqori tashkilotga yoki boshqa idoralarga taqdim etilishi mumkin. |

Audit va taftish o’rtasidagi yuqoridagi farqlar umumiy tarzda ayrim adabiyotlarda keltirilgan. Hozirgi kunda bularni umum qabul qilingan qarashlar deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunga kelib taftishning o’rnini audit egallashi tezlashdi. Ammo, taftish butunlay yo’qolib ketmaydi va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustahkamlanishiga qarab saqlanib qoladi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va erkinlashtirish sharoitida audit va auditorlik faoliyatining mohiyati, O’zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o’rni, audit maqsadi va vazifalari, auditorlik

faoliyatining rivojlanish bosqichlari, audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari boyicha nazariy bilimlar o'zlashtiriladi.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Moliyaviy nazoratning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning O'zbekiston Respublikasida tutgan o'rni qanday darajada turadi?
2. Moliyaviy intizomning mohiyati nimada?
3. Nodavlat moliyaviy nazorat deganda nimani tushunasiz?
4. Audit va auditorlik faoliyati tushunchalarining mohiyati, maqsad, vazifalari nimalardan iborat?
5. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi necha bosqichga bo'linadi va ularning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Auditorlik tekshiruvining ko'lami va xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Audit va taftishning o'xshash hamda farqli tomonlarini tavsiflab bering.

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. Audit haqida tushuncha qanday ma'noni anglatadi?

- A) Audit "eshitaman" degan ma'noni bildiradi
- B) Audit-u iqtisodiy tahlil yakunidir
- C) Audit-bu moliyaviy tahlil yakunidir
- D) Audit bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqarorligini bildiradigan fond

2. Auditor kim?

- A) Malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs
- B) Jismoniy shaxs
- C) Moliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs
- D) Kooperativ xo'jalik sub'yekti

3. Audit fani predmetini o'rganish ob'yektlariga nimalar kiradi?

- A) mablag', manba, jarayon va moliyaviy natijalar
- B) korxonaning umumiy faoliyati
- C) korxonalar, xo'jalik jarayoni, xo'jalik mablaglarining manbalari

D) korxona, xo'jalik muammolari

4. Audit fanining yuridik sub'yektiga nimalar kiradi?

- A) korxonaning gorizontal va vertikal iqtisodiy munosabatlari va hokazo
- B) korxonada mavjud bo'lgan barcha resurslar va ulardan kam narxli foydalanish
- S) moliyaviy natija va moliyaviy ahvol
- D) audit fani ob'yektlariga kiradi

5. Auditor yordamchisi kim?

- A) Auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmanan bo'lsada, auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan auditor hujjatlarida imzo chekish huquqiga ega bo'lmanan tarzda auditorning topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxs.
- B) Auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmanan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxs.
- S) Auditor hujjatlarida imzo chekish huquqiga ega bo'lmanan auditorning topshirig'iga binoan tekshiruvda ishtirok etayotgan jismoniy shaxs.
- D) Auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan auditorning topshirig'iga binoan tekshiruvda ishtirok etayotgan litsenziyaga ega bo'lmanan jismoniy shaxs.

7. Audit turlarini ayting.

- A) operatsion audit, muvofiqlik auditi, moliyaviy hisobot auditi
- B) ichki va tashqi audit
- S) operatsion, ichki va tashqi audit
- D) moliyaviy holat auditi, operatsion, mos kelish va kelmaslik, to'liq, qisman audit.

8. Auditorlik tashkiloti...?

- A) ...auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan mustaqil yuridik shaxs
- B) ...tadbirkorlik faoliyatiga asoslangan tashkilot
- S) ...auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs
- D) ...mustaqil yuridik shaxs

7-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATI VA UNI TARTIBGA SOLISH

O'quv maqsadi: O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va uning ahamiyati, auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari, va javobgarliklari, audit turlari, auditorlik tekshiruvlar, auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *audit, me'yor, tartib, qonun, normativ, milliy, xalqaro, standart, operatsion, muvofiqlik, hisobot, tekshiruv, majburiy, tashabbus, javobgarlik.*

7.1. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi takomillashtirilmoqda. Ma'lumki, auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi deganda, milliy iqtisodiyotda auditorlik faoliyatini tashkil etish va tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy asoslar tushuniladi.

Ularning asosiy elementlari O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va qonun osti hujjatlari, hamda sohaga tegishli bo'lgan boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Xususan, o'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Aynan, sohani rivojlantirishga to'sqinlik qilgan quyidagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida auditorlik tizimida so'ngi ikki yilda izchil islohotlar amalga oshirilishi zaruriy ehtiyojga aylandi:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralgan;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlari o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqardi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaygan;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamaydi, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas edi, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralarini cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamadi.

Shu sababli ham ushbu yo'nalishdagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi yangi tahrirdagi huquqiy asoslar, yani, 2018 yil 19 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 21 dekabrdan ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3105), asosiysi 2021 yil 25 fevral kuni

O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunining yangi tahriri qabul qilindi.

Mazkur qonunda auditorlik faoliyatini tashkil etish, tartibga solish me’yorlari xalqaro talablar darajasida belgilab berildi. Qonunda belgilanishicha, banklarni auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning o’ziga xos jihatlari O’zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Endilikda, O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O’zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo’llaniladi.

“Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni tashqi auditni amalga oshirishning huquqiy me’yoriy asosini tashkil qiluvchi asosiy hujjat bo’lib, unda auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyati, javobgarligi, uning tashkil etilish asoslari, auditorlik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya va uning talablarini, auditor va uning yordamchilari, auditorlik tekshiruvlar, majburiy audit va professional xizmatlarni tartibga soladi. O’zbekistonda yildan-yilga auditorlik faoliyatining ko’lami kengayib, tashkiliy asoslari va tartibga solish mexanizmlari xalqaro standartlar asosida tashkil etilmoqda. Xususan, 2021 yil 1 yanvar holatiga ko’ra, O’zbekistonda 99 ta auditorlik tashkilotlari faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Auditorlar soni esa 572 kishini tashkil qiladi. 19 ta mahalliy auditorlik tashkilotlari yirik xalqaro tarmoq va assotsatsiyalarning a’zolari hisoblanadi. Aynan ushbu yo’nalishdagi ishlarning sifati va samarasi auditorlik faoliyatini tashkil etish va tartibga solish bo’yicha me’yoriy asoslarning xalqaro talablar darajasida shakllantirilganligidan dalolat beradi.

7.2. O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunining yangi tahriri va uning ahamiyati

2021 yil 25 fevral kuni qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni 55 ta moddadan iborat. Yangi tahrirdagi qonunda Moliya vazirligi, Markaziy bank vakolatlari belgilandi. Auditorlik faoliyati

bo'yicha yangi normalar kiritildi. Yangi qonunda sohaga tegishli bo'lgan shu kunning dolzARB masalalari ifodalandi. "Qonun bilan auditorlik faoliyatini faqat auditning xalqaro standartlari asosida amalga oshirish belgilanmoqda. Bu O'zbekistondagi auditorlik faoliyatimizning xalqaro amaliyotdagi, rivojlangan davlatlardagi audit faoliyati bilan bir xilligi ta'minlanishiga olib keladi, degani.

Mazkur qonun to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan hujjat sifatida qabul qilindi. Demak, barcha qonun osti hujjatlari, auditorlik sohasiga tegishli hujjatlar bitta tizimga tizimlashtirilib, yaxlit bir hujjat shaklida qonunda namoyon bo'ldi"²³. Mazkur Qonunning qabul qilinishidan maqsad, auditorlik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni unifikatsiyalab va tizimlashtirib yagona normativ-hujjatga jamlashdir.

Qonunda quyidagi tushunchalar qo'llanilgan:

- auditorlik tashkiloti – auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti;
- renking–auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlarga ajratilgan auditorlik tashkilotlarining tartibga solingan ro'yxatlarini shakllantirish;

• auditorlik tashkilotlarining reyestri va auditorlar hamda boshqa tushunchalar.

Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar yoritib berilgan.

Belgilanishicha, auditorlik faoliyati audit, sifat nazorati, tahliliy tekshiruvlar, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari asosida amalga oshiriladi. Standartlar Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadi.

Auditning xalqaro standartlarini O'zbekiston hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

²³ <https://kun.uz/73397642/>, 2021 yil 3 mart.

Auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Markaziy bankning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari belgilandi.

Shuningdek, auditor malaka sertifikatini olish va uning amal qilish muddatini uzaytirishni tartibga soluvchi normalar belgilandi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash talabi bekor qilindi. Auditorlik tashkiloti o'zi haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sanadan e'tiboran auditorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. U, avvalgidek, qonunchilikda nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda, aksiyadorlik jamiyati bundan mustasno, tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Bunda majburiy tartibda quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

- auditorlik tashkiloti o'zi uchun asosiy ish joyi bo'lgan auditorlarning eng kam soni shtatdagi 4 nafar auditordan iborat bo'ladi;
- auditorlik tashkilotining ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantiriladi;
- ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) auditorlarga (auditorga) tegishli bo'lgan ulush kamida 51%ni tashkil etishi kerak (auditorlik tashkiloti – chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki shu'ba xo'jalik jamiyati tashkil etilgan hollar bundan mustasno);
- auditorlik tashkilotiga faqat o'zi uchun mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi bo'lgan auditor rahbar bo'lishi kerak.

Ushbu talablarga muvofiq bo'limgan taqdirda, auditorlik tashkiloti nomuvofiqlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran 5 kun muddatda vakolatli davlat organini bu haqda yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi va yuzaga kelgan nomuvofiqlikni ko'rsatib o'tilgan sanadan e'tiboran 3 oydan ko'p bo'limgan muddatda bartaraf etishi yoxud auditorlik faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi shart. Nomuvofiqlik bartaraf etilguniga qadar auditorlik tekshiruvlari o'tkazilishi taqiqilanadi.

Auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi, shuningdek majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazadigan tashkilotlar ro'yxatiga tuzatishlar kiritildi. Endi hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergen tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati BHMning 100 ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlar, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi BHMning 200 ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni 100 nafardan ortiq bo'lsa, majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazadigan auditorlik tashkilotlariga qo'yiladigan talablar, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlaganligi uchun javobgarlik choralari belgilandi.

Shuningdek, auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan turdosh xizmatlar ro'yxati belgilandi, ular jumlasiga quyidagilar kiritildi:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;
- yuridik shaxsnинг taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;
- auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo'lganda yoxud shartnoma asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo'llash, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish va boshqalar.

Belgilanishicha, auditorlik tekshiruvlari natijalari bo'yicha faqat auditorlik xulosasi beriladi.

Auditorlar va auditorlik tashkilotlarining reyestrini yuritish tartibi belgilandi.

Quyidagilar joriy etildi:

- auditorlik ishi sifatining ichki nazorati – auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar

tizimi ishlab chiqildi. Ushbu nazorat auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga binoan amalga oshiriladi va auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'idagi majburiy shart hisoblanadi.

- auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati – vakolatli davlat organi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda amalga oshiradigan, auditorlik tashkilotlari tomonidan Qonun talablarini va auditorlik faoliyati standartlarini buzishlarni aniqlashga hamda kelgusida ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi shakllantirildi.

7.3. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari

2021 yil 25 fevralda qabul qilingan “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-677-son Qonunining 4-bobida auditorlik tashkiloti, auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi bayon qilingan.

Xususan, 28-moddada auditorlik tashkilotining huquqlari bayon qilingan bo'lib, unga ko'ra, auditorlik tashkiloti:

auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqishni amalga oshirishga;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil tarzda belgilashga;

auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq hujjatlarini to'liq hajmda olishga, shuningdek, ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirishga;

xo'jalik yurituvchi sub'yeqt tomonidan e'lon qilingan auditorlik tashkiloti tanlovlarda ishtirok etishga, shuningdek, tanlov shartlari bilan tanishib chiqish va o'z takliflarini taqdim etishga;

xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslaridan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan, audit qo'mitasidan auditorlik tekshiruvi jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lган qo'shimcha ma'lumotlar olishga;

uchinchi shaxslardan axborotning yozma tasdiqnomalarini olishga;

auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lган axborot xo'jalik yurituvchi sub'yeikt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishni rad etishga;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etish uchun boshqa mutaxassislarni ekspert sifatida jalb etishga;

auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda xo'jalik yurituvchi sub'yeiktga turdosh xizmatlar ko'rsatishga, bundan buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish, taftish komissiyasi (taftishchi) vazifalarini, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish mustasno;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashishga haqli.

Auditorlik tashkiloti qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Qonunning 29-moddasida auditorlik tashkilotining majburiyatları keltirilgan.

Auditorlik tashkiloti:

ushbu Qonun, auditorlik faoliyatining standartlari va Professional buxgalterning odob-axloqi kodeksi talablariga rioya etishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qarolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

auditorlarga (auditorga) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) tegishli ulush kamida ellik bir foiz bo'lishini ta'minlashi (bundan auditorlik tashkilotini — chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki sho'ba xo'jalik jamiyatini tashkil etish hollari mustasno);

shtatida asosiy ish joyi auditorlik tashkiloti bo'lgan kamida to'rt nafar auditor mavjud bo'lishini ta'minlashi;

auditorlarning yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlashi;

auditorlik faoliyatini faqat auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida mustaqillikni ta'minlashi;

auditorlik xizmatlari buyurtmachisining talabiga ko'ra auditor (auditorlar) sertifikatini, auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisini ko'rsatishi;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir auditning xalqaro standartlari talablari to'g'risidagi, auditoring e'tirozlariga asos bo'lgan qonunchilik hujjatlari normalari haqidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning so'roviga binoan taqdim etishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini ta'minlashi;

auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi va auditorlik xulosalarining nusxalarini auditorlik tashkilotida kamida besh yil saqlashi;

o'tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari to'g'risidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning identifikasiya ma'lumotlarini va auditorlik xulosasini ko'rsatgan holda o'z rasmiy veb-saytlariga yoki auditorlar respublika jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirishi;

auditorlik tashkilotlari renkingini o'tkazish uchun axborot taqdim etishi;

buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlari to'g'risida yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniq tasdiqlovchi faktlar haqida xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning rahbariyatini va korporativ boshqaruva uchun mas'ul bo'lган shaxslarni, audit qo'mitasini yozma shaklda xabardor qilishi;

auditorlar ishi sifatining ichki nazorat tizimini o'rnatishi va unga rioxalish; auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazishga monelik qilmasligi;

o'z pochta manzili va elektron manzili o'zgarganligi to'g'risida, auditorlik tashkilotining rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o'zgarganligi haqida vakolatli davlat organini besh kunlik muddatda yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi;

har yili 20 yanvarga qadar auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga yozma yoki elektron shaklda taqdim etishi shart.

Auditorlik tashkilotining zimmasida qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qonunning 30-moddasida auditorlik tashkilotining javobgarligi bayon qilingan.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi buyurtmachilar, xo'jalik yurituvchi sub'yekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida ularga moliyaviy hisobotlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risidagi noto'g'ri yakunni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun auditorlik tashkiloti rahbari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Ma'lumotlari Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilmagan tashkilot tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tkazganlik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

7.4. Operatsion, muvofiqlik, moliyaviy hisobot auditi

Auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar va maxsus adabiyotlarni tahlili auditni quyidagi turlarga bo'lish mumkinligini keltirib chiqaradi: operatsion audit, muvofiqlilik (moslik) auditi va moliyaviy hisobot auditi.

Operatsion audit - korxona xo'jalik mexanizmining alohida bo'limlari faoliyatini, ularning samaradorliligi, ishonchliligi va boshqaruv uchun foydalilagini baholash maqsadida amalga oshiriladigan tekshiruvdir.

Operatsion auditda tekshiruvga boshqaruv tashkiliy tizimining hajmi, buxgalteriya hisobining tashkiliy uslubi va texnikasi, kompyuter tizimlari, marketing uslublari va boshqa jabhalar kiritilishi mumkin.

Muvofiqlilik (moslik) auditi - bu korxona xo'jalik tizimida amaldagi qonunchilikka oid hujjatlar va yo'riqnomalar bilan belgilangan me'yorlarga hamda ma'muriyat xodimlari uchun ishlab chiqilgan muolaja va qoidalarga qanday rioxat etilayotganligining tekshiruvidir.

Byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar nazorat qilinganda ham asosan moslik auditni o'tkaziladi, chunki, bunday tashkilotlarda bajarilishi lozim bo'lgan qoidalar aniq ko'rsatiladi.

Moliyaviy hisobot auditni hisob va hisobotda qayd etilgan ma'lumot belgilangan mezonlarga muvofiqligini tekshirish uchun amalga oshiriladi. Odatda, buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan tamoyillari va qoidalari majmui mezonlar bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot auditni – bu auditning asosiy turi bo'lib, moliyaviy hisobot belgilangan mezonlar asosida tayyorlanganligini aniqlaydi.

Moliyaviy hisobot auditining asosiy maqsadi - bu ma'lum bir vaqtda korxona faoliyati natijasi bo'yicha hisobotda aktivlar, majburiyatlar, xususiy mablag'lar va moliyaviy natijalar to'liq, ishonchli va aniq aks etilganligiga haqqoniy baho berish, korxonada qabul qilingan hisob siyosati amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tekshirishdan iborat.

Auditorlik tekshiruvi davomida balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot to'g'ri tuzilganligi, tushuntirish xati ma'lumotlarining ishonchliligi tekshiriladi. Bunda quyidagilar aniqlanadi:

hisobotda barcha aktivlar va passivlar aks ettirilganligi;
hisobot tuzishda barcha hujjatlardan foylanilganligi;
amaldagi mol-mulkni baholash uslubi korxona hisob siyosatida qabul qilingandan qay darajada farq qilishligi;
foyda solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha soliqqa tortiladigan baza to'g'ri hisoblanganligi.

Auditor quyidagilarni tekshirishi lozim:

korxona mulkdorlari tomonidan Ustav kapitali hajmining o'zgartirganligi to'g'risidagi qarorlari to'liq bajarilganligi;

balansning aktiv va passiv schetlari bo'yicha sintetik va tahliliy hisob ma'lumotlarining bir biriga mos kelishligi;

hisobotda debitorlik va kreditorlik qarzlar to'liq aks etilganligi.

Auditorlik xulosasini tayyorlash jarayonida quyidagilar tekshirilishi lozim:

korxonada amalga oshirilgan alohida xo'jalik operatsiyalari qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq aks etilishi va mol-mulkni baholash tartibiga rioya qilinishi;

daromadlar va xarajatlar hisobot davrlari bo'yicha to'g'ri aks ettirilishi;

hisobda ishlab chiqarish bo'yicha joriy xarajatlar (aylanish chiqimlari) va kapital qo'yilmalar ajratilgan holda aks ettirilishi;

har oyning 1-sanasiga tahliliy hisob ma'lumotlari aylanma va tahliliy hisob schetlari qoldiqlari bir biriga mos kelishligining ta'minlanishi.

Asosiy maqsadga erishish va xulosa taqdim etish uchun auditor quyidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini shakllantirishi lozim:

hisobotning umumiyligini qabul qilingan prinsiplariga monandligi, hisobot o'ziga nisbatan talab qilinadigan barcha shartlarga umuman muvofiqligi va bir biriga zid bo'lgan ma'lumotlar mavjud emasligi;

asoslanganligi (ko'rsatilgan summalar asoslangan ravishda hisobotga kiritilganligi);

yakunlanganligi (barcha kerakli bo'lган summalar hisobotga kiritilganligi, xususan aktivlar va passivlarning barchasi ushbu kompaniyaga tegishli bo'lганligi);

baholash (barcha tabaqalar to'g'ri baholanganligi va xatosiz hisoblanganligi);

tabaqalashtirish (schetda yozilgan summa asoslangan holda unda qayd etilganligi);

ajratish (balans tuzilgan sanadan oldinroq yoki bevosita ushbu sanadan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar amalga oshirilgan davrda to'g'ri aks etilganligi);

batartiblik (alovida operatsiyalar bo'yicha summalar tahliliy hisob daftar va kitoblarida qayd etilganlarga muvofiqligi, ular to'g'ri raqamlanganligi, yakuniy summalar Bosh kitobda qayd etilgan summalarga muvofiqligi);

oshkorlik (barcha tabaqalashtirilgan ma'lumotlar moliyaviy hisobotga kiritilganligi hamda hisobot va uning ilovalarida to'g'ri aks etilganligi).

7.5. Majburiy, tashabbus, nazorat qiluvchi yoki huquqni muxofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra audit o'tkazish xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuning yangi tahririning 6-bobi auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartiblariga bag'ishlangan bo'lib, uning 34-moddasida auditorlik tekshiruvini o'tkazishga cheklowlar, 36-moddada tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi, 37-moddasida xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'idagi huquq va majburiyatları, 38-moddasida tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining huquq va majburiyatları masalalari keltirilgan. Ushbu bobning moddalaridan ko'rindiki, bugungi kunda auditorlik tekshiruvining 2 turi mavjud, ya'ni, majburiy va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlari. Ammo, Qonunning yangi tahririga ko'ra, auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklowlar ham mavjud (34-modda). Biz auditorlik tekshiruvlarini yoritishdan oldin, ushbu cheklowlar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Auditorlik tashkilotlariga quyidagilarga nisbatan auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqlanadi:

mazkur auditorlik tashkilotining kreditorlari, sug'urtalovchilari bo'lган xo'jalik yurituvchi sub'yecktarga nisbatan, shuningdek ushbu auditorlik tashkilotlari va auditorlar o'zining muassisleri, ishtirokchilari, aksiyadorlari bo'lган xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan;

muassisi, ishtirokchisi, aksiyadori yoki rahbarlik vazifalarini yoxud buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxsi, audit qo'mitasi a'zosi bir vaqtning o'zida mazkur auditorlik tashkilotining xodimi bo'lган xo'jalik yurituvchi sub'yektga nisbatan;

auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda mazkur xo'jalik yurituvchi sub'yektga ushbu Qonun 33-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi (buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish) va uchinchi xatboshida (yuridik shaxsning taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish) nazarda tutilgan turdosh xizmatlarni ko'rsatgancha;

xodimlari muassisning, ishtirokchining yaqin qarindoshlari yoki rahbarlik vazifalarini yoxud buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi shaxsning tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt audit qo'mitasi a'zosining yaqin qarindoshlari bo'lган;

auditorlik tashkilotining yoki auditorning manfaatdorligi moliyaviy hisobot va u bilan bog'liq moliyaviy axborot to'g'risida fikr bildirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda.

Auditorlik tashkiloti ketma-ket yetti yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi sub'yektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emas.

Majburiy auditorlik tekshiruvi deganda, quyidagi tashkilotlarda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishida belgilangan auditorlik tekshiruvi tushiniladi:

aksiyadorlik jamiyatlari;

banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

sug'urta tashkilotlari;

investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari;

manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo'lган xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo'lган xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari;

fond va tovar birjalari;

hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergen tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi belgilangan.

Quyidagi shartlarga muvofiq bo'lган auditorlik tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tashkilotlarning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishiga yo'l qo'yiladi:

shtatida kamida ketma-ket uch yillik uzluksiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lган kamida ikki nafar auditorning mavjudligi;

auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalariga ko'ra, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi hollari mavjud emasligi.

Banklarning auditorlik tekshiruvi shtatida banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lган kamida ikki nafar auditor mavjud bo'lган auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Yuqorida majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi belgilangan xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar majburiy auditorlik tekshiruvi buyurtmachilar sifatida ish yuritadi va ushbu xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin o'n besh kun ichida, biroq hisobot yilidan keyingi yilning 15 iyunidan kechiktirmay, soliq organlariga auditorlik xulosasining ko'chirma nusxasini taqdim etadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini qonunga muvofiq o'tkazishdan bo'yin tov lash xo'jalik yurituvchi sub'yektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 15 iyunigacha o'tkazmaslik va auditorlik xulosasining yo'qligi xo'jalik yurituvchi sub'yektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tov lashni deb e'tirof etiladi.

Soliq organlari tomonidan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmaslik xo'jalik yurituvchi sub'yekt dan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi summada jarima undirishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashdan bosh tortgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi sub'yektga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi masala iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jarimani to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektini majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan ozod qilmaydi.

Qonunning 36-moddasida tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini huquqiy asoslari yoritilgan bo'lib, unga ko'ra, yuridik shaxs, uning mulkdori, ustav fondida (ustav kapitalida) kamida 10 foiz miqdoridagi ulushga ega bo'lган ishtirokchilar va aksiyadorlar, shuningdek nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachilar bo'lishi mumkin.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvi auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o'rtasida tuzilgan

shartnoma asosida o'tkaziladi hamda mazkur shartnoma asosida haq to'lanadi. Bunda nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ayni bir auditorlik tashkilotini ayni bir xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning faoliyatini ayni o'sha asoslarga ko'ra tekshirishga takroran jalg etishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan shaxs yoki organ hisobidan amalga oshiriladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazish predmeti, muddatlari hamda boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi va auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yeqt auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'ida quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga nisbatan auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yeqt auditorlik tashkilotidan:

auditorlik xulosasini, auditorlik xulosasida ifodalangan fikr yuzasidan tushuntirishlarni va auditorlik tashkilotining fikriga asos bo'lган normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi axborotni, buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobot tuzish hamda aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni to'g'rilash tartibi haqida maslahatlar olishga haqlidir (37-modda).

O'ziga nisbatan auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yeqt quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorga shart-sharoitlarni yaratib berishi va unga zarur hujjatlarni taqdim etishi, auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarga rioya etishi, auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan qoidabuzarliklar to'g'risidagi axborotni ko'rib chiqishi va mazkur axborot olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay auditorlik tashkilotini natijalar haqida yozma shaklda xabardor qilishi,

auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritishga, moliyaviy hisobot tuzishga hamda soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish tartibiga doir qoidabuzarliklarni bartaraf etishi shart.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiriladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish yoki unga to'sqinlik qilish maqsadida biron-bir harakatni (harakatsizlikni) sodir etishga haqli emas.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt qonunchilikka hamda auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Shuningdek, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining huquq va majburiyatları 38-moddada bayon qilingan bo'lib, unga ko'ra, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi:

auditorlik tashkilotini mustaqil ravishda tanlashga, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining yo'nalishi va hajmini belgilashga, auditorning mulohazalari asoslanilgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi zarur axborotni auditorlik tashkilotidan olishga, auditorlik xulosasini olishga haqli.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi:

auditorlik tekshiruvini auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda o'tkazish uchun auditorga tegishli shart-sharoitlar yaratishi, auditorga zarur hujjatlarni taqdim etishi, auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq auditorlik tashkiloti xizmatlari haqini o'z vaqtida to'lashi shart.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi qonunchilikka va auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi hamda uning zimmasida boshqa majburiyatlar bo'lishi mumkin.

7.5. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari

Auditorlik faoliyatida “Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlari turidagi auditorlik xizmatlarini ko’rsatadi. Auditorlik xizmatlari auditorlik tashkiloti va auditorlik xizmatlari buyurtmachisi o’rtasida tuzilgan shartnomaga asosida ko’rsatiladi”²⁴.

Qonunning 33-moddasida auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari tasnifi keltirilgan. Unga ko’ra, auditorlik tashkilotlari quyidagi turdosh xizmatlarni ko’rsatishi mumkin:

bu xgalteriya hisobini yo’lga qo’yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo’yicha moliyaviy hisobot tuzish;

yuridik shaxsning taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;

bu xgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo’yicha maslahat berish;

auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo’lganda yoxud shartnomaga shartlari asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo’llash, soliqlar va yig’imlar bo’yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish;

moliya-xo’jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, shu jumladan biznes-rejalar tayyorlash, iqtisodiy, moliyaviy maslahat va boshqaruvga oid maslahat berish;

bu xgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobot, soliq solish, moliya-xo’jalik faoliyatini hamda moliyaviy rejalashtirishni tahlil qilishga doir seminarlar, konferensiyalar o’tkazish;

bu xgalteriya hisobini yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish, moliyaviy axborotning axborot xavfsizligi bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

²⁴O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyat to’g’risida”gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O’RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.5-боб. 31-модда.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatni standartlarida nazarda tutilgan boshqa turdosh xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri va uning ahamiyati, auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari, va javobgarliklari, audit turlari, auditorlik tekshiruvlar, auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari bo'yicha nazariy, huquqiy asoslar bat afsil yoritib berilgan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Nima ychun auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tizimli isloh etish dolzARB masala hisoblanadi?
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririni qabul qilishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?
4. Auditorlik faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlarning nomini ayting.
6. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga soluvchi tizim qanday tashkil etilgan?
7. Auditorlik tashkilotlarining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
8. Majburiy auditorlik tekshiruvini tashkil etish tartiblari qanday?
9. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi kim?
10. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlarining maqsadi va tarkibini tushuntirib bering?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. O’zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi Qonunining yangi tahriri qachon qabul qilingan?

- A) 2000 yil 29 may
- B) 2020 yil 10 noyabr
- S) 2021 yil 5 fevral
- D) 2021 yil 25 fevral

2. Auditorlik tashkilotining mustaqilligi nima bilan kafolatlanadi?

- A) “Auditorlik faoliyati to’g’risida” qonun bilan
- B) “Auditorlarni tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturi” bilan
- S) Audit milliy standartlari bilan
- D) Auditning Xalqaro standartlari asosida

3. Auditorlik tashkilotlari uchun renking o’tkazishning yagona tartibini kim belgilaydi?

- A) Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari
- B) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- S) O’zbekiston Respublikasi adliya vazirligi
- D) O’zbekiston Respublikasi moliya vazirligi

4. Auditorlarni birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotlari, bu-

- A) auditorlarning respublika jamoat birlashmalaridir
- B) vakolatli davlat organidir
- S) O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidir
- D) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidir

5. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash kim tomonidan amalga oshiriladi?

- A) Moliya Vazirligi
- B) Adliya Vazirligi
- S) Vazirlar mahkamasi
- D) Auditorlar palatasi

6. Auditorlik tashqilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyalarni berish tartibi qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- B) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- C) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- D) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.va Moliya vazirligi

7. Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo'yin tovlaganlik uchun bir yilda mahsulot sotishdan olingan yalpi tushumi eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravarigacha bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qancha miqdorda jarima to'laydilar?

- A) BHMining 100 baravarigach
- B) BHMining 200 baravarigach
- C) BHMining 300 baravarigach
- D) BHMining 500 baravarigach

8. Auditorlar reyestrini qaysi organ yuritadi?

- A) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- C) O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi
- D) O'zbekiston Respublikasi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari

9. Auditorlik tashkiloti ketma-ket qancha muddat ayni bir xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emas?

- A) ketma-ket yetti yildan ko'proq
- B) ketma-ket uch yildan ko'proq
- C) ketma-ket besh yildan ko'proq
- D) ketma-ket ikki yildan ko'proq

8-BOB. AUDITORLIK STANDARTLARI VA AUDITNING USLUBIYATI

O'quv maqsadi: auditorlik standartlarining ahamiyati va maqsadi, auditning xalqaro standartlari, auditorlik tashkilotlari tomonidan mijozlarni tanlab olish, auditorlik tekshiruvuni o'tkazish to'g'risida shartnoma, dastlabki kelishuvlar, auditoring mijoz oldidagi majburiyat xati kabi masalalar yuzasidan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *auditor, standart, sifat, ishonch, talab, isbot, yo'rinqoma, mijoz, shartnoma, kelishuv, majburiyat, xat.*

8.1. Auditorlik standartlarining ahamiyati va maqsadi. Auditning xalqaro standartlari

Auditorlik standartlari auditning sifati va ishonchliliga qo'yiladigan me'yoriy talablarni belgilaydigan va ularga rioya qilganda, auditorlik tekshiruvi natijalarini ma'lum darajada kafolatli bo'lishini ta'minlaydigan umumiylasosiy talablarni ifodalaydi. 1999 yildan boshlab shu kungacha bo'lgan davrda 21ta Auditorlik faoliyatining milliy standart (AFMS)lari hamda auditorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning turli masalalarini tartibga soladigan boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Hozirgacha auditorlik faoliyatiga doir masalalarini aks ettiruvchi quyidagi milliy standartlar qabul qilingan (35-jadval).

35-jadval

Auditorlik faoliyatining milliy standart (AFMS)lari

| | Standartning tartib raqami va nomi | O'z. R. MV tasdiqlagan sanasi va raqami | O'z. R AV da royxatga olingan sanasi va raqami | Kuchga kirgan sanasi |
|----|--|---|--|----------------------|
| 1. | №3- AFMS «Auditni rejalahtirish» | 14. 10. 1999 №54 | 10. 11. 1999 №837 | 01. 01. 2000 |
| 2. | №4- AFMS "Mijoz faoliyati (biznesi) bilan tanishish" | 20.07.1999 y. N 57 | 03.09.1999 y. N 810 | 01. 01. 2000 |
| 3. | №5- AFMS «Auditor ishining sifatini nazorat qilish» | 04. 08. 1999 №62 | 03. 09. 1999 №811 | 01. 01. 2000 |
| 4. | №6- AFMS «Auditni hujjatlashtirish» | 04. 08. 1999 №61 | 03. 09. 1999 №812 | 01. 01. 2000 |
| 5. | №9- AFMS «Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi» | 04. 08. 1999 №63 | 03. 09. 1999 №813 | 01. 01. 2000 |
| 6. | №10- AFMS «Moliyaviy hisobot tarkibidagi boshqa | 09. 09. 1999 | 23. 09. 1999 | 01. 01. 2000 |

| | axborotlar» | №75 | №822 | |
|-----|--|--------------------|-------------------|-------------|
| 7. | №11- AFMS «Ma'lumotlarni kompyuterda ishlash (MKI) sharoitida audit o'tkazish» | 09.09.1999 №76 | 23.09.1999 №823 | 01.01.2000 |
| 8. | №12- AFMS «Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash» | 26.12.2006 №108 | 12.04.2007 №1673 | 01.05.2007 |
| 9. | №13- AFMS «Tahliliy amallar» | 04.08.1999 №64 | 03.09.1999 №814 | 01.01.2000 |
| 10. | №14- AFMS «Auditorlik tanlash» | 27.07.1999 №59 | 03.09.1999 №815 | 01.01.2000 |
| 11. | №16- AFMS «Ekspert ishidan foydalanish» | 27.07.1999 №60 | 03.09.1999 №816 | 01.01.2000 |
| 12. | №24- AFMS «Moliyaviy hisobotning buzib ko'rsatilganligi aniqlanganida auditorlik tashkilo-ti-ning ish tutishi» | 31.05.2001 №49 | 30.06.2001 №1045 | 10.07.2001 |
| 13. | №25-AFMS-«Auditorlik tekshiruvi o'tkazilishda normativ huquqiy hujjatlarga rioya etilishini tekshirish» | 27.01.2003 №14 | 28.02.2003 №1223 | 10.03.2003 |
| 14. | №31- AFMS «Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati (biznesi) bilan tanishish»* | 30.05.2001 №48 | 21.06.2001 №1043 | 01.07.2001 |
| 15. | №50- «Auditorlik dalillar» | 03.04.2002 №48 | 18.04.2002 №1128 | 29.04.2002 |
| 16. | №55 AFMS – «O'zaro bogliq shaxslar o'rta sidagi bitimlar boyicha auditorlik dalillarini olish bosqichlari» | 27.01.2003. №15 | 3.03.2003. №1224 | 10.03.2003 |
| 17. | №56 AFMS-«Moliyaviy hisobot tuzilganidan keyingi hodisalar» | 9.04.2003. №54 | 23.04.2003. №12 | 23.04.2003. |
| 18. | №60 AFMS-«Boshqa auditor ishi natijalaridan foydalanish» | 27.01.2003. №16 | 20.02.2003. №1221 | 2.03.2003 |
| 19. | №70- AFMS- «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot haqidagi auditorlik xulosasi» | 14.02.2001 №20 | 10.03.2001 №1016 | 20.03.2001 |
| 20. | №80 AFMS –«Maxsus masalani tekshirish natijalari boyicha auditor hisoboti» | 27.01.2003. №13 | 19.02.2003. №1220 | 1.03.2003 |
| 21. | №90- AFMS "Auditorlik tashkilotlarining kasbga doir xizmatlari" | 14 fevral 2001 №19 | 10.03.2001 №1017 | 21.03.2001 |

Iqtisodiy sharoitlar o'zgarib borishi bilan, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar, xususan investorlar ehtiyojlarini yanada ham to'liqroq qondirish maqsadida, auditorlik standartlari muntazam ravishda qaytadan ko'rib chiqilmoqda va xalqaro standartlarga o'tkazish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Auditorlik standartlari asosida auditorlarni tayyorlash uchun o'quv dasturlari hamda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish uchun o'tkaziladigan imtihonlarga qo'yiladigan umumiyl talablar shakllantiriladi. Auditorlarning malakasini oshirish buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi xalqaro tashkilotda akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Auditor auditorning malaka sertifikatini olgan yildan keyingi yildan e'tiboran har yili auditorlarning malaka oshirish kurslaridan o'tadi. Auditorning malaka sertifikati

auditorning malakasini tasdiqlaydigan va unga auditorlik tashkiloti tarkibida auditorlik xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan hujjat hisoblanadi va uni olish bo'yicha belgilangan malaka talablar ham audit standartlariga asoslanadi.

Sud jarayonida auditorlik standartlar o'tkazilgan audit sifatini isbotlash va auditorlar javobgarligi darajasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Standartlar audit o'tkazish uchun umumiyligida yondoshish, auditorlik tekshiruv miqyosi, auditorlar hisobotlarining turlari, uslubiyot masalalari hamda audit qanday sharoitlarda o'tkazilayotganligidan qat'iy nazar, ushbu kasb vakillari qanday asosiy tamoyillarga rioya qilish lozimligini belgilaydi. O'z amaliyotida standartdan chetga chiqishga yo'l qo'ygan auditor, buni sabablarini tushuntirib berishga tayyor bo'lishi lozim.

Aynan, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuning yangi tahririni 9-moddasida auditorlik faoliyati standartlari bayon qilingan. Endilikda mamlakatimizda auditorlik faoliyatini bosqichma-bosqich xalqaro standartlar asosida tashkil etishga ahamiyat qaratilgan bo'lib, qonunda xalqaro standartlarga asoslanish tartiblari keltirilgan.

Xususan, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditning xalqaro standartlari hamda sifat nazoratining xalqaro standartlari, tahliliy tekshiruvlarning xalqaro standartlari, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari auditorlik faoliyati standartlari hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi zid bo'limgan, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining O'zbekiston Respublikasida e'lon qilish to'g'risidagi ruxsatnomasi asosida auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan auditorlik faoliyati standartlari asosida amalga oshiriladi.

Auditning xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilanadi. Hozirgi kunda mavjud bo’lgan auditning xalqaro standartlari ro’yxati 4-ilovada keltirilgan.

8.2. Auditorlik tashkilotlari tomonidan mijozlarni tanlab olish

Auditorlik tekshiruvining muvaffaqiyatsizlik tavakkalchilagini kamaytirish maqsadida auditorlar va auditorlik tashkilotlar bo’lajak mijozlarni baholash uchun ishonchli mezonlarga ega bo’lishlari lozim. Mijozni atroflicha o’ylamagan holda muvaffaqiyatsiz tanlash yirik moliyaviy va ma’naviy xarajatlarga olib kelishi, tashkilot va auditor obro’siga putur yetkazishi mumkin. O’zbekiston Respublikasida bozorni shakllantirish davrida ko’pchilik savdo-sotiq bilan shug’ullanuvchi tizimlar buxgalteriya hisobi va hisobotini tuzishga buyurtma berishi munosabati bilan, auditorlik tashkilotlar tomonidan mijozlarni puxta o’ylab tanlab olish tizimiga ega bo’lishi ayniqsa muhimdir.

Auditorlik tashkilotlar mijozlarini bir nechta turlarga ajratish mumkin, masalan, auditorlik tekshiruvi jarayonida "mijoz-auditor" o’zaro aloqalaridan kelib chiqqan holda:

Yuzaki-rasmiy: ushbu turdagи mijozlar auditor bilan yaqin aloqa bog’lashni istamaydilar va auditorlik tekshiruvini tezkorlik bilan yakunlashni talab qiladilar. Bu holda, auditordan mijoz uchun eng kam sarflangan vaqt va xarajatlar bilan, faqat auditorlik xulosasini tayyorlash va taqdim etish talab qilinadi.

Norasmiy: bu turga auditor bilan yaqin aloqa o’rnatadigan va uning yordamiga ishonadigan mijozlar kiradi. Bunda o’z mustaqilligini saqlagan holda, asosiy ish bilan bir qatorda, tashqi auditor ichki auditorning ayrim vazifalarini bajaradi, shuningdek, odatda, bir qator qo’shimcha xizmatlar ham ko’rsatadi (maslahat berish, tahlil, amaliy yordam ko’rsatish va boshqalar).

Auditor audit o’tkazish to’g’risida shartnoma tuzishdan oldin mijoz qaysi turga mansub ekanligini aniqlashi lozim. Agar mijoz norasmiy turga mansub bo’lsa, auditor kelajakdagi qo’shimcha ravishda maslahatlar mohiyatini, auditorlik tekshiruvi natijalari bo’yicha kutilayotgan qo’shimcha ma’lumotlar mazmunini aniqlashi kerak.

Moliyaviy hisobot auditini o'tkazishda auditor, auditorning fikri bo'yicha moliyaviy hisobotga, tekshiruvga yoki auditorlik hisobotga ahamiyatli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, muomalalar va qabul qilingan amaliyotni aniqlash va tushunish uchun yetarli hajmda biznesni bilishi yoki unga oid bilim olishi lozim. Kelishuv qabul qilingunga qadar auditor audit qilinadigan sub'ye karning tarmog'i, mulkchilik huquqi, rahbariyati va faoliyatiga oid dastlabki bilimlarni olishi va audit o'tkazish uchun kerakli bo'lgan bilim darajasiga erishish imkonini ko'rib chiqishi lozim. Kelishuv qabul qilingandan so'ng qo'shimcha va batafsilroq ma'lumotlar to'planadi. Imkonim boricha kerakli bo'lgan bilimlar hajmini auditor kelishuv bajarilishining boshida olishi lozim.

Auditni o'tkazish jarayonida oldin olingan ma'lumot baholanadi, yangilanadi va to'ldiriladi. Mijoz biznesi to'g'risida bilimlar olish ma'lumotni yig'ish va baho berishning uzluksiz va kumulyativ jarayoni va auditning barcha bosqichlarida olingan bilimlarni auditorlik dalillar va ma'lumot bilan bog'lanishini aniqlash hisoblanadi. Masalan, ma'lumot rejalashtirish bosqichida yig'ilishiga qaramasdan, auditor va uning yordamchilari biznes to'g'risida yanada ham to'liqroq tasavvur olishlariga qarab, keyingi bosqichlarda unga aniqlik kiritiladi va to'ldiriladi.

Keyingi kelishuvlarda auditor oldin yig'ilgan ma'lumotni, jumladan oldindi yil bo'yicha ishchi hujjatlaridagi ko'rsatkichlarni yangilaydi va baho beradi. Auditor, shunigdek, oxirgi audit o'tkazilgandan so'ng sodir etilgan ahamiyatli o'zgarishlarni solishtirishga qaratilgan muolajalarni bajaradi.

8.3. Auditorlik tekshiruvuni o'tkazish to'g'risida shartnama, dastlabki kelishuvlar

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnama "mijoz-auditor" o'zaro munosabatlarini chegaralab beruvchi rasmiy hujjat hisoblanadi va umumiyligi jihatlari bilan tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan shartnomalardan farq qilmaydi. Bu hujjat, boshqa shartnomalar kabi, tomonlarning, ya'ni shartnoma ishtirokchilarining, bu yerda buyurtmachi-mijoz va ijrochi-auditor, o'zaro kelishilgan manfaatlarini huquqiy tomondan tartibga soladi.

Shuning bilan bir qatorda, auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada tadbirkorlikda qo'llaniladigan boshqa shartnomalardan muhim farqlari ham mavjud - bu, birinchi navbatda, shartnomada tuzish vaqtida oshkorasiz holda uchinchi tomon (moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar) manfaatlarini hisobga olishdir. Zero, amalda, agar tekshiruv sifatsiz o'tkazilganligi natijasida zarar yetkazilsa, auditor nafaqat mijoz oldida, balki ushbu foydalanuvchilar oldida ham mas'uldir. Shartnomada imzolanishidan oldin, auditor o'zi uchun nafaqat imkoniyati boricha mijoz istaklarini aniqroq bilib olishi, balki unga o'z buyurtmasini to'g'ri shakllantirishda yordam berishi zarur. O'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi sifati hamda auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ko'p jihatdan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada aniq tuzilganligiga bog'liqdir.

Ko'pchilik auditorlik tashkilotlar shartnomada tuzishning namunaviy shakllaridan foydalanadilar, lekin, shunga qaramasdan, shartnomada aniq bir korxonani audit qilish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir, zero mijozlar, ko'p hollarda, uning ma'nosi va mohiyatini yetarli darajada tushunmasliklari mumkin.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada auditor tomonidan auditorlik xulosasini taqdim etishdan voz kechish imkoniyatini aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tekshiruv o'tkazish uchun kerakli bo'lgan hujjatlarni mijoz tomonidan taqdim etish muddatlarini belgilash zarur, chunki ko'p holatlarda, buxgalteriya hisoboti hali tayyor bo'lmasdan turib mijozlar auditorni taklif qiladilar, bu, o'z navbatida, ishni juda ham murakkablashtiradi.

Shartnomada mijoz tomonidan auditorlik tashkilotiga oldindan pul to'lashni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir, zero oldindan pul to'lanishi auditorni moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi. Odatda, auditorlik tashkilotlari tomonidan oldindan pul o'tkazish miqdori to'g'risidagi talablari 50 foizdan 100 foizgachani tashkil etadi.

Shartnomada tekshiruv jarayonida mijoz tomonidan auditorga yordam ko'rsatishi zarurligi to'g'risida majbur ekanligini ko'zda tutilishi maqsadga

muvofiqdir (inventarizatsiya o'tkazishda yordam berish uchun o'z xodimlarini jalg qilish, xizmat safariga chiqish zaruriyati bo'lganda auditori transport vositasi bilan ta'minlash va boshqalar).

Auditor va mijoz shartnoma shartlari bo'yicha kelishib olishlari zarur. Kelishilgan shartlar audit bo'yicha xat-kelishuv yoki har qanday boshqa tegishli shaklda rasmiylashtirilishi zarur. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomani tuzishda auditorlik xizmatlarining qiymatini baholash muhim o'rinni tutadi. Xizmatlar qiymatini pasaytirmaslikka ham va ko'tarmaslikka ham intilish maqsadga muvofiq.

Ayrim korxonalar, jumladan auditorlik tashkilotlari darajasida ishga haq to'lash va ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish unda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar-mehnat shartnomalari asosida amalga oshiriladi, ular korxona rahbariyati tomonidan mehnat jamoasi vakillari ishtirokida ishlab chiqiladi.

Audit bo'yicha dastlabki kelishuvlarda auditor quyidagilar yuzasidan yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarni olishi zarur:

boshlang'ich qoldiqlarda joriy davrning moliyaviy hisobotiga muhim ta'sir ko'rsatadigan noto'g'riliklar mavjud emas;

oldingi davrning yakuniy qoldiqlari joriy davrga to'g'ri o'tkazilgan yoki zarur bo'lganda tuzatilgan;

tegishli hisob siyosati izchillik bilan qo'llaniladi yoki hisob siyosatidagi o'zgarishlar tegishli ravishda hisobga olingan va mos yoritilgan.

8.4. Auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati

Mijoz va auditor o'rtasidagi o'zaro kelishuvini belgilovchi qo'shimcha hujjat bo'lib, audit o'tkazishga rozilik berish to'g'risidagi va auditor tomonidan o'z mijoziga yo'llangan xati hisoblanadi (ushbu hujjatdan oldin mijozning tegishli rasmiy taklifi mavjud ekanligi nazarda tutiladi).

Auditor va mijoz o'rtasidagi bir marotaba bo'ladigan kelishuvlarda auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi rozilik xati tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnama o'rmini bosishi mumkin.

Bunda auditor tomonidan taklif etilgan tekshiruv shartlariga mijoz yozma ravishda rozilik bildirishi lozim. Mijozga yo'llangan auditor (auditorlik tashkiloti) ning majburiyat-xati audit o'tkazishga roziligin yoki ayrim korxonalar va tashkilotlar (banklar, jamg'armalar, sug'urta kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqalar) uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan rasmiy auditorlarni taklif etilishini tan olganligini tasdiqlaydi.

Auditorlik tekshiruvi boshlanishdan oldin mijozga xat yo'llanishi mijozni ham auditorni ham manfaatlariga mos keladi, chunki bu auditorlik tekshiruvi yakunlangandan keyin ikki tarafning majburiyatlariga oid ko'plab anglashilmovchiliklarni oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi xatda quyidagilar ko'rsatiladi:

audit o'tkazilishining zaruriyati;

korxonada buxgalteriya hisobi ishonchliligi va nazorat samaradorlilagini aniqlash uchun test tekshiruvlarini o'tkazish hamda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asoslanganliligi, aniqliligi va ishonchliligi, qabul qilingan hisob tartibi amaldagi qonunchilikka muvofiqlilagini aniqlash maqsadida ma'lum muolajalarni amalga oshirish zarurligi.

Audit o'tkazish to'g'risida rozilik berilgan xatda auditor va mijoz javobgarligi belgilanadi. Auditor javobgarligi deb, amaldagi qonunchilikka va tomonlar kelishuviga muvofiq auditoring ma'naviy va moddiy javobgarligi tushuniladi. Auditor moliyaviy hisobotga oid o'z xulosasi bo'yicha javobgardir.

Mijoz javobgarligi deb, auditorlik tekshiruvi uchun moliyaviy hisobni tashkil etuvchi, amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga muvofiq mavjud bo'lgan ma'lumotni to'liq taqdim etishi va auditorlik xulosasidan maqsadga muvofiq foydalanishi tushuniladi.

Ayrim mamlakatlarda auditning maqsadi va ko'lami, shuningdek, auditorning majburiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi. Biroq bunday vaziyatlarda ham auditor audit bo'ycha xatlar-kelishuvlar mijoz uchun foydali ma'lumotga ega deb hisoblashi mumkin.

Auditor, o'z manfaati bilan bir qatorda, mijoz manfaatini ko'zlagan holda, xat-kelishuvni mijozga kelishuvni amalga oshirishdan oldin jo'natgani maqsadga muvofiqdir, bunda taqdim etiladigan xizmatlar yuzasidan tushunmovchiliklarni oldi olinadi. Xat-kelishuv auditor qabul qilingani, auditning maqsadi va ko'lami, auditorning mijoz oldidagi javobgarlik darajasi va taqdim etiladigan har qanday hisobot shaklini hujjatlashtiradi va tasdiqlaydi.

Audit bo'yicha xat-kelishuvlarning shakli va mazmuni har bir mijoz bo'yicha farqlanishi mumkin, lekin, asosan ular quyidagilarni aks ettirishi zarur:

moliyaviy hisobot auditining maqsadi;

sub'yekt rahbariyatining taqdim etilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha mas'uliyati;

auditor o'z ish faoliyatida rioya qiladigan amaldagi qonunchilikka, me'yoriy hujjatlarga yoki kasbiy idoralarining maxsus hujjatlariga asoslangan auditning ko'lami;

qandaydir hisobotlar shakli yoki auditor ish natijalarini taqdim etishning boshqa bir usuli;

audit jarayoniga xos bo'lgan xolis cheklovlar, jumladan ko'rsatkichlarni tanlab olib tekshirish tavsifga ega bo'lganligi, shuningdek, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining har qanday o'ziga xos bo'lgan cheklovlar oqibatida ayrim, jumladan, ahamiyatli yanglishlar ham aniqlanmay qolishlik tavakkalchiligining mavjudligi.

Audit o'tkazish munosabati bilan rasmiy talab etiladigan barcha hisob yozuvlari, hujjatlar va boshqa ma'lumotlar bilan cheklovsiz tanishish.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda auditorlik standartlarining ahamiyati va maqsadi, xususan, auditning xalqaro standartlari, auditorlik tashkilotlari tomonidan mijozlarni tanlab olish, auditorlik tekshiruvuni o'tkazish to'g'risidagi shartnoma, dastlabki kelishuvlar, auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati kabi masalalar yoritilgan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Auditorlik standartlarining ahamiyati va maqsadi nimalardan iborat?
2. Nima uchun respublikamizda auditning xalqaro standartlaridan foydalanish yo'lga qoyilmoqda?
3. Nima uchun auditorlik tashkilotlari tomonidan mijozlarni tanlab olish amaliyoti qo'llaniladi?
4. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma deganda nimani tushunasiz?
5. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda dastlabki kelishuvlarning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. Auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. Audit standartlari -...

- A) bu o'zining professional faoliyati davomida hamma auditorlar rioya qilishi lozim bo'lgan yagona asos tamoyillardir
- B) bu o'zining professional faoliyati davomida hamma auditorlar rioya qilishi lozim bo'lgan asos tamoyillardir
- S) bu o'zining faoliyati davomida rioya qilishi lozim bo'lgan yagona asos tamoyillardir
- D) bu hamma auditorlar rioya qilishi lozim bo'lgan tamoyillardir

2. O'zbekistonda Auditorlik faoliyatining milliy standartlari qaysi organ tomonidan ishlab chiqiladi?

- A) Moliya vazirligi
- B) Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsatsiyasi
- C) Iqtisodiyot vazirligi
- D) Auditorlar palatasi

3. Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini nima asosida amalga oshiradi?

A) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi

B) Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun asosida tuziladi

C) Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari asosida tuziladi

D) Auditorlik faoliyatining milliy standartlari asosida tuziladi

4. O'zbekistonda malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil, notijorat jamoat tashkiloti?

- A) Auditorlar palatasi
- B) Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsatsiyasi
- C) Auditorlar kongressi
- D) Buxgalterlar palatasi

5. Auditni rejajashtirish nechanchi «Auditorlik faoliyatining milliy standarti» bilan belgilangan?

- A) 3-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- B) 4-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- C) 1-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- D) 2-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti

6. “Muhimlilik va auditorlik tavakkalchiligi” standarti muhimlilikni quyidagicha ta'riflaydi:

- A) moliyaviy hisobotni buzishning eng yuqori qiymati

B) foydalanuvchining iqtisodiy qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadigan axborotning xususiyati

S) doimo mavjud bo'lgan absolyut son

D) auditorning o'z ishiga bergen bahosi

7. Auditorlarning Sertifikat olish uchun topshiradigan Malaka imtihonini o'tkazish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi?

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

B) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan

S) O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan

D) O'zbekiston Respublikasi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari tomonidan

8. Auditorning malaka sertifikati qanday muddatlarga beriladi?

A) dastlabki besh yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi o'n yillik muddatga va keyinchalik muddatsiz davrga uzaytiriladi

B) dastlabki uch yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi besh yillik muddatga va keyinchalik o'n yil muddatga davrga uzaytiriladi

S) dastlabki uch yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi besh yillik muddatga uzaytiriladi

D) dastlabki besh yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi o'n yillik muddatga uzaytiriladi

4-MODUL. AUDITORLIK TEKSHIRUVINI O'TKAZISH VA UNI RASMIYLASHTIRISH

9-BOB. AUDITORLIK TEKSHIRUVI STRATEGIYASI

O'quv maqsadi: tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish, auditda jiddiylikni aniqlash, auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash, auditda ekspert ishlaridan foydalanish masalalari yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *auditor, mijoz, auditorlik, tekshiruv, mijoz, umumlashtirish, hisobot, xulosa, jiddiylik, tavakkalchilik, baholash, ekspert.*

9.1. Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish

Auditorlik tekshiruvni rejalashtirish tekshiriladigan korxona faoliyatini batafsil o'rganishdan boshlanadi. Auditor korxona faoliyatini o'rganishdan ikkita maqsadni ko'zlaydi: a) audit o'tkazishni osonlashtirish va sifatini oshirish; b) tekshiriladigan korxona iqtisodini yaxshilashga qaratilgan amaliy maslahat yordami ko'rsatish.

Buning uchun korxona faoliyatiga ta'sir qiladigan ichki hamda tashqi omillar haqida ma'lumotlarni to'plash zarur.

Auditor birinchi navbatda e'tibor berishi zarur bo'lgan, korxona iqtisodiga ta'sir qiladigan ichki omillarga quyidagilar kiradi: mulkchilik shakli va boshqaruva tuzulmasi, korxonaning qanday maqsadda tashkil etilganligi, korxona faoliyatida amalga oshiriladigan asosiy muomalalar, moliyasi, xodimlari, hisob yuritish siyosati, korxonaning uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari.

Tashqi omillarga mijoz faoliyat ko'rsatadigan tarmoq, mamlakatdagi iqtisodiy holat kiritiladi.

Tekshiriladigan korxonaning maqsadlarini tahlil qilish, uning muomalalarini yaxshi tushunishga imkon berib, tekshiriladigan hisobot haqida to'g'ri fikr shakllantirilishi uchun zarurdir. Chunonchi, agar auditor ishini rejalashtirish chog'ida mulk egalarining korxonani tugatmoqchi ekanliklari aniqlansa, bunda u korxona hisobotiga nisbatan faoliyat qilayotgan korxona tamoyilini qo'llamasligi

haqida auditorlik hisobotiga izoh kiritishga tayyorlanishi zarur.

Mijozning muomalalari haqidagi ma'lumotlar auditorga o'zining xatarli holatlarini to'g'ri baholash, samarali tekshirish dasturi tuzish va uni o'tkazishga ketadigan vaqt ni tejashda yordam beradi.

Korxonaning moliyaviy tuzilmasini bilish auditorga korxonaning mablag'larga bo'lган talabi va ularning kelish manbalarini, korxonaning haqiqiy to'lov qobiliyatini aniqlash va shu bilan birga u kelgusida o'z muomalalarini amalga oshira olishini aniqlashda yordam beradi.

Tekshiriladigan korxonaning hisob yuritish siyosatini bilish auditorga har xil schyotlarni tekshirishning samarali metodlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hisob yuritish siyosatini tushunish uchun quyidagilarni ko'rib chiqish zarur: hisob yuritish siyosatini qabul qilish tartibi; hisob yuritish siyosatiga o'zgartirishlar kiritish; talab etishi mumkin bo'lган, korxona faoliyatida ruy berishi kutilayotgan o'zgarishlar; hisob yuritish siyosatining amaldagi qonunchilikka mosligi, hisob yuritish siyosatining mazkur tarmoq uchun xosligi va boshqalar.

Korxonaning uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini ko'rib chiqishda quyidagilarni tahlil qilish zarur: korxona da'vosi, shuningdek, unga qarshi qo'zg'atilgan da'vo bo'yicha mavjud va bo'lishi mumkin bo'lган sudlashuvlar; korxonaning mulklari va mas'uliyatlari sug'urta qilinganligi; korxonaning soliq maqomi (soliqlar bo'yicha imtiyozlar va h.k).

Auditor tarmoqda qanday xatarli holatlar bilan to'qnashishi va mazkur tarmoqning o'ziga xos muammolarini hal qilishga layoqatliliginu, unga notanish va o'ziga xos murakkab masalalarni hal etish uchun tegishli mutaxassislar jalb qilish talab qilinishini tasavvur qila olishi lozim. Buning uchun u mazkur tarmoqdagi raqobatchilik shart-sharoitlarini (asosiy raqobatchilarning ro'yxatini tuzishi lozim); baholarning o'zgarishini, tarmoqda ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladigan sharoitlarni o'rganadi.

Auditor axborotlarni to'plashni o'ziga tushunarli usullar bilan amalgalashirishi lozim. Korxona rahbariyati va bosh mutaxassislardan so'rab-surishtirish yo'li bilan

asosiy muammolarni, xususan, raqobat, soliq masalalari, korxonaning moliyaviy ahvoli, korxonaning yirik muomalalari, biznesdagi, rahbariyatdagi, mulkchilik shakllaridagi o'zgarishlar, ichki nazoratning tashkiliy tuzilmasi va usullari, rahbariyatning auditor maxsus e'tibor qaratishini istagan o'ziga xos muammolarini aniqlashi mumkin. Bo'linmalar, ishlab chiqarish o'rirlari va omborlarga borib, mijozning amalga oshiradigan muomalalari, ishlab chiqarish tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, korxona faoliyati haqidagi uning hisobotida (buxgalterlik hisobotlari va analitik yozuvlar; direktorlar, boshqaruv va aksiyadorlik kengashining majlis bayonnomalari; ichki auditorning va taftish komissiyasining hisobotlari, lavozim yo'riqnomalari), tashqi axborot manbalari (matbuotda chiqqan nashrlari, ma'lumotlar bazasi, analitik nashrlar, qonunchilikka oid va boshqa me'yoriy byulletenlar) keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi lozim.

Auditor olingan ma'lumotlarni yozib boradi va korxonaga ta'sir qiluvchi omillar hamda aniqlangan tahlikali holatlar bayon qilingan holda bo'limlarga bo'lingan maxsus yozuv ko'rinishida rasmiylashtiradi.

9.2. Auditda jiddiylikni aniqlash

Audit o'tkazish jarayonida auditor jiddiylik va uning auditorlik tavakkalchiligi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqishi lozim.

Jiddiylik (muhimlik) – ahamiyatsiz hisoblangan, ya'ni foydalanuvchilarni xato fikrda bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan, moliyaviy schetlarda qayd etilishi mumkin bo'lgan noto'g'ri summaning eng ko'p miqdoridir.

Auditda xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy hisobotining ishonchliliga kattagina hajmda ta'sir ko'rsatadigan holatlar jiddiy holatlar deb e'tirof etiladi.

Barcha jiddiy munosabatlarda moliyaviy hisobotning ishonchliligi deganda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari aniqligining shunday darajasi tushuniladiki, bunda ushbu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladi. Axborotning jiddiyligi

uning xususiyati bo'lib, uni ana shunday axborotdan oqilona foydalanuvchining qarorlariga ta'sir ko'rsatishga qodir qiladi.

Agar ma'lumot aks ettirilmasligi yoki noto'g'ri aks ettirilishi foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qilgan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday ma'lumot muhim hisoblanadi. Muhimlik ma'lum vaziyatlarda modda yoki xato miqdoridan kelib chiqib ularni aks ettirmaslik yoki noto'g'ri aks ettirish yuzasidan fikr qabul qilinishiga bog'liq. Binobarin, muhimlik ma'lumot foydali bo'lishi uchun lozim bo'lgan boshlang'ich sifat tavsifi emas, balki ko'proq boshlang'ich yoki hisob boshlash nuqtasini ko'rsatadi.

Auditorlik rejasini ishlab chiqishda auditor, muhim noto'g'riliklarni miqdoriy ifodada aniqlash maqsadida, muhimlikning maqbul bo'lgan darajasini belgilaydi. Lekin, muhimlikning kattaligi (miqdori) bilan bir qatorda, uning tavsifi (sifati)ga ham e'tibor qaratish lozim. Sifat noto'g'ri aks etishini misol tariqasida moliyaviy foydalanuvchini chalg'itishga olib kelish ehtimoli mavjud bo'lgan hisob siyosatini mos bo'lмаган holda yoki noto'g'ri bayon etishni hamda tartibga soluvchi idoralar tomonidan keyingi cheklovlarni qo'llashga olib kelishi mumkin bo'lgan va buning oqibatida, sub'yekt o'z faoliyatini muhim darajada amalga oshirish qobiliyatini pasayishiga olib keluvchi qonunchilikka oid kamchiliklarni yoritmaslikni keltirishi mumkin.

Umumiyl auditorlik amaliyotida jiddiylik chegaralarini quyidagicha belgilash qabul qilingan:

$$0 < J < 1 \text{ yoki (foiz hisobida } 0 < J\% < 100)$$

Ushbu chegara oralig'idagi ehtimollik xo'jalik sub'yektlari hisobotlarining ishonchlilikiga ta'sir ko'rsatadigan xatolar mavjudligini aniqlash, tegishli auditorlik qarorlarini qabul qilish uchun ushbu xatolarni baholash mumkinligi yoki mumkin emasligini ifodalaydi. Bu jiddiylikni sifat jihatdan tavsiflaydigan tarkibiy qismadir. Jiddiylikning miqdoriy jihatini tavsiflaydigan tarkibiy qismi esa uning ma'lum darajalari orqali ifodalanadi.

Muhimlik tushunchasi deganda moliyaviy hisobotni buzishning eng yuqori qiymati tushuniladi, ana shu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarish va to'gri qarorlar qabul qilishga qodir bo'lmay qoladi.

Muhimlik darajasining mutlaq qiymatini aniqlashda auditor xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning audit qilinadigan, bundan keyin moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari deb nomlanadigan hisoboti ishonchlilagini tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkichlarni asos sifatida qabul qilishi kerak.

Auditor: auditorlik odat-qoidalarining tabiatini, vaqtini va teranligini belgilash; buzilishlar ta'sirini baholash paytida muhimlikni ko'rib chiqishi kerak.

Muhimlik (moddiylik)ni baholash auditoring tajribasi va malakasiga bog'liqdir va korxona faoliyatining hajmi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning o'zi tomonidan har bir mijoz uchun belgilanadi. Shuning uchun turli auditorlar va auditorlik tashkilotlar ushbu muammoga mutlaqo boshqacha yondoshadilar.

Moliyaviy hisobotning ayrim ko'rsatkichlari yetarli darajada aniq bo'lmasligi mumkin. Lekin, buning asosida hisobot umuman ishonchsiz yoki u haqiqiy holatni aniq aks ettirmaydi, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Noaniqliklar hisobkitoblarda yo'1 qo'yilgan xatolardan (masalan, eskirish summalarini hisoblashda) yoki baholashdan (masalan, asosiy vositalarning eskirish muddatlari, ishonchsiz debtorlik qarzlar) kelib chiqishi mumkin. Ammo, auditor tomonidan bunday noaniqliklar topilganda, hisobotga tegishli tuzatishlar kiritilishi lozim. Lekin, mijoz tomonidan har doim darhol tuzatishlar kiritilmaydi, tuzatishlar umuman kiritilmaslik hollari ham uchrab turadi.

9.3. Auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash

Auditor auditorlik tekshiruvini rejalshtirish jarayonida auditorlik tekshiruvini samarali o'tkazishi uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi to'g'risida fikrga ega bo'lishi lozim. Tavakkalchilikni maqbul bo'lgan past darajagacha kamaytirish uchun kerakli bo'lgan auditor tavakkalchiligiga baho berish va auditorlik muolajalarini ishlab chiqish maqsadida auditor malakaviy mulohazani qo'llashi lozim. Auditorlik tavakkalchiligi – bu auditorlik tekshiruvining, mijozning

ichki nazorat tizimining samarasizligi, auditorlar tomonidan mijoz xatolarini aniqlay olmasligi tavakkalchiliginu baholashdir.

Auditorlik tavakkalchiligi - auditor tomonidan sub'yektiv ravishda belgilanadigan, auditorlik tekshiruvi yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobot uning ishonchliligi tasdiqlanganidan keyin aniqlanmagan jiddiy buzilishlarni o'z ichiga olishi mumkinligini e'tirof etish yoki aslida bunday buzilishlar moliyaviy hisobotda bo'lmasada, unda jiddiy buzilishlar mavjudligini e'tirof etish ehtimolidir.

Miqdoriy usul auditorlik tavakkalchiligining ko'p sonli modellarini miqdoriy hisoblashni faraz qiladi. Bular ichidan eng oddiysi:

$$At = St \times Nt \times Mt,$$

bunda:

At – auditorlik tekshiruvi o'tkazilgandan keyin moliyaviy hisobotda aniqlanmay qolgan moddiy xatolarni mavjud bo'lishligini qabul qilish taxmini to'g'risida auditorning fikri aks etuvchi auditorlik tekshiruvi samarasizligi tavakkalchiligi (auditorlik tavakkalchiligi);

St – kompaniya xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik (sof tavakkalchilik), ya'ni, ichki nazorat tizimi samaradorligini ko'rib chiqishdan oldin, hisobotda belgilangan miqdordan yuqori bo'lgan xatolar mavjud bo'lishligi taxmini;

Nt – mijozning ichki (ichki xo'jalik) nazorat tizimi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik;

Mt – testlar o'tkazish muolajalari samarasizligi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik (muolaja tavakkalchiligi) – testlar o'tkazish jarayonida, auditor uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan miqdordan yuqori xatolarni aniqlanmay qolinishi taxmini.

Umumiy auditorlik amaliyotida auditorlik tavakkalchilgining maqbul to'plamiga quyidagicha yondashuv ishlab chiqilgan va ular ingliz tilidagi bosh harflari bo'yicha quyidagi formula ko'rinishida ifodalangan:

$$DAR = IR \times CR \times DR$$

DAR (Desired audit risk) – auditorlik tavakkalchiligining maqbul to'plami;

IR (Internal risk) – ichki xo’jalik tavakkalchiligi;

CR (Control risk) – nazorat tavakkalchiligi;

DR (Direction risk) – aniqlanmaslik tavakkalchiligi.

Xalqaro amaliyotda “Auditorlik tavakkalchiligi” deganda moliyaviy hisobot ahamiyatli noto’g’ri aks etilganda auditor tegishli bo’lmanan auditorlik xulosa taqdim etilishi tushuniladi. Auditorlik tavakkalchiligi uch tarkibiy qismdan iborat: ya’ni, ajralmas tavakkalchiligi, nazorat tavakkalchiligi va aniqlab bo’lmaslik tavakkalchiligi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o’rganish, auditda jiddiylikni aniqlash, auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash, auditda ekspert ishlaridan foydalanish masalalari yuzasidan nazariy va amaliy bilimlar yoritilgan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyati qanday o’rganiladi?
2. Korxona hisob siyosati nima uchun tekshiriladi?
3. Auditda jiddiylik tushunchasi nimani anglatadi va u qanday aniqlanadi?
4. Auditorlik tavakkalchiligi deganda nimani tushunasiz?
5. Auditning mijoz oldidagi majburiyat xatining mazmuni nimalarni ifodalaydi?
6. Auditorlik tavakkalchiligini baholashda qanday usullardan foydalilanadi?
7. Korxonada ichki nazorat tizimini baholash nima maqsadlarda o’tkaziladi?
8. Qanday holatlarda auditor ichki nazorat tizimi natijalaridan foydalanishi mumkin?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

- 1. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholashga qo’yiladigan asosiy talablar qaysi AFMS bilan tartibga solinadi?**

A) 12-AFMS

B) 6-AFMS

S) 3-AFMS

D) 6-AFMS10-AFMS }

2. “Hisob siyosati” nima?

A) Korxonaning o’z xususiyatlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qonun – qoida va tartib asosida buxgalteriya hisobini tashkil etilishi

B) Davlat tomonidan qabul qilingan qonun – qoida va tartib asosida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi

S) Korxona xususiyatidan kelib chiqib buxgalteriya hisobini tashkil etilishi

D_“Buxgalteriya hisobi to’g’risida ”gi qonun asosida buxgalteriya hisobini tashkil etilishi

3. Ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini kim tomonidan tasdiqlanadi?

A) kuzatuv kengashi

B) ichki audit xizmati rahbari

S) direktorlar kengashi

D) ta'sischilar umumiylig'iliishi

4. Ichki auditorga tekshirish uchun huquq beradigan hujjat?

A) Malaka sertifikati

B) Litsenziya

S) Diplom

D) Order

5. Auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning qaysi moddasida ko’rsatilgan?

A) 51-moddasida

B) 29-moddasida

S) 22-moddasida

D) 20-moddasida

10-BOB. AUDITNING TEXNOLOGIYASI

O’quv maqsadi: auditorlik texnologiyasi bo'yicha auditorlik tanlovi, auditorning ish sifatini nazorat qilish, auditorlik ma'lumotlar va dalillar, auditorning ish hujjatlari yuzasidan nazariy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *texnologiya, tanlov, nazorat, ma'lumotlar, dalillar, hujjatlar.*

10.1. Auditorlik texnologiyasi bo'yicha auditorlik tanlovi

Har qanday faoliyat, xususan auditorlik faoliyati ham samarali bo'lishi uchun dastavval, uning puxta va aniq rejasini yoki dasturini tuzish lozim. Ularning mazmuni qo'yilgan maqsad va uni bajarish uchun belgilangan aniq vazifalardan kelib chiqadi. Auditning maqsadlari quyidagilardan iborat: buxgalteriya hisobining holatini ekspertiza yo'li bilan baholash, yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish va tasdiqlash, valyuta muomalalarini taftish qilish, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektining ma'lumotlarini tasdiqlash, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, iqtisodiyot va moliyaviy huquq sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlari bo'yicha aniq maslahat o'tkazish va xokazo.

Auditni rejalahtirish jarayonida auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar №3 "Auditni rejalahtirish" nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti (AFMS) bilan belgilanadi.

Standartga muvofiq auditni rejalahtirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- a) auditni dastlabki rejalahtirish;
- b) auditning umumiyligi rejasini tayyorlash va tuzish;
- v) audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Ushbu standart har qanday korxonani auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda ham audit rejasini, ham audit dasturini tuzishni talab etadi.

Rejalahtirish auditorlik guruhi rahbari tomonidan audit o'tkazishning umumiyligi tamoyillari kabi, xususiy tamoyillariga ham muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ular:

- uyg'unlik (komplekslik);
- uzluksizlik,

➤ maqbullik.

Uyg'unlik tamoyili auditning dastlabki rejasini tuzishdan tortib, to umumiylar rejasini va dasturini tuzishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning o'zaro bog'liqligi va muvofiqligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Rejalahtirishning uzluksizlik tamoyili tekshiruvda ishtirok etadigan auditorlarga kelishilgan topshiriqlar belgilanishi va rejalahtirish bosqichlarining muddatlar hamda tarkibiy bo'linmalari bo'yicha bog'liqligida ifodalanadi.

Auditni rejalahtirishning maqbullik tamoyili shundan iboratki, rejalahtirish jarayonida auditorlik tashkiloti o'zi belgilagan mezonlar asosida auditning umumiylar rejasini va dasturidan maqbulini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

Standartda ko'rsatilishicha, auditor umumiylar rejada audit o'tkazish muddatlari va audit o'tkazish jadvalini tuzishni, auditorlik hisoboti (xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasi tuzishni nazarda tutishi lozim.

Korxonada auditorlik tekshiruvi o'tkazish namunaviy umumiylar rejasini

Auditning umumiylar rejasini
Tekshiriladigan tashkilot
Audit davri kishi-soatlar miqdori
Auditorlik guruhining rahbari
Auditorlik guruhining tarkibi
Rejalahtirilgan auditorlik riski
Rejalahtirilgan jiddiylik darajasi

| |
|--|
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

| Nº | Rejalahtirilgan ishlar turlari | O'tkazi sh davri | Bajaruvchi | Eslat ma |
|----|---|------------------|------------|----------|
| 1 | Mijoz faoliyati bilan tanishish | | | |
| 2 | Ichki nazorat tizimini baholash | | | |
| 3 | Auditorlik dalillar | | | |
| 4 | Jiddiylik va risk darajasini aniqlash | | | |
| 5 | Auditorlik tanlash | | | |
| 6 | Audit dasturi | | | |
| 7 | Auditni bevosita o'tkazish jarayoni (dasturni bajarish) | | | |
| 8 | Bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiylar hujjatlarni tayyorlash | | | |
| 9 | Tekshiruv natijalarini mijozga taqdim etish va h.k. | | | |

Auditorlik tashkiloti nomidan
auditorlik xulosasini imzolash huquqiga ega rahbar
Auditorlik guruhining rahbari

Audit umumiylar rejasini va dasturining ayrim bo'limlarini xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariyatini bilan kelishish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda auditorlik

tashkiloti audit uslublari va usullarini tanlashda mustaqil bo'lib qoladilar.

Standartga muvofiq auditning umumiy rejasi tuzilganidan so'ng audit dasturi tuzilib, unda barcha auditorlik amallarining batafsil ro'yxati bayon qilinishi zarur. Dastur auditorlar uchun batafsil yo'riqnomalar bo'lib, unda tekshirilishi lozim bo'lган buxgalteriya hisobining barcha bo'limlarini tekshirish, shuningdek ichki nazorat tizimini tahlil qilish bo'yicha ularning barcha hatti-harakatlari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

№3-“Auditni rejalashtirish” nomli AFMS №14-“Auditorlik tanlash”, №9-“Jiddiylik va auditorlik riski”, №6-“Auditni hujjatlashtirish” va auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni tartibga soladigan boshqa standartlar bilan o'zaro chambarchas bog'liq.

Auditni rejalashtirish quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- a) buxgalteriya hisobi va hisobotining holati hamda ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida zarur axborotlarni olish;
- b) bajarilishi lozim bo'lган nazorat amallarining mazmunini, o'tkazish vaqtini va hajmini aniqlash.

Auditni rejalashtirish kutilayotgan ishlar rejasini tuzish va auditorlik dasturini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kutilayotgan ishlar rejasida quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiriladi:

- audit o'tkazish muddati va ishlarning davomiyligi;
- bajariladigan ishlar hajmi;
- auditor qo'llaydigan usullar va amallar.

Auditor o'z rejasini tekshiriladigan korxona rahbariyati va xodimlari bilan muhokama qilishi mumkin. Bu o'tkaziladigan auditning ta'sirchanligini oshirish va auditorlik amallarini korxona xodimlari faoliyati bilan muvofiqlashtirishga imkon yaratadi. Zarur bo'lganda aniq bajaruvchilar, muddatlari, ekspertiza va nazorat uslublarini ko'rsatgan holda dasturni oydinlashtirish va kengaytirish mumkin.

Korxonada auditorlik tekshiruvi o'tkazish namunaviy ish dasturi

Auditning umumiylari
Tekshiriladigan tashkilot
Audit davri
Kishi-soatlar miqdori
Auditorlik guruhining rahbari
Auditorlik guruhining tarkibi
Rejalashtirilgan auditorlik riski
Rejalashtirilgan jiddiylik darajasi

| |
|--|
| |
| |
| |
| |
| |
| |
| |

| № | Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik amallari ro'yxati | O'tkazish davri | Bajaruvchi | Auditorning ishchi hujjatlari | Eslatma |
|------------|---|--------------------|------------|-------------------------------------|---------|
| I | Korxonadagi buxgalterlik hisobi va ichki auditning holati, tashkil etilishi hamda moliyaviy hisobotning sifatini auditorlik baholash (ekspertiza qilish). Tekshiriladigan ob'yektlar: | | | | |
| 1 | ta'sis hujjatlarining mavjudligi va ustav kapitaliga doir balans ma'lumotlarining haqqoniyigli. | | | | |
| 2 | buxgalteriya hisobi registrleri, oborot - saldo balanslarini tanlab tekshirish. | | | | |
| 3 | mulklar, debitor va kreditor qarzlar, so'mdagi va valyuta mablag'larini inventarizatsiya ma'lumotlari. | | | | |
| 4 | oldingi davrlardagi soliq inspeksiyasi va auditorlar tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarning dalolatnomalari hamda auditorlik xulosalarini. | | | | |
| 5 | buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishning ahvoli; | | | | |
| 6 | ichki auditning tashkil etilishi; | | | | |
| 7 | hisob va hisobotga oid qonunchilikka rioya qilinishi. | | | | |
| II | Korxonaning moliya - xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish. Tekshiriladigan ob'yektlar: | | | | |
| 1 | ta'sis hujjatlari, korxonadagi ichki tashkiliy munosabatlarni belgilaydigan, xususan, uning moliyaviy faoliyatini tartibga solib turadigan me'yoriy hujjatlar; | | | | |
| 2 | ustav kapitalining shakllanishi va o'zgarishi; | | | | |
| 3 | kredit resurslarining mavjudligi va ishlatalishi; | | | | |
| 4 | kassa, hisob - kitob schyoti, valyuta schyoti va bankdagi boshqa schyotlarda saqlanayotgan pul mablag'lari, pul hujjatlari va qat'iy hisobda turadigan blankalar; | | | | |
| 5 | asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar material zahiralar, (saqlanishning tashkil etilishini ekspertiza qilish va inventarizatsiya o'tkazish uchun alohida haq to'lanadi); | | | | |
| 6 | asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi; | | | | |
| 7 | kapital qo'yilmalar va ta'mirlash xarajatlari; | | | | |
| 8 | hisob-kitoblar: a) mehnatga haq to'lashga doir, b) hisobdor shaxslar bilan, v) mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar, xaridorlar, turli debitor va kreditorlar bilan, g) byudjet bilan, ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga doir, Nafaqa fondi va Bandlik fondi (xizmati) bilan; | | | | |
| 9 | ishlab chiqarish xarajatlari va har xil sarflar. | | | | |
| 10 | korxona daromadlari; | | | | |
| 11 | yakuniy moliyaviy natijalar va ularning ishlatalishi. | | | | |
| III | Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha konsultatitsion xizmatlar (maslahatlar) va tavsiyalar. | | | | |

Auditorlik tashkiloti nomidan
auditorlik xulosasini imzolash huquqiga ega rahbar
Auditorlik guruhining rahbari

Korxonadagi buxgalteriya hisobi va ichki nazorat ahvolining auditor tomonidan to'g'ri baholanishi uning barcha keyingi ishlari muvaffaqiyatining garovidir. Chunki, auditorda mijoz hisobotini o'rganish va xodimlar bilan suhbat o'tkazish natijasida, hisobot to'g'ri va ishonchli birlamchi ma'lumotlar asosida tuzilganligiga mutlaqo ishonch hosil bo'lsa, u dastlabki hujjatlar va hisob registrlarini tanlab tekshiruvdan o'tkazishi mumkin.

Aks holda, auditor birlamchi ma'lumotlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, buxgalteriya xodimlarining bilim darajasi va ichki nazoratning tashkil etilishiga qoniqish hosil qilmasa, u juda puxta, odatda, yoppasiga tekshiruv o'tkazishi lozim.

Korxonaning butun moliya-xo'jalik faoliyatini yoppasiga tekshirish juda sermehnat ishdir. Ammo, auditor kasb etikasining me'yorlariga muvofiq mijoz-korxona moliyaviy hisobotining ishonchli (ishonchsiz) ligiga to'la ishonch hosil qiliishi yoki u to'g'risida fikr bildirishdan bosh tortishi lozim.

Agar tekshiriladigan ob'yektlarning soni statistik tanlash usullarini talab qilmaydigan darajada kam bo'lsa, yoki auditorlik tanlash usulini qo'llash yoppasiga tekshiruv o'tkazishga qaraganda samarasiz bo'lsa, auditorlik tashkiloti buxgalteriya hisobidagi qoldiqlarni va muomalalarning schyotlarda aks ettirilishini yoki nazorat tizimi vositalarini yoppasiga tekshiruvdan o'tkazishi mumkin.

Auditor ko'p hollarda mijoz hisobotining ishonchliligiga o'rtacha darajada ishonch hosil qiladi. Bu ayrim hisob bo'limlari bo'yicha hisob yaxshi tashkil etilganligi, malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilayotganligi, avtomatlashtirilayotganligi, bosh buxgalter va yondosh hisob bo'linmalari tomonidan ichki nazoratning yaxshi yo'lga qoyilganligi bilan boshqalari bo'yicha esa bunga teskari ahvol vujudga kelganligi bilan izohlanishi mumkin.

Aynan hisobot ko'rsatkichlariga nisbatan ishonch hosil qilish darajasi o'rtacha bo'lganda auditorlik tanlash usullarini qo'llash zarur.

Auditorlik tanlash – bu alohida hujjatlar, yozuvlar va hokazolar ko'rinishidagi tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun ma'lum qoidalar asosida tanlab olingan elementlardir.

Auditning xalqaro amaliyotida auditorlik tanlash №530-“Auditorlik tanlash” (Audit Sampling) nomli xalqaro standartga muvofiq amalga oshiriladi. Bizning mamlakatda esa, auditorlik tanlash ishlari №14-“Auditorlik tanlash” nomli Auditorlik faoliyatining milliy standarti (AFMS) asosida bajariladi. Shuning uchun ushbu standartga batafsilroq to’xtalib o’tamiz. Standartning maqsadi auditorlik tashkiloti uchun tekshiriladigan to’plamdan ma’lumotlarni tanlab olish va shu tarzda olingan axborotlarning natijalarini baholash qoidalarini o’rnatishdan iborat.

O’tkazilgan audit natijalari bo’yicha rasmiy auditorlik xulosasi berishni ko’zda tutadigan auditorlik tekshiruvlarini o’tkazishda, “tavsiya tavsifiga ega” deb ko’rsatilgan qoidalardan tashqari barcha auditorlik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Tanlab tekshirish ikki turga bo’linishi mumkin:

1. Muvofiq (mos) kelishni tanlab tekshirish.
2. Mohiyatan tanlab tekshirish.

Muvofiqlikni tanlab tekshirishning vazifalari. Tekshiriladigan hisobot davri ichida ichki nazorat me’yorlarining tez-tez buzilib turishini aniqlashdan iborat. Bunga korxona rahbariyatining chetdan sotib olingan tovar-moddiy zahiralari va hamkor tashkilotlar xizmatlari uchun taqdim etilgan schet-fakturalarni to’lashga ruxsat etishi, korxonaga sotib olinayotgan tovar-moddiy zahiralarni nomlari, miqdori va sifati bo’yicha ularning tegishli hujjatlari bilan solishtirishi misol bo’ladi.

Mohiyatan tanlab tekshirishning vazifasi ichki nazoratning buzilishini qiymat ifodasida o’lchashdan iborat. Mohiyatan tanlab tekshirish miqdoriy tanlab tekshirish deb ham ataladi. Bunga buxgalteriya hisobi schyotlarining qoldiqlarini, dastlabki hujjatlardagi yozuvlarni tasdiqlash, uchinchi shaxslardan tasdiqlar olish, xo’jalik faoliyati ko’rsatkichlarini tahlil qilish misol bo’ladi.

Buxgalteriya hisobotining muayyan bo’limini tekshiruvdan o’tkazish tartibini ishlab chiqishda auditorlik tashkiloti tekshiruv maqsadlarini va ushbu maqsadga erishishni ta’minlaydigan auditorlik amallarini aniqlaydi. So’ngra auditor ehtimoldan holi bo’lmagan xatolarni aniqlashi, to’plash talab qilinadigan zarur dalil-isbotlarni baholashi va shunga asosan ko’rib chiqiladigan ma’lumotlar to’plamini

aniqlashi zarur. Bu to'plam ma'lum tarzda identifikatsiyalanadigan birliklar yig'indisidan tashkil topishi mumkin. Auditorlik tashkiloti to'plam elementlarini tanlashni, audit o'tkazishdan qoyilgan maqsadga erishishga imkon beruvchi, eng samarali va tejamli tarzda o'tkazadi.

Har qanday tanlab tekshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tanlash ko'lami;
- kuzatish birligi;
- tanlash birligi;
- tanlash uslublari;
- saylab olish hajmi;
- salmoqli (reprezentativ) tanlash;
- tanlangan ma'lumotlarni tekshiriladigan to'plamga tadbiq qilish.

Tekshiruv maqsadlariga erishish uchun tegishli tekshiriladigan to'plamni aniqlash zarur. Chunki, tanlash asosida qilinadigan xulosa aynan shu to'plamga taalluqli bo'ladi.

Tekshiriladigan to'plam – bu ma'lum elementlar yig'indisidir. Auditda buxgalteriya yozuvlari (provodkalari), moddalar, yozuvlar to'plam elementlari sifatida tanlab olinib, ushbu tanlash ular haqida ma'lumot berishi lozim.

Tekshiriladigan to'plamni shakllantirish uchun mijoz-korxonaning barcha hujjatlari turli belgilar – hujjatlar turi, moddiy javobgar shaxslar, vaqtinchalik izchilligi va boshqalar bo'yicha ma'lumotlar o'xshash bo'laklarga bo'lib chiqiladi. Masalan, auditor ma'lum summadan yuqori debitor qarzlar haqidagi axborotlarni to'playdigan bo'lsa, u holda debitorlar bilan hisob-kitoblarga taalluqli bo'lган, ammo belgilangan (shart qilib qo'yilgan) summadan kam bo'lмаган barcha buxgalteriya hujjatlari, yozuvlar va hokazolar to'plami tekshiriladigan to'plam bo'lib hisoblanadi.

Bunday turdag'i tanlovda tanlash birligi kuzatish birligi bilan mos keladi. Bu mijoz korxonasida tayyorlangan yoki mijozning uchinchi shaxslardan olgan hujjatlaridir. Tanlash birligi va kuzatish birligi bir-biridan farq qiladi. Kuzatish

birligi auditorlik tekshiruvida shartli qabul qilingan. Buxgalteriya hisobining har qanday bo'limi yoki sohasi, xo'jalik muomalalarining turi kuzatish birligi bo'lishi mumkin. Bitta kuzatish birligi ichida har xil tanlash birliklari bo'lishi mumkin. Tanlash birligi sifatida eng batafsil element aniqlanganda tanlov samaradorligi oshadi. Ammo, bunda ushbu element albatta tekshiriladigan bo'lishi shart.

10.2. Auditorning ish sifatini nazorat qilish

Auditorlik ish sifatini nazorat qilish ob'yekti zaruriyat hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, auditorlik ish sifati ichki va tashqi nazoratga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 8-bobi "Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati va auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati"ga bag'ishlangan bo'lib, 45-moddada auditorlar ishi sifatining ichki nazorati, 46-moddada auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati bayon qilingan.

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga binoan amalga oshiriladi va u auditorlik xizmatlari ko'rsatish davridagi majburiy shartdir.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati vakolatli davlat organi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda amalga oshiradigan, auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi qonun talablarini va auditorlik faoliyati standartlarini buzishlarni aniqlashga hamda kelgusida ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Auditorlik tashkiloti auditorlarning respublika jamoat birlashmasi tomonidan tashqi sifat nazoratidan ixtiyoriy asosda o'tishi mumkin. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati natijalariga ko'ra qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda,

vakolatli davlat organi auditorlik tashkilotiga nisbatan quyidagi ta'sir choralarini qo'llashga haqli:

aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini auditorlik tashkilotining zimmasiga yuklaydigan va bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilaydigan bildirishnoma chiqarish;

bila turib soxta auditorlik xulosasi tuzilganda, auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingan maxfiy axborot oshkor qilinganda, auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisi mavjud bo'limganda, auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati o'tkazilayotganda zarur hujjatlarni va axborotlarni vakolatli davlat organiga taqdim etmaganda sudga murojaat qilish;

auditorlik tashkiloti majburiyatlati (29-modda) talablarini muntazam ravishda (ikki martadan ortiq) buzganda auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan ko'rilgan choralar ko'rsatilgan holda vakolatli davlat organining va auditorlar respublika jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratini o'tkazish muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak (47-modda).

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati tavakkalchilik-tahlili natijasi va auditorlik tashkiloti tomonidan qonun talablarining buzilishlarini sodir etish tavakkalchiligi darajasini baholash yakunlari bo'yicha o'tkaziladi.

Tavakkalchilik darajasi uch toifaga ajratiladi:

qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi yuqori bo'lgan auditorlik tashkilotlari;

qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi o'rtacha bo'lgan auditorlik tashkilotlari;

qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi past bo'lgan auditorlik tashkilotlari.

Tavakkalchilik darajasini tahlil qilish vakolatli davlat organi tomonidan har yili 1 fevralga qadar amalga oshiriladi. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratini o'tkazishda auditorlik tashkilotining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashishga yo'1 qo'yilmaydi.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat (48-modda):

ichki nazoratning tizimi mavjudligi;

auditning xalqaro standartlariga, sifat nazoratiga, tahliliy tekshiruvlarga, turdosh xizmatlar ko'rsatishga doir topshiriqlarga va Professional buxgaltering odob-axloq kodeksiga rioya etilishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qarolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi;

xalqaro auditorlik tashkilotlariga yoki assotsatsiyalariga a'zolik;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish, turdosh xizmatlar ko'rsatish uslubiyotining mavjudligi;

ko'rsatilgan auditorlik xizmatlari natijalarining tegishli ravishda hujjatlashtirilishi;

auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun yetarli miqdordagi mehnat va vaqt resurslari;

axborotga ishlov berish uchun dasturiy mahsulotlarni va axborot texnologiyalarini qo'llash;

auditorlarning har yilgi malaka oshirish kurslaridan o'tishi ba boshqalar.

10.3. Auditorlik ma'lumotlar va dalillar

Auditorlik dalillarning miqdor va sifat ko'rsatkichlariga, shuningdek ularni olish maqsadida bajariladigan amallarga nisbatan qoyiladigan talablar № 50 – “Auditorlik dalillar” nomli AFMSda belgilangan. Ushbu standart talablarini barcha

auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish chog'ida qo'llashi majburiydir.

Auditor moliyaviy hisobotning haqqoniyligini asoslashi uchun quyidagi amallarni bajarish natijasida yetarli auditorlik dalillarini to'plashi lozim:

➤ schyotlar bo'yicha oborotlar va qoldiqlarning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini batafsil tekshirish:

- tahliliy amallar:
- ichki nazorat vositalarini tekshirish.

Auditorlik dalillarni to'plash uchun zarur bo'lgan auditorlik amallari va ularning hajmi audit dasturida ko'rsatiladi.

Auditorlik dalillar – bu auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvlar vaqtida to'plangan va auditorlik xulosasini asoslovchi axborotdir.

Demak, auditorlik dalillar auditorlik tekshiruvi jarayonida tekshirilayotgan mijoz – korxona va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari bo'lib, moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida auditorlik xulosasi tuzish imkonini beradi.

Ushbu ta'rif va tavsiflardagi tayanch tushunchalarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Dalil deyilganda boshqa faktning mavjudligini tasdiqlaydigan yoki inkor qiladigan fakt, yoki mazkur fakt haqida u yoki bu darajadagi ishonchlilik bilan fikr shakllantirishga imkon beradigan, ma'lum fakt to'g'risida ma'lumotlar olish jarayoni tushuniladi.

Axborot – xo'jalik faoliyatidagi faktlar to'g'risidagi xabarlar to'plamidir.

Mijoz korxona – auditorlik xizmati ko'rsatilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt.

Uchinchi shaxslar – auditor yoki mijoz korxona bilan u yoki bu tarzda aloqador bo'lgan va bu aloqadorlik auditor fikriga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

Tahlil qilish – bu mijoz korxona buxgalteriya hisobotida faktlarning auditor tomonidan mushohada qilinishi va o'z fikrini shakllantirishi.

Auditorlik tekshiruvlarining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligi to'g'risida auditorning mustaqil bildirilgan fikridan iborat. Buning uchun auditor hisobotning ishonchliligi yoki uning ishonchliligin rad etish to'g'risidagi asosli fikr bildirishga imkon beradigan dalillarni to'plashi zarur.

Ishonchlilik—moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ulardan malakali foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi sub'yeqtlar faoliyatining natijalari to'g'risida to'g'ri xulosalar qilishga va ushbu xulosalarga asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradigan darajasi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, bu auditorlik dalillar qanchalik ishonchga sazovar va haqiqatga yaqin ekanligini tavsiflaydi. Audit jarayonida olingan dalillarning ishonchliligi mustaqillik va manba kompetentligi, ichki nazorat tizimining samaradorligi kabi omillarga bog'liq. Auditorning o'zi mustaqil manbalardan olgan dalillarning ishonchlilik darajasi xo'jalik yurituvchi sub'yeqtan olingan dalillarga qaraganda yuqoriq. Barcha dalillar yig'indisini faqat so'ngilari yetarli bo'lidanidagina ishonchli deb hisoblash mumkin.

Dalillarning yetarliligi ularning miqdori va sifati bilan belgilanadi. U tanlash ko'lami va to'plamdag'i muayyan elementlarning tavsifi bilan bog'liq. Axborotlarning samaradorligi esa tanlash elementlarining reprezentativligi (bosh to'plamning o'rganilayotgan belgilar bo'yicha xususiyatlari tanlama to'plamda namoyon bo'lishi)ga bog'liq, ya'ni reprezentativlik qancha yuqori bo'lsa, auditorlik riski shuncha past bo'ladi. Auditorlik risklarini pasaytiruvchi dalillarning yetarliligi to'g'risida auditor ichki nazorat tizimini baholash va auditorlik riskining hajmiga asoslanib xulosa qilishi mumkin. Ichki nazorat tizimi qanchalik ishonchli va auditorlik riski qanchalik past bo'lsa, auditordan shunchalik kam dalil-isbotlar to'plash talab etiladi.

Dalillarning yetarlilagini aniqlashda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur: mustaqil manbalar (uchinchchi shaxslar)dan olingan dalillarning mijoz-korxona xodimlaridan olingan dalillarga nisbatan ishonchliroq ekanligi; auditorlik tashkilotining mustaqil tekshirushi yoki tahlili natijasida olingan ma'lumotlarning

uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlarga qaraganda ishonchliroq ekanligi; hujjatlar va yozma ko'rsatmalar shaklidagi auditorlik dalillarining og'zaki ko'rsatmalarga qaraganda ishonchliroq ekanligi. Nihoyat, turli manbalardan olingan dalillardan foydalanish natijasida qilingan xulosalarni taqqoslash imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Amaldagi standartlarga muvofiq auditorlik baholash uchun zarur ma'lumotlar miqdori qat'iy chegaralab qo'yilmagan. Shu sababdan auditor o'zining professional fikriga tayangan holda xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risida xulosa tuzish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarning miqdori haqida mustaqil qaror qabul qilishi lozim. Auditorlik dalillarining o'z vaqtida to'planishiga alohida e'tibor berish zarur. Aks holda ular ortiqcha va keraksiz bo'lib qoladi. O'z vaqtidalik har bir auditorlik dalilining tekshirilayotgan davrga bevosita taalluqliligi yoki mijoz-korxona faoliyatining hisobot tuzilganidan so'ng, ammo auditorlik xulosasi tuzilishidan oldin sodir bo'lgan ma'lum bir jiddiy hodisalariga taalluqli ekanligidan ham iboratdir. To'plangan dalillar tekshirilayotgan hisobot tuzilgan sanaga qanchalik yaqin bo'lsa, ular shunchalik ishonarli bo'ladi.

Agar xatolar va noaniqliklar to'g'risidagi dalillar mijoz korxona ma'muriyatiga auditorlik xulosasi soliq organiga topshirilmasdan oldin taqdim etilgan bo'lsa, u holda buxgalteriyada hisobotlarga zarur tuzatishlarni kiritish imkoni bo'ladi. Agar hisobot soliq organiga topshirilganidan so'ng audit o'tkazilsa, tuzatish kiritish imkoni yo'q, lekin joriy davrda aniqlangan xato kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish mumkin.

Auditorlik tekshiruvlarining asosi auditorlik dalillarini topishdan iborat. U ma'lumotlarni to'plash, moliyaviy hisobotning ishonchliligi (yoki ishonchsizligi)ni, moliya-xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobini yuritishga oid belgilangan qoidalar va nizomlarga muvofiqligini va shu bilan birga auditorlik xulosasi tuzish uchun auditorning shaxsiy fikrini shakllantirish maqsadida ularni umumlashtirish va baholashni nazarda tutadi.

Auditorlik tekshiruvlar jarayonida to'planadigan dalillar turli-tuman bo'lib, ular turi, manbasi va olinish usullariga ko'ra turkumlanadi.

Yozma ravishda olingen dalillar (hujjatlar va yozma tushuntirishlar) og'zaki shakldagi dalillarga qaraganda ishonchliroq bo'lishi mumkin.

Auditorlik dalillar olinish manbasiga ko'ra ichki, tashqi va aralash dalillarga bo'linishi mumkin. Ichki auditorlik dalillar xo'jalik yurituvchi sub'yeqtan yozma yoki og'zaki ko'rinishda olingen ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Tashqi auditorlik dalillar uchinchi tomonlardan yozma ko'rinishda (odatda auditorlik tashkilotining yozma so'rovi bo'yicha) olingen ma'lumotlardan iborat.

Aralash auditorlik dalillar xo'jalik yurituvchi sub'yeqtan yozma yoki og'zaki ko'rinishda olingen va uchinchi tomon yozma ravishda tasdiqlagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik dallillar olinish usuliga ko'ra quyidagicha turkumlanadi: a) faktlarni tasdiqlash yo'li bilan olingen dalillar; b) hujjatlashtirilgan faktlarni aniqlash yo'li bilan olingen dalillar; v) maxsus o'tkazilgan tahlil natijasida aniqlangan dalillar.

Faktlarni tasdiqlash mulklar va majburiyatlar muayyan turlarining mavjudligini aniqlashdan iborat. Bu xo'jalik faoliyatidagi faktlar bo'lib, ularni fakt-vaziyatlar deb hisoblash mumkin; ular zamonaviy auditning ajralmas qismi hisoblangan inventarizatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

Hujjatlashtirilgan faktlarni aniqlash moliyaviy hisobotni va hisob registrlarini to'ldirish uchun asos bo'lган dastlabki hujjatlarni tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bularga tannarxni asossiz ravishda oshirib yuborish yoki tovarsiz operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalar misol bo'lishi mumkin. Shuningdek, bitta hujjatning turli nusxalaridagi yozuvlarining bir-birlariga mos kelmaslik holatlari.

Maxsus o'tkazilgan tahlil natijasida faktlarni aniqlash hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarni mantiqiy joylashtirish va matematik hisob-kitob qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday argumentlash ratsional deb nomlanadi va u audit jarayonida salmoqli o'rinn tutadi. Masalan: 1) 2910-“Omborlardagi tovarlar” schetida

korxona mulki hisoblangan tovarlar hisobga olinishi lozim; 2) auditor ushbu tovarlar uchun korxonaning mulkiy huquqi mavjudligini aniqlashi zarur; 3) taqdim etilgan hujjatlar (shartnomalar, tovarlar hisoboti, bank ko'chirmalari) va mulkiy huquqning korxonaga o'tgan paytini aniqlash asosida auditor tovarlarning egasi haqida xulosa qiladi.

Auditor fikriga birinchi argument ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatda 2910-“Omborlardagi tovarlar” schetida qoldiq sifatida ko'rsatilgan tovarlar yo'q bo'lsa, hech qanday fikr-mulohazaga o'rinn qolmaydi. So'ngra uchinchi va to'rtinchi argumentlarni ahamiyatliligi bo'yicha ko'rsatish mumkin.

10.4. Auditorning ish hujjatlari

Auditor auditni taxmin qilinayotgan ko'lami va o'tkazish tartibini bayon etgan holda, auditning umumiylar rejasini ishlab chiqishi va rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturini ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi uchun, audit umumiylar rejasining hujjatli aks ettirilishi yetarli darajada batatsil bo'lishi kerak, bunda uning aniq shakli va mazmuni sub'yekt kattaligi, auditning murakkabligi hamda auditor qo'llayotgan aniq uslubiyat va texnologiyaga bog'liq.

Auditor auditning umumiylar rejasini ishlab chiqishda ko'rib chiqishi talab qilinadigan masalalar quyidagilar:

Biznesni bilishlik;

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarini tushunish;

Tavakkalchilik va muhimlik;

Muolajalar tavsifi, muddati va hajmi;

Ishni muvofiqlashtirish, yo'naltirish, unga rahbarlik qilish va sharhlash;

Boshqa jahbalar.

Auditor auditning umumiylar rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan, rejalashtirilgan auditorlik muolajalarining tavsifi, muddati va hajmini belgilovchi audit dasturini ishlab chiqishi va hujjatli rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturi auditda ishtirok etayotgan auditor yordamchilari uchun yo'riqnomalar to'plami hamda ishni tegishli ravishda bajarilishi va aks ettirilishi yuzasidan nazorat qilish

vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, audit dasturi auditning har bir bo'limi bo'yicha belgilangan vazifalar va auditning turli jabhalari yoki muolajalariga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatilgan vaqt byudjetidan iborat bo'lishi mumkin.

Audit dasturini tayyorlash jarayonida, auditor ajralmas tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiliklari aniq baholanganligini hamda mohiyati bo'yicha muolajalar bilan ta'minlanadigan, kerakli bo'lган ishonchlilik darajasini ko'rib chiqishi lozim.

Auditning dasturi audit rejasining rivojlanishi hisoblanib, tekshiruvning har bir aniq bo'limi uchun kerakli bo'lган auditorlik muolajalar ro'yxatidan iboratdir. Auditorlik dasturlar quyidagi ikki turda bo'ladi:

- 1) korxona ichki nazorat tizimi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun muolajalardan tarkib topgan nazorat testlari dasturi;
- 2) bevosita schetlardagi qoldiqlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun muolajalardan tarkib topgan schetlardagi qoldiqlarni tekshirish dasturi.

Auditorlik dasturi quyidagi omillardan tarkib topgan:

- 1) auditorlarning ishlash jadvali;
- 2) batafsil muolajalar;
- 3) audit bo'yicha ishni nazorat qilish;
- 4) xodimlar.

Dasturda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun kerakli bo'lган xodimlar soni, ular ishining hajmi va mazmuni belgilanadi.

Odatda auditni asosiy auditor va auditor yordamchilaridan iborat guruh amalga oshiradi.

Moliyaviy hisobot moddalari to'g'rilingini tasdiqlash maqsadida miqdoriy xatolar va kamchiliklarni tekshirish uchun operatsiyalar testlari ishlab chiqiladi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda auditorlik texnologiyasi boyicha auditorlik tanlovi, auditorning ish sifatini nazorat qilish, auditorlik ma'lumotlar va dalillar, auditorning ish hujjatlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Muhimlik deganda nima tushuniladi?
2. Auditorlik riski nima?
3. Auditorlik firmalari tomonidan mijozlarni tanlab olishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun qanday hujjat tuziladi?
5. Auditorlik tekshiruvlarining qiymati qanday belgilanadi?
6. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishga rozilik xati kim tomonidan tuziladi?
7. Auditorlik tekshiruvida rejalashtirishdan oldin qanday bosqichlar amalga oshiriladi?
8. Korxona to'g'risida asosiy ma'lumot manbasi bo'lib nimalar hisoblanadi?
9. Moddiylik (muhimlilik) ni baholashda qanday asosiy yondoshuvlar mavjud?

Mustaqil ishslash uchun test savollari:

1. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholashga qo'yiladigan asosiy talablar qaysi AFMS bilan tartibga solinadi?

- A) 12-AFMS
- B) 6-AFMS
- S) 3-AFMS
- D) 6-AFMS

2. Ichki nazorat tizimining asosiy vazifasi nimadan iborat?

- A) Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning to'g'riliqi va ishonchliligin ta'minlashga qaratilgan
- B) Inventarizatsiya o'tkazishga qaratilgan
- S) Axborot to'plashga qaratilgan
- D) Mavjud xatolarni aniqlashga qaratilgan

3. Buxgalteriya hisobi tizimini va amaldagi ichki nazoratni baholash nima uchun amalga oshiriladi?

- A) auditorlik tadbirdari darajasini aniqlash uchun, ichki nazorat vositalarining samaradorligini aniqlash uchun
- B) korxona faoliyati bilan tanishish uchun
- S) korxonaning bundan keyin ham ishlashini aniqlash uchun
- D) ichki nazorat vositalarining samaradorligini aniqlash uchun

4. Auditor ishining sifat nazorati nimadan iborat?

- A) auditorlik guruhi rahbarining guruh a'zolari ishini nazorat qilishidan
- B) buyurtmachining taqdim etilgan auditorlik hisoboti sifatini tekshirishidan
- S) davlat organlari tomonidan nazorat etilishidan
- D) nodavlat, notijorat professional jamoat tashkilotlari nazoratidan

5. Ichki nazorat tizimi samaradorligini va ishonchligini baholashda auditor ishlatalishga majbur:

- A) kamida ikki gradatsiyani (yuqori va past)
- B) kamida uchta gradatsiyani (yuqori, o'rta va past)
- S) kamida to'rtta gradatsiyani (yuqori, o'rtadan yuqori, o'rtadan past, past)
- D) gradatsiyani ishlatmaydi

6. Ichki nazorat tizimi o'z ichiga olishi kerak:

- A) buxgalteriya hisobining ishonchli tizimini, nazorat muhiti va nazorat vositalarini
- B) ichki nazorat ob'yektlarini, ichki nazorat sub'yektlarini, javob olish kanalini
- S) tashkiliy tuzilmani, buxgalteriya hisobi tizimi va nazorat vositalari
- D) ichki audit xizmatini, mansab yo'riqnomalari va doimiy taftishlarni

7. Ichki audit xizmati tomonidan qanday tekshiruv o'tkaziladi:

- A) navbatdagi

- B) joriy
- S) dastlabki
- D) auditorlik

8. Auditni rejalashtirishning qanday bosqichlari mavjud?

- A) Auditni dastlabki rejalashtirish, auditning umumiyligini tayyorlash va tuzish, audit dasturini tayyorlash va tuzish
- B) Auditni dastlabki rejalashtirish, auditning umumiyligini tayyorlash va tuzish
- S) Auditning umumiyligini tayyorlash va tuzish
- D) Audit dasturini tayyorlash va tuzish

9. Auditni rejalashtirish nechanchi “Auditorlik faoliyatining milliy standarti” bilan belgilangan?

- A) 3-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- B) 4-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- S) 1-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti
- D) 2-sonli Auditorlik faoliyatining milliy standarti

10. Buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining bayoni rejalashtirishning qaysi bosqichida tayyorlanishi lozim?

- A) birinchi bosqichida
- B) ikkinchi bosqichida
- S) uchinchi bosqichida
- D) to’rtinchi bosqichida

11-BOB. AUDITORLIK TEKSHIRUVINIG YAKUNLANISHI, AUDITORLIK XULOSASI

O'quv maqsadi: auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash, auditorlik hisobotining tuzilishi va tarkibi, auditorlik xulosasining tuzilishi va tarkibi, turlari, auditorlik xulosasi uchun javobgarlik masalalari yuzasidan nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *auditorlik, tekshiruv, natijalar, umumlashtirish, hisobot, xulosa, javobgarlik.*

11.1. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash

Auditorlik hisoboti va xulosasini shakllantirish audit rejasiga dasturining barcha bo'limlari boy'icha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Audit natijalarini baholash ishlari asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;
- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash;
- auditorlik dalillarning yetarligini baholash;
- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;
- hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash;
- tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-korxona rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;
- auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazish jarayonida asosan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydilar.

Ta'kidlash joizki, tekshiruv natijalari va xo'jalik yurituvchi sub'yeqt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni ob'yektiv baholashi zarur:

- xo'jalik yurituvchi sub'yekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari;
- tekshiruv uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalik muomalalari;
- mutaxassislarning hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnomaga va taqqoslash qaydnomalari bilan rasmiylashtirilgan, lekin yetarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;
- katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;
- tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo'jalik muomalalari.

Auditor to'plangan dalillar yetarlilikini baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit o'tkazish) hisobga olishi kerak. Shuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejaliari ham e'tiborga olinishi lozim.

Agar bunday holatlar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalillarning yetarlilikiga va rejalashtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur.

Auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlarini o'tkazish natijalari audit o'tkazishdan qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasini baholagan holda auditoring ishchi hujjatlarida qayd qilinishi lozim. Masalan, audit o'tkazish dasturining "Debitor va kreditor qarzlarni tekshirish" bo'limi bo'yicha o'tkazilgan audit natijalarini baholashda quyidagi auditorlik amallarini tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiq:

- *keyingi pul kirimlari va tegishli schyotlar qoldiqlaridan to'langan to'lov larga doir dastlabki hujjatlarni tekshirish.* Auditorlar odatda buxgalteriya balansi tuzilgandan keyingi to audit o'tkazilgan oxirgi kunga qadar amalga oshirilgan to'lov larni ham tekshiradi. Bu tekshiruv natijalari hisob ma'lumotlarining ishonchligini joriy majburiyatlarni balansda aks ettirishning to'liqligi va haqqoniyligi nuqtai-nazaridan baholashga imkon beradi. Ushbu amallarni bajarish natijasida joriy majburiyatlar to'liq va haqqoniyligi aks ettirilganligi to'g'risida olingan dalillar, buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng to'langan qarzlarga nisbatan yetarli darajada deb baholanishi mumkin. Shundan so'ng auditor to'lovi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan qarzlar summalarining katta - kichikligini baholaydi;

- *schyotlarni buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng tayyorlangan moddiy javobgar shaxslar hisobotlari bilan hisob ma'lumotlari bo'yicha qoldiqlar bilan solishtirish.* Buxgalteriya hisoboti tuzilgan kundan oldin olingan barcha schyotlar (etkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun) joriy davrdagi hisobda va shu davr uchun tuzilgan hisobotda aks ettirilishi kerak. Shuning uchun buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan so'ng tayyorlangan materiallar harakati to'g'risidagi hisobotlar va schyotlardagi sanalar, mulklar va majburiyatlarning balansda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish maqsadida taqqoslanishi maqsadga muvofiq.

- *mavjud qoldiqlarni schyot-fakturalar ma'lumotlari, moddiy javobgar shaxslar hisobotlari va to'lov hujjatlari bilan solishtirish.* Agar debtor va kreditor qarzlarning miqdori xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy ahvoli uchun sezilarli darajada bo'lsa, auditorlar hisobga olishning to'g'riliqi va aniqligini tekshirishi, shuningdek, hisob ma'lumotlari bo'yicha majburiyatlarning oshirib ko'rsatilmaganligini aniqlashlari lozim. Bu holda dastlabki hujjatlar ma'lumotlari analistik hisob registrlari (jurnallar, oborot yoki saldo vedomostlari) da aks ettirilgan axborotlar bilan, oldin eng katta qoldiqlilaridan boshlab (chunki, ular bo'yicha oshirib ko'rsatish ehtimoli ko'proq) solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha hisob yozuvlarida (masalan, bitta schyotni hisob registrida ikki marta aks ettirish va

shunga o'xhash) majburiyatlar (debitor va kreditor qarzlar) oshirib ko'rsatilish holatlarining katta-kichikligini baholash zarur.

- *mol etkazib beruvchilar va boshqa kontragentlar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlash.* Audit o'tkazish jarayonida bunday tasdiqni olish majburiy emas. Lekin, ushbu amal ko'pchilik hollarda katta naf keltirishi mumkin. Masalan, mol etkazib beruvchilardan olingan javoblar quyidagilarni tasdiqlash uchun ishlatilishi mumkin:

- mol etkazib beruvchilar bo'yicha debitor qarzlar ularning asosli da'vosi hisoblanadi;
- buxgalteriya hisobi ma'lumotlari mol etkazib beruvchilarga barcha mavjud qarzlarni o'zida aks ettiradi;

➤ sotib olingan moddiy resurslar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar tegishli hisobot davrida aks ettirilgan. Bunda audit o'tkazish jarayonida kontragentlardan tasdig'ini olish zarurligi to'g'risida guvohlik beradigan omillarni belgilab qo'yish kerak: xaridlarni ichki nazorat qilish tuzulmasining bo'shligi; moliyaviy muammolar; tovar-moddiy boyliklar bo'yicha qoldiqlar chiqarishda yoki qarzdorlarni tekshirishda yo'l qo'yilgan xatolar to'g'risidagi faktlar; bir necha mol yetkazib beruvchilardan qilingan katta xaridlar; xaridlar to'g'risidagi hisobot buxgalteriya balansini tuzish sanasiga tayyorlanmagan. Tasdiqlash ishlarining natijalarini umumlashtirib, eng avvalo, ularning ishonchlilagini baholash zarur. Bunda qarzlarning yozma va og'zaki shaklda tasdiqlangan miqdori va ahamiyatliligi baholanadi.

Yozma shaklda olingan dalil-isbotlarni eng ishonchli deb tan olish qabul qilingan. Yozma tasdiqlarning ishonchliligi ularning to'g'ri rasmiy lashtirilishiga bog'liq. Tasdiqlar ishonchliligining tahlilidan kelib chiqib, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan summalarining katta-kichikligi, shuningdek majburiyatlarning ishonchliligi to'g'risida auditor fikrini shakllantirish uchun olingan dalillar yetarliligi baholanadi;

- *debitor va kreditor qarzlar analitik hisobi ma'lumotlarining tengligini tekshirish.* Dastlabki hujjatlarni tekshirib chiqish yoki debitor va kreditor qarzlar

tasdig'ini olish munosabati bilan auditorlar hisob-kitoblarni hisobga oladigan analitik hisob registrlarini tekshirib chiqishi, hamda ularni Bosh daftar ma'lumotlari bilan taqqoslashi lozim. Hisob-kitob muomalalari hisobga olinadigan schyotlarni tahlil qilishda quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- mol etkazib beruvchilar schyotlari bo'yicha debet qoldiqlar;
- mansabdar shaxslar, direktorlar, raislar, sho'ba va tobe korxonalarga va boshqa o'zaro bog'liq tomonlardan qarzlar summalar;
- mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarga doir haddan tashqari katta tuzatishlar;
- da'vo muddati o'tib ketgan yoki o'tayotgan to'lanmay qolgan schyot faktular.

Barcha belgi qoyilgan summalar yakuniy ishchi hujjatlarini tayyorlashda tahlil qilinishi va hisobga olinishi lozim. Ushbu ishlarning natijalarini boshqa olingan dalillar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq. Masalan, da'vo muddati o'tib ketayotgan to'lanmay qolgan schyotlar va mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debet qoldiqlarning aniqlangan summalariga ma'lumotlar muvofiqligi to'g'risida tasdiq olinishi mumkin. Bu holda auditor analitik hisob ma'lumotlarining ishonchliligi haqida yetarli dalillarga ega bo'ladi.

Agarda olingan tasdiqlar natijalariga ko'ra kontragentda bunday qarzdorlikning yo'qligi aniqlansa, u holda auditor analitik hisob ma'lumotlarini ishonchsiz deb baholashi mumkin.

Analitik hisob registrlari ma'lumotlarini Bosh daftar bilan taqqoslash mijoz tomonidan vaqtiga vaqtiga bilan o'tkaziladigan nazorat tadbiri bo'lib hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, auditorlar qilingan taqqoslashlarni, aniqlangan g'ayrioddiy summalarini tahlil qiladi, jami summalarini qayta jamlab chiqadi.

11.2. Auditorlik hisobotining tuzilishi va tarkibi

Auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baholangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

1. Audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida hisobot;

2. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

Sohaga tegishli amaldagi qonunchilikka ko'ra, auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiyligiga yig'ilishiga yo'llangan hujjat.

№70 –“Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi” nomli AFMSga muvofiq auditorlik hisobotining tarkibi quyidagicha:

- a) nomi (“Auditorlik hisobot” yoki “Auditorlik tashkilotining hisoboti” degan har ikkala nom bir xil ma'noga ega);
- b) adresat nomi;
- v) kirish qismi;
- g) tahlil qismi;
- d) yakuniy qismi.

Auditorlik hisoboti moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan auditor(lar) tomonidan betma-bet imzolanishi lozim. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga, buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan holda jo'natiladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar haqida ma'lumotlar, hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining umumiyligiga tavsifi ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi auditorlik faoliyati milliy standartiga tayanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'yeckta ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);
- buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning ahvolini tekshirish natijalari;
- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonunchilikka riosa qilinishini tekshirish natijalari;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'rilingini tekshirish natijalari;
- aktivlar (mablag'lar) saqlanishini tekshirish natijalari.

Korxonadagi ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi sub'yeckt faoliyati tavsifi va miqyoslariga mos kelishini umumiy baholash;
- auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan, ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi sub'yeckt faoliyati tavsifi va miqyoslariga katta mos kelmaslik holatlarini bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeckt buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining ahvolini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- buxgalteriya hisobining yuritilishi va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga riosa qilinishini baholash;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayonida aniqlangan katta qoidabuzarlik holatlarini bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeckt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonunchilikka riosa qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- xo'jalik yurituvchi sub'yeckt tomonidan sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka mos kelishini baholash;

➤ xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayonida aniqlangan katta nomuvofiqliklarni bayon qilish.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riliqini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha tuzilgan va tegishli organlarga taqdim qilingan hisob-kitoblarning to'g'riliqini baholash;

➤ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashning belgilangan tartibini buzish faktlarini, soliqqa tortiladigan bazani aniqlashdagi xatolarni bayon qilish.

Aktivlar saqlanishini tekshirish natijalari aktivlarni inventarizatsiya qilishga asoslanishi va ularning haqiqatda mavjudligi hamda butligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida aniqlangan xato-kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari, hamda xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar va takliflari aks ettiriladi.

№ 70 -AFMSga muvofiq auditorlik tashkiloti tuzilgan auditorlik hisoboti uchun qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi. Shuningdek, auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va uni oshkor etish mumkin emas. Ushbu axborotlarga aloqador shaxslar axborotlarni oshkor qilganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Auditorlik tekshiruvining natijalari asosida tuzilgan hisobotda korxona moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalarining umumiy ahvoli, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning holati, tahlil ishlarining darjasini hamda korxonadagi hisob-tahlil xodimlarining tavsifi aks ettiriladi. Auditorlik hisoboti ma'lumotlari korxona bozor sharoitlariga qanday moslashayotganligi va muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda foydasini ko'paytira olishga qodirligini yoki aksinchaligini bildirishi lozim. Albatta, tekshirilayotgan korxonadagi ahvol bezab

ko'rsatilmasdan, auditorga taqdim qilingan axborot haqiqiy bo'lgandagina ehtiroslarga berilmagan va real auditorlik hisoboti hamda xulosa shakllanadi. Aks holda, auditorlik tekshiruvi befoyda va uni o'tkazish uchun sarflangan mablag' esa bekorga sarflangan mablag' sifatida unumsiz ketadi.

Auditor hisobotda keltirilgan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf qilishga qaratilgan o'z takliflarini ham ko'rsatib o'tishi lozim. Lekin tekshirilayotgan korxona xodimlariga "yaxshilik" qilish maqsadida auditor shaxsan o'zi dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi xatolarni to'g'rilashi mutlaqo mumkin emas.

Shu bilan birga auditorlarga u yoki bu noxush faktlarni boshqacha qilib yoritishga yoki tekshiruvchilar uchun qulay xulosa tuzib berishga majburlash maqsadida ruhiy, jismoniy yoki boshqacha tazyiqlar o'tkazgan hollarda ular qat'iylik va printsiplik bilan ish tutishlari lozim.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida korxona rahbariyatiga bildiradi va ularni tuzatish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Agar buxgalteriya (moliyaviy) hisobini yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish jarayonida buyurtmachi korxona tomonidan tuzatilmasa, buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining ishonchligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida auditorlik tekshiruvining xulosasida yoziladi.

11.3. Auditorlik xulosasining tuzilishi va tarkibi, turlari, auditorlik xulosasi uchun javobgarlik

Auditorlik xulosasi buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik tashkilotga ishonch bildiradilar. Ushbu ishonch, eng avvalo, auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilanishicha, "Moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan fikrini o'z ichiga olgan hujjat auditorlik xulosasidir"²⁵.

Auditorlik xulosasi raqamlangan, har bir sahifasi auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan hamda unga auditorlik tashkilotining fikri qaysi moliyaviy hisobotga nisbatan ifodalangan bo'lsa, o'sha moliyaviy hisobot ilova qilingan bo'lishi kerak.

Auditorlik xulosasining shakli va mazmuni auditorlik faoliyati standartlari bilan belgilanadi.

Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladigan auditorlik xulosasini tayyorlash ishlarida auditorlik faoliyatining milliy standartlari (AFMS) qoidalarining talablarini inobatga olish zarur. Auditorlik xulosasini tayyorlashda asosan 70-sonli "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi" nomli auditorlik faoliyati milliy standartidan (AFMS) foydalaniladi.

Audit natijalari korxonadagi jarayonlar va moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini tashkil etish va hisobga olishni xolisona aks ettirishi lozim.

Boshqacha qilib aytanda, auditorlik tekshiruvi mumkin qadar ob'yektiv bo'lib, uning xulosasi ma'lum ma'noda xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariyati ustidan chiqarilgan "hukm" hisoblanadi.

Shuningdek, davlat organlari topshirig'iga binoan o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq tayinlangan ekspertiza xulosasiga tenglashtiriladi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-soni, Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-soni. 39-modda.

Auditorlik xulosasi uchta: kirish, ta'kidlovchi va yakunlovchi qismidan iborat bo'lishi lozim.

auditorlik xulosasining kirish qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

- auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;
- litsenziyasining tartib raqami;
- auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya bergen organ nomi va berilgan vaqt, shuningdek, litsenziyaning amal qilish muddati;
- auditorlik tashkilotini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi guvohnomasining raqami;
- auditorlik tashkilotining hisob-kitob schyoti;
- tekshiruvda ishtirok etgan barcha auditorlar hamda auditorlik tashkiloti rahbarining nasabi, ismi-sharifi;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning umumiy tavsifi.

Shu bilan birga auditorlik xulosasining kirish qismida tekshiruvdan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati, sanasi va hisobot davri ko'rsatilgan holda aks ettirilishi lozim. Shuningdek, kirish qismida auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan hisobotning tayyorlanishi va ishonchliligi uchun mas'uliyat xo'jalik yurituvchi sub'yeqt rahbariyatiga yuklatilishi, mazkur moliyaviy hisobot bo'yicha berilgan auditorlik xulosasi uchun esa auditorlik tashkiloti javobgar ekanligi ko'rsatilishi lozim.

2. Auditorlik xulosasining ta'kidlovchi qismida auditorlik xulosasi AFMSga muvofiq o'tkazilganligi ta'kidlanishi lozim.

Ta'kidlovchi qism moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchlilagini va qonunchilikka, hamda xo'jalik yurituvchi sub'yeqt moliya-xo'jalik faoliyatining haqiqiy ahvoliga muvofiqligini baholashini ko'rsatishi lozim. Shuningdek, ta'kidlovchi qismda o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi fikr bildirish uchun yetarli asos berishi to'g'risida auditorlik tashkilotining tasdig'i aks ettirilishi lozim.

3. Auditorlik xulosasining yakunlovchi qismida xojalik yurituvchi sub'yeckning buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti ishonchligi va qonunchilikka muvofiqligini tasdiqlash to'g'risida yozuv yoziladi.

Tekshiruv auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilganda, auditorlik xulosasini auditorlik tashkilotining rahbari yoki auditorlik tashkilotining u vakolat bergen boshqa xodimi imzolaydi va auditorlik tashkiloti muhri bilan tasdiqlaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeck faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining ikkita turi mavjud:

a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi; v) xulosa berishdan bosh tortish.

Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'yeckning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi, degan fikrga kelingan vaqtda tuzilishi lozim.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalteriya hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda, yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvi natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar xo'jalik yurituvchi sub'yeck tomonidan tuzatilganda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Xulosa berishdan bosh tortish. Auditor buxgalteriya hisobi va hisobotining sifati to'g'risida ishonch bilan auditorlik xulosasi tuza olishi uchun yetarli darajada ishonchli dalillar tuplay olmagan vaqtda xulosa tuzmaydi. Bunday holat auditorlik

tekshiruvi hajmining cheklanganligi oqibatida moliyaviy hisobot to'g'risida fikr bildirish uchun auditorlik dalil-isbotlar yetarli bo'limganida yuzaga keladi.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lib, unda auditorning ikkilanish va(yoki) noroziligidan kelib chiqqan cheklashlar aniq ko'rsatilishi lozim. Auditorlik xulosasi barcha moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar olish imkoniga ega bo'lgan ochiq axborot hisoblanadi. Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan chop ettirilishi mumkin.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi uchun javobgarlik mavjud. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "Auditorlik tekshiruvini o'tkazmasdan tuzilgan yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra tuzilgan, biroq xo'jalik yurituvchi sub'yektning auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor (auditorlar) tomonidan olingan va o'rganilgan hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'limgan auditorlik xulosasi bila turib soxta tuzilgan deb hisoblanadi"²⁶.

Auditorlik xulosasi sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga ko'ra, bila turib soxta tuzilgan deb topiladi.

Bila turib soxta auditorlik xulosasini tuzish auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarishga, auditorlik tashkiloti rahbari sertifikatining va auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditorlar sertifikatlarining amal qilishini tugatishga, shuningdek aybdor shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda auditorlik tekshiruvar natijalarini umumlashtirish va baholash, auditorlik hisobotining tuzilishi va tarkibi, auditorlik xulosasining tuzilishi va tarkibi, turlari, auditorlik xulosasi uchun javobgarlik masalalari yoritilgan.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son. 40-modda.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Auditorlik hisoboti qanday tuziladi?
2. Auditorlik hisobotining kirish qismida nimalar aks ettiriladi?
3. Auditorlik hisobotining tahliliy qismida nimalar aks ettiriladi?
4. Auditorlik hisobotining yakuniy qismida nimalar aks ettiriladi?.
5. Auditorlik xulosasining tuzilishi ketma-ketligi qanday?
6. Auditorlik xulosalarining qanday turlari mavjud?
7. Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish deganda nima tushuniladi?

Mustaqil ishlash uchun test savollari:

1. ...auditorlik xizmatining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

- A) Hisobot ma'lumotlarining ishonchlilagini tasdiqlash (yoki tasdiqlamaslik)
- B) Korxonani faoliyatni tekshirish va tahlil qilish
- S) Korxonani faoliyaini yekshirib xatolarni bartaraf etish yuzasidan konsalting xizmat ko'rsatish
- D) Korxonani tekshirib faoliyatini rivojlantirishda ko'maklashish

2. Auditorlik dalillari olinish manbasiga ko'ra turlarga bo'linadi?

- A) Ichki, tashqi va aralash
- B) Yozma va og'izaki
- S) Iqtisodiy va moliyaviy
- D) Ma'muriy, moliyaviy

3. Auditorlik hisoboti “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

- A) 18-moddasida
- B) 12-moddasida
- S) 13-moddasida
- D) 15-moddasida

4. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatalarini buzganlik uchun javobgarlik “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

- A) 29-moddasida
- B) 26-moddasida
- S) 22-moddasida
- D) 20-moddasida

5. Auditorlik tashkilotining javobgarligi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

- A) 8-moddasida
- B) 2-moddasida
- S) 4-moddasida
- D) 11-moddasida

6. Buxgalteriya hisoboti ma'lumotlaridan foydalanuvchi korxonalar auditorlik xulosasi analitik qismi bilan tanishish huquqiga egami?

- A) Mulkdor roziligi bilan
- B) Albatta, bu O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun» da kuzda tutilgan
- S) Yo'q, ega emas
- D) Bu, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlaridan foydalanuvchilarni nafaqat huquqlari, balki majburiyatlaridir}

5-MODUL. KORXONALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINING AMALIY JIHATLARI

12-BOB. AKTIVLAR AUDITI

O'quv maqsadi: korxonalarda auditorlik tekshiruvi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish madsadida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, joriy aktivlar auditining xususiyatlari va undagi audit amallari bo'yicha nazariy va uslubiy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *aktivlar, ma'lumotlar, manbalar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zahiralari, pul mablag'lari.*

12.1. Asosiy vositalar auditi xususiyatlari va undagi audit amallari

Asosiy vositalar auditining bosh maqsadi – korxona egaligida bo'lgan, korxona faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan va qayta sotish uchun mo'ljallanmagan moddiy va nomoddiy aktivlar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalari to'g'ri hisoblanganiga va balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda BHMS talablariga mos aks ettirilganiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Asosiy vositalar bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;
2. Buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan asosiy vositalar va haqiqatdan ham mavjud va ular bo'yicha hisoblashishlar haqiqatdan ham ro'y bergenligiga ishonch hosil qilish;
3. Asosiy vositalarning barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;
4. Asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda arifmetik amallar to'g'ri bajarilganligini o'rganish;
5. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash;

6. Buxgalteriya balansida debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'ri guruhlashtirilganligiga va agar zarurat bo'lса, ular bo'yicha zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar ilovalarda to'liq va to'g'ri keltirilganligiga ishonch hosil qilish.

Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalariga muvofiq tekshiruvni yetti yo'naliшhga ajratish mumkin:

- 1) asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining audit;
- 2) asosiy vositalar harakatining audit;
- 3) asosiy vositalar bo'yicha eskirish to'g'ri hisoblanganligining audit;
- 4) asosiy vositalar qabul qilinishi bo'yicha operatsiyalarni tekshirish;
- 5) asosiy vositalar tugatilishi to'g'ri hisobga olinganligini tekshirish;
- 6) asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlar asoslanganligini tekshirish;
- 7) asosiy vositalarga oid operatsiyalar to'g'ri soliqqa tortilganligini tekshirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish asosiy vositalar yuzasidan audit dalillariga asoslanadi. Asosiy vositalarni audit qilish vaqtida foydalaniladigan audit dalillari korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga bog'liqdir. Bular jurnal-orderli, memorial-orderli, soddalashtirilgan, kompyuterda ishlov uchun yo'naltirilgan, shuningdek, qo'llaniladigan registrlar ro'yxati, ularning tuzilishi, ulardagi yozuvlar muntazamligi va yozuv usullari bilan belgilanadi.

Asosiy vositalar va ular bo'yicha eskirishning sintetik hisobi 13, 10, 10/1-sonli jurnal-orderlarda olib boriladi, ma'lumotlarni kompyuterlashtirilgan texnologiyasi qo'llanilganda esa - "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schetlar", "Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schetlar" schetlari bo'yicha debet va kredit aylanmalarning mashinogrammalarida; Bosh kitobda; buxgalteriya balansida (1-sonli shakl); "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da (2-sonli shakl) olib boriladi. Asosiy vositalar auditini tashkil etishdan oldin uning rejasi va dasturini tayyorlash zarur. Chunki, asosiy vositalar hisobining auditorlik tekshiruvini rejalashtirish iqtisodiy sub'yeqt auditorlik tekshiruvining yig'ma umumiyligi va yig'ma dasturi asosida amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni tekshirishga oid umumiyligi yuqorida qayd etilgan bo'yicha audit yo'naliшhlarini hisobga

olishi lozim. Rejalarshirish bosqichida audit rejasi va dasturining mohiyati auditor tomonidan quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi bilan uzviy bog'liq:

asosiy vositalarga nisbatan mavjud ichki nazorat tizimi bilan tanishish; ichki nazorat tizimiga nisbatan nazorat riskini dastlabki baholash va qo'shimcha nazorat testlarini ishlab chiqish; qo'shimcha nazorat testlarini qo'llash; nazorat riskini qayta baholash va asoslovchi testlarni ishlab chiqish; asoslovchi testlarni qo'llash va asosiy vositalar yuzasidan ichki nazorat tizimi bo'yicha hisobot tayyorlash.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi yakunida ichki nazorat tizimi yetarli darajada sifatli deb topilsa auditor tekshiruv ko'lmini qisqartirishi va mos ravishda audit rejasi va dasturining batafsilligi ham qisqartirilishi mumkin.

Asosiy vositalar auditining umumiy rejasi

Tekshirilayotgan korxona:

Audit o'tkaziladigan davr:

Kishi-soat miqdori:

Auditorlik guruhi rahbari:

Auditorlik guruhi tarkibi:

Rejalarshirilayotgan auditorlik tavakkalchiligi 4%;

Rejalarshirilayotgan ahamiyatlilik darjasи 1%.

| T.r. | Olib boriladigan ishlar rejasi (vazifalar majmui) | O'tkazish muddati | Ijrochilar | Izoh |
|--|---|-----------------------|------------|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. | Asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining auditи | Hisobot yili bo'yicha | | Iqtisodiy sub'yekt auditining yig'ma umumiy rejasiga muvofiq |
| 2. | Asosiy vositalar harakatining auditи | | | |
| 3. | Eskirish to'g'ri hisoblanganligining auditи | | | |
| 4. | Asosiy vositalar qabul qilinishi va barpo etilishining auditи | | | |
| 5. | Asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha hisobni tekshirish | | | |
| 6. | Asosiy vositalar tugatilishi hisobini tekshirish | | | |
| 7. | Asosiy vositalar to'g'ri soliqqa tortilganligini tekshirish | | | |
| Auditorlik tashkiloti rahbari Auditorlik guruhi rahbari | | | | |

Audit rejasini tayyorlagach auditor audit dasturini tuzadi. Dasturda audit rejasida keltirilgan vazifalarga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan audit amallarining bat afsil tavsifi yoritiladi.

Dasturga qo'shimcha ravishda katta auditor tomonidan asosiy vositalar hisobining tekshiruviga oid savol nomaga ham tuzilishi mumkin. Buning natijasida audit tekshiruvini yanada tartibli o'tkazish, asosiy vositalarning barcha elementlarini tekshirish imkoniy yuzaga keladi. Endi biz asosiy vositalar auditining amaliy jihatlarini ko'rib chiqish maqsadida asosiy vositalar bilan bog'liq muomalalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish tartiblari bilan tanishib chiqamiz.

Asosiy vositalar quyidagilar natijasida korxona balansiga kiritiladi:

- a) kapital qo'yilmalar tugaganidan so'ng tiklangan ob'yeckni qabul qilish-topshirish;
- b) oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha ob'yeckni sotib olish;
- v) ustav sarmoyasiga ta'sischi ulushi ko'rinishida kelib tushishi;
- g) tekinga kelib tushishi (hadya shartnomasi bo'yicha);
- d) ayirboshlash;
- ye) tovar-moddiy zahiralar tarkibidan o'tkazish;
- j) uzoq muddatli ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olish;
- i) qiymati belgilangan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar;
- k) asosiy vositalarning ortiqcha (hisobga olinmagan) ob'yecklarini aniqlash.

Kelib tushgan, hisobdan chiqarilgan va korxona ichida harakatlangan asosiy vositalarning inventar varaqalari, tegishli yozuvlardan keyin hisobot oyining oxirigacha taxlab qo'yilmasdan alohida saqlanadi. Bu shuning uchun zarurki, mazkur varaqalar asosida asosiy vositalarning har oylik eskirishi hisoblanadi, bundan tashqari, joriy oy yakunlangandan keyin ushbu oydagagi yozuvlari bo'lgan varaqas asosiy vositalar tabaqlashtirilgan turlari bo'yicha guruhlashtiriladi, har bir turi bo'yicha qabul qilinishi va hisobdan chiqarilishi aylanmalari jamlanadi va asosiy vositalar harakatini hisobga olish varaqalariga yozib qo'yiladi.

Asosiy vositalar to'g'ri baholanganligini tekshirish lozim, zero noto'g'ri baholash nafaqat umumiy holatni noto'g'ri aks etishi, balki quyidagilarga ham olib kelishi mumkin:

eskirish noto'g'ri hisoblanishiga; soliqlar summasi noto'g'ri hisoblanishiga; moliyaviy hisobotda asosiy vositalar qiymati noto'g'ri aks ettirilishiga.

Asosiy vositalar saqlanishining muhim shartlaridan biri – ularni sifatli inventarizatsiyadan o'tkazish. Shuning uchun, nazorat vaqtida inventarizatsiya to'liq va o'z vaqtida o'tkazilganligi, uning natijalari buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish lozim.

Inventarizatsiyadan oldin xususiy va ijara ga olingan asosiy vositalar bo'yicha inventar daftarlari va ro'yxatlardagi hamda texnik pasportlari va boshqa texnik hujjatlaridagi yozuvlar to'liqligi tekshiriladi. Agar texnik hujjatlar va buxgalteriya hisobi registrlaridagi ma'lumotlar orasida farqlar aniqlansa, ularga tegishli ravishda aniqliklar va tuzatishlar kiritiladi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiya jarayonida ob'yeqtlar komissiya tomonidan bevosita tabiiy holatida ko'rib chiqiladi va inventarizatsiya ro'yxatida ularning to'liq nomlari, ishlatilishi, inventar raqamlari, asosiy texnikaviy va foydalanish tavsiflari qayd etiladi.

Hisobda qayd etilmagan ob'yeqtlar yoki hisob registrlarida ularga mansub bo'limgan tavsiflar keltirilgan hollarda, ko'rsatilmagan ma'lumotlar va texnikaviy ko'rsatkichlar komissiya tomonidan to'ldiriladi. Shu vaqtning o'zida bunday ob'yeqtarning bunyod etish yoki sotib olish vaqtini, xarajatlarni moliyalashtirish manbalari, ularni qurish zaruriyati, moliyaviy intizomga rioya qilinishi uchun mas'ul shaxslar doirasi aniqlanadi.

Solishtirish vaqtida asosiy vositalarning kamomadi yoki ortiqchaligi, uning sabablari va aybdor shaxslar hamda ushbu omillarning boshqa ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlanadi (asosiy vositalar bo'yicha eskirish va mol-mulk bo'yicha soliq kam yoki ko'p hisoblanishi). Auditor asosiy vositalar joylarda mavjud ekanligini tanlab olish usuli bilan tekshirib aniqlaydi.

Kamomad aniqlangan holda, auditor moddiy javobgar shaxslardan tushuntirish xati va kamomadlar qoplanishini talab qiladi. Ushbu kamomadlar auditorlik tekshiruvini o'tkazish vaqtida qoplanishi lozim.

Auditor asosiy vositalar saqlanishini tekshirganda ular moddiy javobgar shaxslarga biriktirilganligi, yozma ravishda moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganligini aniqlaydi.

Ijaraga olingan vositalar har bir ijaraga beruvchi bo'yicha alohida inventarizatsiya ro'yxatida aks ettiriladi va unda belgilangan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ravishda ijara beruvchining nomi va ijara muddati ko'rsatiladi.

Asosiy vositalar harakatining auditini o'tkazishda asosiy vositalar qabul qilinishi hisobi bo'yicha dastlabki hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligi hamda mashina va uskunalarining texnik pasportlaridagi yozuvlar tekshiriladi.

Kapital qo'yilmalar hisobidan yangi uskunalar olinganda, auditor ushbu operatsiyaning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va u kapital qo'yilmalar hisobi, o'rnatilishi lozim bo'lgan uskunalar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar schetlarida aks ettirilganligini tekshiradi. Shuningdek, auditor titul ro'yxatlari va loyiha-smeta hujjatlar mavjudligini ham tekshiradi. U kamchiliklarni aniqlab, uning sabablari va aybdor shaxslarni aniqlaydi hamda xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni belgilaydi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashni audit tekshiruvidan o'tkazayotganda auditorning vazifasi asosiy vositalarga nisbatan eskirishni hisoblash usullari to'g'ri qo'llanilganini tekshirish va tasdiqlangan meyorlariga rioya qilinayotganini nazorat qilishdan iborat.

Auditor tanlash usulida hisoblangan eskirish bo'yicha qaydnomalarni tekshiradi. Buning uchun u Bosh kitobdag'i asosiy vositalar eskirishi bo'yicha schetlardan hisoblangan eskirish bo'yicha eng ko'p farqlar bo'lgan oyni tanlab oladi. Auditor buning asoslanganligini tekshiradi. Agar eskirish noto'g'ri hisoblanganligi

hollari mavjud bo'lsa, aybdor shaxslar va sabablari, shuningdek, ushbu omillar xarajatlarga va foydaga ta'siri aniqlanadi.

Agar korxonada tezlashtirilgan eskirish qo'llanilsa, auditor u to'g'ri hisoblanganligi va qo'llanilganligini tekshiradi, chunki, tezlashtirilgan eskirish asosiy vositalarning faqat faol qismi uchun qo'llanilishi mumkin, bunda me'yor ikki barobardan yuqori ko'tarilishi mumkin emas. Audit o'tkazish jarayonida eskirishni hisoblashda asosiy vositalarning barcha ob'yektlari hisobga olinganligi, asosiy vositalar harakati hisobga olingan holda eskirish hisoblanganligi, eskirish me'yorlari to'g'ri qo'llanilganligi tekshiriladi.

Asosiy vositalar hisobdan chiqarilishi va tugatilishini tekshirish jarayonlarini ko'rib chiqamiz. Chiqib ketadigan asosiy vositalar ob'yektining qiymati balans hisobidan chiqariladi. Auditor asosiy vositalar quyidagilar natijasida korxona balansi hisobidan chiqarilishini tekshiradi: 1) tugatish; 2) sotish; 3) ayrboshlash; 4) tekinga berish; 5) ustav sarmoyasiga muassis ulushi sifatida berish; 6) uzoq muddatli ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha berish; 7) kamomad yoki yo'qotishning aniqlanishi; i) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchining chiqib ketishi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi va almashtirilishi bilan bog'liq foya va zararlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda to'g'ri aks ettirilganini tekshirish ham auditorning muhim vazifasi hisoblanadi.

Auditor asosiy vositalar hisobdan chiqarilishini tekshirish jarayonida hisobdan chiqarilish sababini, muomalaning maqsadga muvofiqligini va qonuniyligini aniqlaydi. Bunda asosiy vositalarni sotish uchun tuzilgan shartnomalar, hisobdan chiqarish dalolatnomalari, asosiy vositalarni qabul qilish - topshirish dalolatnomasi, analitik hisob ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Auditor asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda asos bo'lgan AV-1 va AV-3 shakllardagi dalolatnomalar ma'lumotlarini tekshirishi lozim. Bu dalolatnomalarda hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati va eskirish summasi aks ettiriladi. Auditor hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning inventar kartochkalari kartotekadan olinib, dalolatnomaga ilova qilinganligiga ishonch hosil

qilishi kerak. Shuningdek, asosiy vositalarning turgan o'rin bo'yicha inventar ro'yxatida ham tegishlicha qayd qilinganligi tekshiriladi.

Amaldagi schyotlar rejasи va uni qo'llash yo'riqnomasiga muvofiq, hisobdan chiqarilish sababidan qat'iy nazar (bepul berish, ustav kapitaliga hissa sifatida berish, moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha berish, tabiiy ofatlar va favqulodda holatlar, o'g'rilanish va kamomad) asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha barcha muomalalar 9210 «Asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi» schyotida aks ettiriladi.

To'liq amortizatsiya qilinmagan asosiy vositalarning realizatsiya qilinishidan ko'rilgan foyda (zarar) realizatsiya qilinadigan asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati, QQS hamda sotish xarajatlari va tushumlariga to'g'rilangan, oyning l-sanasiga hisoblangan eskirish o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Asosiy vositalar ob'yektni ishchi holatida saqlab turish ularni ta'mirlash (joriy, o'rtacha va kapital tarzda) asosida amalga oshiriladi.

Auditor ob'yektni ishchi holatida tutib turish va undan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydaning belgilangan boshlang'ich summasini olish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar ular daxldor bo'lган hisobot davridagi xarajatlar tarkibiga kiritilishini tekshiradi.

12.2. Nomoddiy aktivlar auditи xususiyatlari va undagi audit amallari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida nomoddiy aktivlarning tobora salmoqli ahamiyat kasb etib borayotganligini hisobga olgan holda, ularning hisobi to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va ulardan samarali foydalanilayotganligini auditorlik tekshiruvlaridan muntazam ravishda o'tkazib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Nomoddiy aktivlar auditи ham ularning hisobi kabi yetarli darajada shakl topmagan tadqiqot ob'yektlari jumlasiga kiradi.

Audit bunga vakolatli bo'lган shaxslar - auditorlar tomonidan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy hisobotining ishonchliligi hamda moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va

boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ekanligini aniqlash maqsadida mustaqil ekspertiza va tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va boshqa moliyaviy hisobotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini, ularning to'liqligi va aniqligini tekshirish demakdir.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, nomoddiy aktivlar auditining maqsadi - O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik asosida nomoddiy aktivlarning holati, harakati, baholanishiga ob'yektiv baho berishdan iborat. Bunda nomoddiy aktivlar hisobining ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Nomoddiy aktivlarni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlar quyidagilardan iborat: nomoddiy aktivlar ob'yektlari bo'yicha sotib olish-sotish (yaratish) shartnomalari, mualliflik shartnomalari, nomoddiy aktivlar ob'yektlari bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, foydalanish huquqi to'g'risida guvohnomalar, litsenziyalar, nomoddiy aktivlar ob'yekti ustav kapitaliga kiritilganligi va ular narxlari bo'yicha kelishilganligi to'g'risida bayonnomalar, nomoddiy aktivlarni hisobga olish bo'yicha inventar varaqalari, inventar daftarlari, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, hisobdan chiqarish dalolatnomalari, ta'sischilar majlisining bayonnomalari, amortizatsiya ajratmalarini hisoblash bo'yicha jadvallar, 0410-0490, 0510-0590, 9220, 6010, 4890-sonli va boshqa schetlar bo'yicha hisob registrlari (jurnal-orderlar, qaydnomalar, mashinogrammalar va boshqalar), Bosh kitob va boshqalar.

Nomoddiy aktivlarga taalluqli muomalalarni tekshirish uchun sintetik va analitik hisob registrlari qo'llaniladigan hisob shakllariga bog'liq holda foydalilanadi. Buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida nomoddiy aktivlarning sintetik hisobi jurnal-order va "nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasi" da yuritiladi.

Nomoddiy aktivlarni tekshirishda ularni baholanishining asoslanganligi, tashkiliy xarajatlarning turi va ularning maqsadga muvofiq tarkibi, eskirish hisoblash orqali qiymatining qoplanishga e'tibor beriladi.

Nomoddiy aktivlarning aks ettirilishini audit qilishda asosiy e'tibor, ularning balansda to'g'ri ko'rsatilishiga qaratiladi.

Tekshiruv jarayonida nomoddiy aktivlarni sotib olish bilan bog'liq muomalalar buxgalteriya hisobiga doir me'yoriy hujjatlar va soliqqa tortishga doir qonunchilik talablariga muvofiq hisobga olinganligi aniqlanadi.

Nomoddiy aktivlar kirimiga doir muomalalarni hisobda aks ettirish uslubi ularning olinish manbalariga bog'liq.

Kelib tushadigan nomoddiy aktivlarning qiymati korxona balansiga kiritilishi:

Debet 0410-0490 Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar;

Kredit 0830 Nomoddiy aktivlarni xarid qilish.

Barcha turdag'i nomoddiy aktivlarning dastlabki bahosi boshlang'ich qiymat bo'lishi kerak va ular buxgalteriya hisobiga ushbu qiymat bo'yicha qabul qilinadi.

Haq evaziga sotib olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

a) huquqdan voz kechish (sotib olish) shartnomasiga muvofiq huquq egasi (sotuvchi)ga to'langan summalar;

b) huquq egasining mutlaq huquqidan voz kechishi (sotib olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish yig'imlari, davlat bojlari, patent bojlari va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

v) bojxona bojlari va yig'imlari;

g) nomoddiy aktivlarni sotib olish munosabati bilan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar summalar (agar ular qoplanmasa);

d) nomoddiy aktivlarni sotib olish bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to'langan summalar;

ye) nomoddiy aktivlar ular orqali sotib olingan vositachilarga to'lanadigan haqlar;

j) asosiy vositalar ob'yektlarini yetkazib berish tavakkalchilagini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;

z) aktivdan maqsadga ko'ra foydalanish uchun uni yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar.

Sotib olingan nomoddiy aktivlarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar (akkreditiv ochish bo'yicha xarajatlar, o'tkazmalar uchun bankning vositachilik haqi, nomoddiy aktivlarni chet el valyutasiga sotib olish jarayonida valyuta konvertatsiyasi bo'yicha vositachilik haqi va bankning boshqa xizmatlari), sotib olish bo'yicha kontraktlarni tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar hamda aktivlarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lмаган boshqa xarajatlar nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo'lgan hisobot davrida davr xarajatlar sifatida tan olinishi kerak.

Agar shartnoma shartlarida to'lojni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, sotib olingan nomoddiy aktivlarga haq to'lash jarayonida haqiqiy xarajatlar buxgalteriya hisobiga dastlab tan olingan kreditorlik qarzi summasi bo'yicha qabul qilinadi.

Chet el valyutasida sotib olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati yuqorida haq evaziga sotib olish kabi nazarda tutilgan tegishli xarajatlarni hisobga olgan holda, sotib olish sanasidagi chet el valyutasidagi summalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblash yo'li bilan so'mda belgilanadi.

Korxona ustav kapitaliga ulush hisobiga olingan nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati agarda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, korxona muassislari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosi tan olinadi.

Boshqa mulklar singari nomoddiy aktivlarga taalluqli buxgalteriya ma'lumotlarining haqqoniyligi vaqtiga vaqtiga bilan o'tkazib turiladigan inventarizatsiya asosida tasdiqlanadi.

Nomoddiy aktivlarni inventarizatsiya qilish quyidagi vazifalarni hal etadi: ularning haqiqatda mavjudligini aniqlash; haqiqiy qoldiqni buxgalteriya hisob

ma'lumotlariga solishtirish yo'li bilan ularning butligini ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish.

Xususan, auditor inventarizatsiyada aniqlangan nomoddiy aktivlar kamomadi buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini va soliqqa tortilishini aniqlaydi.

Nomoddiy aktivlardan qancha muddatda foydalanish va ularga eskirish hisoblash zarurati haqidagi masalaga ko'pchilik davlatlarning ancha ehtiyyotkorlik bilan yondoshishi bu sohadagi mavjud xalqaro standartlarga muvofiq keladi. Chunki, hisobning xalqaro standartalari komiteti yoxud ishbilarmonlik aloqalari qiymati kapitallashtirishni, yoxud birdaniga korxonaning xususiy kapitali hisobiga hisobdan chiqarishga ruxsat beradi.

Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning to'rt usuli ko'zda tutilgan. Ular: to'g'ri chiziqli (yoki bir tekis); kamayib boruvchi qoldiq; ishlab chiqarish birliklari summasi bo'yicha amortizatsiya hisoblash (ishlab chiqarish usuli); kumulyativ son usul.

Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullarining mohiyati, korxona moliyaviy holatiga ta'sirini bilish va shu asosda malakali auditorlik xulosasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Amaliyotda amortizatsiya hisoblashning to'g'ri chiziqli usulidan foydalanish afzalroq. Qolgan usullardan muayyan holatlarda foydalanimishi maqsadga muvofikdir.

12.3. Tovar-moddiy zahiralar auditi xususiyatlari va undagi audit amallari

Sub'yeqtlar ishlab chiqarish faoliyatlarini amalga oshirish uchun ma'lum miqdorda tovar-moddiy zahiralariga ega bo'lishi kerak. Tovar-moddiy zahiralari xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi. Ularning tarkibiga materiallar, xom-ashyo, ehtiyyot qismlar va h.k lar kiradi.

Tovar-moddiy zahiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi-ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatalishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil

etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko'rsatkichlarining ishonchlilagini va tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Tovar-moddiy zahiralar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligini tekshirishda boshqa audit ob'yeqtlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahiralari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish (160-satr)», «Tayyor mahsulot» (170-satr), «Tovarlar» (180-satr) moddalari, Bosh daftар, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari o'rtasidagi tenglikni aniqlash zarur.

Shu bilan birga, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining muvofiqligiga ishonch hosil qilish muhimdir. Moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarish xarajatlariga olib borish va ularning baholarini tekshirish, ishlab chiqarishga sarflash me'yorlari va boshqalarni tekshirish zarur. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga da'vo qo'zg'atishning o'z vaqtidaligi va to'g'riliqi hamda yo'ldagi (sub'yeqtga yetib kelmagan) materiallar qoldig'inining haqqoniyligini ham tekshirish kerak.

Yo'ldagi moddiy qiymatliklarni tekshirishning vazifalari: yo'ldagi moddiy qiymatliklar sifatida hisobda turgan har bir jo'natishning asoslilagini aniqlash, yuklarni yetkazib berishi muddatlarining o'tib ketmaganligini aniqlash, xo'jalik tomonidan yuklarni qidiruv choralarining ko'rinishini aniqlash, bosh buxgalter va ta'minot xodimlari tomonidan yo'ldagi moddiy qiymatliklarni hisobga olish ustidan nazorat o'rnatilishi kabilarini aniqlashdan iborat. Bulardan tashqari hisob ma'lumotlarining haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga mos kelishi va tovar mahsulotlar ishlab chiqarish to'g'isidagi hisobotlarda qo'shib yozish faktlari kabi masalalar ham aniqlanadi. Tekshiruv jarayonida auditor qo'yidagilarni aniqlashi lozim:

- zahiralarning haqiqatda mavjudligi;
- zahiralar bilan bog'liq barcha muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va to'g'ri aks ettirilganligi;

-barcha zahiralar sub'yekt mulki ekanligi, ya'ni ularga mulkiy huquq mavjudligi, qarz sifatida aks ettirilgan summalar esa majburiyat ekanligi;

-zahiralarni va ular bilan bog'liq majburiyatlarni baholashning to'g'riliqi;

-tovar-moddiy zahiralarни hisobga olish tamoyillari to'g'ri tanlanganligi va qo'llanilishining to'g'riliqi.

Tovar-moddiy zahiralarni tekshirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalilanildi:

-moddiy qiymatliklarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va harakati bilan bog'liq me'yoriy hujjatlar;

-hisob siyosati to'g'risidagi buyruq;

-tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq muomalalarni rasmiylashtirishga doir dastlabki hujjatlar;

-tashkiliy-huquqiy hujjatlar va materiallar;

-tovar-moddiy zahiralarni hisobga olishga doir buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobotlari;

moddiy javobgar shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida tuzilgan shartnoma.

Auditor tekshiruv jarayonida tekshiruvning ushbu sohasi bo'yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. 4-sonli «Tovar-moddiy zahiralar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti talablariga muvofiq sub'yeqtning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olishning uslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim:

-asosiy vositalar bilan inventar va xo'jalik jihozlari o'rtasidagi chegaralar;

-tovar-moddiy qiymatliklarni sotib olish (tayyorlash)ni hisobga olish;

-tovar-moddiy qiymatliklarni ularning turlari bo'yicha hisobdan chiqarish natijasida baholash usullari.

Tovar-moddiy zahiralarini hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlar shakllari sub'yeqtidagi moddiy qiymatliklarning turlari va guruhlariga bog'liq.

Qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarda barcha zarur rekvizitlar bo'lishi shart. Bunday dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: moddiy qiymatliklarni olish uchun ishonchnomalar, kirim orderlari, materiallar, inventar va xo'jalik jihozlarini kirimga olish va hisobdan chiqarish dalolatnomalari, limit-zabor kartalari, talabnoma-yuk-xatilar, tovar-transport yuk-xatilari, ombor hisobi kartochkalari yoki daftari.

Tashkiliy-huquqiy hujjatlар va boshqa ma'lumot manbalariga quyidagilar kiradi:

-sub'yekt rahbarining buyrug'i (yoki farmoyishi), direktor kengashi majlisining bayonnomalari, ta'sischilar va boshqa hay'at yig'ilishi qarorlari. Agar sub'yekt ustav kapitalining miqdorini shakllantirish yoki o'zgartirish mobaynida ulush sifatida materiallar, inventar va xo'jalik jihozlari, tovarlar qo'shilgan bo'lsa, shuningdek, dividendlar yoki daromadlar moddiy qiymatliklar bilan to'lansa ushbu hujjatlarni o'rganish auditor uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi;

-sub'yektda o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlarining o'tgan yillardagi hisobotlari;

-tovarlar, materiallar, xom-ashyolar va hokazolarni yetkazib berish shartnomalari.

Tovar-moddiy zahiralar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq:

-mazkur tekshiruv uchastkasining yo'nalishlari bo'yicha hisob siyosatining qoidalarini o'rganish;

-tovar-moddiy zahiralarga doir ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini baholash. Buning uchun ombor xo'jaligi va omborxonalarining holatini tekshirib chiqish;

-moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hisobotlarini tuzish va belgilangan muddatlarda buxgalteriyaga topshirilishini o'rganish;

-tovar-moddiy qiymatliklarning hisobot sanasiga tarkibini tahlil qilish;

-tanlab inventarizatsiya qilinadigan ob'yektlarni aniqlash;

-tovar-moddiy zahiralar harakatini tahlil qilish;

-tovar-moddiy zahiralarni baholashning to'g'rilingini tekshirish;

-tovar-moddiy zahiralari sintetik va analitik hisobining tashkil etilishi hamda holatini tekshirish.

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish buxgalteriya hisobotida katta xatoliklarga yo'l qo'yish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun, tovar moddiy zahiralarni tekshirishni boshlashdan oldin, auditor eng ko'p uchraydigan qoidabuzarliklarni aniqlashi va shuni hisobga olgan holda zarur tekshiruv amallarini tanlashi kerak.

Tovar-moddiy zahiralari qoldiqlarini aks ettirish va sotilgan mahsulot tannarxini hisoblashning to'g'rilingiga ta'sir qiluvchi muomalalar quyidagilar natijasida yuzaga keladi:

a) moliyaviy hisobotning buzilishi:

-oldingi davrlarda hisobdan chiqarilgan, hamda foydalilik xususiyatlarini to'liq yoki qisman yo'qotgan moddiy qiymatliklar inventarizatsiya ma'lumotlariga qo'shilishi; yo'ldagi tovarlarni yoki sotib bo'lingan tovarlarni ikki marta hisobga olish;

-uchinchchi shaxslar omborida saqlanayotgan ishlab chiqarish zahiralari qoldig'ining oshirib ko'rsatilishi;

-komissiyaga qabul qilingan ya'ni balansdan tashqari schyotlarda hisobda turgan tovar-moddiy zahiralari ham inventarizatsiya ma'lumotlariga qo'shilishi va shunga o'xshashlar;

b) suiiste'molliklar:

-sub'yeqtning bir necha hodimlari hatti harakati yoki saqlash ustidan yetarli nazorat o'rnatilmaganligi oqibatida qiymatliklarning o'g'irlanishi;

-olangan tovarlar hujjatlarda ko'rsatilganidan kam yoki sifatsiz bo'lsa, ularni qabul qilish uchun mas'ul shaxslarning mol yetkazib beruvchilardan pora (pul yoki sovg'a ko'rinishidagi buyum) olish hollari;

-haqiqatda yo'q xaridorlarning rekvizitlarini ko'rsatish yo'li bilan jo'natish hujjatlarini qalbakilashtirish.

Muomalalarni hisobda aks ettirmaslik ko'pincha, kreditor qarzlarni tekshirish mobaynida aniqlanishi mumkin.

Tovar-moddiy zahiralari saqlanishi va kirimini tekshirish tartiblari bilan tanishib chiqamiz

Ombor xo'jaligining ahvoli va tovar-moddiy zahiralar saqlanishini tekshirish eng muhim auditorlik amallaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sub'yekt faoliyatining ushbu sohasini har tomonlama o'rganish uchun auditor omborlar, sexlar va ishlab chiqarish zahiralari saqlanadigan boshqa joylarni tekshiradi.

Audit jarayonida moddiy qiymatlikdarni qabul qilish, saqlash va berishga aloqador xodimlarning moddiy javobgarliklarini tashkil etishga maxsus e'tibor qaratiladi. Tovar-moddiy zahiralarni saqlash joylarini ko'zdan kechirish mobaynida moddiy javobgar shaxslardagi hujjatlar bo'yicha ular qiymatliklarni qabul qilish va berishni rasmiylashtirish, hamda omborxona hisobi daftari yoki kartochkalariga yozishni o'z vaqtida amalga oshirilayotganligi tekshiriladi.

Tovar-moddiy zahiralarining to'liq kirim qilinishini tekshirish mobaynida auditor mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarning shakllari va shartlarini, tanlangan baholash usulini, sotib olingan qiymatliklar bo'yicha QQS ni qoplash tartibini hisobga olishi zarur.

Tovar-moddiy zahiralarining tushumi va kirim qilinishi mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kuzatib boruvchi hujjatlar (tovar-transport yuk xatlar, schyot-fakturalar, qodoqlash yorliqlari, sifat guvohnomasi, qabul kvitansiyasi va boshqalar) asosida tekshiriladi.

Omborxona kirim hujjatlarini mol yetkazib beruvchilarning kuzatib boruvchi hujjatlari yoki materiallarni chakana savdoda naqd pulga sotib olish hujjatlari bilan solishtirish omborxonada sodir bo'lган kirim muomalalarini tekshirishning umumiy usuli hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralari auditida ularning to'g'ri baholanganligini tekshirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarini baholashning to'g'riliqi ko'p jihatdan ularning analitik va sintetik hisobini tashkil etish hamda yuritishga bog'liq. Shuning uchun auditor 1010-1090 schyotlar bo'yicha moddiy qiymatliklar hisobi, ularning har bir turi bo'yicha hamda iste'mol xossalariiga ko'ra (navi, markasi, konditsiyasi va hokazo) yuritilishini, moddiy qiymatliklarning iste'mol xossalariiga qarab ularning har biriga nomenklatura raqamlari berilganligi va ularning dastlabki hujjatlarda hamda omborxona hisobida ko'rsatilishini tekshirishi lozim.

Agar ishlab chiqarish zahiralari hisob baholari bo'yicha hisobga olinsa, ushbu baholar va sotib olingan materiallarning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farqlarni tovar-moddiy zahiralarning turlari o'rtasida taqsimlash ishlari audit ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

Haqiqiy tannarxini aniqlash mobaynida ishlab chiqarish zahiralarini baholashning quyidagi usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi bo'yicha.
2. O'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha (AVECO).
3. Birinchi xarid qilingan tannarx bo'yicha (FIFO).

Shuningdek auditor tovar-moddiy zahiralarini samarali ishlatilishini ham tekshiradi. Tovar-moddiy zahiralarini ishlab chiqarish va boshqa maqsadlarda ishlatilishini tekshirish uchun auditor texnologik jarayonlarning xususiyatlari, hamda moddiy qiymatliklarni ombordan ishlab chiqarishga berish tartibi bilan batafsil tanishishi lozim. Chunki, ushbu tartib buzilganida ko'plab kamchiliklar va hatto suiiste'mol qilishlar yuzaga keladi.

Tovar-moddiy zahiralarini ishlab chiqarishga berilishi, dastlabki va yig'ma chiqim hujjatlari asosida tuziladigan, materiallar sarflanishi hisobga olinadigan yig'ma qaydnoma bo'yicha tekshiriladi.

Tovar-moddiy zahiralar aktivlarning boshqa har qanday turiga qaraganda xo'jalik faoliyatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Tekshiruv natijalarini umumlashtirib, auditor ishchi hujjatlarida to'plangan dalil-isbotlarni bir tizimga keltirishi zarur. Muntazam yo'l qo'yib kelingan qoidabuzarliklar bo'yicha aniqlangan xatoliklarni

to’liq tekshirishga tadbiq qilish zarur. Tafovutlarning katta-kichikligi, tanlov ko’lami va xatoliklarning muntazam sodir bo’lishini hisobga olgan holda aniqlanadi. Auditor tovar-moddiy zahiralarini inventarizatsiyadan o’tkazish tartibini ham tekshiradi. Tovar-moddiy zahiralarini inventarizatsiyadan o’tkazish tartibi 19-son BHMSda belgilab berilgan. Unga ko’ra, inventarizatsiyaning asosiy maqsadi mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan qiyoslash, majburiyatlar hisobda to’g’ri aks ettirilganligini tekshirishdir. 19-son BHMS ga binoan tovar-moddiy zahiralar har chorakda kamida bir marta inventarizatsiya qilinadi.

12.4. Pul mablag’lari auditining xususiyatlari va undagi audit amallari

Pul mablag’lari auditining asosiy maqsadi-korxona kassasidagi milliy (5010) va xorijiy valyutadagi (5020) naqd pul mablag’larini, bankdagi hisob-kitob (5110), valyuta (5200) schyotlari va boshqa maxsus (5500), pul ekvivalentlari (5610) hamda yo’ldagi pul (o’tkazmalari) mablag’lari (5710) schyotlariga doir muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o’tkazib, moliyaviy hisobotning “Pul mablag’lari” bo’limi bo’yicha ma’lumotlarning ishonchliligi va bankdagi schyotlarda pul mablag’larini hisobga olish uslubiyotining O’zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me’yoriy hujjatlarga muvofiqliligi to’g’risida xulosa bildirish, ularni saqlanishi va ishlatalishining maqsadga muvofiqligi, buxgalteriya hisobida to’g’ri aks ettirilishi hamda qonuniyligini ta’minlashdan iborat.

Ushbu maqsadni amalgalash uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

- inventarizatsiya o’tkazish yo’li bilan kassadagi mavjud pul mablag’lari, qimmatli qog’ozlar miqdori va summalarining haqiqiy qoldig’ini aniqlash;
- kassa muomalalarini hisobga olishda “Yuridik shaxslar tomonidan kassa muomalalarini amalgalash qoidalari” ga rioya qilinayotganligini aniqlash;
- bank muassasasidagi hisob-kitob, valyuta va boshqa maxsus schyotlar bo’yicha amalgalash muomalalarini tekshirib chiqish;
- o’tkazilgan tekshirish asosida oraliq dalolatnoma tuzish va xulosa qilish.

Tekshirish maqsadlari va foydalanadigan ma'lumot manbalari pul mablag'lari turlaridan kelib chiqqan holda farqlanadi.

Chunonchi, kassa operatsiyalari auditida tekshiruv maqsadi quyidagilarga rioya qilinganligini aniqlashdan iborat:

-naqd pul va boshqa boyliklar kassada but saqlanishi, ularni bankdan olib kelishda saqlash sharoitlariga;

-cheq daftarchalari belgilangan tartibda saqlanishi, chekdan ko'chirmalar va ular bo'yicha pul olish tartibiga;

-kassaga pul kirim qilish va undan pul berish operatsiyalarini hujjatli rasmiylashtirish qoidalariga;

-kassada naqd pul limit chegarasida saqlanishi hamda xizmat safarlari, xo'jalik xarajatlari va boshqa ehtiyojlar uchun hisobotli pul berilishiga;

-banklardan, yuridik va jismoniy shaxslardan naqd pul va naqdsiz tushumlar o'z vaqtida va to'liq kirim qilinishiga;

-kassa operatsiyalarini amalga oshirishda kassa intizomiga rioya qilinishiga;

-kassa operatsiyalari hisobi va kassa daftarini yuritish, kassada saqlanayotgan boshqa boyliklar bo'yicha tahliliy hisob daftarlari yuritilishiga;

-jo'natilgan mahsulot (ish, xizmat)lar va boshqa moddiy boyliklar uchun yuridik shaxslar bilan naqd pul orqali hisob-kitob qilish tartibiga;

-banklardan chek orqali olingan naqd pul maqsadga muvofiq ishlatalishiga;

-ish kuni yakunlangandan keyin limitdan ortiq bo'lgan naqd pul banklarga to'liq qaytarilishiga;

-ishonch qog'ozlari rasmiylashtirilmasadn turib begona shaxslarga naqd pul berish holatlari mavjudligiga va h.k.

Kassa operatsiyalarini tekshirishda auditning ma'lumot manbasi quyidagilar hisoblanadi:

-naqd pullarni kirim qilish va berish bo'yicha dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish (kirim (KO-1 sh.) va chiqim (KO-2 sh.) kassa orderlari);

-kassa daftari (KO-4 sh.), kirim va chiqim kassa hujjatlarini ro'yxatga olish daftari (KO-3 sh., KO-Za sh.);

-kassa hujjatlariga oid dastlabki tasdiqlovchi hujjatlar;

-5010-«Milliy valyutadagi pul mablag'lari», 5110-«Hisob-kitob scheti», 5610-«Pul ekvivalentlari» (turlari bo'yicha), schetlari, 006-«Qat'iy hisobot blankalari» balansdan tashqari scheti va boshqa hisob-kitob schetlari bilan korrespondensiyalangan schetlar bo'yicha hisob registrlari, balanslar va boshqa hisobot shakllari.

Yana bir guruh olimlarning fikrlariga ko'ra, ushbu muomala bo'yicha auditning birinchi galdeg'i vazifasi quyidagicha, "Kassada amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari audit nazoratida birinchi bajariladigan vazifa kassadagi naqd pullar holatini nazorat o'tkazilayotgan kun holatiga dalolatnama bilan rasmiy lashtirishdir. Kassadagi pul mablag'larining audit uchun asosiy manba bo'lib, kirim-chiqim kassa orderlari, kassa kirim-chiqim orderlarini ro'yxatga olish daftari, kassa daftari, kassir hisoboti sanaladi".

Kassa muomalalarini tekshirish. Kassa muomalalari odatda, kassir, bosh buxgalter yoki unga vakolatli shaxs ishtirokida kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya qilishdan boshlanadi. Korxonada bir nechta kassa mavjud bo'lgan hollarda pul qoldig'inining kamomadi bo'lgan taqdirda, uni boshqa kassa hisobidan qoplanishi, kassa daftaridagi qoldiqni o'zgartirish mumkinligini oldini olish maqsadida auditor boshqa kassa eshiklarini muhrlab qo'yadi.

Auditor kassirdan inventarizatsiya o'tkazish vaqtigacha bo'lgan kassa muomalalari bo'yicha kassa hisobotini talab qiladi. Shuningdek, barcha kirim va chiqim hujjatlari uning tomonidan hisobotga kiritilganligi va inventarizatsiya vaqtiga kelib kassaga kirim qilinmagan va hisobdan chiqarilmagan pul mablag'lari yo'qligi to'g'risida tilxat berishi lozim.

Shundan keyin kassir, pul kupyuralarini guruhlashtirishni boshlaydi hamda auditor va bosh buxgalter ishtirokida ularni to'la hisob-kitobini o'tkazadi, bank muassasasidan olingan muhrlangan pul mablag'lari ham sanoqdan o'tkazilishi

kerak.

Auditor shunga ahamiyat berishi kerakki, kassa chiqim orderida yoki uning o’rnini bosadigan boshqa hujjatda pul oluvchining tilxati bilan tasdiqlanmagan kassa pullarini berish, kassadagi naqd pul qoldig’ini qoplashga qabul qilinmaydi. Kassa kirim orderlari bilan tasdiqlanmagan naqd pullar ortiqcha pul sifatida kirim qilinadi. Xo’jalik yurituvchi sub’yekt rahbari va bosh buxgalteri imzosi bilan tasdiqlanmagan kassa chiqim hujjatlari, kassadan vaqtinchalik pul olinganligini bildiruvchi tilxat va shunga o’xhash boshqa hujjatlar inobatga olinmaydi va kamomad deb hisoblanadi.

Auditor to’g’ri rasmiylashtirilgan kassa hujjatlarini kassirga hisobot tuzish va unda tekshiruv paytida bo’lgan qoldiqni ko’rsatish uchun beradi. Tekshiruv paytida kassada ish haqi to’liq tarqatilib ulgurmagan qaydnomalar bor bo’lsa, auditor bosh buxgalter va kassirga qaydnomalarni belgilangan tartibda hisobotga qo’shishni taklif etadi. Agarda kassani tekshirish, ish haqi tarqatish davriga to’g’ri kelib, ko’p xodimlarga ish haqi tarqatilmagan qaydnomalar bo’lsa, bunday qaydnomalar kassir hisobotiga qo’shilmasdan, dalolatnomada kassa hisobotiga kiritilmagan, qisman to’langan chiqim hujjatlari (to’lov qaydnomalari) sifatida yozib qo’yilishi mumkin. Bu holda har bir to’lov qaydnomasida qaysi tartib raqami bo’yicha ish haqi berilganligi va uning jami summasi ko’rsatiladi. Ushbu yozuv kassir, bosh buxgalter va auditor imzolari bilan tasdiqlanadi.

Auditor kassadagi pul mablag’larini tekshirish bilan birga ayni paytda seyflar (yonmaydigan shkaflar), kassaning jihozlanishi, ish kunining oxirida kassa eshiklari va seyflar (shkaflar) muxrlanishi, signalizatsiya o’rnatilganligi va uning ishlashi, kassani qo’riqlishning tashkil etilishi, kassir “olindi”, “to’landi” degan shtamplar bilan ta’minlanganligi ham tekshiriladi.

Auditor bankdagi hisob-kitob schyotidan olingen pullarni to’liq va o’z vaqtida kirim qilinganligini tekshirishda muomalalarni o’zaro taqqoslash usulini qo’llaydi. Bunda, I-sonli jurnal orderining qaydnomasi tomonida 5010 “Milliy valyutadagi pul mablag’lari” schyotining debeti bo’yicha aks ettirilgan summalarini 2-sonli jurnal-orderda aks ettirilgan 5110 “Hisob-kitob schyoti” ning kredit oborotlari bilan

solishtiriladi, ular bir-biriga to'g'ri kelishi shart. To'g'ri kelmaslik hollari uchraganda summalar kassa kirim orderlari, bank ko'chirmalari, kassir hisobotlari, cheklar koreshoklari bilan solishtiriladi, zarur hollarda esa bevosita bank muassasasida tekshiriladi.

Agar bank ko'chirmalarida chiqarilgan, to'g'rilaqan, shuningdek qoldiqlar to'g'ri kelmasa, bankdagi hisob-kitob schyotidan ishonchli ko'chirmani olish zarur.

Kassa muomalalarini tekshirishda kassa hisobotiga ilova qilingan hujjatlarning quyidagi shakllaridan foydalilanadi: KO-3 yoki KO-3a shakl. "Kirim va chiqim kassa hujjatlarini ro'yxatga olish jurnali", ordersiz rasmiylashtiriladigan pul kirimi hujjatlari, KO-4 shakl "Kassa daftari", KO-5 shakl "Kassir tomonidan qabul qilingan va berilgan pullarni hisobga olish daftari", 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari", 5020—"Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari", 5520—"Chek daftarchalari", 5610—"Pul ekvivalentlari", 5710—"Yo'ldagi pul mablag'lari" va 58I0—"Qimmatli qog'ozlar" schyotlari yuritiladigan hisob registrlari (Jurnal-orderlar, qaydnomalar, daftarlar, Bosh daftar, tegishli sanaga tuzilgan balanslar va boshqalar).

Hisob-kitob schetidagi pul mablag'lari harakatini tekshirish. Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit schetlar hamda depozit schetlarning boshqa turlarini ochish huquqiga egalar.

Yo'riqnomaga muvofiq, bank scheti deganda, bank scheti shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (schet egasi) schetiga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning schetidagi tegishli mablag'larni o'tkazish va berish hamda schet bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishlarni bajarish vazifasini o'z zimmasiga olishi natijasida bank bilan mijoz o'rtaida vujudga keladigan munosabatlar tushuniladi.

Bank schetlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) talab qilib olinguncha (asosiy va ikkilamchi) depozit schetlar;
- b) jamg'arma depozit schetlar;

- v) muddatli depozit schetlar;
- g) depozit schetlarning boshqa turlari (akkreditivlar bo'yicha muddatsiz, foizsiz depozitlar va shu kabilar);
- d) ssuda schetlari.

Mijoz tomonidan har qanday schet ochilayotganda bank schetiga xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi.

Bank scheti shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ye ktning birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit scheti uning asosiy scheti hisoblanadi.

Mijozlar qonunchilik asosida bir yoki bir necha banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schetlari ochishlari mumkin.

Mijozlar tomonidan schetlar ochish uchun bankka zaruriy hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab, banklar ikki bank ish kuni mobaynida ularga schetlar ochishlari shart.

"Auditor bankdagi schyotlarga doir muomalalar auditini bankdagi milliy va chet el valyutasidagi pul mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda ularga ilova qilingan soliq hisobotini tekshirishdan boshlaydi. Bunda dastavval bankda ochilgan schyotlar soni va raqami hamda qaysi bankda ochilganligi aniqlanadi. Bu ma'lumotlar auditorga barcha schyotlar bo'yicha bank ko'chirmalarini va har bir schyot bo'yicha hisob registrlarini tekshirish uchun kerak bo'ladi.

So'ngra auditor korxona va bank o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuridik asoslarini aniqlaydi, bank xizmati ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi normalariga muvofiqligini tekshiradi.

Bankdagi schyotlar bo'yicha pul mablag'lari kirimi va chiqimiga doir muomalalar bankda tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu dastlabki hujjatlarning shakllari va to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki yo'riqnomalarida belgilangan. Bunday hujjatlarga quyidagilar kiradi:

-bank ko'chirmalari (bank tomonidan tasdiqlanib ilova qilingan hisob-kitob to'lov hujjalarning shakllari bilan);

-to'lov topshiriqnomasi;

-to'lov talabnomasi;

-to'lov orderi;

-inkasso topshiriqnomasi (farmoyishi);

-hisob-kitob schyotiga naqd pul topshirish uchun ariza;

-valyutani majburiy sotish uchun topshiriqnomasi;

-valyuta sotib olish uchun topshiriqnomasi;

-rezidentning sotib olingan valyutani so'mga aylantirish to'g'risidagi farmoyishi va boshqalar;

-bank hisob-kitob hujjalaringa ilova qilinadigan va amalga oshirilgan muomalalarining qonuniyligini asoslovchi dastlabki hujjalar.

Valyuta schetidagi pul mablag'lari harakatini tekshirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar nafaqat milliy valyutadan, balki O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq, chet el valyutasidagi pul mablag'laridan ham foydalanishlari mumkin.

Xo'jalik sub'yektlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schetlari to'g'risida" yo'riqnomaga muvofiq xorijiy valyutada talab qilib olinguncha depozit schetlarini hamda ikkilamchi talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit schetlarning xorijiy va milliy valyutadagi turlarini ochishi mumkin. Auditor tomonidan ushbu holatlar ham e'tiborga olinadi va amalda mavjud bo'lgan qonunchilikka, hamda belgilangan talablar asosida tekshiruvni o'tkazadi.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda korxonalarida auditorlik tekshiruvi boyicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish madsadida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, joriy

aktivlar auditining xususiyatlari va undagi audit amallari boyicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Asosiy vositalarning auditini asosiy vazifalari bo'lib nimalar hisoblanadi?
2. Auditor asosiy vositalarni tekshirishda qanday reja tuzishi zarur?
3. Asosiy vositalar auditida qanday ma'lumot manbalaridan foydalaniladi?
4. Asosiy vositalar hisobini tekshirishda auditor asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan odatiy xatoliklar qatorini keltiring.
7. Asosiy vositalar harakati bo'yicha operatsiyalarni auditorlik tekshiruvida nimalarga alohida e'tibor qaratish lozim?
8. Asosiy vositalar analitik hisobining tashkil etilishi qanday tekshiriladi?
9. Asosiy vositalarga eskirishni to'g'ri hisoblanishini auditorlik tekshiruvi jarayonida nimalarni aniqlash lozim?
10. Nomoddiy aktiv deb nimaga aytildi?
11. Nomoddiy aktivlar auditining manbalari sifatida qaysi hujjatlardan foydalaniladi?
12. Nomoddiy aktivlar auditining rejasi qaysi standartga asosan tuziladi?
13. Tovar-moddiy zahiralar mavjudligi va saqlanishi qanday tekshiriladi?
14. Tovar-moddiy zahiralarni omborxonada boshqa saqlash joylaridagi hisobi qanday tekshiriladi?
15. Tovar-moddiy zahiralarni sotilishi va boshqacha tarzda hisobdan chiqarilishi qanday tekshiriladi?
16. Pul mablag'lari auditida qanday ma'lumot manbalaridan foydalaniladi?
17. Kassa, hisob-kitob scheti, valyuta scheti va boshqa maxsus schetlarni tekshirishda qanday me'yoriy hujjatlar qo'llaniladi?
18. Kassa muomalalari auditi qanday amalga oshiriladi? Uning kassani taftish qilishdan farqi nimada?
19. Hisob-kitob scheti bo'yicha muomalalarni tekshirish qanday amalga oshiriladi?

13-BOB. MAJBURIYATLAR AUDITI

O'quv maqsadi: hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari, ma'lumot manbalari, mehnat haqqi bo'yicha, hisobdor shaxslar bilan, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditining amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch so'zlar: *hisob-kitoblar, mehnat haqqi, hisobdor, pudratchilar, xaridorlar, buyurtmachilar, da'volar, bo'naklar, sug'urta, ta'minot, debtor, kreditor.*

13.1. Hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari, ma'lumot manbalari

Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar o'z faoliyatini quyidagi iqtisodiy sub'yeqtalar va davlat muassasalari bilan munosabat asosida yuritadi:

mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar; xaridorlar va buyurtmachilar; turli debtorlar va kreditorlar; hisobdor shaxslar; banklar; soliq idoralari; investorlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan sub'yeqtalar bilan munosabatlar o'zaro hisob - kitob operatsiyalariga asoslanadi. Korxonada hisob – kitob operatsiyalari esa debtorlik va kreditorlik qarzlarini so'ndirish asosida yuzaga keladi.

Korxonalarda hisob – kitob operatsiyalari quyidagi usullarning biri asosida amalga oshiriladi:

naqd pulsiz hisob-kitob usuli;

naqd pul bilan hisob – kitob usuli;

o'zaro hisob-kitoblar usulida (agar tizim ichidagi hisob-kitoblar mavjud bo'lsa).

Hisob-kitoblar yuzasidan audit tekshiruvining bosh maqsadi-korxona operatsion yil davomida iqtisodiy sub'yeqtalar bilan amalga oshirgan operatsiyalari natijasida yuzaga kelgan debtorlik va kreditorlik qarzlari va ular bo'yicha yuqorida keltirilgan usullar asosida hisoblashishlar BHMSga asosan, o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq tartibda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilganligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Ushbu jarayonda auditor tomonidan audit tekshiruvidan o'tayotgan

korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari qonuniy asosda vujudga kelganligi, qoplanish imkoniyatining mavjudligi (haqiqiy qiymatda aks ettirilganligi), korxona egaligidagi kredit mablag’lari kreditorlar bilan kelishilgan maqsadlarga, qonunni chetlamagan holda sarflanayotganligi, shuningdek, kredit summasi va kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z vaqtida qaytarilish imkoniyati o'rganiladi va baholanadi.

Auditor tomonidan hisob – kitob operatsiyalarini audit tekshiruvidan o'tkazish jarayonida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lган masala – korxona va "bog'liq taraflar" o'rtasida amalga oshirilgan operatsiyalar hisoblanadi. Chunki, bu tur operatsiyalar ba'zan qarz beruvchi (korxona)ning emas, balki qarz oluvchi (rahbariyat)ning manfaatini ko'zlab, korxona uchun foydasiz shartlar asosida amalga oshirilgan bo'lishi va bu qarzlarning qaytarilishi rahbariyat "ixtiyoriga havola" etilgan bo'lishi mumkin. Bu esa korxona moliyaviy hisobotlarida firibgarlikka yo'l qo'yilish ehtimolini oshiradi.

Hisob–kitob auditini o'tkazish jarayonida auditor vazifalari qatoriga balans hisobotida aks ettirilgan debitorlik va kreditorlik qarzlari va ular bo'yicha hisob-kitoblar summasi to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish bilan bir qatorda, balans hisobotining shu elementlar ishonchli bo'lishi va moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlashi lozim bo'lган ichki nazorat tizimining sifatini tekshirish va baholash ham kiradi. Chunki, hisob-kitoblar yuzasidan oqilona ichki nazoratning tashkil etilishi hisob-kitob va shartnomaviy intizomning mustahkamlanishiga, debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha hisob kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga xizmat qilishi orqali, korxona egaligidagi joriy aktivlarning yuqori aylanuvchanligini ta'minlashga, xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan o'zaro ishonchga asoslangan, uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishga va shu orqali korxona moliyaviy holatini yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

Hisob – kitob operatsiyalari yuzasidan audit tekshiruvini o'tkazish jarayoni umumiy ko'rinishda quyidagi olti bosqichdan iborat:

- debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;
- buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan debitorlik va kreditorlik qarzlari haqiqatdan ham mavjud va ular bo'yicha hisob-kitoblar haqiqatdan ham ro'y bergenligiga ishonch hosil qilish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarining barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda ular bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari yuzasidan arifmetik amallar to'g'ri bajarilganligini o'rganish;
- balans hisobotida debitorlik va kreditorlik qarzlari haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash;
- balans hisobotida debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'ri guruhlashtirilganligiga va agar zarurat bo'lsa, ular bo'yicha zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar ilovalarda to'liq va to'g'ri keltirilganligiga ishonch hosil qilish.

Debitorlik qarzlarining amalda mavjudligi yuzasidan audit tekshiruvi korxonaning debitorlik operatsiyalari bo'yicha hujjatlashtirish tizimi va hujjatlarga nisbatan ichki nazorat tizimini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Hisob-kitoblar auditining rejasi va dasturini tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Xususan, rejorashtirish audit tekshiruvini o'tkazishning dastlabki bosqichi hisoblanib, moliyaviy hisobot elementlariga nisbatan audit tekshiruvining yakuniy maqsadini ifodalaydi. Ushbu maqsad "audit rejasi" nomli ishchi qog'ozda o'z ifodasini topadi. Auditorlik tashkilotlarida ushbu hujjat katta auditor tomonidan tayyorlanadi va tekshiruvda ishtirok etayotgan yordamchi auditorlarga tarqatiladi. Audit rejasining shakli va hisob-kitob operatsiyalari yuzasidan audit rejasida aks ettiriladi.

Rejalashtirish jarayonida kutilayotgan audit tekshiruvining hajmi, muddatlari belgilanadi, shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning moliyaviy hisoboti yuzasidan xolis va asosli fikr shakllantirilishi

uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan umumiy auditorlik amallari (protseduralar)ning turi belgilanadi. Rejalashtirish jarayoni "audit dasturi" nomli ishchi hujjat tayyorlanishi bilan o'z nihoyasiga yetadi. Audit dasturi audit rejasining kengaytirilgan shakli bo'lib, audit rejasida tekshiruv yuzasidan belgilangan yakuniy maqsadga erishilishi uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar batafsил yoritiladi. Boshqacha qilib aytganda, audit dasturi audit rejasiga erishish vositasidir.

13.2. Mehnat haqqi bo'yicha hisob-kitoblar auditи

Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar auditorlik tekshiruvining maqsadi mehnat munosabatlariga tegishli bo'lgan amaldagi qonunchilikka riosa qilinishi, ish haqi va turli xil qo'shimcha to'lovlar va mukofotlar, shuningdek, ish haqidan soliqlar va ijtimoiy ehtiyojlar uchun to'lovlar to'g'ri hisoblanishi ustidan nazorat qilishdan iborat.

Auditorlik tekshiruvining vazifalari quyidagilardir:

mehnat to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga riosa qilinishi va mehnat aloqalariga oid ichki nazorat holatini tekshirish;

dastlabki hujjatlar asosida ish haqi va turli xil mukofotlar va qo'shimcha to'lovlar to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;

ish haqi va boshqa to'lovlardan daromad solig'i va turli chegirmalar to'g'ri ushlab qoltinganligini tekshirish;

mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarga oid schetlarning to'g'ri korrespondensiyalanganligini tekshirish.

Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni tekshirish uchun ma'lumot manbasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxona rahbarining xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, mehnat shartnomasini bekor qilish, boshqa ishga o'tkazish, mehnat ta'tili berish to'g'risidagi buyruqlari va farmoyishlari; xodimlar jadvali, huquqiy-fuqarolik tavsifdagi shartnomalar, kontraktlar va mehnat shartnomalarining boshqa shakllari; ish haqi, mukofotlar va rag'batlantirishlarni hisoblashga asos bo'lgan dastlabki hujjatlar (xususiy varaqlar, ish vaqtidan foydalanilganligini hisobga olish tabellari, naryadlar, bildirishnomalar,

marshrut varaqalari, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar, to'lov qaydnomalari, yo'l varaqalari, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi to'g'risidagi varaqalari, qo'shimcha haq to'lash varaqalari, ijro varaqalari, hisob-kitob va hisob-kitob-to'lov qaydnomalari va boshqalar) hamda buxgalteriya hisobining registrlari, ish haqi turlari va shifrlar bo'yicha taqsimlaydigan yig'ma qaydnomalar, 8, 10-sonli jurnal-orderlar, mashinogrammalar, Bosh kitob, balans va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari.

Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining rejasi va dasturini tayyorlash auditorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Quyida xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisob-kitoblarga doir auditorlik tekshiruvi dasturining namunaviy ko'rinishi keltirilgan.

Xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisob-kitoblarga doir auditorlik tekshiruv dasturi

| T.r | Muolajalar ro'yxati | Ma'lumotlar manbasi |
|------------|--|--|
| 1 | 2 | 3 |
| 1 | Ishbay ishlovchi xodimlar ish mahsuli hisobining tashkil etilishi va nazorati hamda ish haqi hisoblanishini tekshirish | Naryadlar, marshrut varaqalari, tabellar, ish mahsuli meyorlari, ishbay haqlar |
| 2 | Vaqtbay va boshqa haq to'lash turlari bo'yicha hisoblarni tekshirish | Tasdiqlangan tarif stavkalari, lavozim maoshlari, tabellar |
| 3 | Ish haqidan ushlab qolishlar bo'yicha hisoblarni tekshirish | Hisob-kitob-to'lov qaydnomalari, jurnal-orderlar, buyruqlar va boshqalar |
| 4 | Xodimlar bo'yicha tahliliy hisob yuritilishini tekshirish | Shaxsiy schetlar, qaydnomalar, mashinogrammalar |
| 5 | Mehnatga haq to'lash bo'yicha schetlar to'g'ri korrespondensiyalanganligi va yig'ma hisobni tekshirish | Qaydnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar |
| 6 | Ijtimoyi ehtiyojlar bo'yicha to'lovlar to'g'ri hisoblanganligini tekshirish | To'lov qaydnomalari, yoritib yozishlar, mashinogrammalar |
| 7 | Ish haqi bo'yicha deponentlangan summalarini tekshirish | Deponent varaqlari, deponentlangan ish haqini hisobga olish daftari |

13.3. Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish

Ishbay ishchilarning ishlab chiqarish hisobini tashkil etish va nazorat qilish hamda ish haqini hisoblash bo'yicha audit o'tkazganda auditor dastlabki hujjatlar: naryadlar, marshrut xaritalar, yo'l varaqalar, ish mahsuliga oid qaydnomalar, bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnomalar va boshqalarni, korxonada ish mahsullari va ishbay haqlar ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligini, dastlabki hujjatlarda barcha tegishli rekvizitlar mavjud ekanligini tekshirishi lozim.

Vaqtbay mehnatga haq to'lashda tarif stavkalar va kontraktlar sharti to'g'ri qo'llanilganligi tekshiriladi. Ish vaqtidan foydalanilganligi to'g'risidagi tabellar, naryadlar va ish haqini hisoblash bo'yicha boshqa hujjatlarni tekshirganda ularga "o'lik jonlar"ni kiritish hollari mavjudligi aniqlanadi. Buning uchun naryadlarni berilgan sanasi bo'yicha tahlil qilish, naryaddagi va ish vaqtini hisobga olish tabellardagi ishchilar familiyalarini xodimlar bo'limidagi shaxsiy tarkibni hisobga olish ma'lumotlari bilan solishtirish lozim. Dastlabki hujjatlar bo'yicha avval to'langan summalar qayta hisoblanganligi, aynan bir shaxslar familiyalari bir necha marotaba turli hisob-kitob-to'lov qaydnomalariga kiritilganligi holatlari tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi vaqtida xodimlarni rag'batlantirishga qaratilgan turli to'lovlari: ma'lum bir davrda ishlaganligi natijasiga ko'ra mukofotlar, tovon tavsifidagi ish vaqtidan tashqari yoki tunda ishlaganligi uchun qo'shimcha to'lov va ustama haqlar, ishlamagan vaqt, mehnat ta'tili, vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik va boshqalar uchun to'lovlari hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirilganiga alohida e'tiborni qaratishi lozim. Bunda auditor har bir korxonada ichki moddiy rag'batlantirish va turli qo'shimcha to'lovlari va mukofotlarni hisoblash to'g'risida ichki Nizom ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo'lishi kerakligini unutmasligi zarur. Mukofotlarni hisoblash rahbar buyrug'i bilan rasmiylashtirilishi va mukofotlash to'g'risidagi ichki Nizomning tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida ish haqi hisoblanishi va hisob registrlarida ko'rsatilgan ish haqidan ushlanmalar bo'yicha schetlar to'g'ri

korrespondensiyalanganligini aniqlash lozim. Buning uchun xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar schetlari ma'lumotlari asosida ish haqi bo'yicha yig'ma hisobotlar tekshiriladi. Hisob jurnal-order shaklida olib borilganda xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar schetlarining kredit bo'yicha aylanmasi 10 va 10/1-sonli jurnal-order ma'lumotlari bilan, ushbu schet bo'yicha debet ma'lumotlari esa, 1, 2, 8-sonli jurnal-order ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Auditorlik tekshiruvi vaqtida aniqlangan xato kamchiliklar, talablarga riosa qilinmagan me'yoriy hujjatlar ko'rsatilgan va hisobotning ko'rsatkichlariga miqdoriy ta'siri aniqlangan holda, auditorning ishchi hujjatlarida qayd etiladi.

Mehnat intizomiga riosa qilish va ish vaqtidan samarali foydalanish darajasi ham auditorlik tekshirishda o'r ganiladi.

Xodimlarga mehnatga haq to'lash uchun xo'jalik yurituvchi sub'ye ktlarda shtat jadvali bo'lishi shart. Shtat jadvali korxona rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi. Shtat jadvalida mansablar, razryadlar, tarif stavkalari, oylik maoshlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Oylik ish haqini oshirish bo'yicha Prezident farmonidan keyin korxonaning shtat jadvali qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

Ayrim korxona darajasida ishga haq to'lash va ish beruvchi bilan xodim o'rta sidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish unda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar – mehnat shartnomalari asosida amalga oshiriladi, ular korxona rahbariyati tomonidan mehnat jamoasi vakillari ishtirokida ishlab chiqiladi.

Xodim va ish beruvchi o'rta sidagi mehnat shartnomasi xodimni yollayotganda yozma shaklda tuziladi. U doimiy hamda muddatli mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadigan xodimlar bilan asosiy ish joyi bo'yicha va o'rindoshlik, kasanachilik kabi holatlarda tuziladi.

Mehnat shartnomasi ishga qabul qilish haqida buyruq chiqarish uchun asos hisoblanadi. Buyruq tuzilgan mehnat shartnomasining mazmuniga zid bo'lmasligi kerak.

Mehnat shartnomasining qonun hujjatlari, jamoa shartnomasi, mehnatga haq to'lash haqidagi nizom va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar bilan qiyoslanganda xodimning ahvolini yomonlashtiradigan shartlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ba'zi holatlarda ishga kirayotgan shaxslar ular tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim qilishlari kerak.

Mehnat shartnomasini bekor qilish T-8 sonli shaklli buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Ish qidirish davrida ikki oydan ortiq bo'limgan davr mobaynida xodimlarning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi, bunda xodimga to'langan bir oylik ishdan bo'shatish nafaqasi ham qo'shib hisobga olinadi, agar mehnat shartnomasi quyidagi hollar sababli bekor qilingan bo'lsa:

xodim yangi mehnat shartlari asosida ishni davom yettirishni rad etganli sababli;

texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati), yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi, yoxud korxonaning tugatilganligi;

xodimning malakasi yetarli bo'limganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishiga noloyiq bo'lib qolishi;

shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklangan taqdirda.

Auditor xodimning ishdan bo'shatish nafaqasini hisoblash va to'lashda "Ayrim sabablarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganida va ogohlantirish muddatini pullik kompensasiyaga almashtirishda moddiy yordam to'lovlari tartibi to'g'risida"gi tushuntirishga tayanib to'g'ri hisoblanganligini tekshirib ko'rishi lozim.

Korxonada aniq mehnat me'yorlarini qo'llashning majburiy sharti ularning texnika-texnologiya, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslanganlidir.

Korxonalardagi qilingan ishning hisobi ishlab chiqarish tusiga, tashkilot tizimiga va ish haqiga, mahsulot sifatini nazorat qilish usuliga bog'liq.

Xodimga ma'lum bir davr uchun berilishi kerak bo'lgan ish haqining tarkibiy qismlari, olingan soliqlar miqdori va asoslari hamda berilishi kerak bo'lgan to'loving umumiyligi miqdori haqidagi ma'lumotlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonaning har bir xodimiga, ish haqi berilayotganda taqdim qilinishi shart.

Auditor tomonidan xodimlar bilan mehnat haqi, mukofot, nafaqa va boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar ham tekshiriladi.

Har bir xodimga buxgalteriyada kartochka ochiladi va har oyda unga hisoblangan ish haqi summasi yozib boriladi.

Auditor xodimlarning ish haqisi asosiy va qo'shimcha ish haqidan iborat ekanligini bilishi darkor.

Asosiy ish haqi deb, bajargan ishi uchun hisoblangan ish haqi, tarif stavkasi, oklad, mukofot, normal mehnat sharoitining buzilishi natijasida to'lanadigan qo'shimcha to'lovlar, kechki vaqtarda ishlagani uchun haq, korxona aybi bilan bekor turib qolishlar kabi holatlarga to'lanadigan ish haqqiga aytildi.

Qo'shimcha ish haqi deb, ishlamagan vaqtlarida qonunchilikka nazarda tutilgan paytlarda to'lanadigan to'lovlar tushiniladi. Ularga navbatdagi mehnat ta'tili, davlat va jamoat ishlarini bajarish uchun ketgan vaqtlar va boshqalar kiradi.

Auditor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mehnatga haq to'lashning ishbay va vaqtbay shakllarining qaysi biri qo'llanilayotganligini o'rganib chiqishi lozim.

Ish haqi va boshqa to'lovarga oid xarajatlarni taqsimlash 1999 yil 5 fevraldaggi 54-sont "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt hisoblab yozgan ish haqi summasiga doir xarajatlar yo'naliishiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

sotib olinadigan aktivlarning haqiqiy tannarxiga kiritiladigan to'lovlar;

ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizatlar) tannarxiga kiritiladigan to'lovlar;

davr xarajatlari hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

xarajatlarning boshqa yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadigan to'lovlar.

Mehnatga haq to'lashga oid xarajatlar ishchi va xodimlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotiga nisbatan aniqlanadi. Ishchilarga nisbatan hisoblangan mehnat haqi asosiy ishlab chiqarishga, ma'muriy boshqaruv xodimlariniki esa ma'muriy xarajatlarga olib borilishi kerak. Ishlab chiqarishning shunday xarajatlari ham borki, ularni bevosita mahsulot tannarxiga olib borishning iloji yo'q. Bunday xarajatlar xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarda 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari" schetlarida yig'iladi va ular ma'lum taqsimot bazasiga nisbatan (ishchilarning ish haqi miqdori yoki ko'rsatilgan xizmatlar soati va boshqalar) taqsimlanadi. Auditor xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarda mehnatga haq to'lashga oid xarajatlarni to'g'ri hisobga olinganligi va schetlar bo'yicha to'g'ri taqsimlanganligini tekshirishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 164-moddasiga muvofiq mehnat haqi to'lovlaridan ushlab qolishlarni quyidagilarga taqsimlash mumkin:

majburiy ushlab qolishlar: jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i va sud qarorlari hamda boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun ushlab qolishlar;

ish beruvchi tashabbusi bo'yicha ushlab qolishlar: xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun; ish haqi hisobidan berilgan avansni ushlab qolish uchun va boshqalar;

xodim tashabbusi bo'yicha ushlab qolishlar: kasaba uyushmalariga badallar ushlab qolinishi; xodimning yozma arizasiga binoan jismoniy yoki yuridik shaxslar foydasiga ushlab qolishlar.

Bunda ushlab qolinadigan haqning umumiyligi miqdori xodimga tegishli bo'lgan mehnat haqining 50%dan ortib ketmasligi lozim.

13.4. Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditি

Auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan asosiy maqsad – mol yetkazib beruvchi va pudratchilar hamda korxona o'rtaida korxona xarid qilgan tovarlar va xizmatlar bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida BHMSga mos hisobga olinganligini va moliyaviy hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganini tekshirishdan iborat.

Audit tekshiruvini yuqori sifatlari o'tkazish maqsadida audit tavakkalchiligini belgilash va mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditining dasturini tayyorlash uchun auditor ushbu hisob bo'limiga nisbatan ichki nazorat tizimi mavjudligini tekshirishi va ushbu tizimni sifat nuqtai nazaridan baholashi lozim.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni tekshirishda auditor, avvalambor, tovar-moddiy boyliklar (TMB) sotib olinishi uchun asos bo'lgan dastlabki hujjatlar mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlaydi. Masalan, mol yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi talablariga muvofiq amalga oshirilganligi tekshiriladi. So'ngra mol yetkazib beruvchilar o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarganliklari, mol yetkazib beruvchilarga yoki ular korxona oldida qarzi vujudga kelgan sanasi tekshiriladi. Sub'yeqtlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi talablariga to'liq hajmda va belgilangan muddatlariga atayin rioya etmagan holda amalga oshirgan kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Shundan so'ng, auditor va uning yordamchilari 6-sonli jurnal-order, 6010-sonli "Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schetlar" schet ma'lumotlari va hisob hujjatlari ko'rsatkichlari bo'yicha bevosita har bir mol yetkazib beruvchi bilan (yoki tanlab olib) amalga oshirilgan hisob-kitob operatsiyalarini tekshiradilar. Amalga oshirilgan operatsiya sanasi va tavsifi, olingan tovar moddiy boyliklar bo'yicha narx-navolar to'g'ri qo'llanilganligi va ular to'liq kirim qilinganligi, mol yetkazib beruvchilarning schet-fakturalarida QQS asosli ravishda ko'rsatilganligi aniqlanadi.

Auditor olinayotgan tovar moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar sifati va miqdori bo'yicha da'volar o'z vaqtida taqdim etilishiga, shuningdek, narx-navolar va tariflarga rioya qilmaslik, hisob-kitob hujjatlarida arifmetik xatolar aniqlanishi, tortish va o'lchash natijasida kelib chiqadigan kamchiliklar tekshiruviga alohida e'tiborini qaratishi lozim. Da'volar nafaqat mol

yetkazib beruvchilarga, shuningdek, transport tashkilotlariga—yuk yo’lda yo’qotilganligi uchun, banklarga-hisob-kitob va valyuta schetlaridan noto’g’ri chiqarilgan yoki kiritilgan summalar bo’yicha taqdim etilishi mumkin.

Auditor hisobdan chiqarish huquqini beruvchi hujjatlarga ega bo’lмаган tovar moddiy boyliklar kamomadlari yoki yo’qotishlari, shuningdek, mansabdar shaxslar tomonidan talon-toroj summalarini, da’volar bo’yicha hisob-kitob ko’rinishida berkitilmayotganligini aniqlashi lozim.

Qisqacha xulosa

Ushbu bobda hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari, ma’lumot manbalari, mehnat haqqi boyicha, hisobdor shaxslar bilan, mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditining amaliy jihatlari bayon qilingan.

Mustaqil takrorlash uchun nazorat savollari

1. Hisob-kitob operatsiyalar auditining asosiy manbalari bo’lib nimalar hisoblanadi va ular qanday me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
2. Mehnat haqqi bo’yicha hisob-kitoblar auditining amaliy jihatlari nimalardan iborat?
3. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitob operatsiyalari bo’yicha ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobi holatini tekshirish uchun auditor nimalar qilishi kerak?
5. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar hisobini tekshirishda auditor tomonidan qanday asosiy me’yoriy hujjatlardan foydalanadi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: “O'zbekiston” 2018. -46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ-637-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida” gi Qonuni (yangi tahrir) O'RQ-404-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 15-son, 142-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 03/20/660/1682-son
4. O'zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyat to'g'risida”gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.
3. O'zbekiston Auditorlarining Kasbga oid axloq Kodeksi. O'BAMA 26.08.2005 y. va O'AP. 26.06.2005 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmon.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevraldag'i PQ-2750-sonli “Tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori. 2017 yil 1 fevral, PQ-2750-sonli Qaror.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3946-son Qarori. 2018 yil 19 sentabr, PQ-3946-son Qaror.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi “Koronovirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5978-sonli Farmoni. 2020 yil 3 aprel, PF-5978-sonli Farmon.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori. 2020 yil 24-fevral, PQ-4611-sonli Qaror.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldag'i "Davlat ulushi bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 martdag'i 218-son Qaroriga 1-ilova: Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizom.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga 2-ilova: "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom.

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 14 noyabrdagi 144-son buyrug'iga 1-ilova: Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi Nizom.

16. O'zbekiston Respublikasi Audit milliy standarti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

17. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019.-61 b.

18. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali ma'rosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-32 bet.

19. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-48 bet.

20. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-488 bet.

21. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017.104 b.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>.

Darsliklar

23. Do'stmurodov R.D. Audit asoslari.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.-612 b.
24. Eshonqulov N va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik.-T.: Sano-standart, 2014,-336 b.
25. Sagdillayeva Z.A, Hamidova S.YA, Yuldasheva U.A, Irmatova Z.B. Iqtisodiy tahlil. –T.: "IQTISODOT", 2019. -370 b.
26. Фридман. Аудит: контроль затрат и финансовых результатов при анализе качества продукции / Фридман, Пол. - М.: Аудит, Юнити, 2013. - 286 с.
27. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik/S.: Zarafshon, 2001. 30 bet.
28. Шеремет А.Д, Хорин А.Н. Теория экономического анализа. Учебник.-М.: Инфра-М, 2019.-389 стр.
29. Shoalimov A.X, Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. –T: "IQTISODOT", 2019. -235 b.
30. Shoalimov A.X, Ilxomov Sh, Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T: "Sano-standart", 2017. -420 b.
31. Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа. -М.: Инфра-М.2003.
32. Shog'yosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. Darslik.-T.: Fan va texnolgiya, 2012-278 b.
33. To'laxodjayeva M, Ilxomov Sh va boshqalar. Audit. Darslik T.: "Iqtisodiyot" 2018.-408 b.
34. Vahabov A.V va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik.-T.: "Iqtisod-moliya", 2013.-600 b.

O'quv qo'llanmalar

35. Akramov E.A. «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili”. - T.: Moliya. 2003.
- Mamatov Z. va boshqalar. Audit. -T.: 2004.
36. Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие.-М.: Финансы и статистика, 2010.-586 стр.
37. Do'stmurodov R., Fayziyev Sh, Qo'ziyev I, Po'latov G'. Audit. O'quv-qo'llanma. II-qism.-T.: Iqtisod-Moliya”, 2008.
38. Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум.-М.: Дело и сервис, 2018.-196 стр.
39. Ibrohimov A.T va boshqalar. Iqtisodiy tahlil nazariyasi.-T.: TMI, 2013.-304 b.
40. Pardayev.M.Q. va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. -T.: Print-Line-group, 2017.-396 b.
41. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N. Jumayeva G.J. Investitsion loyihalar tahlili.-T.: 2020.
42. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot sub'yektlari moliyaviy holatining tahlili. -T.: Iqtisod va moliya. 2015.
43. Shoalimov A.X va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv-qo'llanma.-T.: Lesson-press, 2016.-375 b.
44. Shoalimov A.X, Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv-qo'llanma. –T: “IQTISODOT”, 2012. -280 b.
45. To'laxodjayeva M, Ilxomov Sh va boshqalar. Audit. -T.: “Iqtisodiyot” 2012.-170 b.
46. Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash. Risola / Mualliflar jamoasi: - Toshkent, 2021. 48-b.
47. O`zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartli: “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”.-T.: 2016. (AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro'yxatga olingan).
48. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.--

49. Subramanyam K. R. FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by,
50. Steven M. Bragg. Financial analysis: A business decision guide. 2nd edition. Colorado, Accounting Tools, Inc., 2014. –325 pages.
51. “Accounting Ethics” Ins Stuart, Bruce Stuart, Lars J. T. Pederson. April 2014, ©2014.
52. “Financial accounting, 2nd Edition” Michael J. Jones. April 2014, ©2014.

Internet saytlar

<http://www.gov.uz>
<http://www.lex.uz>
<http://www.soliq.uz>
<https://www.sciencedirect>.
<http://www.ziyonet.uz>
<http://www.norma.uz>
<http://www.stat.uz>

GLOSSARIY

Analiz - yunoncha «analysie» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bir butunni bo'laklarga bo'lib o'rghanish» degan ma'noni anglatadi yoki biror jarayonni o'rghanishda umumiylidkan xususiylik sari tadqiq qilish tushuniladi.

Auditor - malaka sertifikati ega bo'lgan jismoniy shaxs;

Aktiv - buxgalteriya balansining bir kismi bulib, ma'lum bir muddatga subekt mablaglarining tarkibi va joylanishini pul kurinishida aks ettiradi. Bundan tashqari balansning passiv qismi ham mavjud bo'lib, aktiv va passiv tomonlar bo'lim va moddalardan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo'lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkin, ya'ni aktiv tomonidagi mablag'larning manbalari, balansning passiv tomonida joylashgan.

Akkreditiv (lat. accredo - ishonaman) - naqd pulsiz hisob-kitob turlaridan biri. Ma'lum bir tovar va xizmatlar uchun belgilangan muddatda mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun ajratilgan pul mablag'idir. Akkreditiv quyidagi holatlarda qo'llaniladi: xaridor va mol yetkazib beruvchi o'rtasidagi shartnomaga asosan, xaridor va mol yetkazib beruvchi o'rtasidagi xo'jalik munosabati doimiylikka ega bulmasa, xaridor tovari mol yetkazib beruvchi manzilida qabul qilib olsa, hokimiyat ko'rsatmasi va yo'riqnomasiga ko'ra, tovar yetkazib berishning alohida ma'lum bir sharoitlarida bank muassasasi talabi bilan kreditlash va hisob-kitobning ma'lum usuliga o'tgan korxonalar munosabatida, tovar moddiy boyliklarining me'yordan yuqori zahiralariga ega bo'lgan korxonalar munosabatida.

Aksept (lat. accueptuk - qabul qilingan) - belgilangan sharoit bo'yicha shartnomaga tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitobda aksept xaridorning mol yetkazib beruvchi taqdim qilgan hisobini to'lashga rozilik bildiradi.

Akseptant (lat. acceptaiik - qabul qiluvchi) - hisob bo'yicha to'lovni amalga oshirishga rozilik bergen korxonalar, tashkilotlar va muassasalar yoki shaxslar.

Akseptlash (lat. acceptare - qabul qilish) - to'lov hisobini qabul qilish, mol yetkazib beruvchi schetiga to'lovni o'tkazishga rozilik berish.

Aktivlarni likvidligi - balans likvidligini aksi bo`lib, vaqt bo`yicha aktivlarni pul mablag`lariga aylanishi tushuniladi.

Asosiy vositalar - korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo`jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko`rsatish jarayonida yoxud ma`muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar;

Asosiy vositalarni qayta baholash - asosiy vositalar obektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqt-vaqt bilan aniqlashtirishdir. Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo`yicha aks ettiriladi.

Asosiy vositalar ob`yekti bo`yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash - mazkur ob`yekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur obektning amortizatsiyalanadigan qiymati to`liq so`ndirilgunga qadar yoxud bu obektni balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

Amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko`rsatilgan aktivning boshlang`ich (tiklash) qiymati summasi;

Amortizatsiya - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o`tkazish ko`rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

Balans (fr. balance- muvozanat, tarozining ikki pallasi) - doimiy o`zgarishda va o`zaro bog`liq kattaliklarning holatini ko`rsatuvchi, ko`rsatkichlar tizimi, tenglik.

Balansdagi schetlar - buxgalteriya ko`rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schetlaridir.

Balansn likvidligi - balansdagi likvid bo`lgan mablag`larning majburiyatlarni qoplash darjasini tushuniladi.

Bank korrespondent - boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarda bo'ladigan va ularning topshiriqlari bilan ma'lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.

Birlamchi hujjatlar - buxgalteriya hujjatlari bo'lib, xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtida tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

Bosh shartnoma - umumiyl ish bajarish yoki tovar yetkazish davri tugagunga qadar muddatga tuzilgan shartnoma.

Buxgalteriya balansi - ma'lum bir davrda xo'jalik mablag'lari va ular manbalarining pul qiymatini guruhab va umumlashtirib aks ettirish usuli.

Buxgalteriya daftarlari - sintetik va analitik hisobni hujjatlarga asosan kayd qilish.

Buxgalteriya o'tkazuvi - schetlar korrespondentsiyasini yozish. Bunda xo'jalik jarayoniga tegishli summa bir schetning debeti va ikkinchi schetning kreditida aks ettiriladi. Buxgalteriya o'tkazmasi hujjatlar (jurnal-order, tabulyagramma yoki eski hujjatlar shakli memorial-order) ga asosan tuziladi

Boshqaruv tamoyillari - iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.

Boshqaruv tizimi - boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o`zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o`zgaradi.

Boshqaruv tahlili - korxona ma'muriyati, mulk egasi va mutaxassislari tomonidan ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir.

Boshlang'ich qiymat - to'langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'imlarni), shuningdek aktivni undan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning qiymati;

Da'vo - da'vo qo'zg'atuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur (debtorlik qarzlari, da'volar yuzasidai hisob-kitoblarga qarang).

Deduktsiya - tadqiqot yoki biror ob'yeke tni (hodisani, jarayonni) o'r ganishda umumiylidan xususiylik sari o'tilishi tushuniladi.

Debitor qarzlari - aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag'larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

Debitorlik (kreditorlik) qarzlarining haqiqiy qiymati – korxonaning jami debitorlik (kreditorlik) qarzlarining faqatgina so'ndirilishi mumkin bo'lgan qismi.

Diskont - 1) vasiqa hisobi; 2) hisob foizi - vasiqa hisobida banklarga to'lanadigan foiz; 3) birja va valyuta ishlarida - tovar kotiral bahosidan ustama (masalan, agar tovar sifati standartdan past bo'lsa) valyuta.

Diskontlash - kelajakda aniq bir vaqtida olinishi kutilayotgan pul mablag'larining joriy ekvivalentini aniqlash.

Diskont stavkasi vaqtning har xil paytiga taalluqli bo'lgan pul summalarini bir vaqtga (paytga) keltirishda foydalanadigan stavka.

Debet (lat. debet - u majbur) - buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schetlarning debetiga summalarning ko'payishi yozilsa, passiv schetlarda esa, summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schetlarining debitida esa, boshqa korxona va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debtorlik qarzlari deyiladi. Debet qoldiklari esa, aktiv va aktiv-passiv schetlarda bo'ladi.

Debitorlar (lat. debtor - qarzdor) - ushbu subektga qarzdor bo'lgan boshqa korxona, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo'lib, ular debitorlik qarzlarini to'lashlari lozim.

Deponent (lat. depono - yig'aman) - korxona, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxona, tashkilot, muassasada vaqtincha saqlayotgan mablag'i.

Dividend - aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo'lib, aksiyadorlar o'rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratmalarini, zahiralarni

tashkil etish, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni amalga oshirilganidan so'nggina taqsimlanadi.

Dotatsiya - korxona, tashkilot, muassasalarga qarzlarni qoplash uchun davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

Faol bozor - oldi-sotdi obektlari bir turda (bir xil) bo'lgan va har qanday vaqtida bitimni amalga oshirishni xohlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo'lgan, shuningdek narxlar haqidagi ma'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lgan bozor;

Fikrlar hujumi usuli - biror bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxasislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g`oyalari majmuasidir.

Fond (samarasi) qaytimi - asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so`miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir.

Fond sig`imi - bir so`mlik mahsulotga to`g`ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati.

Foydali xizmat muddati - korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

Funktsional qiymat tahlili (F.Q.T) - har bir bajariladigan funktsiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunktsiya) funktsiyalarni bartaraf etish evaziga ichki xo`jalik rezervlarini axtarib topish va korxona aylanmasiga (oborotiga) solishga qaratilgan tahlildir.

Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi) - korxonaning asosiy va aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko`rsatadi. U sof foydani jami aktivlarni o`rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti - u aylanma aktivlarga qo`yilgan moliyaviy resurslarning necha so`mi joriy majburiyatlar bir so`miga to`g`ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Joriy ta'mirlash - asosiy vositalar obektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha nomoddiy aktivlarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, bir-biridan mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lган summa;

Hajm ko`rsatkichlari - yalpi, tovar, sotilgan, sof va me'yoriy sof mahsulotlar.

Hisob – kitob operatsiyalari – korxona tomonidan yoki korxona ishtirokida hisob (moliya) yili davomida sodir etilgan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan debtorlik va kreditorlik qarzlarining so'ndirilishi.

Hisob – kitob operatsiyalarida nazorat riski – hisob kitob operatsiyalariga nisbatan ichki nazorat riskining mavjud bo'lishi, ammo bu tizimning sifatsizligi sabab buxgalteriya tizimida hisob kitob operatsiyalarining noto'g'ri aks ettirilgan bo'lish xavfi.

Hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro solishtirma dalolatnomasi – mijoz korxona xaridori G` mol yetkazib beruvchisi mijoz bilan bir shaharda joylashgan bo'lsa, ikki tarafning o'zaro debtorlik G` kreditorlik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarini inventarizatsiyada tuziladigan hujjat.

Hisob - kitob operatsiyalari bo'yicha aoslovchi testlar – hisob kitob operatsiyalarining moliyaviy hisobotlarda keltirilgan summalarini to'g'ri (asosli) ekanligini tekshirishga yo'naltirilgan testlar majmui.

Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari - taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog`lanish, yetakchi bo`g`inni ajratib qo`yish, koeffitsiyentlar, foizlar, o`rtacha miqdorlar, qayta hisoblash, ko`rsatkichlarning bajarilish foizi va o'sish sur'atidagi farq, mutlaq farq kabilar.

Iqtisodiy-matematik usullar - integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o`yin kabilar.

Istiqbol tahlili - korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o`rganish sodir bo`ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil.

Ijara (polyak. - arenda va lat. arrendare - qarzga foydalanishga berish) - Sharhnomalar asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to`lovi asosida berilishi.

Ijarachi - biror narsani ijaraga olgan korxona, tashkilot va muassasa yoki jismoniy shaxs.

Induktsiya - tadqiqotni yoki biror ob'yeckni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylig sari o`tilishi tushuniladi.

Inventarizatsiya - korxonaga tegishli bo`lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag`lar va boshqa moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini solishtirish va tekshirish usuli.

Inventar kartochkalar - asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun mo`ljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar har bir obekt xo`jalikka keltirilganda tuziladi.

Inventar obekti - tugallangan qurilish, buyum yoki kompleks inventar obekti asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Har bir korxonada inventar obektlari ko`p bo`lib, ularning har biri bo`yicha hisobni to`g`ri tashkil etish uchun inventar raqam belgilanadi.

Inventar raqami - inventar obektga biriktirilgan raqam. Inventar raqami asosiy vositalar (fondlar) hisobini to`g`ri tashkil etish uchun va obektlarning saqlanishini ta'minlash uchun zaruriy hisoblanadi. Bir turdagiligi buyumlarning guruhi uchun shu obektlarning haqiqiy holati, eng ko`p qiymatini hisobga olgan holda, raqamlar seriyasi ajratiladi. Buxgalteriya hujjatlarida asosiy vositalar hisobida ushbu inventar raqamlar ko`rsatiladi.

Inkassalash (lat.-yashikka solish) to`lov hujjatlarini ko`rsatib, u asosida pulni olish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlari (mehnat haqi, xom ashyo, material, yoqilg'i, asosiy vositalarning eskirishi va xokazolar).

Ichki xo`jalik rezervlar(imkoniyatlari) - xo`jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish tushuniladi.

Ichki nazorat tizimi bo'yicha savolnomasi – mijoz korxona ichki nazorat tizimi sifatini tekshirish va baholash maqsadida tuzilgan maxsus ishchi qog'oz.

Ijobiy solishtirma dalolatnomasi – mijoz korxona va mijoz xaridorlari G` mol yetkazib beruvchilari o'rtaida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob – kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi bir xil ma'lumotni aks ettirishi yoki muxim bo'limgan farqning yuzaga kelishi.

Ishchi qog'ozlarni kodlashtirish – audit tekshiruvi jarayonida tuzilgan barcha ishchi qog'ozlarni auditorlik firmasida qabul qilingan raqamlashtirish tizimi asosida joriy va doimiy fayllarda arxivlash.

Kalkulyatsiya (lat. calculatio - hisoblash) - bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, qabul qilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarni guruqlash usuli.

Kassa kitobi - korxona kassiri kassa jarayonlari hisobini yurgizishiga mo'ljallangan hisob registrlari.

Kassa limiti - korxona kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi.

Kassaning orderlari - korxona kassasiga pul kirimi va chiqimining qonuniyligini va belgilangan maqsad bo'yicha amalga oshirilganligini asoslovchi hujjatlar.

Kelgusi davr daromadlari - hisobot davrida olingan, ammo kelgusi davrga tegishli bo'lgan mablag'lar.

Konsalting - maslahat xizmatini ko'rsatish va ekspertiza o'tkazish. Konsalting bilan shug'ullanadigan firmalar konsultativ deb ataladi.

Konsignatsiya - tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bo'lib, unga ko'ra tovarlarning egasi (konsignant) u yerdagi o'z komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun jo'natadi.

Kontokorrekt ko'chirma – mijoz korxona xaridori G` mol yetkazib beruvchisi va mijoz turli shaharlarda joylashgan taqdirda, ikki tarafning o'zaro debtorlik G` kreditorlik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarini inventarizatsiya uchun tuziladigan va xaridorlarga yuborish uchun mo'ljallangan mijoz korxona hisob-kitoblari tahliliy schetasi nusxasi.

Korxonaning bankdagi hisobidan ko'chirma - korxonaning hisob-kitob, joriy va maxsus schetlaridagi pul mablag'larining harakati haqida bank muassasasining yuborgan hujjati.

Kompleks tahlil - korxona faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

Kredit (lat. credit - u ishonadi) - buxgalteriya schetining bir qismi. Aktiv schetlarning kreditida hisob obektining kamayishi yoziladi, passiv schetlarda esa ushbu hisob obektlari summasining ko'payishi yoziladi. Kredit tomonidagi kredit-passiv va aktiv-passiv schetlarda bo'ladi.

Kreditor qarzlari - o'zga korxonalarning aylanma mablag`larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

Lizing to'lovleri lizingga beruvchining lizing obektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismini, shuningdek lizing obektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarini lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidir.

Lizingga beruvchining daromadi - lizing to'lovleri bilan lizing obektini sotib olish, uni yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga

keltirish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, lizingga beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida oladigan daromadidir.

malaka imtihoni — auditorga quyilgan talablarga talabgorning mos kelishini tekshirishga yo'naltirilgan, malaka imtihoni komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan imtihon;

malaka sertifikati — auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat;

Materiallar samarasi - moddiy xarajatlarning bir so'mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko`rsatadi.

Material sig`imi - bir so'm tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to`g`ri kelishini ko`rsatadi.

Muddatli likvidlik koeffitsiyenti - u pul mablag`lari, sof debitorlik qarzları summasini joriy majburiyatlarga bo`lish orqali aniqlanadi.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti - u pul mablag`larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti - u korxonaning o`z mablag`larining xo`jalik mablag`lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Moliyaviy natija - korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir.

Mutlaq huquq - bu faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo'lgan mulkiy huquq.

Majburiy to'lov - egasining roziligesiz hisob-kitob schetidan pul mablag'inining o'tkazilishi. Masalan, majburiy to'lovlariga; davlat byudjetiga, davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lov, sug'urta to'lovlari va boshqa belgilangan qoidalarga asosan to'lovlар kiradi.

Mehnat balansi - mehnat resurslarining (ish kuchi, ish vaqt) haqiqatda yoki kutilgan va ulardan foydalanish mikdorini aks ettiradi. Mehnat balansida ishchi

kuchini qayta ishlab chiqarish, joylashtirish va mehnat resurslarini iste'molga mos ravishda taqsimlashning asosiy jarayonlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Metod(usul) - yunon tilidan olingan bo`lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo`layotgan hodisa va jarayonlarni o`rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o`rganish usuli.

Metodologiya(uslubiyat) - muayyan fanning predmetini o`rgatish usuli, unda qo`llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.

Mehnat omillari - korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdarligi darajasini ifodalovchi ko`rsatkichlar.

Mehnat vositalari omillari - korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar.

Mehnat predmetmetlari omillari - korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlar.

Moliyaviy tahlil - xo`jalik yurituvchi sub'yecklarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o`rganishga qaratilgan tahlildir.

Omillar - u yoki bu iqtisodiy ko`rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko`rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.

Omilli tahlil - natija ko`rsatkichining o`zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o`zida ifoda ettirgan tahlildir.

Operatsion foyda(asosiy faoliyati foydasi) - yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadalar qo`shilishi natijasida hosil bo`lgan foyda.

O'rtacha ta'mirlashda ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Qayta hisoblash usuli - nataja o`zgarishiga bitta yoki ikkita omil ta'sir ko`rsatganda qo`llaniladigan usul.

Qaydnama - birlamchi hujjat yoki hisob registri. Qaydnama yig'ma hujjat bo'lishi ham mumkin. Qaydnoma dan buxgalteriya hisobining hamma shakllarida xam foydalaniadi.

Qoldiq (balans) qiymat – nomoddiy aktiv moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da aks ettiriladigan, boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan miqdor;

Qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

Retrospektiv(joriy) tahlil - hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o'tkaziladigan tahlil.

Rentabellik - jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko`rsatkich.

Sabab - keng ko`lamdag'i kompleks omillar tizimiga nisbatan qo'llanilib, kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deyiladi.

Sintez - yunoncha «synthesis» so'zidan olinib, umumlashtirish degan ma'noni bildiradi yoki biror ob'yeektni (hodisani, jarayonni) o'rGANISHDA xususiylikdan umumiyligi sari tadqiq tushuniladi.

Sotilgan mahsulot - tovarlar iste'molchilarga jo`natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob - kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.

Soliq to`lagunga qadar foyda - umumxo`jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo`lgan foyda.

Sof foyda - soliq to`lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar va yig`imlarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.

Texnik-iqtisodiy tahlil - kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo`lgan tahlil.

Tovar mahsuloti - barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to`la butlangan, texnika nazorati bo`limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

Tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Tugatish qiymati - nomoddiy aktivning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda uning foydali xizmat muddati oxirida aktivni tugatish chog'ida olinishi kutilayotgan, aktivning taxmin qilinayotgan (baholangan) summasi.

Uzoq muddatli ijara ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash - agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarini almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir. Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash - bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi) - operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo`lgan foyda.

xalqaro buxgalter sertifikati — «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)» yoki «Sertifikatlangan qasamyod qilgan buxgalter (ASSA)» yoxud «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» sertifikati.

Yalpi ijtimoiy mahsulot - moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiriuvchi kqrtsatkichlar.

Yalpi mahsulot - tarkibiga tovar mahsuloti qo'shuv tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig'i qo'shuv korhonaning o'zida tayyorlangan yarim - fabrikatlar va asbob - uskunalar kiradi.

Yalpi foyda - mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va soʻf tushum va sotilgan mahsulot tannarxi oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Zanjirli almashtirish usuli - natija oʻzgarishiga uchta va undan koʻp omillar taʼsir koʻrsatsa, ular oʻrtasidagi bogʼliqlik funktsional boʻlganda qoʻllaniladigan usul.

| T/r | MUNDARIJA | BET |
|----------------|---|-----------|
| | Kirish | 3 |
| | 1-MODUL. IQTISODIY TAHLIL FANINING NAZARIY ASOSLARI | 6 |
| 1-Bob. | Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari | 6 |
| 1.1. | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida o'rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar | 6 |
| 1.2. | Iqtisodiy tahlil fanini paydo bo'lish zarurati va uning sabablari | 9 |
| 1.3. | Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni | 13 |
| 1.4. | Iqtisodiy tahlil boshqaruvning muhim funktsiyasi ekanligi | 15 |
| 1.5. | Iqtisodiy tahlil fanining predmeti, vazifalari | 17 |
| 1.6. | Fanlar tizimida iqtisodiy tahlilning o'rni | 21 |
| 1.7. | Iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari | 24 |
| 2-Bob. | Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar | 28 |
| 2.1. | Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari | 28 |
| 2.2. | Iqtisodiy tahlilning metodi va usullarini tasniflanishi | 30 |
| 2.4. | Oddiy-an'anaviy usullarning amaliyotda qo'llanilish va xorij tajribalari | 35 |
| | 2-MODUL. IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL QILISH | 50 |
| 3- Bob. | Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish | 50 |
| 3.1. | Iqtisodiy tahlilning turlari va shakllari to'g'risida tushuncha | 50 |
| 3.2. | Iqtisodiy tahlilni turlar bo'yicha tasniflanishi va uning mezonlari | 53 |
| 3.3. | Iqtisodiy tahlilning shakllari | 55 |
| 3.4. | Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qo'yiladigan talablar | 56 |
| 3.5. | Tahlilni manbalar bilan ta'minlashni takomillashtirish yo'llari | 59 |
| 4- Bob. | Korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari | 64 |
| 4.1. | Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish hajmini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarining asoslari | 64 |
| 4.2. | Korxonalarning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar va unga ta'sir etuvch omillar tahlili | 67 |
| 4.3. | Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi mehnat omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili | 73 |
| 4.4. | Mehnat unumдорлиги haqida tushuncha, uning mohiyati, mehnat unumдорлиги ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi | 76 |
| 4.5. | Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili | 78 |
| 4.6. | Mehnat buyumlari omillaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili | 82 |
| 4.7. | Mahsulot tannarxi haqida tushuncha va uni pasaytirishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati | 86 |
| 5- Bob. | Korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilish | 98 |
| 5.1. | Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari | 98 |

| | | |
|---|--|------------|
| 5.2. | Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari, ular bilan shug'ullanuvchilarning iqtisodiy manfaatlari | 101 |
| 5.3. | Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularning turlari | 104 |
| 5.4. | Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o'zgarishiga ta'sit etuvchi omillar tahlili | 106 |
| 5.5. | Davr xarajatlarning tahlili | 108 |
| 5.6. | Rentabellikning ko'rsatkichlar tizimi va rentabellikka ta'sir etuvchi omillar tahlili | 109 |
| 3-MODUL. AUDITNING NAZARIY ASOSLARI | | 117 |
| 6- Bob. Auditning mohiyati, zarurligi va ahamiyati | | 117 |
| 6.1. | Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati | 117 |
| 6.2. | O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni | 121 |
| 6.3. | Audit maqsadi va vazifalari | 123 |
| 6.4. | Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari | 126 |
| 6.5. | Audit va taftish, ularning o'xshashlik va farqli tomonlari | 128 |
| 7- Bob. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyati va uni tartibga solish | | 132 |
| 7.1. | O'zbekistonda auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi, uning elementlari | 132 |
| 7.2. | O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri va uning ahamiyati | 134 |
| 7.3. | Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari | 138 |
| 7.4. | Operatsion, muvofiqlik, moliyaviy hisobot auditি | 141 |
| 7.5. | Majburiy, tashabbus, nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra audit o'tkazish xususiyatlari | 144 |
| 7.6. | Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari | 150 |
| 8- Bob. Auditorlik standartlari va auditning uslubiyati | | 154 |
| 8.1. | Auditorlik standartlarining ahamiyati va maqsadi. Auditning xalqaro standartlari | 154 |
| 8.2. | Auditorlik tashkilotlari tomonidan mijozlarni tanlab olish. | 157 |
| 8.3. | Auditorlik tekshiruvuni o'tkazish to'g'risida shartnoma, dastlabki kelishuvlar | 158 |
| 8.4. | Auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati | 160 |
| 4-MODUL. AUDITORLIK TEKSHIRUVINI O'TKAZISH VA UNI RASMIYLASHTIRISH | | 166 |
| 9- Bob. Auditorlik tekshiruvi strategiyasi | | 166 |
| 9.1. | Tekshiriladigan korxona (mijoz) faoliyatini o'rganish | 166 |
| 9.2. | Auditda jiddiylikni aniqlash | 168 |
| 9.3. | Auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash | 170 |
| 10- Bob. Auditning texnologiyasi | | 174 |
| 10.1. | Auditorlik texnologiyasi bo'yicha auditorlik tanlovi | 174 |
| 10.2. | Auditorning ish sifatini nazorat qilish | 181 |
| 10.3. | Auditorlik ma'lumotlar va dalillar | 183 |
| 10.4. | Auditorning ish hujjatlari | 188 |
| 11- Bob. Auditorlik tekshiruvining yakunlanishi, auditorlik xulosasi | | 193 |
| 11.1. | Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash | 193 |
| 11.2. | Auditorlik hisobotining tuzilishi va tarkibi | 197 |

| | | |
|---|--|------------|
| 11.3. | Auditorlik xulosasining tuzilishi va tarkibi, turlari, auditorlik xulosasi uchun javobgarlik | 201 |
| 5-MODUL. KORXONALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINING AMALIY JIHATLARI | | 208 |
| 12-Bob Aktivlar auditি | | 208 |
| 12.1. | Asosiy vositalar auditи xususiyatlari va undagi audit amallari | 208 |
| 12.2. | Nomoddiy aktivlar auditи xususiyatlari va undagi audit amallari | 215 |
| 12.3. | Tovar-moddiy zahiralar auditи xususiyatlari va undagi audit amallari | 219 |
| 12.4. | Pul mablag'лари auditи xususiyatlari va undagi audit amallari | 226 |
| 13-Bob Majburiyatlar auditи | | 234 |
| 13.1. | Hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari, ma'lumot manbalari. | 234 |
| 13.2. | Mehnat haqqi bo'yicha hisob-kitoblar auditи | 237 |
| 13.3. | Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish | 239 |
| 13.4. | Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditи | 243 |
| ADABIYOTLAR RO'YXATI | | 246 |
| GLOSSARIY | | 251 |
| ILOVALAR | | 268 |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
AUDITORLIK FAOLIYATI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 10 noyabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021 yil 5 fevralda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi auditorlik faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

auditor — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lган jismoniy shaxs;

Auditorlar reyestri — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lган auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reyestr mustasno;

auditorlik tashkiloti — auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti;

Auditorlik tashkilotlarining reyestri — auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati;

auditorlik faoliyati — auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati;

audit qo'mitasi — xo'jalik yurituvchi subyektning kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lган, qoida tariqasida, kamida bir nafar mustaqil a'zoni o'z ichiga oladigan, moliyaviy hisobotni tuzishning to'g'riliqi ustidan nazorat o'rnatilishi, mustaqil auditorlik tashkilotining tanlanishi, auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi jarayonlarini kuzatish, shuningdek ichki va tashqi auditorlik tekshiruvlari natijalarini olish hamda o'rganish uchun mas'ul bo'lган qo'mita;

renking — auditorlik tashkilotlarining faoliyatini tavsiflovchi muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlarga ajratilgan auditorlik tashkilotlarining tartibga solingan ro'yxatlarini shakllantirish;

talabgor — malaka sertifikatini olishga yoki uning amal qilish muddatini uzaytirishga da'vogar bo'lган jismoniy shaxs.

4-modda. Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar

Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar mustaqillik, xolislik va halollikdan, kasbiy bilimga egalik hamda axborotning maxfiyligidan iboratdir.

5-modda. Mustaqillik prinsipi

Auditor taxminlarga asoslanib fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Auditorlik tashkiloti mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lган taqdirda, auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak.

6-modda. Xolislik va halollik prinsipi

Auditor jamiyat manfaatlari ustuvorligiga rioya etishi, beg'araz bo'lishi va taxminlarga asoslanishi, manfaatlari to'qnashuvi yoki boshqa shaxslarning bosimlari sababli o'zining kasbga oid fikrmulohazasida tavakkalchilik qilmasligi, auditorlik tashkilotining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

7-modda. Chuqur kasbiy bilimga egalik prinsipi

Auditor ushbu Qonun talablariga rioya etishi, yetarli darajada chuqur kasbiy bilimga ega bo'lishi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini auditorlik tashkiloti tarkibida sifatli auditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun yetarli bo'lgan darajada saqlab turishi kerak.

8-modda. Axborotning maxfiyligi prinsipi

Auditorlar va auditorlik tashkiloti xodimlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni o'ziga auditorlik xizmatlari ko'rsatilgan shaxslarning yozma roziligidisiz oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas, bundan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирг'in qуорларини tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

9-modda. Auditorlik faoliyati standartlari

Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilinadigan auditning xalqaro standartlari hamda sifat nazoratining xalqaro standartlari, tahliliy tekshiruvlarning xalqaro standartlari, ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlarning xalqaro standartlari, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari auditorlik faoliyati standartlaridir.

Auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lмаган, Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining O'zbekiston Respublikasida e'lon qilish to'g'risidagi ruxsatnomasi asosida auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan auditorlik faoliyati standartlari asosida amalga oshiriladi.

Auditning xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun ularni tan olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2-bob. Auditorlik faoliyati sohasini tartibga solish

10-modda. Auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari

Auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

auditorlik faoliyatini va auditorlik xizmatlari bozoridagi halol raqobatni ilg'or xalqaro amaliyot asosida rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

auditorlik tekshiruvlarining o'rnini, ahamiyatini va ko'rsatilayotgan auditorlik xizmatlarining sifati uchun auditorlik tashkilotlarining javobgarligini oshirish;

auditorlarni kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazorat qilish tizimini shakllantirish;

yoshlarni auditorlik kasbiga jalb etish va kasbga oid auditorlarning respublika jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta'lif tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilishini ta'minlash.

11-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibini belgilaydi;

auditorning malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihoni o'tkazish tartibini belgilaydi;

auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatlari davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatlari davlat organi:

auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

auditorlik faoliyati sohasidagi xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi;

o'z vakolatlari doirasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

malaka komissiyasining ish tartibi va reglamentini belgilaydi;

auditorlarning respublika jamoat birlashmalarini ishtirokida malaka imtihonini o'tkazadi;

auditorning malaka sertifikatini beradi, qayta rasmiylashtiradi, uning amal qilish muddatini uzaytiradi va uning amal qilishini tugatadi, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan sertifikat mustasno;

auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birqalikda auditorlar malakasini oshirishning namunaviy dasturini tasdiqlaydi;

Auditorlik tashkilotlarining reyestri va Auditorlar reyestrini yuritadi;

auditorlik tashkilotlari va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan elektron tarzda hamkorlik qilish uchun mo'ljallangan «Audit» dasturiy majmuining axborot tizimi takomillashtirilishini ta'minlaydi;

auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birqalikda auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazadi;

auditorlik xizmatlari rivojlanishini tahlil qilishni amalgga oshiradi.

13-modda. Vakolatlari davlat organi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash

Vakolatlari davlat organi o'z faoliyatini ochiq va shaffof, boshqa davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolar, shuningdek ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalgga oshiradi.

Vakolatlari davlat organining rasmiy veb-saytiga quyidagilar joylashtiriladi:

auditorlik faoliyatining standartlari;

Auditorlik tashkilotlarining reyestri hamda xalqaro auditorlik tashkilotining yoki xalqaro assotsiatsiyalarning a'zolari bo'lgan auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

malaka imtihonini topshirishiga ruxsat berilgan, shuningdek xalqaro buxgalter sertifikatiga yoki kamida o'n yillik uzuksiz auditorlik ish stajiga ega bo'lgan talabgorlar ro'yxati;

auditorning sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar;

ushbu Qonun 44-moddasining [ikkinchini qismida](#) ko'rsatilgan Auditorlar reyestridan ma'lumotlar;

malaka imtihonini topshirish, auditorning malaka sertifikatini qayta rasmiylashtirish hamda uning dublikatini berish uchun taqqid etiladigan hujjalarning ro'yxati va arizalarning namunalari;

auditorning malaka sertifikati blankasining shakli;

auditorlar malakasini oshirishning namunaviy dasturi;

auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditorlik tashkilotlarining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalar;

auditorlik xizmatlarini rivojlantirish to'g'risidagi axborot.

Vakolatlari davlat organining rasmiy veb-saytida qonunchilikka muvofiq boshqa axborot joylashtirilishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z vakolatlari doirasida:

banklarni va boshqa kredit tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi;

banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatini berish tartibini belgilaydi va uni beradi;

banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan Auditorlarning reyestri yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

15-modda. Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari

Auditorlarni birlashtiradigan nodavlat notijorat tashkilotlari auditorlarning respublika jamoat birlashmalaridir.

Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari auditorlarning kasbiy darajasini rivojlantirishga va saqlab turishga, ularning kasbiy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishga da'vat etilgandir.

Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari:

malaka imtihonlarini o'tkazishda va test savollarini ishlab chiqishda ishtirot etadi;

auditorlar va auditorlik tashkilotlari tomonidan Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining Xalqaro odob-axloq standartlari bo'yicha kengashi tomonidan e'lon qilingan Professional buxgalterning odob-axloq kodeksiga (bundan buyon matnda Professional buxgalterning odob-axloq kodeksi deb yuritiladi) rioya etilishining tizimli monitoringi tashkil etilishini ta'minlaydi;

auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar tayyorlaydi;

renking o'tkazishning yagona tartibini belgilaydi;

renking o'tkazilishini tashkil etadi va har yili 1 mayga qadar uning natijalarini o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qiladi;

auditorlarning respublika jamoat birlashmalari a'zolarining reyestrlarini yuritadi va ularni o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;

zarurat bo'lganda, buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha xalqaro tashkilotlarning ishida ishtirok etadi;

har yili 10 yanvarga qadar auditorlarning malaka oshirish kurslaridan o'tganligi to'g'risidagi axborotni vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

16-modda. Auditorlik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi

Auditorlik tashkilotlarining faoliyatiga aralashishga va auditorlik tashkilotiga, shuningdek uning xodimlariga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Auditor va uning yordamchisi, auditorning malaka sertifikati

17-modda. Auditor. Auditorning yordamchisi

Auditor o'zi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomaga asosida bir vaqtning o'zida faqat bitta auditorlik tashkiloti tarkibida ishlashi mumkin.

Auditor o'zi ishlaydigan faqat bitta auditorlik tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi mumkin.

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi munosabati bilan Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilgan auditorlik tashkilotini ilgari boshqargan auditor auditorlik tashkiloti Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilgan sanadan e'tiboran uch yil ichida boshqa auditorlik tashkilotining rahbari bo'lishi mumkin emas.

Auditorniing malaka sertifikatiga ega bo'limgan, auditorlik tashkilotida ishlovchi hamda auditorniing topshirig'iga ko'ra auditorlik xulosasiga va auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq boshqa hujjatga imzo qo'yish huquqisiz auditorlik tekshiruvida ishtirok etadigan jismoniy shaxs auditorniing yordamchisidir.

Auditorniing yordamchisiga nisbatan uning auditorlik tekshiruvida ishtirok etishi chog'ida o'zi olgan ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati tatbiq etiladi.

18-modda. Auditorlarning malakasini oshirish

Auditorlarning malakasini oshirish buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi xalqaro tashkilotda akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

Auditor auditorniing malaka sertifikatini olgan yildan keyingi yildan e'tiboran har yili auditorlarning malaka oshirish kurslaridan o'tadi.

Auditorlarning malakasini oshirish kurslari vakolatli davlat organi tomonidan auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda tasdiqlanadigan namunaviy dastur bo'yicha o'tkaziladi.

19-modda. Auditorniing malaka sertifikati

Auditorniing malaka sertifikati (bundan buyon matnda sertifikat deb yuritiladi) auditorniing malakasini tasdiqlaydigan va unga auditorlik tashkiloti tarkibida auditorlik xizmatlarini ko'rsatish huquqini beradigan hujjatdir.

Sertifikat basharti talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatlari topshirsa, vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan, qat'iy hisobotga oid hujjatdir.

Sertifikat dastlabki besh yillik muddatga beriladi, uning amal qilishi navbatdagi o'n yillik muddatga va keyinchalik muddatsiz davrga uzaytiriladi.

Talabgorda xalqaro buxgalter sertifikati mavjud bo'lgan hamda u ushbu Qonunning [21](#) va [22-moddalarida](#) nazarda tutilgan talablarga rioya etgan taqdirda, sertifikat unga malaka imtihonini topshirmagan holda dastlabki besh yillik muddatga beriladi va belgilangan davriylik bilan uzaytiriladi.

20-modda. Malaka imtihoni

Sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun talabgorlarning bilimlarini malaka komissiyasi tomonidan tekshirish tartib-taomili malaka imtihonidir.

Malaka imtihonini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Auditorda kamida o'n yillik uzlksiz auditorlik ish stoji mavjud bo'lgan va u ushbu Qonun 22-moddasining [ikkinci qismida](#) belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda, sertifikatning amal qilish muddati malaka imtihoni topshirilmagan holda uzaytiriladi.

Malaka imtihonidan o'ta olmagan talabgor, malaka imtihonini qayta topshirish uchun malaka imtihonida ishtirok etgan sanadan e'tiboran kamida bir oydan so'ng hujjatlarni taqdim etishga haqli.

21-modda. Sertifikat olish uchun talabgorga qo'yiladigan malaka talablari

Sertifikat olish uchun talabgor oliy ma'lumotga hamda oliy ta'limgan tashkilotini tamomlaganidan keyin oxirgi o'n yildan kamida uch yil buxgalteriya hisobi va audit sohasida yoki oliy ta'limgan tashkilotida «Buxgalteriya hisobi» yoxud «Audit» fanidan dars berish sohasida ish stajiga (shu jumladan o'rindoshlik asosida) ega bo'lishi kerak.

«Buxgalteriya hisobi» va «audit» ixtisosliklari bo'yicha magistr diplomiga ega bo'lgan talabgor uchun auditorlik tashkilotida kamida bir yillik ish staji (shu jumladan o'rindoshlik asosida) talab qilinadi.

Talabgorning iqtisodiy ixtisosliklar bo'yicha ilmiy darajasi mavjud bo'lgan taqdirda, buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi ish staji talab etilmaydi.

22-modda. Sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar

Talabgor dastlabki besh yillik muddatga sertifikat olish uchun vakolatli davlat organiga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

pasportining ko'chirma nusxasini;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomning yoki ilmiy daraja to'g'risidagi hujjatning yoxud chet davlatda olingan oliy ma'lumot yoki ilmiy daraja to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi tegishli vakolatli davlat organi guvohnomasining ko'chirma nusxasini;

belgilangan davriylik bilan malaka oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda, xalqaro buxgalter sertifikatinining ko'chirma nusxasini (mavjud bo'lgan taqdirda);

mehnat daftarchasining ko'chirma nusxasini (o'rindoshlik asosida ish staji mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda mehnat daftarchasiga yozuv kiritilgan holda, shuningdek xorijidagi ish stajini tasdiqlovchi hujjatni) yoki «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan ko'chirmani;

arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatining ko'chirma nusxasini.

Auditor sertifikatinining amal qilish muddatini uzaytirish uchun uning dastlabki besh yillik muddati yoki navbatdagi o'n yillik muddati tugashidan uch oy oldin, biroq sertifikatning amal qilish muddati tugashidan ko'pi bilan olti oy oldin vakolatli davlat organiga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

sertifikatning asl nusxasini;

belgilangan davriylik bilan malaka oshirganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilgan holda, xalqaro buxgalter sertifikatinining ko'chirma nusxasini (mavjud bo'lgan taqdirda);

mehnat daftarchasining ko'chirma nusxasini yoki «Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan ko'chirmani;

arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatining ko'chirma nusxasini.

Ushbu moddaning [birinchi](#) va [ikkinci qismlarida](#) belgilangan hujjatlar yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

23-modda. Talabgorning hujjatlarini ko'rib chiqish tartibi va muddatları

Vakolatli davlat organi sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun ariza kelib tushgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida talabgorga malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish haqida yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Talabgorning malaka imtihonini topshirmagan holda sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun arizasini ko'rib chiqish ushbu moddaning [birinchi qismida](#) ko'rsatilgan muddatda amalga oshiriladi. Talabgorlarga malaka imtihonini topshirmagan holda sertifikat berishni yoki sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirishni rad etish mazkur Qonunning [24-moddasida](#) nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida yig'im to'lanadi.

Malaka imtihonini topshirishiga ruxsat berilgan, shuningdek xalqaro buxgalter sertifikatiga yoki kamida o'n yillik uzlucksiz auditorlik ish stajiga ega bo'lgan talabgorlar ro'yxati vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va uning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Malaka imtihoni topshirishiga ruxsat berilgan talabgorlar malaka imtihoni o'tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida imtihon o'tkaziladigan kundan kamida o'n ish kuni oldin yozma yoki elektron shaklda xabardor qilinadi.

Xalqaro buxgalter sertifikatiga yoki kamida o'n yillik uzuksiz auditorlik ish stajiga ega bo'lgan talabgorlarga vakolatli davlat organining taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishi natijalari to'g'risida xabarnomalar yuboriladi.

Sertifikatning amal qilish muddati uzaytirilganda ariza taqdim etilgan sanadan to sertifikatning amal qilish muddati tugaydigan sanagacha bo'lgan vaqt davri auditor sifatidagi uzuksiz ish stajiga qo'shiladi.

Auditor sifatidagi uzuksiz ish stajini aniqlash chog'ida auditor lavozimiga tayinlashlar oralig'idagi bir oydan ko'p bo'lman vaqt davri uzilish deb qaralmaydi.

Agar talabgor malaka imtihonini topshirishga ikki marta kelmagan bo'lsa, taqdim etilgan hujjatlar qaytariladi. Bunda sertifikat olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish uchun arizani ko'rib chiqish uchun to'langan yig'im qaytarilmaydi.

24-modda. Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berishni rad etish

Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish rad etilgan taqdirda, vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida talabgorni rad etish asoslarini ko'rsatgan holda uch ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi.

Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

talabgorning ushbu Qonun [21-moddasida](#) belgilangan malaka talablariga muvofiq emasligi;
ushbu Qonunning [22-moddasida](#) nazarda tutilgan hujjatlar to'liq hajmda taqdim etilmaganligi.

Malaka imtihonini topshirishga ruxsat berish rad etilgan talabgor kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin ariza bilan takroran murojaat qilishga haqli. Kamchiliklar o'n besh ish kuni ichida bartaraf etilganda arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi.

25-modda. Sertifikatni rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish, uning dublikatini berish

Sertifikat vakolatli davlat organi tomonidan malaka komissiyasining bayonnomalari olinganidan keyin o'n kunlik muddatda rasmiylashtiriladi va O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik kuchga ega bo'ladi.

Auditorning familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgargan taqdirda, u tegishli o'zgartishlarni tasdiqlovchi hujjatlar berilgan sanadan e'tiboran bir oylik muddatda vakolatli davlat organiga sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Sertifikatni qayta rasmiylashtirish auditor qayta rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan sertifikatning asl nusxasini va tegishli o'zgartishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bergen kundan e'tiboran besh ish kuni ichida amalga oshiriladi. Qayta rasmiylashtirish chog'ida avval berilgan raqam va ilgari belgilangan amal qilish muddati ko'rsatilgan sertifikatning yangi blankasi beriladi. Ilgari berilgan sertifikat blankasi yo'q qilinadi.

Yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan sertifikat o'rniga auditorning sertifikatning dublikatini berish to'g'risidagi arizasiga asosan uning dublikati beriladi. Sertifikat yo'qolganligi to'g'risidagi axborot vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Sertifikatning dublikati aynan o'sha raqamda va ilgari belgilangan amal qilish muddatiga, sertifikatning yangi blankasida «Dublikat» degan yozuv albatta kiritilgan holda beriladi.

Yaroqsiz holga kelgan sertifikat vakolatli davlat organiga qaytarilishi va yo'q qilinishi lozim.

Sertifikatni qayta rasmiylashtirish yoki uning dublikatini berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida yig'im undiriladi.

26-modda. Sertifikatning amal qilishini tugatish

Sertifikatning amal qilishi uning amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran tugatiladi.

Sertifikatning amal qilishini tugatish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

auditorning sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi arizasi;
uch yil davomida auditorlik faoliyatida ishtirok etmaganlik;

sertifikat rasmiylashtirilgan sanadan e'tiboran olti oy davomida auditorning sertifikatni olish uchun kelmaganligi;

vakolatli davlat organining sertifikat berish to'g'risidagi qarori qonunga xilof ekanligi fakti aniqlanganligi;

sertifikat qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganligi;

sudning muayyan huquqdan mahrum qilish tarzidagi jazoni nazarda tutuvchi qonuniy kuchga kirgan hukmi;

sudning sertifikat egasini belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi qarori;

auditorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida ushbu Qonun talablarini muntazam ravishda (ikki martadan ko'p) yoki bir marta qo'pol tarzda buzganlik.

Quyidagilar ushbu Qonun talablarini bir marta qo'pol tarzda buzish deb e'tirof etiladi:

auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'ida ushbu Qonunning [34-moddasida](#) nazarda tutilgan cheklowlarni buzganlik;

bila turib soxta auditorlik xulosasini tuzganlik;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'ida olingen maxfiy axborotni auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining ruxsatisiz oshkor qilganlik, bundan qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollar mustasno;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'ida aniqlangan, buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha belgilangan talablarning xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buzilishi faktlarining auditor tomonidan yashirilganligi;

sertifikatni boshqa shaxsga uning auditorlik faoliyatida o'z nomidan ishtirok etishi uchun ushbu hujjatdan foydalanishi maqsadida bergenlik fakti aniqlanganligi;

auditorning nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshiriqlariga ko'ra har xil tekshiruvlarni o'tkazish uchun auditorlik tashkiloti va mazkur organlar o'rtasida shartnomaga tuzilmagan holda mutaxassis sifatida ishtirok etganligi;

auditor bir vaqting o'zida bittadan ortiq auditorlik tashkilotining xodimi yoki muassisi (ishtirokchisi) ekanligi fakti aniqlanganligi;

auditorning har yilgi malaka oshirish kurslaridan o'tmaganligi.

Ushbu modda ikkinchi qismining [to'qqizinchi xatboshisida](#) nazarda tutilgan asoslar bo'yicha o'z sertifikatining amal qilishi tugatilan auditor sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch yil davomida sertifikat olish haqidagi ariza bilan takroran murojaat qilishga haqli emas.

Auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarishga sabab bo'lgan qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan auditorlik tashkiloti rahbari va auditor sertifikatlarining amal qilishi auditorlik tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilgan sanadan e'tiboran tugatiladi.

Vakolatli davlat organining sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror auditorga yoki ushbu auditor ishlayotgan auditorlik tashkilotiga besh kunlik muddatda yuboriladi.

Sertifikatning amal qilishi tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim.

Sertifikatning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror auditor tomonidan olingen kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida sertifikat vakolatli davlat organiga yo'q qilish uchun qaytarilishi lozim.

4-bob. Auditorlik tashkiloti. Auditorlik tashkilotining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi

27-modda. Auditorlik tashkiloti

Auditorlik tashkiloti o'zi haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sanadan e'tiboran auditorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

Auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

Auditorlik tashkiloti vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Auditorlik tashkilotlariga tadbirkorlik faoliyatining ushbu Qonun [32](#) va [33-moddalarida](#) nazarda tutilgan turlaridan tashqari boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish taqiqlanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarning mansabdar shaxslari, shuningdek qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin emas.

Auditorlik tashkiloti, basharti quyidagi majburiy sharflarga riosa etsa, qonunchilikda nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda, bundan aksiyadorlik jamiyati mustasno, tashkil etilishi va o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin:

auditorlik tashkiloti o'zi uchun asosiy ish joyi bo'lган auditorlarning eng kam soni shtatdagi kamida to'rt nafar auditordan iborat bo'ladi;

auditorlik tashkilotining ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalanadigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantiriladi;

ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) auditorlarga (auditorga) tegishli bo'lган ulush kamida ellik bir foizni tashkil etishi kerak (bundan auditorlik tashkiloti — chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki sho'ba xo'jalik jamiyati tashkil etilgan hollar mustasno);

auditorlik tashkilotiga faqat o'zi uchun mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi bo'lган auditor rahbar bo'lishi kerak.

Auditorlik tashkiloti boshqa auditorlik tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi mumkin emas.

Ushbu moddaning oltinchi qismi talablariga muvofiq bo'lмаган taqdirda auditorlik tashkiloti nomuvofiqlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran besh kun muddatda vakolatli davlat organini bu haqda yozma yoki elektron shaklda xabardor qiladi va yuzaga kelgan nomuvofiqlikni ko'rsatib o'tilgan sanadan e'tiboran uch oydan ko'p bo'lмаган muddatda bartaraf etishi yoxud auditorlik faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi shart. Ushbu moddaning oltinchi qismi talablariga nomuvofiqlik bartaraf etilguniga qadar auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvlari o'tkazish taqiqlanadi.

Auditorlik tashkilotining filiali tashkil etilganda filial rahbari auditor bo'lishi kerak.

Auditorlik tashkilotining firma nomida «auditorlik tashkiloti» degan so'z birikmasi bo'lishi va bu nom boshqa auditorlik tashkilotlarining firma nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xhash bo'lган belgilarni o'z ichiga olmasligi kerak.

O'zi haqidagi ma'lumotlar Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reyestriga kiritilgan sanadan e'tiboran uch oy davomida u to'g'risidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilmagan tijorat tashkiloti o'z nomida «auditorlik tashkiloti» degan so'z birikmasidan foydalanishga haqli emas.

Auditorlik tashkiloti Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilgan taqdirda, auditorlik faoliyatini amalga oshirishga va firma nomida «auditorlik tashkiloti» degan so'z birikmasidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

28-modda. Auditorlik tashkilotining huquqlari

Auditorlik tashkiloti:

auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqishni amalga oshirishga;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil tarzda belgilashga;

auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq hujjatlarini to'liq hajmda olishga, shuningdek ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarining amalagi holatini tekshirishga;

xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan e'lon qilingan auditorlik tashkiloti tanlovlariada ishtirok etishga, shuningdek tanlov shartlari bilan tanishib chiqish va o'z takliflarini taqdim etishga;

xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruva vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslaridan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan, audit qo'mitasidan auditorlik tekshiruvi jarayonida yuzaga kelgan masalalar yuzasidan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lган qo'shimcha ma'lumotlar olishga;

uchinchi shaxslardan axborotning yozma tasdiqnomalarini olishga;

auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lган axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishni rad etishga;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etish uchun boshqa mutaxassislarini ekspert sifatida jalb etishga;

auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga turdosh xizmatlar ko'rsatishga, bundan buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish, taftish komissiyasi (taftishchi) vazifalarini, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish mustasno;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashishga haqli.

Auditorlik tashkiloti qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

29-modda. Auditorlik tashkilotining majburiyatları

Auditorlik tashkiloti:

ushbu Qonun, auditorlik faoliyatining standartlari va Professional buxgalterning odob-axloqi kodeksi talablariga rioya etishi;

jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

auditorlarga (auditorga) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) tegishli ulush kamida ellik bir foiz bo'lishini ta'minlashi (bundan auditorlik tashkilotini — chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki sho'ba xo'jalik jamiyatini tashkil etish hollari mustasno);

shtatida asosiy ish joyi auditorlik tashkiloti bo'lgan kamida to'rt nafar auditor mavjud bo'lishini ta'minlashi;

auditorlarning yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlashi;

auditorlik faoliyatini faqat auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida mustaqillikni ta'minlashi;

auditorlik xizmatlari buyurtmachisining talabiga ko'ra auditor (auditorlar) sertifikatini, auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisini ko'rsatishi;

auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir auditning xalqaro standartlari talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlariga asos bo'lgan qonunchilik hujjatlari normalari haqidagi axborotni xo'jalik yurituvchi subyektning so'roviga binoan taqdim etishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida olingen axborotning maxfiyligini ta'minlashi;

auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi va auditorlik xulosalarining nuxxalarini auditorlik tashkilotida kamida besh yil saqlashi;

o'tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari to'g'risidagi axborotni xo'jalik yurituvchi subyektning identifikasiya ma'lumotlarini va auditorlik xulosasini ko'rsatgan holda o'z rasmiy veb-saytlariga yoki auditorlar respublika jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirishi;

auditorlik tashkilotlari renkingini o'tkazish uchun axborot taqdim etishi;

buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikning aniqlangan buzilishlari to'g'risida yoki korrupsiyaga oid huququzarliklarni aniq tasdiqlovchi faktlar haqida xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyatini va korporativ boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni, audit qo'mitasini yozma shaklda xabardor qilishi;

auditorlar ishi sifatining ichki nazorat tizimini o'rnatishi va unga rioya etishi;

auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazishga monelik qilmasligi;

o'z pochta manzili va elektron manzili o'zgarganligi to'g'risida, auditorlik tashkilotining rahbari al mashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o'zgarganligi haqida vakolatli davlat organini besh kunlik muddatda yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi;

har yili 20 yanvarga qadar auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga yozma yoki elektron shaklda taqdim etishi shart.

Auditorlik tashkilotining zimmasida qonunchilikka va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

30-modda. Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi buyurtmachilar, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida ularga moliyaviy hisobotlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risidagi noto'g'ri yakunni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun auditorlik tashkiloti rahbari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Ma'lumotlari Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilmagan tashkilot tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tkazganlik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

5-bob. Auditorlik tashkiloti tomonidan xizmatlar ko'rsatish

31-modda. Auditorlik xizmatlarining turlari

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlari turidagi auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi.

Auditorlik xizmatlari auditorlik tashkiloti va auditorlik xizmatlari buyurtmachisi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ko'rsatiladi.

32-modda. Auditorlik tekshiruvi

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog'liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvi tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotning ishonchligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.

Ishonchlilik deganda moliyaviy hisobot ma'lumotlarining aniqlik darajasi tushunilib, u ushbu hisobot asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli va moliyaviy-xo'jalik faoliyatni natijalari to'g'risida xolis xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Auditorlik tekshiruvi ushbu Qonunning [34-moddasida](#) nazarda tutilgan cheklov larga rioya etish sharti bilan majburliy tarzda va tashabbus shaklida o'tkaziladi.

Auditorlik tekshiruvini davlat sirlaridan va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalangan holda o'tkazish faqat ularni himoya qilish choralar ko'rildiganidan keyin qonunchilikka muvofiq amalgalash oshiriladi.

Ushbu Qonun talablaridan farq qiladigan tartibda amalga oshiriladigan tekshiruv auditorlik tekshiruvi bo'lmaydi.

33-modda. Auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari

Auditorlik tashkilotlari quyidagi turdosh xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish;

yuridik shaxsnинг taftish komissiyasi (taftishchisi), investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirish;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;

auditorlik tashkilotining shtatida soliq maslahatchisi mavjud bo'lganda yoxud shartnoma shartlari asosida uni jalb etgan holda, soliqqa oid qonunchilikni qo'llash, soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblar, deklaratsiyalar tuzish yuzasidan maslahatlar berish;

moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalshtirish, shu jumladan biznes-rejalar tayyorlash, iqtisodiy, moliyaviy maslahat va boshqaruvga oid maslahat berish;

buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy hisobot, soliq solish, moliya-xo'jalik faoliyatini hamda moliyaviy rejalshtirishni tahlil qilishga doir seminarlar, konferensiylar o'tkazish;

buxgalteriya hisobini yuritishni avtomatlashtirish va moliyaviy hisobot tuzish, moliyaviy axborotning axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyati standartlarida nazarda tutilgan boshqa turdosh xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin.

6-bob. Auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish

34-modda. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklovlar

Auditorlik tashkilotlariga quyidagilarga nisbatan auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqlanadi:

mazkur auditorlik tashkilotining kreditorlari, sug'urtalovchilar bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan, shuningdek ushbu auditorlik tashkilotlari va auditorlar o'zining muassisllari, ishtiroychilar, aksiyadorlari bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan;

muassisasi, ishtiroychisi, aksiyadori yoki rahbarlik vazifalarini yoxud buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxsi, audit qo'mitasi a'zosi bir vaqtning o'zida mazkur auditorlik tashkilotining xodimi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan;

auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olinadigan davrda mazkur xo'jalik yurituvchi subyektga ushbu Qonun 33-moddasida birinchi qismining [ikkinci](#) va [uchinchi xatbosilarida](#) nazarda tutilgan turdosh xizmatlarni ko'rsatganlarga;

xodimlari muassisning, ishtirokchining yaqin qarindoshlari yoki rahbarlik vazifalarini yoxud buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalgalash uchun shaxsning tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt audit qo'mitasi a'zosining yaqin qarindoshlari bo'lgan;

auditorlik tashkilotining yoki auditorning manfaatdorligi moliyaviy hisobot va u bilan bog'liq moliyaviy axborot to'g'risida fikr bildirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda.

Auditorlik tashkiloti ketma-ket yetti yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emas.

35-modda. Majburiy auditorlik tekshiruvi

Quyidagi tashkilotlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim:

aksiyadorlik jamiyatlari;

banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

sug'urta tashkilotlari;

investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari;

manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo'lgan xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalar;

fond va tovar birjalar;

hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa.

Quyidagi shartlarga muvofiq bo'lган auditorlik tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tashkilotlarning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishiga yo'l qo'yiladi:

shtatida kamida ketma-ket uch yillik uzlusiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditorning mavjudligi;

auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalariga ko'ra, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi hollari mavjud emasligi.

Banklarning auditorlik tekshiruvi shtatida banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditor mavjud bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarini sifatida ish yuritadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin o'n besh kun ichida, biroq hisobot yildan keyingi yilning 15 iyunidan kechiktirmay, soliq organlariga auditorlik xulosasining ko'chirma nusxasini taqdim etadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini qonunga muvofiq o'tkazishdan bo'yin tov lash xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yildan keyingi yilning 15 iyunigacha o'tkazmaslik va auditorlik xulosasining yo'qligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tov lash deb e'tirof etiladi.

Soliq organlari tomonidan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmaslik xo'jalik yurituvchi subyektdan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi summada jarima undirishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashdan bosh tortgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi masala iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jarimani to'lash xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan ozod qilmaydi.

36-modda. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi

Yuridik shaxs, uning mulkdori, ustav fondida (ustav kapitalida) kamida 10 foiz miqdoridagi ulushga ega bo'lgan ishtirokchilar va aksiyadorlar, shuningdek nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachilar bo'lshi mumkin.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshirushi auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosida o'tkaziladi hamda mazkur shartnomaga asosida haq to'lanadi. Bunda nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ayni bir auditorlik tashkilotini ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini ayni o'sha asoslarga ko'ra tekshirishga takroran jalg etishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan shaxs yoki organ hisobidan amalga oshiriladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazish predmeti, muddatlari hamda boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi va auditorlik tashkiloti o'rtaida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

37-modda. Xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvini o'tkazish chog'idagi huquq va majburiyatlar

O'ziga nisbatan auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik tashkilotidan:

auditorlik xulosasini;

auditorlik xulosasida ifodalangan fikr yuzasidan tushuntirishlarni va auditorlik tashkilotining fikriga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi axborotni;

buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobot tuzish hamda aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni to'g'rilash tartibi haqida maslahatlar olishga haqlidir.

O'ziga nisbatan auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt:

auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorga shart-sharoitlarni yaratib berishi va unga zarur hujjatlarni taqdim etishi;

auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarga rioya etishi;

auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan qoidabuzarliklar to'g'risidagi axborotni ko'rib chiqishi va mazkur axborot olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay auditorlik tashkilotini natijalar haqida yozma shaklda xabardor qilishi;

auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritishga, moliyaviy hisobot tuzishga hamda soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish tartibiga doir qoidabuzarliklarni bartaraf etishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiriladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish yoki unga to'sqinlik qilish maqsadida biron-bir harakatni (harakatsizlikni) sodir etishga haqli emas.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qonunchilikka hamda auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

38-modda. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining huquq va majburiyatlar

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi:

auditorlik tashkilotini mustaqil ravishda tanlashga;

tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining yo'nalishi va hajmini belgilashga;

auditorning mulohazalari asoslanilgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi zarur axborotni auditorlik tashkilotidan olishga;

auditorlik xulosasini olishga haqli.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi:

auditorlik tekshiruvini auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda o'tkazish uchun auditorga tegishli shart-sharoitlar yaratishi;

auditorga zarur hujjatlarni taqdim etishi;

auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq auditorlik tashkiloti xizmatlari haqini o'z vaqtida to'lashi shart.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi qonunchilikka va auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi hamda uning zimmasida boshqa majburiyatlar bo'lishi mumkin.

39-modda. Auditorlik xulosasi

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan fikrini o'z ichiga olgan hujjat auditorlik xulosasidir.

Auditorlik xulosasi raqamlangan, har bir sahifasi auditorlik tekshiruvini amalgga oshirgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan hamda unga auditorlik tashkilotining fikri qaysi moliyaviy hisobotga nisbatan ifodalangan bo'lsha, o'sha moliyaviy hisobot ilova qilingan bo'lshi kerak.

Auditorlik xulosasining shakli va mazmuni auditorlik faoliyati standartlari bilan belgilanadi.

40-modda. Bila turib soxta tuzilgan auditorlik xulosasi

Auditorlik tekshiruvini o'tkazmasdan tuzilgan yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra tuzilgan, biroq xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvi jarayonida auditor (auditorlar) tomonidan olingen va o'rganilgan hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'limgan auditorlik xulosasi bila turib soxta tuzilgan deb hisoblanadi.

Auditorlik xulosasi sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga ko'ra, bila turib soxta tuzilgan deb topiladi.

Bila turib soxta auditorlik xulosasini tuzish auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarishga, auditorlik tashkiloti rahbari sertifikatining va auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditorlar sertifikatlarining amal qilishini tugatishga, shuningdek aybdor shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

7-bob. Auditorlik tashkilotlarining reyestrini va Auditorlar reyestrini yuritish

41-modda. Auditorlik tashkilotlarining reyestri

Vakolatli davlat organi Auditorlik tashkilotlarining reyestrini elektron shaklda yuritadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

auditorlik tashkilotining nomi va joylashgan yeri (pochta manzili);

auditorlik tashkilotining telefon raqami;

auditorlik tashkilotining elektron manzili va rasmiy veb-sayti (mavjud bo'lgan taqdirda);

auditorlik tashkilotining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

auditorlik tashkiloti rahbarining va auditorlarining familiyasi, ismi, otasining ismi, ular sertifikatlarining raqami hamda olingen sanasi;

auditorlik tashkiloti Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sana;

Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilish asoslari va sanasi.

Auditorlik tashkilotlarining reyestridagi mavjud axborot tanishib chiqish uchun ochiqdir.

42-modda. Auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritish

Belgilangan tartibda ro'yyatga olingen auditorlik tashkiloti ma'lumotlarni Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritish uchun vakolatli davlat organiga ma'lumotnomani va auditorlar mehnat daftarchalarining ko'chirma nuxalarini («Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan ko'chirmalarni) pochta orqali yoki elektron shaklda yuboradi. Ma'lumotnomada auditorlik tashkilotining nomi, pochta va elektron manzili, veb-sayti (mavjud bo'lgan taqdirda), telefon aloqa raqami, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatiladi.

Vakolatli davlat organi auditorlik tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqqanidan keyin besh ish kuni ichida auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritishni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi auditorlik tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi hollarda Auditorlik tashkilotlarining reyestriga kiritmaydi:

auditorlik tashkiloti tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganda;

auditorlik tashkiloti ushbu Qonunning [27-moddasasi](#) talablariga muvofiq bo'limganda.

43-modda. Auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarish

Auditorlik tashkiloti quyidagi hollarda Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqariladi:

auditorlik tashkiloti tugatilganda;

auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan boshqa faoliyat turlari amalga oshirilganda yoki faoliyat turi o'zgarganda;

ushbu Qonunning [34-moddasida](#) nazarda tutilgan auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi chekllovlar buzilganda;

bila turib soxta auditorlik xulosasi tuzilganda;

auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingen maxfiy axborot oshkor qilinganda;

auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditorlik tashkiloti javobgarligining sug'urta polisi mavjud bo'limganda;

auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati o'tkazilayotganda zarur hujjatlarni va axborotlarni vakolatli davlat organiga taqdim etmaganda.

Auditorlik tashkilotining Auditorlik tashkilotlari reyestridan chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, shuningdek vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi lozim.

44-modda. Auditorlar reyestri

Vakolatli davlat organi Auditorlar reyestrini yuritadi, unda quydagilar ko'rsatiladi:

auditorning familiyasi, ismi, otasining ismi;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

auditorning ish joyi;

sertifikatning raqami, berilgan sanasi;

sertifikat olgan shaxsning familiyasi, ismi va imzosi, shuningdek sertifikat olingan sana va uning amal qilish muddati;

auditorning har yilgi malaka oshirish kurslaridan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

xalqaro buxgalter sertifikatining (mavjud bo'lgan taqdirda) nomi va berilgan sanasi;

sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish, sertifikatning amal qilishini tugatish, uni qayta rasmiylashtirish va uning dublikatini berish to'g'risidagi ma'lumotlar.

Vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga Auditorlar reyestridagi tanishish uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlar joylashtiriladi, unda quydagilar ko'rsatiladi:

auditorning familiyasi, ismi, otasining ismi;

sertifikatning raqami, berilgan sanasi;

sertifikatning amal qilish muddati;

auditolarning malakasini oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar (yil yakunlariga ko'ra);

sertifikatning amal qilishini tugatish va uning dublikatini berish to'g'risidagi ma'lumotlar.

8-bob. Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati va auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati

45-modda. Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga binoan amalga oshiriladi va u auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'idiagi majburiy shartdir.

46-modda. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati vakolatli davlat organi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda amalga oshiradigan, auditorlik tashkilotlari tomonidan ushbu Qonun talablarini va auditorlik faoliyati standartlarini buzishlarni aniqlashga hamda kelgusida ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iboratdir.

Auditorlik tashkiloti auditorlarning respublika jamoat birlashmasi tomonidan tashqi sifat nazoratidan ixtiyoriy asosda o'tishi mumkin. Nazoratning mazkur turi ushbu Qonunga muvofiq vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan tashqi sifat nazoratini o'tkazishning o'rni bosmaydi.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati natijalariga ko'ra qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, vakolatli davlat organi auditorlik tashkilotiga nisbatan quydagi ta'sir choralarini qo'llashga haqli:

aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini auditorlik tashkilotining zimmasiga yuklaydigan va bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilaydigan bildirishnomalar chiqarish;

ushbu Qonun 43-moddasi birinchi qismining uchinchi, to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida nazarda tutilgan asoslargacha ko'ra sudga murojaat qilish;

ushbu Qonunning 29-moddasi talablarini muntazam ravishda (ikki martadan ortiq) buzganda auditorlik tashkilotini Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.

Auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan ko'rilgan choralar ko'rsatilgan holda vakolatli davlat organining va auditorlar respublika jamoat birlashmalarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

47-modda. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratini o'tkazish muddati va asoslari

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratini o'tkazish muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati tavakkalchilik-tahlili natijasi va auditorlik tashkiloti tomonidan ushbu Qonun talablarining buzilishlarini sodir etish tavakkalchiligi darajasini (bundan buyon matnda tavakkalchilik darjasini deb yuritiladi) baholash yakunlari bo'yicha o'tkaziladi.

Tavakkalchilik darjasini uch toifaga ajratiladi:

qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi yuqori bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi o'rtacha bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi past bo'lgan auditorlik tashkilotlari.

Tavakkalchilik darjasini tahlil qilish vakolatli davlat organi tomonidan har yili 1 fevralga qadar amalga oshiriladi, bundan auditorlik tashkiloti yoki auditorning harakatlari (harakatsizligi) ustidan jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan hollar mustasno.

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratini o'tkazishda auditorlik tashkilotining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Vakolatli davlat organida va auditorlarning respublika jamoat birlashmalarida mayjud bo'lgan ma'lumotlar, shuningdek auditorlik tashkilotining hamda auditorlarning ishchanlik obro'si to'g'risidagi axborot asosida quyidagi holatlar bo'yicha tavakkalchilik darjasining tahlili amalga oshiriladi:

auditorlik tashkiloti tomonidan ushbu Qonunning [27](#) va [29-moddalarini](#) talablariga rioxaya etilishi;

auditorlik tashkilotining ushbu Qonun talablarini buzadigan harakatlari (harakatsizligi) ustidan jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari mavjudligi;

auditorlik tashkilotining muassisalar (ishtirokchilar) tarkibida ilgari auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun faoliyati tugatilgan auditorlik tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lgan jismoniy shaxslarning mavjudligi;

auditorlik tashkiloti ishi sifatining avvalgi tashqi nazorati yakunlari bo'yicha past baho olganligi.

48-modda. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining asosiy ko'rsatkichlari va uni baholash

Auditorlik tashkiloti ishi sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

ichki nazoratning tizimi mavjudligi;

auditning xalqaro standartlariga, sifat nazoratiga, tahliliy tekshiruvlarga, turdosh xizmatlar ko'rsatishga doir topshiriqlarga va Professional buxgalterning odob-axloq kodeksiga rioxaya etilishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирг'ин qуrolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka rioxaya etilishi;

xalqaro auditorlik tashkilotlariga yoki assotsiatsiyalariga a'zolik;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish, turdosh xizmatlar ko'rsatish uslubiyotining mavjudligi;

ko'rsatilgan auditorlik xizmatlari natjalarining tegishli ravishda hujjatlashtirilishi;

auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun yetarli miqdordagi mehnat va vaqt resurslari;

axborotga ishlov berish uchun dasturiy mahsulotlarni va axborot texnologiyalarini qo'llash;

auditorlarning har yilgi malaka oshirish kurslaridan o'tish;

ushbu Qonun talablari buzilishlarining mavjud emasligi;

jismoniy yoki yuridik shaxslarning shikoyatlari, shuningdek auditorlik tashkilotining faoliyati to'g'risida asoslangan salbiy fikrlar mavjud emasligi, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida mavjud emasligi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalari

49-modda. Xalqaro hamkorlik

Vakolatli davlat organi qonunchilikka va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan auditorlik faoliyati sohasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi hamda axborot almashishni amalga oshiradi.

50-modda. Nizolarni hal etish

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

51-modda. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

52-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida»gi 222-II-sonli Qarorining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 yil, № 6-7, 105-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 4, 154-modda; 2007 yil, № 7, 323-modda, № 9, 416-modda; 2009 yil, № 9, 330-modda; 2010 yil, № 9, 335, 341-moddalar, № 12, 470-modda; 2011 yil, № 12/2, 364-modda; 2012 yil, № 4, 105-modda, № 12, 336-modda; 2013 yil, № 4, 98-modda; 2014 yil, № 12, 343-modda; 2018 yil, № 1, 1, 4-moddalar, № 7, 431-modda, № 10, 670, 677-moddalar; 2019 yil, № 7, 389-modda, № 8, 471-modda, № 11, 792-modda; 2020 yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 3, 203-modda) 1-ilovasiga quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

o'ttiz uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

o'ttiz to'rtinchи — oltmis ikkinchi xatboshilar tegishincha o'ttiz uchinchi — oltmis birinchi xatboshilar deb hisoblansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi 734-XII-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, № 1, 15-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida»gi 735-XII-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, № 1, 16-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 15 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 772-I-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 5, 124-modda) VI bo'limi;

4) O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 78-II-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, № 5-6, 149-modda);

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan «Yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida»gi 79-II-sonli Qarori (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil, № 5-6, 150-modda);

6) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida»gi 222-II-sonli Qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 yil, № 11-12, 222-modda) 2-ilovaning 3-bandи;

7) O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 447-II-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 yil, № 1, 8-modda) III bo'limi;

8) O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 4 aprelda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartib-taomillari turlari qisqartirilganligi hamda soddalashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-28-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 4, 154-modda) 1-moddasi;

9) O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 10 oktabrda qabul qilingan «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-59-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 10, 536-modda) 3-moddasi;

10) O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 17 sentabrdagi qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-110-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007 yil, № 9, 417-modda);

11) O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 sentabrdagi qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'RQ-216-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 yil, № 9, 330-modda) [3-moddasi](#);

12) O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-352-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, № 4, 98-modda) [3-moddasi](#);

13) O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'RQ-372-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014 yil, № 5, 130-modda) [2-moddasi](#);

14) O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 20 avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-391-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015 yil, № 8, 312-modda) [2-moddasi](#);

15) O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 18 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-429-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017 yil, № 4, 137-modda) [2-moddasi](#);

16) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvarda qabul qilingan «Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qирг'ин qуороли тарқатишни молиyalashtirishга qарши kurashish mexanizmlари takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-516-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 1, 5-modda) [2-moddasi](#);

17) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 3 dekabrda qabul qilingan «Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-586-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019 yil, № 12, 880-modda) [4-moddasi](#);

18) O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 22 yanvarda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-603-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2020 yil, № 1, 4-modda) [1-moddasi](#).

53-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

54-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

55-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2021 yil 25 fevral,

O'RQ-677-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI YANADA
RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda, xususan:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlardan o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralarini cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti.

Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rribosari — O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri J.A. Qo'chqorov auditorlik faoliyatini rivojlantirishning quydagi ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishni ta'minlasin:

auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjalarni takomillashtirish, shu jumladan xalqaro standartlar asosida, auditorlik xizmatlari sifatini oshirishga va ishbilarmonlar hamjamiyatining auditorlik tashkilotlari ishi natijalariga ishonchini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning ta'sirchan tizimini shakllantirish;

yoshlarni auditorlik kasbiga jalb etish, xususan professional jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan faol hamkorligini ta'minlash;

auditorlik tashkilotlarining xalqaro auditorlik tarmoqlariga jalb etilganlik darajasini oshirish, shu jumladan auditorlik tashkilotlarini, auditorlarni auditning xalqaro standartlarini qo'llash masalalarida faol uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish;

auditorlar respublika jamoat birlashmalarining xalqaro audit standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, ushbu standartlarni qo'llash sohasida jahonning ilg'or tajribasini ommalashtirish bo'yicha faoliyatini faollashtirish.

2. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (V. Pak), Adliya vazirligi (N. Jo'rayev), Iqtisodiyot vazirligi (M. Mirzayev), Davlat soliq qo'mitasi (B. Musayev), Toshkent moliya instituti (U. Azizov) va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari rahbarlari zimmasiga Chora-tadbirlar rejasining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

3. 2019-yilning 1-yanvaridan boshlab shunday tartib o'rnatisinki, unga muvofiq:

tijorat tashkiloti, agar u haqdagi axborot Tadbirkorlik subektlarining yagona davlat reyestriga kiritilgan sanadan boshlab uch oy davomida auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari reyestriga kiritilmagan bo'lsa, o'z nomida "auditorlik tashkiloti" so'zlaridan foydalanishga haqli emas;

auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya litsenziyatga barcha turdag'i auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beradi;

auditorlik tashkilotining ustav kapitali auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantiriladi;

auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorlarning eng kam soni kamida to'rt nafar shtatdagi auditordan iborat bo'ladi;

aynan bitta xo'jalik yurituvchi subektning auditorlik tekshiruvi ketma-ket yetti yildan ortiq bo'limgan muddatda o'tkaziladi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda har uch yilda kamida bir marta auditorlik tashkilotlari ishining sifati tashqi nazoratdan o'tkaziladi;

auditorlik tashkilotlari o'zlarining veb-saytlarida yoki auditorlar jamoat birlashmalarining veb-saytlarida o'tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari to'g'risidagi axborotni xo'jalik yurituvchi subektning identifikatsiya ma'lumotlarini va auditorlik xulosasini ko'rsatgan holda e'lon qiladi.

Faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari 2019-yilning 1-apreliqa qadar mazkur qarorda belgilangan shtatdagi auditorlarning eng kam soni to'liq to'ldirilishini ta'minlasin.

4. 2019-yil 1-yanvardan:

auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdoriga doir;

auditorlik tashkilotlari rahbarlarining attestatsiyadan o'tishi bo'yicha;

ustav kapitalida davlat aksiyalari (ulushlari) to'plami 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalarda tashqi auditni o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat ichidan tanlov asosida tanlash to'g'risidagi talablar bekor qilinsin.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Belgilansinki:

(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020-y., 07/20/4611/0209-son)

Oldingi tahrirga qarang.

a) 2020-yil 1-yanvardan hisobot yili yakuni bo'yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim:

(5-band "a" kichik bandining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020-y., 07/20/4611/0209-son)

Oldingi tahrirga qarang.

aktivlarning balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

(5-band "a" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PF-5894-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son)

Oldingi tahrirga qarang.

mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum bazaviy hisoblash miqdorining 200 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

(5-band "a" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PF-5894-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son)

xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lsa;

Oldingi tahrirga qarang.

b) O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga tegishli o'zgartirishlar kuchga kiradigan kundan boshlab auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi;

(5-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldag'i PQ-4611-soni qarori tahririda — Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2020-y., 07/20/4611/0209-son)

v) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining veb-saytida e'lon qilinadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi tarkibida to'rtta shtat birligidan iborat professional tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish bo'limi tashkil etilsin, shunga mos ravishda vazirlik markaziy apparati boshqaruv xodimlarining cheklangan soni oshirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2019-yilning 1-iyuliga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga buxgalterlar va auditorlar jamoat birlashmalarini Moliya vazirligida akkreditatsiyadan o'tkazish tartibini joriy etish va auditorlik faoliyatini litsenziyalashni bekor qilgan holda auditorlik tashkilotlarining akkreditatsiyadan o'tgan jamoat birlashmalariga majburiy a'zoligini belgilash bo'yicha takliflarni kirtsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va auditorlar respublika jamoat birlashmalarining quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari ma'qullansin:

auditor malaka sertifikatini dastlab besh yillik muddatga berish, navbatdagi muddatini o'n yilga uzaytirish va undan keyin muddatsiz davrga berish;

xalqaro buxgalter sertifikati mavjud bo'lganda auditor malaka sertifikatini berishni va amal qilish muddatini uzaytirishni, shuningdek, 10 yildan kam bo'lmagan uzlusiz auditor ish stoji mavjud bo'lganda auditor malaka sertifikatining amal qilishini muddatsiz davrga uzaytirishni malaka imtihonini topshirmsandan amalga oshirish;

"buxgalteriya hisobi" va "audit" mutaxassisliklari bo'yicha magistr diplomiga ega bo'lgan auditor malaka sertifikatini olishga talabgorlar uchun auditorlik tashkilotida bir yildan kam bo'lmagan amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik asosida) ega bo'lish talabini o'rnatish;

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi quyidagilarni ta'minlasin:

a) har yili 1-iyulga qadar majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tgan xo'jalik yurituvchi subektlar to'g'risida quyidagi axborotni o'z veb-saytida joylashtirish:

xo'jalik yurituvchi subektning identifikasiya ma'lumotlari (soliq to'lovchining nomi va identifikasiya raqami);

auditorlik tashkilotining identifikasiya ma'lumotlari (nomi, auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning sanasi va raqami);

auditorlik xulosasining nusxasi;

b) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subektlarga nisbatan o'z vaqtida choralar ko'rish;

v) quyidagilar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish:

majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi shart bo'lgan xo'jalik yurituvchi subektlar to'g'risida;

majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlagan xo'jalik yurituvchi subektlar va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy sanksiyalar to'g'risida.

9. Toshkent moliya instituti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi xalqaro amaliyotni o'rganish asosida:

2018/2019 o'quv yili davomida buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi o'quv rejalarini va dasturlarining bajarilishini kompleks tahlil va monitoring qilsin hamda ularni yanada takomillashtirish va o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish choralarini ko'rsin;

buxgalteriya hisobi va audit yo'naliшlari bo'yicha o'quv reja va dasturlariga xalqaro audit standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha fanlarni kirtsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

a) auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari reyestrini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslash orqali tadbirkorlik subektlari tomonidan o'z firma nomida "auditorlik

tashkiloti” so’z birikmasidan foydalanishning qonuniyligini o’rganish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilishini ta’minlasin;

b) O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birqalikda 2019-yilning 1-apreliga qadar muddatda auditorlik tashkilotlari hamda buxgalterlar va auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan o’zaro elektron hamkorlikka mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Audit” dasturiy majmuasini ishlab chiqishni ta’minlasin;

v) manfaatdor vazirlik va idoralar, auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birqalikda 2019-yilning 1-yanvariga qadar muddatda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga quyidagilar bo’yicha takliflar kiritsin:

O’zbekiston Respublikasi hududida qo’llash uchun xalqaro audit standartlarining o’z vaqtida tan olinishini ta’minlash maqsadida Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi bilan xalqaro audit standartlarini mahalliy amaliyotga implementatsiya qilish masalalari bo’yicha o’zaro hamkorlikni rivojlantirish;

auditorlik faoliyati to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish;

g) 2019-yilning 1-yanvarigacha faoliyat yuritayotgan va mazkur qaror talablariga javob beradigan auditorlik tashkilotlariga yangi namunadagi auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berishni ta’minlasin;

d) O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Davlat soliq qo’mitasi bilan birqalikda 2019-yilning 1-apreldidan keyin mazkur qaror talablariga javob bermaydigan auditorlik tashkilotlari litsenziyalarining amal qilishini belgilangan tartibda tugatish choralarini ko’rsin;

e) Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birqalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o’zgartish va qo’shimchalar to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o’rinbosari — moliya vaziri J.A. Qo’chqorov zimmasiga yuklansin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 19-sentabr,
PQ-3946-son

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.09.2018-y., 07/18/3946/1955-son; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-son; 25.02.2020-y., 07/20/4611/0209-son)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**AUDITORLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 19 sentabrdagi PQ-3946-son **qaroriga** muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur qaroring bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari — moliya vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh., 2019 yil 13 mart, 218-ton

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 martdagি 218-ton qaroriga

1-ILOVA

**Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi.

2. Auditorlik faoliyati faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya (keyingi o'rinnlarda litsenziya deb ataladi) mayjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining **17-moddasida** nazarda tutilgan professional xizmatlar ko'rsatish bundan mustasno.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o'rinnlarda litseziyalovchi organ deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Litsenziya auditorlik tashkilotining arizasiga ko'ra beriladi.

Litsenziyani olish yoki qayta rasmiylashtirish uchun arizada auditorlik tashkilotining elektron manzili ko'rsatilishi mumkin. Litsenziyani olish yoki qayta rasmiylashtirish uchun arizada auditorlik tashkilotining elektron manzili ko'rsatilganligi uning litsenziyani olish yoki qayta rasmiylashtirish uchun arizasi bo'yicha qabil qilingan qaror haqida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabarnoma olishga roziligi hisoblanadi.

Hujjatlar auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar auditorlik tashkilotining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

3. Litsenziyalovchi organning litsenziyani berish, berishni rad etish, litsenziyaning amal qilishini tugatish, o'n ish kunidan ortiq bo'limgan muddatga to'xtatib turish yoki tiklash, shuningdek, uni bekor qilish to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani berish, berishni rad etish, litsenziyaning amal qilishini tugatish, o'n ish kunidan ortiq bo'limgan muddatga to'xtatib turish yoki tiklash, shuningdek, uni bekor qilish to'g'risidagi qarori auditorlik tashkilotiga yozma yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda, qaror qabil qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida yetkaziladi.

2-bob. Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

4. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan auditorlik tashkiloti litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga mazkur Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq shaklda auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olishga arizani (keyingi o'rinnlarda litsenziya olish uchun ariza deb ataladi) mehnat daftarchalari (nusxasi olinib, asli qaytariladi) va asosiy ish joyi bo'yicha shtatdagi auditorlarning ushbu Nizomda nazarda tutilgan shtatdagi auditorlarning eng kam soniga to'g'ri keladigan miqdorda ishga qabil qilinganligi to'g'risidagi buyruqlarning ish joyidan tasdiqlangan nusxalarini ilova qilgan holda taqdim etadi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab uch oy mobaynida litsenziyalovchi organga litsenziya olish uchun ariza taqdim etmagan tijorat tashkiloti o‘z nomida «auditorlik tashkiloti» so‘zlaridan foydalanishga haqli emas.

Auditorlik tashkilotidan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya berish uchun boshqa vakolatlari organlarda mavjud bo‘lgan zarur hujjatlar va axborotlarni belgilangan tartibda o‘zaro axborot hamkorligi yo‘li bilan, shu jumladan elektron tarzda mustaqil ravishda oladi, ushbu bandda nazarda utilgan hujjatlar va axborotlar bundan mustasno.

Litsenziyalovchi organ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan bиргаликда litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlari reyestri ma‘lumotlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan auditorlik tashkilotlari to‘g‘risidagi axborot bilan taqqoslashni har chorakda amalga oshiradi.

3-bob. Litsenziya olish uchun arizani ko‘rib chiqish tartibi

5. Litsenziya olish uchun ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Auditorlik tashkilotining hujjatlarini ko‘rib chiqish va litsenziya berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish muddati litsenziya olish uchun ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kunni tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

6. Litsenziya olish uchun arizani litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqishi uchun bazaviy hisoblash miqdorining (litsenziyalovchi organga litsenziya olish uchun ariza taqdim etilgan kundagi) bir baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

(6-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 dekabrdagi 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son)

Litsenziya olish uchun arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga undiriladi.

Auditorlik tashkiloti litsenziya olish uchun bergen arizasini qaytarib olgan holatlarda yig‘im qaytarib berilmaydi.

4-bob. Litsenziya berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibi

7. Litsenziya uning amal qilishi cheklanmagan muddatga beriladi. Litsenziya mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda belgilangan namunadagi maxsus blankada rasmiylashtiriladi.

Litsenziyani berish mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

8. Litsenziyani berish to‘g‘risidagi xabarnomada davlat boji to‘lanadigan bank hisob raqamining rekvizitlari va davlat bojini to‘lash muddatlari ko‘rsatiladi.

Agar litsenziyalovchi organ litsenziya olish uchun arizani ko‘rib chiqish muddati davomida litsenziya berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilmasa, ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan so‘ng auditorlik tashkiloti litsenziyalovchi organni yozma ravishda xabardor qilgan holda auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda litsenziyalovchi organ auditorlik tashkilotining yozma xabarini olgandan keyin besh ish kuni mobaynida unga litsenziya berishi shart.

9. Auditorlik tashkiloti tomonidan davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va litsenziya bitimi imzolangandan so‘ng ikki kun muddatda litsenziya rasmiylashtiriladi va beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Litsenziya bergenlik uchun «Davlat boji to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

(9-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 16 iyundagi 384-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.06.2020 y., 09/20/384/0770-son)

Davlat boji O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga o‘tkaziladi.

10. Litsenziyaning asl nusxasi reyestrga imzo qo‘ydirgan holda auditorlik tashkiloti rahbariga yoxud auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan ishonchnoma asosida boshqa shaxsga beriladi. Litsenziya nusxasi litsenziyalovchi organda belgilangan tartibda saqlanadi.

11. Litsenziyani berish quyidagi sabablarga ko‘ra rad etilishi mumkin:

auditorlik tashkiloti tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda;

hujjatlarda ishonchsziz yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lganda; auditorlik tashkiloti litsenziya talablari va shartlariga muvofiq bo'lmaganda.

Boshqa sabablarga ko'ra, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi tufayli litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

12. Litsenziya berishni rad etishga asos bo'lgan sabablarni bartaraf etish uchun auditorlik tashkilotiga o'n besh kun muddat beriladi.

Hujjatlarni qayta ko'rib chiqish litsenziyalovchi organ tomonidan barcha zarur hujjatlar bilan birga litsenziya olish uchun ariza taqdim etilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida amalga oshiriladi. Litsenziya olish uchun arizaning qayta ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Litsenziya olish uchun arizani takroriy ko'rib chiqishda litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha uni berishning rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etish maqsadida berilgan muddat tugagandan so'ng litsenziya olish uchun taqdim etilgan ariza yangidan berilgan deb hisoblanadi.

5-bob. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish va dublikat berish tartibi

13. Auditorlik tashkiloti qayta o'zgartirilganda, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan holatlarda, auditorlik tashkiloti yoxud uning huquqiy vorisi, qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir oy muddatda litsenziyalovchi organga qayta rasmiylashtiriladigan litsenziyani va tegishli o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari qo'shib yuborilishi natijasida yangidan auditorlik tashkiloti vujudga kelgan taqdirda, litsenziyani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirishga yo'l qo'yiladi.

14. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish tegishli hujjatlar ilova qilingan holda ariza olingan kundan boshlab litsenziyalovchi organ tomonidan besh ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

15. Yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelib qolgan litsenziya o'rniغا, auditorlik tashkilotining arizasiga ko'ra dublikat beriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

16. Litsenziyaning qayta rasmiylashtirilganligi yoki dublikat berilganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida yig'im undiriladi.

(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 dekabrdagi 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son)

Yig'im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi.

17. Litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar auditorlik tashkiloti faoliyatini ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi. Mazkur Nizomning 13-bandи **birinchi xatboshi** talablari buzilgan holda auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiz faoliyat bilan shug'ullanganlik kabi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

6-bob. Auditorlik tashkilotiga nisbatan qo'yilladigan litsenziya talablari va shartlari

18. Quyidagilar auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioxaliga qilish;

ustav kapitalida auditorlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ulushiga ega bo'lishi;

ustav kapitalini auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantirish;

faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;

auditorlik tashkiloti mas'uliyatini sug'urta qilish polisiga ega bo'lish;

auditor tomonidan auditorlik faoliyatini faqat bitta auditorlik tashkilotida amalga oshirish;

shtatdagи auditorlar soni mazkur Nizomda nazarda tutilgan miqdorda bo'lishi;

auditorlik tekshiruvi o'tkazishda olingan axborotlarning sir saqlanishini ta'minlash;

auditorlik xizmatlari ko'rsatishda shartnomaga majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat ushbu auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorni tayinlash;

auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta'minlash;

auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq auditorlik hisobotini va auditorlik xulosasini tuzish;

auditorlik tashkilotlarida ichki standartlarning mavjud bo'lishi;

o‘z pochta manzili o‘zgargani to‘g‘risida litsenziyalovchi organni o‘n kun muddatda xabardor qilish;

auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir yilda bir marta, belgilangan shaklda litsenziyalovchi organga taqdim etish, shuningdek, litsenziyalovchi organning talabiga ko‘ra auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa axborotlarni taqdim qilish;

auditorlar ishi sifatining nazoratini ta‘minlash;

auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o‘tishini ta‘minlash;

auditorlik tashkiloti rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o‘zgarganligi to‘g‘risida litsenziyalovchi organni besh kun muddatda xabardor qilish;

auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklov larga rioya qilish;

o‘zining veb-saytida yoki Auditorlarning respublika jamoat birlashmasining veb-saytida o‘tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari haqidagi axborotni e‘lon qilish.

19. Mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan shtatdagi auditorlarning eng kam soni kamida to‘rt nafarni tashkil etadi.

Litsenziya olingandan so‘ng ushbu band talablariga to‘g‘ri kelmagan taqdirda auditorlik tashkiloti nomuvofiqlik yuzaga kelgan kundan boshlab besh kun davomida litsenziyalovchi organni bu haqda yozma ravishda yoki elektron aloqa vositalari orqali xabardor qiladi hamda ko‘rsatilgan sanadan boshlab uch oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda yuzaga kelgan nomuvofiqlikni bartaraf etishi, yoxud belgilangan tartibda o‘z faoliyatini tugatishi to‘g‘risida qaror qabul qilishi shart. Auditorlik tashkiloti tomonidan ushbu band talablariga ko‘ra nomuvofiqlik bartaraf etilgunga qadar auditorlik tekshiruvini o‘tkazish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni keltirib chiqaradi.

20. Auditorlik tashkilotining ustav kapitali auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalilaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag‘laridan shakllantiriladi.

7-bob. Auditorlik tashkiloti ishi sifatining nazorati

21. Litsenziyalovchi organ tomonidan Auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda har uch yilda kamida bir marta auditorlik tashkilotlari ishining sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazuvchi auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari litsenziyalovchi organning veb-saytida e‘lon qilinadi.

22. Litsenziyalovchi organ jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarining buzilishi faktlari to‘g‘risidagi murojaatlariga yoki auditorlik tashkiloti faoliyatini risk-tahsil natijalariga asosan auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini tekshirish tashabbusi bilan chiqishga haqlisi.

8-bob. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish, tiklash va litsenziyani bekor qilish tartibi

23. Auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazishda qonun hujjatlarini buzish yoki litsenziya talablari va shartlarining buzilganligi aniqlanganda, shuningdek, litsenziyalovchi organning aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkiloti tomonidan bajarilmagan taqdirda litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish mumkin.

Litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turishga yoxud o‘n ish kunidan ortiq muddatga to‘xtatib turish, yoki tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qilishga haqlidir.

Sudning litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Litsenziyalovchi organ yoki sud litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlarni bartaraf etish uchun auditorlik tashkilotiga muddat belgilaydi. Bunda litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlarni bartaraf etish uchun sud qarorida belgilangan muddat olti oydan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

24. Litsenziyaning amal qilishi to‘xtatib turilgan davrda auditorlik tashkiloti tomonidan faoliyatni amalga oshirish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi.

25. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar auditorlik tashkiloti tomonidan bartaraf etilganda litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qilgan litsenziyalovchi organ yoki sud ko‘rsatib o‘tilgan holatlarning bartaraf etilganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomasi.

olingen kundan boshlab uch kun muddatda litsenziyaning amal qilishini tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilishi shart.

26. Agar auditorlik tashkiloti ko‘rsatib o‘tilgan holatlarni belgilangan muddatda bartaraf etmagan bo‘lsa, litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qilishga haqqa.

27. Litsenziyaning amal qilishi quyidagi holatlarda ham tugatiladi:

auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

auditorlik tashkiloti tugatilganda;

auditorlik tashkilotining faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda, bundan u qayta o‘zgartirilgan, shuningdek, yangidan vujudga kelgan auditorlik tashkiloti davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasida qo‘shib yuborilayotgan auditorlik tashkilotlarida litsenziya mavjud bo‘lgan holatlar mustasno;

auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlari muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol tarzda buzilganda;

litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziyalovchi organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etilmaganda;

litsenziyalovchi organning litsenziya berish to‘g‘risidagi qarorining noqonuniyligi aniqlanganda.

Litsenziyaning amal qilishini ushbu bandning **beshinchi** — **yettinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan holatlarda tugatish sud qaroriga ko‘ra, boshqa holatlarda esa — litsenziyalovchi organning qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Sudning litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Litsenziya uning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror auditorlik tashkiloti tomonidan olingen kundan boshlab o‘n kun mobaynida litsenziyalovchi organga qaytariladi va yo‘q qilinadi.

Litsenziyaning amal qilishi uni tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab tugatiladi.

28. Litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo‘lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo‘pol ravishda buzishga quyidagilar kiradi:

auditorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish;

auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta‘minlamaslik;

qasddan soxta auditorlik xulosasini tuzish;

auditorlik tekshiruvini o‘tkazishda olingen maxfiy axborotni auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining ruxsatisiz oshkor qilish, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar mustasno;

auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklov larga rioya qilmaslik;

auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditorlik tashkiloti mas‘uliyatini sug‘urta qilish polisining mavjud emasligi.

29. Litsenziya quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

auditorlik tashkiloti litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olingenligi aniqlanganda;

agar auditorlik tashkiloti litsenziya berish haqidagi qaror qabul qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan boshlab uch oy davomida litsenziyalovchi organga davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan bo‘lsa, yoxud litsenziya bitimini imzolamagan bo‘lsa.

Ushbu bandning uchinchi xatboshida nazarda tutilgan holatlarda litsenziyani bekor qilish sud tartibida, boshqa holatlarda esa litsenziyalovchi organning qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

30. Sudning litsenziyani bekor qilish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Litsenziyaning bekor qilinishi to‘g‘risidagi qaror auditorlik tashkiloti tomonidan olingen kundan boshlab litsenziya o‘n kun davomida litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo‘q qilinishi kerak. Litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, litsenziya u berilgan sanadan e’tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

Litsenziya bekor qilingan taqdirda to‘langan davlat boji qaytarilmaydi.

31. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, qayta tiklash, tugatish, shuningdek, litsenziyani bekor qilish to‘g‘risidagi qarorlar ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

9-bob. Litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlari reyestrini yuritish

32. Litsenziyalovchi organ litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlari reyestrini yuritadi, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

auditorlik tashkilotining nomi va uning joylashgan joyi (pochta manzili);

aloqa telefoni raqami;

hisob-kitob raqami;

elektron manzili (veb-sayt);

soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulushlari to‘g‘risida axborot;

tashkilot rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi va uning auditor malaka sertifikati sanasi va raqami, shuningdek, ushbu tashkilotda ishlovchi auditorlarning malaka sertifikatlarining raqamlari va sanalari;

litsenziyaning berilgan sanasi va raqami;

litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish, tugatish, qayta tiklash asoslari va sanalari;

litsenziyalarni bekor qilish asoslari va sanalari;

litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish va dublikatlar berish asoslari va sanalari.

33. Litsenziyalar reyestrda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida, shuningdek, «Litsenziya» kompleks axborot tizimlarining elektron reyestrda joylashtiriladi.

Tijorat tashkiloti, agar u haqdagi axborot Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reyestriga kiritilgan sanadan boshlab uch oy davomida litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlari reyestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘z nomida «auditorlik tashkiloti» so‘zlaridan foydalanishga haqli emas.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

34. Litsenziyalovchi organning qarori, shuningdek, litsenziyalovchi organ mansabdar shaxsining harakati (harakatsizligi) yuzasidan auditorlik tashkiloti tomonidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

35. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomga

1-ILOVA

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya olish uchun ARIZA

1. Auditorlik tashkilotining nomi

2. Pochta manzili

aloqa bog‘lash
telefoni (kodi bilan)

3. Elektron manzili (veb-sayt)

4. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati:

4.1.

4.2.

va boshqalar.

Rahbarning imzosi

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA
NAMUNA

(O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri)
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun
LITSENZIYA

Seriya _____ № _____
20 ____ yil «____» _____

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining
20__ yil «__» _____ dagi __-son buyrug‘iga muvofiq _____
_____ (auditorlik tashkilotining nomi)

ga (auditorlik tashkilotining pochta manzili va STIR)

O‘zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Vakolatli shaxsnинг F.I.SH va imzosi
M.O‘.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 martdagи 218-son qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim
qarorlari**
RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida» 2000 yil 22 sentabrdagi 365-son qarorining (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2000 y., 9-son, 62-modda) **3** va **4-bandlari**, shuningdek qarorga **3-ilova**.

2. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnomalarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddallashtirish to‘g‘risida» 2005 yil 21 sentabrdagi PQ-186-son qarori)» 2006 yil 22 maydagi 92-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006 y., 5-son, 34-modda) ilovaning **8-band**.

3. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida («Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 10 oktabrdagi O‘RQ-59-son Qonuni)» 2006 yil 10 noyabrdagi 235-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006 y., 11-son, 86-modda) 1-ilova 29-bandining **«b»** va **«g»** **kichik bandlari**.

4. Vazirlar Mahkamasining «Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida» 2000 yil 22 sentabrdagi 365-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida» 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son qarori)» 2007 yil 17 maydagi 99-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2007 y., 5-son, 27-modda) ilovaning **3-band**.

5. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida» 2011 yil 7 sentabrdagi O‘RQ-292-son Qonuni)» 2012 yil 1 fevraldagi 26-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2012 y., 2-son, 5-modda) ilovaning **1-bandı**.

6. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2012 yil 16 iyuldag PF-4453-son Farmoni)» 2012 yil 1 noyabrdagi 313-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2012 y., 11-son, 79-modda) 1-ilovaning **22-bandı**.

7. Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida» 2014 yil 3 sentabrdagi 247-son **qarori** (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 36-son, 455-modda).

8. Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2014 yil 31 dekabrdagi 377-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 1-son, 9-modda) ilovaning **7-bandı**.

9. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida» 2013 yil 26 dekabrdagi O‘RQ-360-son hamda «Soliq va byudjet siyosatining 2016 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida» 2015 yil 31 dekabrdagi O‘RQ-398-son qonunlari)» 2016 yil 26 apreldagi 122-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2016 y., 4-son, 28-modda) 1-ilovaning **33-bandı**.

10. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 1 fevraldagi PQ-2750-son qarori)» 2017 yil 1 maydagi 252-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017 y., 5-son, 59-modda) 1-ilovaning **4-bandı**.

11. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 14 martdag PQ-2833-son qarori)» 2017 yil 20 dekabrdagi 1001-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017 y., 12-son, 292-modda) ilovaning **10-bandı**.

12. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 12 dekabrdagi PF-5278-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2017 yil 12 dekabrdagi PQ-3430-son qarori)» 2018 yil 22 yanvardagi 40-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018 y., 1-son, 19-modda) ilovaning **3-bandı**.

13. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida («O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 18 apreldagi O‘RQ-429-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatni sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 11 apreldagi PF-5409-son Farmoni)» 2018 yil 29 oktabrdagi 884-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018 yil, 10-son, 274-modda) ilovaning **1-bandı**.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2019 y., 09/19/218/3766-son; 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son; 16.06.2020 y., 09/20/384/0770-son)

Hozirgi kunda auditning xalqaro standartlari ro'yxati quyidagilardan iborat:

“Xalqaro audit standartlari va turdosh xizmatlarga izoh” - 100сон XAS

“Terminlar glossariysi” - 110сон XAS

“Xalqaro audit standartlarining kontseptual asoslari” - 100сон XAS

“Moliyaviy hisobotlar auditining maqsadi va uni tartibga soluvchi asosiy tamoyillar” - 200сон XAS

“Audit o'tkazish to'g'risidagi kelishuv xati” - 210сон XAS

“Audit sifatini nazorat qilish” - 220сон XAS

“Hujjatlashtirish” - 230сон XAS

“Aldash va xatо” - 240сон XAS

“Moliyaviy hisobot audit bo'yicha qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish” - 250сон XAS

“Auditni rejalashtirish” - 300сон XAS

“Biznesni bilish” - 310сон XAS

“Auditda muhimlik” - 320сон XAS

“Tavakkalchilikni va ichki nazorat tizimini baholash” - 400сон XAS

“Kompyuter axborot tizimi sharoitida audit” - 401сон XAS

“Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar xizmatlaridan foydalanuvchi sub'ektlar auditiga doir savollar” - 402сон XAS

“Auditorlik dalillar” - 500сон XAS

“Auditorlik dalillar – aniq moddalarga taalluqli qo'shimcha savollar” - 501сон XAS

“Dastlabki moliyaviy hisobot auditida boshlang'ich qoldiqlar bo'yicha auditorning ma'suliyati” - 510сон XAS

“Tahliliy amallar” - 520сон XAS

“Auditorlik tanlash va testlashning boshqa tanlash amallari” - 530сон XAS

“Hisob baholashlarning auditi” - 540сон XAS

“Manfaatdor tomonlar” - 550сон XAS

“Kelgusi davr moliyaviy ma'lumotlarini o'rganish” - 560сон XAS

“Uzluksiz faoliyat” - 570сон XAS

“Sub'yekt rahbariyatiga tushuntirish berish” - 580сон XAS

“Boshqa auditorlar ish natijalaridan foydalanish” - 600сон XAS

“Ichki audit xizmati ishini ko'rib chiqish” - 610сон XAS

“Ekspert xizmatidan foydalanish” - 620сон XAS

“Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi” - 700сон XAS

“Taqqoslanadigan ko'rsatkichlar” - 710сон XAS

“Tekshirilgan moliyaviy hisobotlarda boshqa axborotlar” - 720сон XAS

“Maxsus maqsaddagi audit shartnomasi bo'yicha auditorlik hisobot” - 800сон XAS

“Istiqlolli moliyaviy ma'lumotlarni tekshirish” - 810сон XAS

“Moliyaviy hisobotning sharhi bo'yicha kelishuv” - 910сон XAS

“Moliyaviy hisobotga taalluqli amallarni bajarish bo'yicha kelishuv” - 920сон XAS

“Moliyaviy ma'lumotlarning kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuv” - 930сон XAS

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

O'QUV QO'LLANMA